

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
“O`ZBEKISTON TARIXI”
KAFEDRASI

TARIXIY O`LKASHUNOSLIK »FANIDAN

Ma'ruza matnlari

Tuzuvchi : **kat. o`qit. N. Xudoyorov**

Bakalavriat yo`nalishi: 5220200-tarix(kunduzgi)
yo`nalishi 3-kurs talabalari uchun

ANDIJON – 2013

KIRISH

Bugungi o'z-o'zini anglab, mustaqilligimiz kun sayin mustahkamlanib borayotgan sharoitda ona yurtning xdr bir farzandi uchun Vatan tarixini sevish, o'rganish, diliga jo etishdan ham muqaddasroq burch bo'lmasa kerak.

Ushbu kitob aynan shu muloxdadan kelib chiqqan holda yaratilgan. Ota-bobolarimiz, ajdodlarimizning aql-zakovati, oltin qo'li ila IX — XII asrlardayoq kishi aqli bovar qila olmaydigan darajada nafis va nozik qilib ishlangan naqshlar qadimiy va navqiron Samarqand, Buxoro va Xiva devorlarida o'zini ko'z-ko'z qilib turibdi. O'sha davr uslubi bilan yuksak mahorat ko'rsatib qurilgan muhtasham binolar va bu binolardagi SHarq uslubiga xos o'ymakorlik naqshlari o'z taraqqiyotining cho'qqisiga ko'tarilganligidan guvohlik beradi. Bunday o'ymakorlik naqshlari bilan bir qatorda islmiy uslubda ishlangan naqshlar, ya'ni gul va novdalarning murakkab uslubdagi naqshlari va hozirgi kungacha yaxshi saqlanib kelayotgan tillada qorilib o'yilgan boshqa bezaklar ajdodlarimiz yuksak san'atining timsoli sifatida bugun ham hammani lol qoldirib turibdi. Qadimgi va o'rta asrlar me'morchilik obidalarini saqlash, o'rganish va muhofaza qilish hozirgi zamon yosh avlodni, mehnatkashlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, xalqlarning baynalmilal do'stligini mustahkamlashda katta rol' o'ynaydi. SHuning uchun ham o'tmish tarixiy va moddiy-madaniy yodgorliklarini o'rganish, muhofaza qilishning rolini oshirish mua.mmolarini hal qilishga katta ahamiyat berilmoqda.

Qo'llanmada o'zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti, ma'naviy, moddiy, tarixiy manbalarini «O'lkashunoslikda arxeologiyaning roli», «O'lkashunoslikda etnogra-fiyaning ahamiyati», «Toponimika — o'lka tarixini o'rganishning asosiy manbai», «O'lkashunoslikni o'rganishda arxivshunoslikning o'rni» va «O'lkashunoslikny o'rganishda muzey eksponatlari» deb nomlangan asosiy besh qism orqali o'rganishning usullari berilgan.

“Tarixiy o'lkashunoslik” o'quv qo'llanmasi hozirgi kunda o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan O'zbekiston xalqlarining qadimiy tarixini, uning jahon tarixiy taraqqiyotiga qo'shgan hissasini, o'z bag'ridan Muhammad va Ali Qushchi singari mashhur matematiklar, Ahmad Farg'oni va Ulug'bekdek falakiyot bilimdotrlari, Ibn Sino kabi tabiblar, Narshaxiy va Abulg'ozixon singari tarixchilar, al-Forobiydek faylasuflar, Zamaxshariy kabi lingvistlarni etishtirib, jahon taraqqiyotiga qo'shgan hissasini daliliy ashyolar vositasi bilan isbotlab beradi.

Mazkur qo'llanma yana shunisi bilan ahamiyatliki, unda tarixiy, ma'naviy yodgorliklar, arxeologik, antropologik, etnografik, etnik, toponimik materiallar o'z ifodasini topgan.

O'zbek xalqining tarixiy, madaniy va me'morchilik yodgorliklari jahon madaniy merosining tarkibiy qismi bo'lib, jahon taraqqiyotiga qo'shilgan g'oyat katta ulushdir. Mana shunday muhim, nodir, qimmatli ahamiyatga molik bo'lgan moddiy va ma'naviy yodgorliklarni xar tomonlama ilmiy va amaliy jihatdan o'rganadigan va tahlil qiladigan fan ham «Tarixiy o'lkashunoslik»dir.

Mazkur o'quv qo'llanmasi asosan quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

Tarixiy yodgorliklar. Bunga insoniyat hayotidagi eng muhim tarixiy voqealar, jamiyatning rivojlanish bosqichlari, inqilobiy harakat bo'lib o'tgan joylar, atoqli sarkardalar, yirik davlat, fan va madaniyat arboblarning nomlari bilan bog'liq voqea joylari, o'tmishdan qolgan qo'lyozma asarlari va shu kabilar kiradi.

Arxeologik yodgorliklari. Bunga ko'hna shaharlar, qo'rg'onlar, qal'alar, qadimiy manzilgohlar, istehkomlar, korxonalar, kanallar, shuningdek yo'llarning qoldiqlari, qadimiy dafn joylari, tosh haykallar, qoyalardagi tasvirlir VA boshqalar kiradi.

SHahar qurilishi va me'morchilik yodgorliklari. Bularga me'morchilik ansambllari va kokplekslari, tarixiy markayalar, kpartallar, maydonlar, ko'chalar, shaharlar va boshqa aholi yashaydigan joylarning qoldiqlari: fuqaro sanoat, harbiy, diniy, xalq me'morchiligi inshootlari kiradi.

San'at yodgorliklari. Bunga moiumental, tasviriy, amaliy-dekorativ va boshqa turdagi san'at asarlari kiradi.

YOdgorlik hujjatlari. Bunga markaziy va maxdliiy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlaridan qolgan turli hujjatlar, boshqa yozma va chizma hujjatlar, kino-foto hujjatlari va tovush yozuvlari, shuningdek, qadimiy qo'lyozmalar hamda arxiv materiallari, fol'klor va musiqa yozuvlari, nodir bosma nashrlar kiradi.

Etnografik va toponimik materiallar. Bunga xalq urf-odatlar, moddiy va ma'naviy madaniyat, xalqlarning ertak, fol'klor, mifologiyasi hamda joy nomlarining ilmiy jihatdan kelib chiqishini o'rganish kiradi.

Bular bilan bir qatorda tarixiy, ilmiy, badiiy qimmatga yoki boshqa xil madaniy qimmatga ega bo'lgan ob'ektlar hamda muzeyda saqlanadigan eksponatlar va ulardan o'quv, ta'lim-tarbiya ishlarida foydalanish uslublari, namunaviy dars rejalari o'z aksini topgan.

YUqoridagi manbalarni o'rganish va umumlashtirish ilmiy o'lkashunoslik tadqiqotchilari, jamoat o'lkashunosligi va havaskorlari uchun xam, u yoki bu voqealarga tavsif berish, turli tarixiy tushunchalarga aniqlik kiritish uchun ham ko'p zarur ma'lumot bo'lib xizmat qiladi.

Oliy o'quv yurtlari va maktabda o'qitilayotgan tarixiy o'lkashunoslik fani ma'lum ikki maqsadni: birinchidan, o'z o'lkasining o'tmishi va hozirgi hayoti tarixini xar tomonlama ilmiy asosda o'rganish yo'li bilan to'plangan arxeologik, etnografik, toponimik, nodir qo'lyozmalar, arxiv hujjatlarini saralash, tartibga solish va tahlil qilishni; ikkinchidan, to'plangan o'lka materiallaridan o'quv-tarbiyaviy ishlarda o'rinli va samarali foydalanib, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni ko'zda tutadi.

O'quv qo'llanmasini yozishda mumkin qadar mahalliy materiallardan, O'zbekiston Respublikasiga doir o'lkashunoslik hujjatlaridan, etuk tarixchi olimlarning asarlaridan, arxiv materiallaridan foydalanish masalalarini yoritishda O'zbekiston Markaziy Davlat Arxivi xodimlari tomonidan tayyorlangan kartoteka va ko'rsatkichlardan, muzey eksponentlarini yoritishda esa O'zbekiston tarixi muzeyi materiallaridan foydalanildi.

1-MAVZU: Tarixiy o'lkashunoslikning turlari va rivojlanish bosqichlari

Reja:

- 1. O'lkashunoslik turlari**
- 2. Tarixiy o'lkashunoslikning rivojlanishi**
- 3. O'rta Osiyo tarixini o'rganishda rus Sharqshunoslarining roli**
- 4. Rus sharqshunosligining mahalliy tarixchilikka ta'siri**
- 5. Tarixiy o'lkashunoslikning 1917 yildan keyingi ahvoli**
- 6. O'lkashunoslikning asosiy manbalari**

Vatan haqidagi teran fikrlar turkiy tasavvuf she'riyatining atoqli vakili xoja Ahmad YAssaviy xikmatlaridan birida quyidagicha talqin etiladi:

Boshim tuproq, o'zim tuproq, jismim tuproq,
Haq vasliga etarman deb ruhim mushtoq.

Binobarin, tuproq — inson tug'ilib o'sgan o'lka, makon, tuproq Vatan. Tuproq necha yuz yillardan buyon ne ne ulug' farzandlarini ardoqlab kelayotgan Zamin. SHuning uchun biz uni e'zozlab ona tuproq deymiz.

Demak, barcha ishlar o'z ona tuprog'ini, o'z ona o'lkasini qadrlashdan boshlanadi. Ona tuprog'ini, ona o'lkasini sevgan kishini el qadrlaydi, dunyo taniydi... O'z tarixini ona yurt — ona tuproqdan qidirgan insongina haqiqiy inson bo'la oladi.

Tarixga nazar tashlasak, o'z o'lkasini sevmagan va uning tuprog'ini ardoqlamagan biron ham zotni uchrata olmaymiz. SHuning uchun ham Vatanni sevmoq iymondandir, deymiz. Zotan, ona yurt farzandlari uchun Vatanni sevis, uning tarixini o'rganish, dilga jo etish muqaddas burchdir.

1. O'lkashunoslikning turlari

O'lkashunoslik uch turga bo'linadi: 1) ilmiy, ya'ni davlat o'lkashunosligi; 2) jamoat o'lkashunosligi; 3) maktab o'lkashunosligi. O'lkashunoslikning har uchala turi o'zaro bir-biriga aloqador bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi.

Davlat o'lkashunosligi bilan respublika tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish qo'mitasi, muzeylar, respublika Fanlar akademiyasi qoshidagi tarix arxeologiya ilmiy-tadqiqot institutlari shug'ullanadi.

Jamoag o'lkashunosligi qishloq, ovul, qo'rg'on, tuman, shahar, viloyat hududidagi tarixiy obidalarni saqlash va asrash ishlariga boshchilik qilish bilan birga joylarda istiqomat qilib turgan xalqlarning kelib chiqishlari (etnogenezi), urf-odatlarini o'rganadi hamda ilg'or mehnatkashlar, Mehnat qahramonlari xotirasini abadiylashtirish uchun haykallar, mangu olovlar, hurmat taxtalari tashkil qiladi. Bundan tashqari jamoat o'lkashunosligiga mustaqil ravishda tanga pullarni o'rganuvchi mutaxassislar — numizmatlar, muhrlarni o'rganuvchilar sfragistlar, tamg'a (gerb)larni o'rganuvchilar — geraldistlar, tosh, metall, sopol va yog'ochdagi yozuvlarni o'rganadigan olimlar-epigrafistlar, eski asbob-uskunalar va qurol-aslaha hamda shu kabi narsalarni to'plovchilar ham uyushadi.

Maktab o'lkashunosligi esa maktablarda tarix inson va jamiyat fani o'qituvchilarining bevosita rahbarligida tashkil qilinadi. Maktab o'lkashunosligining a'zolari V-X (XI) sinflarning eng intizomli va a'lochi o'quvchilaridan tuzilib, ular o'lka materiallarini to'rt guruhga bo'lingan holda to'playdilar. To'plangan arxeologik, etnografik, toponimik va arxiv hujjatlari maktab o'lkashunoslik va tarix muzeylarida namoyish qilinadi.

Maktab o'lkashunosligi ta'lim-tarbiyani turmush, ishlab chiqarish, yangi jamiyat qurish tajribasi bilan uzviy bog'liq holda o'rganadi. O'qitish jarayonida o'lka materiallaridan o'rinli foydalanish o'quvchilarning o'z o'lkasi tarixini bilib olishga, chuqur bilim olishga, mustaqil ijod qilishga bo'lgan qiziqishini orttiradi va kelgusi hayot yo'lini tanlab olishga yordam beradi. Maktab o'lkashunosligi fanlar o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi hamda o'qituvchi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. U dastur asosida, o'z a'zolarining bilim darajasi hamda ijodiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda (iloji boricha mutaxassislarning maslahatlari va ko'rsatmalari asosida) tadqiqot o'tkazish ishining rejasi va ish hajmi hamda uslubini ishlab chiqadi. O'lkashunoslikning butun muvaffaqiyati shu ishga raxbarlik qilayotgan o'qituvchining bilimiga va tashkil qila olishiga bog'liq. Agar o'qituvchi o'z o'lkasini yaxshi bilsa, bu haqdagi og'zaki va yozma manbalarni muntazam o'rganish bilan birga o'quvchilarning ota-onalari, keksalar, o'lkashunoslik tashkilotining xodimlari bilan suhbatlar olib borib, pedagogik mahoratini ishga solsa, o'quvchilarning faolligi ortib boradi, o'tilgan materiallarni to'liq o'zlashtirish bilan birga uni hayotga xam tatbiq qila boshlaydi. Natijada o'quvchilarning puxta bilim olish bilan birga o'z o'lkasiga bo'lgan mehr-muhabbati ortadi va tarixiy tasavvuri hamda tarixiy tushunchasi shakllanib boradi.

Maktab o'lkashunosligi ikkiga bo'linib, o'quv jarayonida (o'quv dasturi asosida) va dasturdan tashqari (maktabning tarbiyaviy ishlar rejasiga asoslangan holda) amalga oshiriladi. O'quv jarayonida (sinfda) olib boriladigan o'lkashunoslik ishlari ham ikki maqsadni ko'zlaydi. Biri — o'z o'lkasining o'tmishini arxeologik, etnografik, toponomik, qo'lyozma asarlar va arxiv hujjatlari asosida o'rganish va o'lkashunoslik materiallarini bir tizimga solish; ikkinchisi — to'plangan o'lkashunoslik materiallaridan tarix hamda inson va jamiyat darslarida foydalanish. Sinfda olib boriladigan o'lkashunoslik ishlariga barcha o'quvchilarning ishtirok etishi majburiydir. Maktabdan tashqari olib boriladigan o'lkashunoslik ishlari, ya'ni sayohatlar, arxeologik ilmiy safarlarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tarix hamda arxeologiya institutining tavsiyasi bilangina shu ishga layoqatli o'quvchilar ixtiyoriy ravishda

ishtirok etadilar. Maktab o'lkashunosligi tarix hamda inson va jamiyat fanlaridan olgan bilimlarni oydinlashtiradi, kengaytiradi hamda har xil fanlarning o'zaro aloqasini ta'minlaydi.

Maktab o'lkashunosligi tarixiy obidalarini saqlash va himoya qilish, qadimiy manzilgohlarni topishda ham katta rol o'ynaydi. U jamoa bo'lib yashash, ishlash va ijod qilishga o'rgatadi. O'quvchilarda sinchkovlik, tirishqoqlik, tevarak-atrofga havas bilan boqish, tadqiqotga qiziqish, Vatanni sevisish va uni ardoqlash hislari shakllanib boradi.

Darhaqiqat, maktab o'lkashunosligi o'quvchilarda o'z Vataniga mehr uyg'otish bilan birga, ularni estetik ruhda tarbiyalashga xdm munosib hissa qo'shadi.

Vatanga bo'lgan mehr tuyg'usi o'z o'lkasini o'rganishdan boshlanadi. Maktab o'lkashunosligida ana shunday tuyg'u shakllanadi.

2. Tarixiy o'lkashunoslikning rivojlanishi. 1917 yilga qadar o'lkani o'rganish masalasi.

Rus olimi M. V. Lomonosov o'z o'lkasini mukammal o'rganish maqsadida 1761 yili 30 savoldan iborat javob varaqasi tuzib, aholi o'rtasida tarqatgan edi. Ayni vaqtda bu bilan o'lkashunoslik faniga asos solingandi. O'lkani o'rganish masalasi O'rta Osiyo, shu jumladan O'zbekiston hududida Rossiyadan anchagina keyinroq, ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi.

Rus olimlari O'rta Osiyoning chorizm tarafidan bosib olishidan ancha ilgari bu o'lkani o'rganish bo'yicha bir qancha ishlar qilgan edilar. Biroq, XIX asrning birinchi yarmidagi o'lkani o'rganish, ya'ni mahalliy tarixchilik ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi biqliqlikka mos bo'lib, feodal tuzum manfaatlari uchun xizmat qilar edi. Tarix fanidan feodal sinfining manfaatlari, xonlar va ular sulola-sining taxtga egaligi va «odilligi»ni mafkuraviy jihatdan asoslash uchun foydalanib kelindi. Saroy tarixchilari o'zlarining asosiy e'tiborlarini siyosiy voqealarni xonlarning faoliyati va o'z raqiblari ustidan qozongan g'alabalarini ko'klarga ko'tarib maq-tash, saroydagi an'analarni tasvirlashga qaratdilar. Chunki zamon o'zi shunaqa edi. Natijada bu davr tarixchiligining mavzui jahon tarixchiligi mavzusidan bir qadar ajralib qoldi. X—XV asrlardagi mahalliy tarixchilar Muhammad Narshaxiy, Tabariy, Rashiddin, Nizomiddin Jomiy, Abul'ozixon va boshqalarning asarlari o'zining mazmundorligi, faktik materialga boyligi bilan bu davrda yozilgan tarixiy asarlardan sezilarli darajada ajralib turadi. SHarqshunos A. A. Romaskevich Rashiddinning «Jome ut-tavorix» nomli asari ustida so'z yuritar ekan, haqli ravishda bu asar o'zining mazmuni va hajmi jihatidan muhimligini ko'rsatib, biz bu asardan keyin eron tarixchiligida voqealarni bu xilda bayon qilish uchun bo'lgan intilishni ko'rmaymiz, deb yozgan edi. Bu O'rta Osiyo tarixchiligiga ham xos narsa edi. SHunday qilib, XIX asrning birinchi yarmida tarix fani ham, boshqa fanlar singari, hukmron sinfnig manfaati uchun xizmat qildi.

XIX asrning 30-yillarida Buxoro saroy tarixchisi Muhammad YOqub yozgan «Gulshan ul-muluk» nomli asar o'sha davr tarixiy manbalaridan biri hisoblanadi. Bu asar fors-tojik tilida yozilgan bo'lib, unda qadimgi zamonlardan to XIX asrning 30- yillarigacha bo'lgan Buxoro amirligidagi siyosiy voqealar bayoni beriladi. Asarda saroy voqealari, xukmron sinflar tarixi, o'zaro urushlar, unda erishilgan g'alabalar, xonlikning keyingi sulolasining genealogiyasi (nasabnomasi) ifodalanib, jamiyatning rivojlanishida asosiy kuch bo'lgan xalq ommasining ahvoli, uning tilak-orzulari, xalq harakatlari va bu harakatning tub mohiyatini yoritishga bo'lgan intilishni deyarli ko'rmaymiz.

YAna o'sha davrda fors-tojik tilida yozilgan ikkinchi **manba** Buxoro saroy tarixchisi Muhammad Mir Olimning «Tarixi amir Nasrullo» nomli asaridir. Bu asar Buxoro amiri Nasrulloning (1826—1860) topshirig'i bilan yozilgan. Asar XVIII asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligida yuz bergan siyosiy voqealarni, ichki va tashqi voqealarni tasvirlash bilan boshlanib, amir Nasrulloning hokimiyatga kelishi, uning dastlabki yillardagi davlatni boshqarishda tutgan siyosati bilan tugallanadi. Asarda Buxoro amirligidagi 1821 — 1825 yillarda bo'lib o'tgan xitoy-qipchoqlar qo'zg'oloni va uning bostirilishi haqida so'zlanadi. Ammo asarda qo'zg'olontshg asosiy sabablari va mohiyati ochib berilmagan, bu tabiiy hol bo'lib, saroy tarixchisidan buni kutish mumkin emas edi.

Yana shu yo'nalishda yozilgan tarixiy manbalardan biri mulla Ibodulla va mulla Muhammad SHariflar tomonidan fors-tojik tilida yaratilgan «Tarixi amir Haydar» nomli asardir. Asarda ashtarxoniylar bilan mang'itlar sulolasi tarixi, amir Haydarning otasi amir SHohmurodning tug'ilishidan boshlab, to amir Haydar-ning o'limi (1826) gacha Buxoro amirligida bo'lib o'tgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy voqealarga to'xtalib o'tilgan. SHu bilan birga, asarda 1820 yilda A. F. Negri boshliq Rossiyadan Buxoroga yuborilgan elchilik tashrifi to'g'risida xam ma'lumotlar berilgan'.

Muhammad SHarifning xuddi o'sha davrni aks ettiruvchi «Toj ut-tavorix»—(«Tarixlar toji») nomli asarida mang'itlar nasabnomasi, turkiy va Mo'g'ul qabilalari, CHingizxon, uning avlod-ajdodlari, shayboniylar, ashtarxoniylar sulolasining tarixi beriladi. Umuman, asar ashtarxoniylar, ayniqsa mang'itlar sulolasi vaqtida Buxoro amirligidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy voqealarni o'rganishda muhim rol o'ynaydi.

XIX asrning 40-yillarida yozilgan yirik tarixiy **manbalardan** biri Muhammad Hakimxon to'raning «Muntaxab VI• takorix» nomli asaridir. Asarda XVIII asrning 70 millaridan to Qo'qon xoni Umarxonning vafoti (1822), **undan** so'ng taxtga o'tirgan Madalixongacha bo'lgan **davrdagi Qo'qon** xonligi tarixiga doir siyosiy voqealar **tasvirlagan**.

Hakimxon to'ra xon bilan birga yurib, XIX asrning birinchi choragidagi voqealarga aralashadi. U saroydagi fisq-fujur, viloyaxlardagi siyosiy tortishuvlar, xonlikning tashqi va ichki siyosatini, Buxoro amirligidagi siyosiy hodisalarni o'z ko'zi bilan ko'rib, ularni o'z asarida aks ettirgan. Ashtarxoniylardan so'ng taxtga o'tirgan o'zbeklarning ming sulolasi haqida, Umarxonning hukmronlik qilgan (1810—1822) vaqtdagi siyosiy voqealar aniq va izchillik bilan ifodalangan. Asarning qimmatli shundaki, Rossiyaning O'rta Osiyoga nisbatan tutgan siyosati va o'sha vaqtdan O'rta Osiyoliklarning Rossiyaga bergan bahosini aniqlashda u muhim o'rin tutadi, chunki muallif Rossiyada bo'lib, u erdagi hayot bilan bevosita tanishgan, Rossiya bilan bog'lanish masalasida ilg'or fikrlarni bayon qilgan. Muallif o'z asarida 1821 — 1825 yillarda Buxoroda bo'lib o'tgan xitoy-qipchoqlar qo'zg'olonida qatnashganlarni «xoin kishilar» deb qoralaydi. Bu esa muallif tutgan yo'lni yaqqol ko'rsatib turibdi.

Qo'qon xonligi tarixiga oid manbalardan biri mulla Avaz Muhammadning fors-tojik tilida yozilgan «Tarix jahonnumai» asari bo'lib, o'z ko'zi bilan ko'rganlarining bayoni xamda tarixiy manbalar asosida yozilgan ikki kitob va geografik qo'shimchadan iborat. Asarning birinchi qismida insonning paydo bo'lishidan boshlab, to XVI asrgacha bo'lgan hukmdorlar tarixi berilgan.

Asarning ikkinchi qismida Qo'qon xoni Olimxon (1798-1810) va Umarxon (1810-1822) hukmronligi davri siyosati to'liq berilgan.

Asarda Buxoro amirining xitoy-qipchoqlar va qoraqalpoq xalqlariga nisbatan tutgan siyosati, Qo'qon xonligi bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi munosabatlar, rus askarlari tomonidan Samarqand va Kattaqo'rg'on erlarining bosib olinishi, yo'l va imoratlar qurilishi, ayrim voqealarning sanalari va h. k. lar berilgan. SHu bilan birga, asarda 1842 yili Qo'qonda ko'tarilgan xo'ja qalandar' boshchiligidagi qo'zg'olon, 1847 yilda Toshkent hokimiga qarshi ko'tarilgan harakat kabi muhim voqealar xaqida ham so'z boradi. Asarda keltirilgan bu dalillar tarixni o'rganish uchun muhimdir. Biroq bu xildagi asarlar o'sha davr hukmron feodal sinf mafkurasi ruhida yozilgan bo'lib, unga tanqidiy ko'z bilan qarash talab qilinadi.

Qo'qon xonligi tarixchiligida Mulla Niyoz Muhammadning «Tarixi SHohruhiy» degan asari ham diqqatga sazovordir. Muallifning bu asari Qo'qon xonligining XVIII va XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan tarixiga oid muhim ma'lumot beradi. Bu ma'lumotlar shu davr tadqiqotchilari uchun juda qimmatlidir.

Toshkentdagi qoryog'di mahallalik Muhammad Solih Qoraxo'ja o'g'lining 1880—1885 yillar orasida yozgan «Tarixi jadida-i Toshkand» («Toshkentning yangi tarixi») nomli 1200 betdan iborat asari ham juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u O'rta Osiyoda o'tgan uch xonlikda yozilgan tarixiy asarlardan birmuncha farq qiladi. Asar fors-tojik tilida yozilgan. U hukmdorlar o'rtasidagi urushlar tarixidan iborat bo'lib, ikkinchi qismi Qo'qon xonligi va Toshkent tarixiga bag'ishlangan. Bunda muallifning yangicha tarix yozish niyatida ish boshlagani va A. Kundan

maslahatlar olganligi seziladi. SHuningdek, asarda Qo`qonning siyosiy hayotida ustunlik rolini o`ynagan guruhlar va shaxslar, Toshkentda bo`lib o`tgan siyosiy harakatlar, xalq qo`zg`olonlari, shu qo`zg`olonlarning yo`nalishi va sabablari haqida (bu masala boshqa hech bir asarda bunchalik yoritilmagan) mufassal ma`lumotlar berilgan. Bu asar yangi davr tarixchiligida yangi intilish edi. Asar O`zbekiston Fanlar akademiyasining SHarqshunoslik institutida nodir asarlar qatorida saqlanmoqda.

XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligida yozilgan tarixiy manbalardan eng muhimi Munis va Ogahiyning asarlari hisoblanadi.

Munis (1778—1829) ning otasi Avazbiy mirob Xiva xoni eltuzarga qadar ham, uning hukmronligi vaqti (1804—1806) da ham saroy xizmatida bo`ladi. **eltuzarxonning** hukmronligi vaqtida Munis saroy xizmatiga kiradi va xonning topshirig`i bilan o`zining «**Firdavs** ul-iqbol» nomli mashhur tarixiy asarini **yozadi**. **eltuzarxon** SHermuhammad Munisga bu asarni **Firdavsiyning** «SHohnoma» asaridan ustun qilib **yaratishni xam uqtiradi**. **Munis asari o`zbek tilida yanatilgan**. Xiva xonligining XVI —XVII asrlardagi tarixining yoritishda Abulg`ozining asarlaridan foydalanadi. Xiva **xonligining** XVIII asrdagi tarixiga oid **voqealarni o`z ko`zi bilan ko`rgan kishilar, ayniqsa**, otasining bergan ma`lumotlari asosida **ezadi**. **XVIII asrning** ikkinchi yarmidagi eng muhim voqealarni, 1812 yilgacha bo`lgan tarixiy voqealarni tasvirlash paytida unga xon tomonidan boshqa vazifa, ya`ni Mirxondning mashhur asari «Ravzat us-safo»ni fors tilidan o`zbek tiliga tarjima qilish topshiriladi. Munis bu asarning birinchi kitobini tamomlab, ikkinchisini yozayotgan vaqtida to`satdan vafot etadi. SHunday qilib, u qo`lyozmaning tarjimasini ham, o`z asarini ham tamomlay olmaydi. Muhammad Rizo Ogahiy (1809 — 1864) Xiva xoni Olloquli (1825 — 1842) ning topshirig`i bilan asarni davom ettirib, 1827 yillargacha bo`lgan voqealarni yozadi. So`ngra u 1826—1842 yillardagi voqealar yoritilgan «Riyozi ud-davla», 1842 — 1845 yillardagi tarixiy voqealar yoritilgan «Zubdat ut-tavorix», 1846—1855 yillardagi voqealar yoritilgan «Jomi`ul-voqeoti sultoniyy», 1856—1865 yillardagi voqealar yoritilgan «Gulshan davlat» nomli asarlarni yozadi. Ogahiy «SHohidi iqbol» nomli beshinchi asarini Xiva xoni Muhammad Rahimxon davri (1865 —1910)ga bag`ishlaydi. Ammo bu asar tamomlanmay, 1872 yili voqealari bilan tugaydi.

Munis va Ogahiy saroy tarixchilari bo`lsalarda, ularning asarlari o`zining dalillarga boyligi, xronologik izchilligi, o`zida aks ettirilgan siyosiy voqealarning to`liq bayoni jihatdan o`sha davrdagi Buxoro va Qo`qon saroy tarixchilaridan birmuncha yuqori turadi. Xiva saroy tarixchiligi va xususan| Munis, Ogahiy asarlaridagi bu xususiyatni o`z vaqtida V. V. Bartol`d ham «Istoriya kul`turnoy jizni Turkestana» degan asarida ta`kidlab: «Munis va Ogahiyning kitoblari adabiy va tarixiy asar sifatida kamchiliklariga qaramay, bayon qilishning to`liqligi va daliliy Ma`lumotlarning soni jihatidan bizgacha etib kelgan Buxoro va Qo`qon xonliklari tarixi bo`yicha bitilgan asarlarni «orqada qoldiradi», deb yozgan edi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asrning birinchi yarmida mahalliy tarixchilar tomonidan yaratilgan tarixiy asarlar mamlakatning xo`jaligi, iqtisodiy munosabatlar, sinfiy kurash, xalq xarakatlari va siyosiy voqealarning ijtimoiy-iqtisodiy ildizlarini ochib bera olmagan bo`lsa ham, tarixchilarimiz o`lkani o`rganishda, solnomalar tuzishda, etnografik va toponimik materiallar to`plashda bu nodir asarlardan, tanqidiy nuqtai nazardan qarab foydalanishlari mumkin. Bu asarlar shuning uchun ham 1917 yilga qadar o`lka tarixini o`rganishda juda qo`l keladi. runki ularning mualliflari **bevosita o`sha** davrda yashatan, ro`y berayotgan voqea va xodisalarpi o`z ko`zlari bilan ko`rgan, shuningdek ularni oldingi davr voqealari bilan qiyoslagan. SHu nuqtai **nazardan bu** asarlar muhim ahamiyat kasb etadiyu

3. O`rta Osiyo tarixini o`rganishda rus sharqshunoslarining roli

XIX asrning ikkinchi yarmida o`rta Osiyo CHor askarlari tarafidan bosib olingach, bu erga rus olimlari kelib ko`plab tadqiqot ishlarini olib bordilar. SHunday murakkab va og`ir sharoitda ham o`lkashunoslar o`z fikr va mulohazalarini erkin bayon etishga harakat qilganlar. O`rta Osiyoga kelgan olimlar o`lkadagi ilg`or mahalliy ziyolilarning namoyandalari bilan yaqin aloqada bo`lardilar.

Mustamlaka ma'muriyati O'rta Osiyo xalq ommasining milliy ongini o'stirishga yordamlashishni aslo ma'qul ish deb bilmadi, aksincha, mahalliy xalq ommasi o'rtasida tarixiy bilimlarni biroz darajada keng targ'ib etish, ular diqqatini qadimgi zamon yodgorliklarini o'rganishga tortish va hokazolar chorizmning mustamlakachilik siyosatiga faqat zarar etkazishi mumkin, deb qo'rqardi.

Holbuki, O'rta Osiyoning yangi-yangi hududlarida Rossiya hukmronligining o'matilishi, ularning Umumrossiya iqtisodiy taraqqiyoti yo'lga qo'shib yuborilganligi munosabati bilan turmushning o'zi ilmiy tadqiqotlar o'tkazish zarurligini taqozo qilardi. O'rta Osiyoning durustroq o'rganilmaganligi mustamlaka ma'muriyatining ishlarini qiyinlashtiradi. Ilmiy tadqiqotlardan ba'zi birlari o'zlarining ko'p yillik **tarixiga**, o'z urf-odatlarini, xususiyatlari, turmush tarziga ega bo'lgan million-million O'rta Osiyo xalqlari **ommasini** ekspluatatsiya qilish tizimini to'g'ridan-to'g'ri **uyushtirishga** yordam berishi lozim edi.

Tabiiy boyliklari, madaniy merosi g'oyat boy bo'lgan va kam **tekshirilgan ushbu o'lka** rus ziyolilarining **taraqqiyparvar qismini** juda qiziqtirardi. Mashhur rus zoologi, **zoogeografi** va sayyohi, darvinizmning e'tiqodli **tarafdorlaridan** bo'lgan N.A. Severtsov (1827 — 1886) **Turkistonning ko'p** joylarini fizik-geografik jihatdan o'rganishda, jumladan, Pomir tizma tog'larining orografiyasini o'rganishda ko'p mehnat va kuch sarf qildi. N. A. Severtsov sayohati vaqtida zoologiya, botanika, mineralogiya va paleontologiyaga oid juda qimmatli kolleksiyalar to'pladi.

Mashhur rus geografi P. P. Semyonov-Tyan'shanskiy (1827—1914) O'rta Osiyo, ayniqsa Tyanshan' tizma tog'larining geografik o'rganilishiga asos soldi. Uning to'plagan ma'lumotlari asosida Tyanshanda Al'p muzliklari mavjudligi masalasi ijobiy hal qilindi, nemis geografi Gumbol'dtning Tyanshandagi vulqon hodisalari haqidagi fikrlari rad qilindi. Tyanshanni tekshirish rus geografiya fanining eng muhim xizmatlaridan biridir.

Rus tabiatshunosi va sayyohi A. P. Fedchenko (1844—1873) Turkiston tabiatini o'rganishda katta rol o'ynadi. U Farg'ona vodiysi bilan Oloyni birinchi marta tekshirib chiqdi; Oloy orqasidagi tizma tog'lar va uning eng baland cho'qqioini ochish sharafiga ham unga nasib bo'lgan, u Zarafshon vodiysi bilan Qizilqumni ham tekshirib chiqqan»:

Geolog va geograf I. V. Mushketovning (1850 — 1902) ilmiy xizmatlari xam katta. SHimoliy Tyanshan tizma tog'i orografiyasining, geologik asoslarini dastlab u ko'rsatib berdi. U Turkistondagi ko'pgina foydali qazilma konlarini ta'riflab, Turkiston minerallarining dastlabki ro'yxatini tuzib chiqdi. 1877—1879 yillarda Mushketov geologik tekshirish ishlarini bajarish maqsadida Oloy, Pomir, Buxoro, Hisorga, Amudaryo bo'ylab va Qizilqumga sayohat qildi. 1880 yilda esa Zarafshon muzligiga ilmiy safar uyushtirdi. Mushketov 1881 yilda (G. D. Romanovskiy bilan birgalikda) Turkistonning birinchi geologiya xaritasini tuzdi. U O'rta Osiyo geologiya tuzilishining birinchi ilmiy kontseptsiyasini taklif qildi, uni o'rganish bosqichlarini ko'rsatib berdi. I. V. Mushketov o'z tadqiqotlarini va Turkistonni o'rgangan boshqa olimlarning ilmiy ishlarini o'zining mashhur «Turkistonning geologiya va orografiya ta'rifi» monografiyasida umumlashtirgan. Bu monografiyaga yozilgan katta muqaddima tarixshunoslik nuqtai nazaridan yondoshilgan «O'rta Osiyoni o'rganish tarixi»ga ilova qilingan.

O'rta Osiyo tuprog'ini o'rganishda ham rus tadqiqotchilari ko'p mehnat sarf qilishgan. Mashhur rus olimi, hozirgi zamon ilmiy tuproqshunosligiga asos solgan V. V. Dokuchaev (1846—1903) o'zining ko'pgina asarlarida bu sohada dastlabki (1898 yilda) ma'lumotlarni bergan.

Harbiy topograflar ham qunt bilan unumli ishlar qilganlar, Turkiston harbiy topografiya bo'limi tuzilganga qadar (1867 yil) o'lka topografiya jixtdan qariyb butunlay o'rganilmagan edi. Faqat Kaspiy va Orol dengizi sohillarida, Sirdaryo va Amudaryoning etak tomonlari, Balxash ko'li sohillari va boshqa ba'zi joylarda bir qadar aniq yarim instrumental va ko'z bilan o'lchangan tasvirga olishlar o'tkazilgan edi, xolos. Harbiy topografiya bo'limi oldida tabiiy kontrastlari bir-biridan keskin farq qiladigan juda katta hududni keng ko'lamda suratga tushirishdek mashaqqatli vazifa turardi. Bo'lim «xizmat yuzasidan lozim bo'lgan» ba'zi bir zarur

xo'jalik va harbiy ehtiyojlarni ta'minlash bilan cheklanib qolmasdan, O'rta Osiyoning bosh xaritasini tuzish ishiga kirishib ketdi.

Turkiston bosib olingandan keyin o'lkani xaritaga tushirish va iqlimini o'rganish uchun ilmiy baza yaratish masalasi tug'ildi. 1867 yilda Toshkent meteorologik markazi tuzildi, bir oz vaqtdan keyin shunday markazlardan bir qanchasi boshqa erlarda ham vujudga keldi.

Toshkentda falakiyotshunoslik rasadxonasi yaratish yuzasidan tayyorgarlik ishlari olib borildi va 1874 yilda Russiyadagi eng qadimgi Pulkovo rasadxonasi xodimlarining yordami bilan shunday rasadxona ochildi. SHart-sharoitning qiyinligiga qaramay, bu sohada katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Rasadxonaxodimlari hozirgi O'rta Osiyo respublikalari hududida qariyb 870 falakiyot manzillarini aniqladilar. Rasadxona xodimlari o'z tashabbuslari bilan ilmiy-tekshirish ishlari olib bordilar. I. I. Pomerantsevning Farg'ona vodiysida geoid shakli ustida olib borgan tekshiriolari (1896 yilda), D. D. Gedeonovning Toshkent kengligining o'zgarishi haqidagi dadqiqotlari (1895 — 1896 yillarda) diqqatga sazopordir. Biroq kadrlar etishmasligi va ajratilgai **mablag`ning** ozligi sababli rasadxona tadqi-qot ishlaripi rsjali ravishda muntazam olib bora olmadi.

O'lkani o'**rganishda** statistika qo'mitalari ham muhim rol' o'ynadi. 1868 **yil** yanvarda Turkiston statistika qo'mitasi tuzildi. Uning tashabbusi bilan 1872 yildan «Turkiston o'lkasi statistikasi uchun materiallar» nomli to'plam chiqarila boshlandi: (1872—1876 yillar ichida hammasi bo'lib 5 to'plam chiqarildi.) 1887 yil birinchi yanvardan boshlab Sirdaryo (Toshkentda), Samarqand (Samarqandda), Farg'ona (YAngi Marg'ilonida) viloyatlari statistika qo'mitalari tuzildi. qo'mitalar viloyatlarga xos obzorlar nashr qilib, ularda «tabiiy va ishlab chiqarish ishlari», xalq xo'jaligi, sug'orish tizimlari, yo'llar, aholi va uning mashguloti, o'lpon va soliqlar, ma'muriy tuzilish, sog'liqni saqlash va maorif, jamoat obodonchiligi, ob-havo kuzatishlari va hokazolar haqidagi mufassal ma'lumotlar berildi. 1886—1913 yillarga oid «Sirdaryo viloyati obzorlari» (Toshkent, 1887—1916 yillar), 1884—1913 yillarga oid «Farg'ona viloyati obzorlari» (YAngi Marg'ilon-Skobelev, 1889—1916 yillar) nashr qilingan edi. qo'mitalar •bulardan tashqari yana o'z ishlari haqida hisobotlar va boshqa kitoblarni ham nashr qildirdi.

O'rta Osiyo xalqlarining turmushiga bag'ishlangan, ilmiy va o'lkashunoslikka doir turli xabarlar va maqolalar «Turkestanские ведомости» hamda «Turkiston viloyatining gazet» (Toshkent, 1870—1917 yillar) va boshqa mahalliy matbuotda muntazam bosilib turdi.

1870 yilda Toshkentda ochilgan Turkiston xalq kutubxonasi (hozirgi Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi) o'lkani o'rganish bilan shug'ullanuvchi barcha tadqiqotchilar, ayniqsa mahalliy xodimlar uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Kutubxona tashabbuskor bibliofillar (kitob muxbirlari) va bibliograflarning ko'rsatgan faoliyati asosida o'lkani o'rganishga doir qimmatli asar va materiallar bilan boyib bordi. Kutubxona ochilishi vaqtida faqat 1700 jild kitob bor edi, 1917 yilga kelib undagi kitoblar soni 80 ming jildga etdi^ Kutubxona fondida saqlanayotgan adabiyot va manba majmualaridan «O'rta Osiyoga, ayniqsa Turkiston o'lkasiga taalluqli Turkiston asarlar va maqolalar to'plami» juda ham qimmatli asar bo'lib, shu kunlarda ham o'z axamiyatini yo'qotmagan.

Bu to'plamni tuzish ishlarini ko'zga ko'ringan rus bibliografi V. I. Mejov Peterburgda 1868 yildan boshlab 20 yil davomida olib borgan edi. 1888 yilda «Turkiston to'plami»ga kirgan katta-katta jildlarning soni 416 ga etganda (bular 1867—1887 yillarda **to'plangan** materiallar edi) o'lkadagi chor ma'muriyati- buyrug'i bilan «mablag` yo'qligi sababli» bu ishlar to'xtatilgan edi. V. I. Mejov «Turkiston to'plami»ga uch kitobdan iborat sistematik va alfavit ko'rsatkich tuzgan. 1872 yilda A. L. Kun va boshqa sharqshunoslar mashhur «Turkiston al'bomi» (Turkiston o'lkasining etnografiya, arxeologiya, kasb-hunar va tarixiga doir suratlil al'bom)ni tuzib tamomladilar. Bu nodir asar hozirgacha ham o'z ilmiy qimmatini yo'qotgani yo'q. Al'bom 1262 dona rangli va rangsiz fotosuratlar yopishtirilgan 447 kartondan iborat bo'lib, Rossiyada faqat uch kutubxona — imperator kutubxonasi, Fanlar akademiyasi kutubxonasi va Turkiston kutubxonasigina faxrlana oladigan, badiiy jihatdan g'oyat noyob asar edi.

1917 yilga qadar o'lkadagi ilmiy jamiyatlar tomonidan hammasi bo'lib Rus geografiya jamiyatining Turkiston bo'limi «Axboroti»ning 13 jildi (1898—1917 yillar), Turkiston arxeologiya va havaskorlar to'garagining majlisi qarorlari va axborotlaridan 21 to'plam (1896—1917 yillar), Turkiston qishloq xo'jaligi jamiyati tomonidan «Turkiston qishloq xo'jaligi», jurnalidan 142 son (1906—1917 yillar), «Turkiston dehqoni» jurnalidan 60 son (1915 — 1917 yillar), SHarqshunoslik jamiyati Toshkent bo'limi «Axboroti» ning 6 soni (1908—1909 yillar), bundan tashqari yana ilmiy-tibbiyot jamiyatlarining ko'pgina protokol hamda asarlari va boshqalar bosib chiqarilgan edi.

Ozbekistonning va umuman butun Turkistonning yodgorliklari ko'pdan buyon olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelardi. XIX asr davomida osori atiqalar ustida arxeologik kuzatishlar, qidiruv ishlari olib borildi. Bu sohadagi ishlar P. I. Lerh N. I. Veselovskiy, V. A. Jukovskiy, V. V. Bartol'd va mahalliy turkistonshunoslardan M. S. Andreev, V. L. Vyatkin, A. L. Kun, A. A. Semyonov va boshqalarning nomlari bilan bog'liqdir.

Sobiq Turkistonning qadimiy yodgorliklarini hisobga **olish** va tekshirishga markazdagi ilmiy muassasalar **imperator** arxeologiya komissiyasi, ayniqsa Rus **arxeologiya jamiyatining** SHarq bo'limi, shuningdek, 1903 yil **aprelda** tashkil qilingan o'rta va SHarqiy Osiyoni tarixiy, arxsologik, lingvistik va etnografik isihatdan o'rganish qo'mitasi ham e'tibor berdi.

Rus **havaskor** kollektsiyachilari Barshchevskiy, Vyatkin, Dobromnslov, Kastal'skiy, Komarov, Petrov-Borzna, Poslavskiy, Stolyarov, Terent'ev, Trofimov va boshqalarning to'plagan ko'pdan-Ko'p ma'lumotlari hammaga mashhur edi.

Arxeologiya yig'malari 1871, 1874, 1889 yillarda Toshkent, Samarqand va Farg'onada ochilgan muzeylarda saqlanadi.

O'rta Osiyo tarixiga oid eng muhim manbalardan biri Muhammad Narshaxiyning «Buxoro tarixi» (X asr) asari N. S. Likoshin tomonidan rus tiliga tarjima qilinib, 1897 yilda nashr etilishi (V. V. Bartol'd tahriri ostida) katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Qadimgi me'morchilik yodgorliklaridan asosan Samarqand yodgorliklari o'rganildi. 1895 yilda N. I. Veselovskiy rahbarligi ostida va me'mor A. V. SHchusev va boshqa mutaxassislar ishtirokida Imperator arxeologiya komissiyasi Go'ri Amirni me'morchilik, dekoratsiya nuqtai nazaridan o'rganish uchun ilmiy safar uyushtirdi. Bu ilmiy safar ishlarining natijalari 1905 yilda ajoyib al'bom holida nashr etildi!

O'rta Osiyo chor Rossiyasi tarafidan bosib olinganidan keyin O'zbekistonning tarixi va arxeologiyasini o'rganish bilan birga, butun o'lkani etnografik jihatdan o'rganish ishlari ham birmuncha kengaytirildi. Bu ishlarda sharqshunos mutaxassislar bilan bir qatorda, havaskor o'lkashunolar va mansabdorlar, ko'proq harbiy-lar orasidan chiqqanlar ham qatnashdilar. O'lar Turkiston o'lka idora organlaridagi xizmatlarining bergan imkoniyatidan foydalanib, xalq turmushini o'rgandilar, turli joylarga borib mahalliy aholi bilan aloqa bog'ladilar.

V. V. Bartol'd, N. I. Veselovskiy, V. V. Radlov, A. N. Samoylovich singari mashhur sharqshunolarning ayrim asarlari etnografiya nuqtai nazaridan katta ahamiyatga egadir. Turkistonda mahalliy aholi orasida ishlab kelgan rus shifokorlarining e'lon qilgan maqola va ma'lumotlarida ham etnografiyaga oid ko'pgina qimmatli ma'lumotlar bor.

Etnografik kuzatishlar bilan bir qatorda o'zbek xalqining turmushi va maishiy buyumlari (kiyim-bosh, zeb-ziynat, qurol-yarog', uy-ro'zg'or buyumlari, ishlab chiqarish qunollari)dan **kollsktsiyalar to'plash** ishlari ham olib borildi.

Xalq ho'jaligini o'rganish sohasida ham ba'zi ishlar amalga **Oshirildi**, L. F. Middsdorfning "Farg'ona **vodiysi**" degan asari shunga o'xshash boshqajuda ko'plab **asarlarni hozirgacha** ham o'zining ilmiy ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Ozbekiston aholisi tarkibini o'rganishga ham ma'lum darajada e'tibor berildi. A. I. Pashino, P. S. Nazarov, I. I. Krauze kabi olimlarning kasb-hunar ishlarini o'rganishga bag'ishlangan asarlari bosilib chiqdi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'rta Osiyo gilamlariga Rossiya va Evropa mamlakatlari juda qiziqib qolishdi. 1908—1909 yillarda A. A. Bogolyubov tomonidan tuzilgan al'bom bosilib chiqdi. Bu al'bomda juda ko'p xil gilam nusxalari (Ko'proq turkman gilamlari,

qisman o'zbek gilamlari va boshqalar) ko'rsatilgan edi. Bogolyubov bu al'bomda birinchi marta ularni ilmiy asosda tasniflashga urinib ko'rgandi. Bogolyubov al'bomidan so'ng A. Fal'kerzam, S. M. Dudin va boshqalarning O'rta Osiyo gilamlarini mufassal ta'riflagan kitoblari chop etildi.

O'lkani o'rganishda zarur talablar olimlar oldiga yangidan-yangi vazifalarni ko'ndalang qilib qo'ydi. Bu vazifalarni xal qilish uchun katta-katta mablag' kerak edi. Biroq o'lkada davlat ilmiy-tekshirish muassasalari deyarli butunlay yo'q edi. Bu xam o'lkadagi olimlarni, umuman rus ziyolilari namoyandalarini Moskva va Peterburgdagi yirik olimlarning qo'llab-quvvatlashi bilan o'lkada ilmiy jamiyatlar tuza boshlashga undadi. Ilmiy jamiyatlarning paydo bo'lishi bu erda mahalliy turkistonshunos xodimlar paydo bo'lganligidan va ularning ishlarini o'zaro muvofiqlash zarurligidan dalolat berardi.

Qisqa muddat ichida Turkiston ilmiy jamiyatlari o'lkani o'rganish tarixida mustahkam o'rin oldilar. Bulardan ba'zi birlari faqat mahalliy axdmiyatga ega bo'lgan jamiyatlar (masalan, O'rta Osiyo olimlar jamiyati, ilmiy-tibbiyot jamiyati) bo'lsa, boshqalari Umumrossiya ilmiy jamiyatlarining bo'limlari (Rus geografiya jamiyati, Rus texnika jamiyatining xamda tabiiyot, arxeologiya, antropologiya va etnografiya havaskorlari jamiyatining Turkiston bo'limlari) edi.

1870 yilda O'rta Osiyo olimlari jamiyati paydo bo'ldi. Bu jamiyat o'z oldiga O'rta Osiyo tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, statistikasi, iqtisodiyotiga oid ma'lumotlarni to'plash, ishlash va tarqatishni maqsad qilib qo'ygan edi. O'ning birinchi ochiq majlisi 1871 yil 28 yanvarda bo'ldi.

SHu bilan bir vaqtda A. P. Fedchenkning faol ishtiroki bilan tabiiyot, arxeologiya, antropologiya va etnografiya havaskorlari jamiyatining Turkiston bo'limi ochildi. Bo'lim a'zolari orasida N. A. Severtsov, I. V. Mushketov, V. F. Oshanin kabi rus olimlari bor edi. Bo'lim 1879 yilda «Tabiiyot, arxeologiya, antropologiya va etnografiya havaskorlari jamiyati Turkiston bo'limining xotiralari» degan o'zining birinchi va so'nggi asarini bosib chiqardi. Bu to'plamga kirgan maqolalar orasida N. A. Severtsovning «Pomir umurtqali faunasidan ma'lumotlar» maqolasi, N. B. Teyxning o'lka iqlimi ta'rifiga bag'ishlangan ishlari va boshqalar diqqatga sazovordir. Bo'lim bu jamiyatning Moskvada 1872 yilda tashkil qilingan ikkinchi politexnika ko'rgazmasida Turkiston bo'limining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan katta ishlar olib bordi. O'rta Osiyo olimlar jamiyatida bo'lgani singari, bu bo'lim majlislarida ham qimmatli ilmiy axborotlar va ma'ruzalar tinglandi. Jamiyatning 1878 yilda V. F. Oshanin rahbarligi ostida tashkil qilingan ilmiy safari natijasida Buyuk Pyotr tizma tog'lari ochildi, Mug'suv daryosining manbalaridagi muzlik topilib, unga A. P. Fedchenko nomi berildi. Mablag' yo'qligi tufayli bo'lim juda katta qiyinchiliklarni boshidan kechirdi va taxminan 1893 yilda o'z faoliyatini to'xtatishga majbur bo'ldi.

O'lkada ishlab turgan havaskor arxeologlar 1895 yilda Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagiga birlashdi. Fanning boshqa sohalarida bo'lgani singari bunda ham tadqiqot ishlari rejali tashkil qilinmasdi, mutaxassislar yo'qligi tufayli tadqiqot ishlarini olib borishga imkor ham yo'q edi. Arxeologiya ishlari asosan yozuv manbalariga qarab qadimgi zamon yodgorliklarini o'rganishdan, ayrim arxeologiyaga oid manzillarni tekshirib, aniqlashdan iborat bo'lardi, ahyon-ahyonda arxeologiyaga oid qazishmalar o'tkazilardi. Turkiston **arxeologiya** havaskorlari to'garagi a'zolari tomonidan **Farg'ona** tog' tizmalaridagi Soymaylitosh degan joyda toshga o'yib solingan juda ko'p suratlarning togshlishi, mashhur Biyanayman ossuariylari va hokozolarning ochilishi fan solnomalariga juda ham muhim ilmiy kashfiyotlar bo'lib kirdi.

To'garak a'zolarining to'plagan haqiqiy ma'lumotlari, ilk marta topgan materyallari uidan keyingi tadqiqotchilar uchun yordamchi ma'lumot bo'ldi va o'tmish yodgorliklarining zamonlar o'tishi bilan yo'qolib ketgan ko'plab tafsilotlarini, shu yodgorliklar bilan bog'liq bo'lgan fol'klor va yozma manbalarni qayd qilishga imkon berdi.

To'garak a'zolarining o'rta qo'ygan masalalari va mulohazalari, garchi munozarali va zamon sinoviga bardosh bera olmagan bo'lsada, x.ar holda butun davr uchun shubhasiz, katta ahamiyatga ega edi. Ularning bu ishlari tadqiqotchilik fikrining rivojlanishiga turtki bo'ldi, unga

ilmiy jamoat diqqatini tortdi. Mashhur rus sharqshunosi V. V. Bartol'd to'garak ishlariga katta yordam ko'rsatdi.

Mahalliy ilmiy xodimlardan bir guruhi (V. F. Oshanin, S. I. Jilinskiy va boshqalar)ning tashabbusi bilan 1897 yil boshida rus geografiya jamiyatining Turkiston bo'limi tashkil qilingan edi. Bu jamiyat bo'limi orqali Orol dengizi va Balxash ko'li, Turkiston muzliklari va hayvonot dunyosini o'rganish singari juda muhim ishlar olib borildi. Foydali qazilmalar qidirib topilib tekshirildi, O'rta Osiyoda zilzila sabablari va oqibatlarini aniqlash ishlari olib borildi va hokazo.

Turkiston qishloq xo'jalik jamiyati mahalliy qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini rivojlantirishga kattagina hissa qo'shdi. Jamiyat hozirgi zamon agronomiya bilimi va usullarini tashviqot qildi, paxtachilik, **ipakchilik**, asalarichilik va shunga o'xshash sohalarga oid yangi adabiyotlar tarqatdi. Jamiyatning o'lkada yangi, yaxshilapgap g'oz navlarini o'rganish, kashf qilish va yoyishda na umuman, paxtachilik xo'jaligini samarali usulda olib borish sohasida qilingan ishlarni qayd etib o'tmoq **kerak**. Jamiyat ko'pdan-Ko'p qishloq xo'jalik-sanoat **ko'rgazmalari** tashkil qildi, qishloq xo'jalik xodimlarini s'ezdlarini uyushtirdi. (1900 yilda Toshkentda **qishloq** xo'jalik muzeyi ochildi, kontrol urug'chilik stantsiyasi va boshqa yordamchi muassasalar tashkil etdi.

O'lkada hammasi bo'lib 15 ga yaqin ilmiy jamiyat ish olib bordi (faol ish olib borib, fanda iz qoldirgan ilmiy jamiyatlar nazarda tutiladi). Ular geologiya, geografiya, zoologiya, botanika, iqtisodiyot (qishloq xo'jaligi, sanoat), tarix sharqshunoslik, arxeologiya, etnografiya, antropologiya, ilmiy tibbiyot va shu kabi bilim tarmoqlari va yordamchi ilmiy fanlar sohasida tadqiqot ishlari olib borganlar.

Mustamlaka Turkiston sharoitida ilmiy jamiyatlarning faoliyati mahalliy aholi o'rtasiga yoyilmadi. Ilmiy tibbiyot jamiyatlari bundan bir qadar mustasnodir.

O'lkada Farg'ona tibbiyot jamiyati (1892—1910 yillar), Turkiston shifokorlar jamiyati, (1899 — 1909 yillar), Turkiston tibbiyot jamiyati (1900—1908 yillar), Turkiston o'lkasi tibbiyot, tabiatshunoslar va shifokorlar jamiyati (1913 — 1922 yillar) ish olib bordi.) Bu jamiyatlar maxsus tibbiyot kutubxonalarini barpo etdi, shifokorlik ishlari tashkil etish va yaxshilash masalasini, kishilarning sog'lig'i va hayotiga zararli bo'lgan o'rta asrchilik qoldiqlariga qarshi kurash olib borish masalalarini o'rta qo'yib, ularni muhokama qildi.

Toshkentda, Andijonda va o'lkani boshqa shaharlarida (garchi mablag' yo'qligidan juda oz miqdorda bo'lsada) yangi tibbiyot markazlari, erkak va ayollar uchun ambulatoriyalar, kasalxonalar ochilganligi, ularda tekinga yoki juda arzon narx bilan mahalliy aholiga tibbiyot xizmati ko'rsatilganligi tibbiyot jamiyatlarining xizmatidir. SHu tibbiy muassasalar o'n minglarcha betoblarga xizmat ko'rsatdi, bularning ko'pchiligi umrida birinchi marta jur'at etib malakali tibbiy yordam so'rab murojaat qilgan edi.

Ilmiy jamiyatlar huzurida faol o'lkashunoslar, mahalliy muxbirlar paydo bo'ldi.

Masalan, o'tgan asrning 80-90-yillaridayoq Turkistonda ko'proq rus tadqiqotchilari, kolleksiyaachilari va ilmiy jamiyatlarining ta'siri ostida osori atiq xavaskorlari, qadimgi yodgorliklarni to'playdigan xavaskorlar etishib chiqdi. Bular orasida samarqandlik Mirzo Buxoriy, Mirzo Abdulalarning nomi alohida ajralib turadi. Mirzo Buxoriy juda ko'p arxeologik-numizmatik kolleksiyalar to'plagan bo'lib, bularning bir qismi ermitaj kolleksiyalariga kirgan. Ajoyib san'atkor-xattot Mirzo Barot Mullo Qosimov Samarqand va uning atroflaridagi ko'pdan-Ko'p qadimgi zamon yodgorliklari suratini chizgan. Ulug'bek madrasasining g'oyat aniq eskizini tayyorlagan edi.

A.L.Kunning Iskandarko'l ilmiy safarida qatnashgan Mirzo Abdullo Abdurahmon fanga qadimgi toshlarga va qabr toshlariga yozilgan xatlar qayd qilingan ajoyib kundalik daftar qoldirib ketgan.

Buxoroda qadimgi gilamlar, qo'lyozmalar, nodir sopol idishlar to'plagan Muxdmmad Vafo tez orada mashhur bo'lib ketdi. Havaskor geograflardan Olimxo'ja YUnusov, Mirza Hakim va boshqalar Rus geografiya jamiyati Turkiston bo'limining xodimlari bo'lib ishlashardi (Bular haqida batafsilroq ma'lumot keyingi bandlarda beriladi).

Turkiston o'lkasida tug'ilib o'sgan kishilardan ancha-munchalari foydali qazilmalar topish va ularni tavsiflash, qadimgi zamon yodgorliklarini qidirib topish va shu kabi ishlarda qatnashdilar.

XX asr boshlarida ham Turkistondagi ilmiy jamiyatlar o'z faoliyatini davom ettirdi. Rus geografiya jamiyatining Turkiston bo'limi o'lkani tabiiy-tarixiy jihatdan o'rganish, uning o'simlik va hayvonot dunyosini, iqlimini tadqiq etish borasida kattagina ishlar qildi. Jamiyat bo'limi tomonidan, olib borilgan ishlar orasida L.S.Bergning (1876—1950) tadqiqotlari katta o'rin tutadi. U 1899—1903 yillar ichida O'rta Osiyoning eng katta suv havzalari — Orol dengizi bilan Balxash ko'lini tadqiq qilib chiqdi. 1908 yilda L. S. Bergning «Orol dengizi» degan monografiyasi bosildi. Unda bu katta ko'lni xdr taraflama o'rganish natijalari bayon qilingan va ulardan xulosalar chiqarilgan. L.S.Berg asarida suv rejimi o'zgarishi va dengiz sathi o'zgarib turishi munosabati bilan Amudaryo va Orolbo'yi sohillariga aholi joylashtirilishiga oid boy tarixiy ma'lumsuglar berilgan.

Jamiyat bo'limi Turkiston muzliklarini o'rganish sohasida katta ishlar olib bordi. G.B.Leonov Talas Olatovi muzliklarini, N.L.Korjenevskiy Seldara va qorasel muzliklarini tadqiq qildi (bulardan birinchisiga Fedchenko nomi, ikkinchisiga Mushketov nomi berilgan), V. G. Gorodetskiy Zailiy Olatov muzliklarini tadqiq qildi.

V.F.Oshanin o'lka hayvonot dunyosini tadqiq qilishni davom ettirdi; N. A. Zarudniy Turkiston parrandalarini o'rgandi; B. A. Fedchenko va uning onasi O. A. Fedchenko o'lkaning o'simlik dunyosini tadqiq qildi. Bu ishlar natijasida jamiyat bo'limining asarlarida o'simlik va hayvonot dunyosining 80 xil yangi urug', tur va kichik turlarini ta'riflovchi ma'lumotlar e'don qilindi.)

B. A. Fedchenkoning 1915 yilda e'lon qilingan «Turkiston o'simliklari» degan asarida O'rta Osiyoda ma'lum bo'lgan 5030 dan ko'proq o'simlik xillari ko'rsatib o'tilgan.

Turkistonda bo'lgan zilzilalarni B. YA. Korolenko, G. B. Leonov va boshqalar o'rgangan. (SHarqshunoslik jamiyati Toshkent bo'limining faoliyati (1901 — 1913) ham diqqatga sazovordir. Bu bo'lim tashabbusi bilan o'lkada tub joy aholining rus tilini o'rganishi uchun bepul kechki kurslar tashkil qilingan. Bu kurslarda hunarmand-kosiblar va shahar aholisining quyi tabaqasidan bo'lgan boshqa kishilar o'qigan)

1906 yilda jamiyat bo'limi S₁ M. Solov'yovning «Boshlang'ich o'qish uchun rus solnomasi»ni nashr qildi, buni o'zbek tiliga N. S. Likoshin tarjima qilgandi. Bu asar 2700 nusxada bo'lib, rus-tuzem maktablariga bepul tarqatildi. Bunda, albatta, umumiy ta'lim maqsadigina emas, shu bilan birga, siyosiy maqsadlar ham ko'zda tutilgan edi. Toshkentda sharqshunoslik o'quv yurti ochish yo'lida qilingan xdrakatlardan natija chiqmadi.

1907 yilda bibliograf I. V. Dmitrovskiy rahbarligi ostida «Turkiston to'plami»ni tuzish ishlari yangidan boshlandi. 1917 yilga qadar to'plam jildlarining soni 394 ga etkazilgan edi (hozir to'plam Alisher Navoiy nomli O'zbekiston Davlat xalq kutubxonasida saqlanadi¹). YUqorida ko'rsatib o'tilganidek, bu to'plam juda hdm qimmatli va nodir yodgorlik hisoblanadi.

Unda 1952 yilda Mosqvadagi Davlat xalq kutubxonasida «Turkiston to'plami»ning yana 29 jildi topildi.

O'rta Osiyo va unga qo'shni bo'lgan SHarq mamlakatlarining tarixi, arxeologiyasi, etnografiyasi, adabiyoti, iqtisodiyoti, madaniyat tarixi va boshqa masalalariga oid keng ma'lumotlar bor.

O'rta Osiyo tarixi va arxeologiyasi XX asr boshidan chuqurroq tekshirila boshlandi. Bunda birinchi va rahbarlik o'rnida, shubhasiz, g'oyat bilimdon olim, mashhur sharqshunos akademik V. V. Bartol'd (1869-1930) turgan edi. U sharq tillarini yaxshi bilganidan xamisha uning ilmiy faoliyati markazida turgan.

O'rta Osiyo tarixinigina emas, shu bilan birga, butun «musulmonlar SHarqi» tarixiga ham oid juda ko'p birinchi manbalarni puxta o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Uning «Turkiston Mo'g'ullar xuruji davrida» (1898 — 1900 yillar) singari asarlari puxta to'plangan, tadqiq qilingan, asl nusxali ma'lumotlarga boyligi jihatidan O'rta Osiyoning o'tmishini o'rganishda fanga qo'shilgan g'oyat katta hissadir. V. V. Bartol'dning «Ulug'bek va

uning zamoni», «Turkistonning sugʻorish tarixiga doir» nomli asarlari va boshqa koʻp kitob, maqola, tadqiqot va mulohazalari gʻoyat qimmatli va oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan asarlardir. V. V. Bartolʻdda katta tashkilotchilik qobiliyati ham bor edi. Darhaqiqat, Oʻrta Osiyoning tarixi va arxeologiyasini oʻrganish sohasidagi biron kattaroq tadbir V. V. Bartolʻd ishtirokisiz boʻlmagan.

Polkovnik A. G. Serebrennikov toʻplagan Oʻrta Osiyoni zabt etish tarixiga oid 70 ta katta-katta jilddan iborat maʼlumotlar Oʻrta Osiyoning 1839 yildan 1876 yilgacha oʻtgan davr tarixini oʻrganishda maʼlum darajada qiziqarli manbadir. Bular Peterburg, Moskva, Orenburg, Tiflis va Omsk arxiv maʼlumotlari asosida tanlab olingan. Bulardan faqat 14 jildi nashr qilingan, xolos.

Mahalliy arxeologlardan V. L. Vyatkinning (1869 — 1932) ishlari diqqatga sazovordir. Bu olim 1908 yilda Samarqanddagi mashhur Ulugʻbek rasadxonasining qoldiqlarini ochdi, Samarqand yodgorliklarini oʻrganish va saqlash bilan shugʻullandi, qadimgi Afrosiyob qoʻrgʻoni va uning atroflarini tadqiq qildi.

V. V. Bartolʻd oʻzining 1894 yilda bosilib chiqqan «Turkistonda arxeologik tadqiqotlar masalasiga doir» kitobida oʻlkani jiddiy ravishda oʻrganish hali oldimizda turibdi, bu ishda bosh rolni mahalliy ilmiy kuchlar oʻynamogʻi lozim, degan edi. Uning taklifi bilan 1895 yili oktyabr oyida Turkiston arxeologiya xavaskorlari toʻgaragi va uning nizomi tasdiqlandi. Nizomda jumladan shunday deyilgan edi:

1. Turkiston oʻlkasidagi qadimgi yodgorliklarni oʻrganish;
 - a) ularni taʼriflab, oʻlkaning arxeologik xaritasida aks ettirish;
 - b) arxeologik yodgorliklarni saqlash;
 - v) hudud egalari ruxsat bilan undagi arxeologik yodgorliklarni qazish;
 - g) arxeologik materiallarni nashrga tayyorlash.
2. Toʻgarak faxriy va xdqiqiy aʼzolar hamda hamkor (xodim)lardan tuziladi.
3. Toʻgarakning hddiqiy va hamkorlik aʼzoliciga mahalliy arxeologiya masalalari bilan qiziquvchi, unga aʼzolik badallarini toʻlab turuvchi har bir kishy saylana oladi. Saylanuvchilarning unvoniga, kelib chiqishiga, millatiga va jinsiga qaralmaydi.
4. Haqiqiy aʼzolar oʻz ichidan bir yil muddatga boshqarma saylaydi. Boshqarma rais, kotib va xazinachidan iborat boʻladi.
5. Boshqarma toʻgarakdagi ishlarni olib boradi, qaysi yodgorlikni qazish, tadqiq qilish kerakligini aniqlaydi, mahalliy idoralar va Rossiya arxeologiya komissiyasi bilan aloqa ishlarini olib boradi va hokazo.
6. Toʻgarakning umumiy majlislariga har bir qiziquvchi kishi qatnasha oladi.
7. Toʻgarakning boʻlimlarini boshqa shaharlarda ham ochish mumkin.
8. Toʻgarak mablagʻi xdqiqiy aʼzolar, hamkorlar toʻlaydigan badallardan hamda arxeologiya havaskorlari tomonidan beriladigan hadyalardan tashkil topadi.

Toʻgarakka Turkiston general-gubernatori baron B. A. Vrevskiy faxriy rais qilib saylangandi. Toʻgarakning 108 aʼzosi boʻlib, bular ichida V. V. Bartolʻd, D. M. Levshin, N. S. Likoshin, K. V. Aristov, V. F. Oshanin va boshqa mashhur kishilar hdm bor edi. Toʻgarakda ilgʻor kayfiyatdagi rus ziyolilarining taʼsiri kuchli edi. Ular Oʻrta Osiyo tarixi va qadimgi yodgorliklarga hurmat bilan qarab, jiddiy ilmiy-tekshirish ishlarini jonlantirib yuborgan edilar.

4. Rus sharqshunosligining mahalliy tarixchilikka taʼsiri

Rus sharqshunosligi oʻzining gʻoyat katta ilmiy faoliyati bilan mahalliy tarixchilikka shubhasiz katta taʼsir koʻrsatdi. Rus sharqshunoslari Oʻrta Osiyo tarixi yuzasidan jiddiy tadqiqot ishlari olib borish bilan birga, bu ishga erli tarixchi havaskorlarni ham jalb qilish, ular bilan hamkorlikda ish olib borishga hddakat qildi. Turkistonga kelgan sharqshunoslar mahalliy tarixchi va xdvaskorlar oʻrtasida yurib va yashab, Oʻrta Osiyo tarixi xdqida muhim maʼlumotlar va asarlarni toʻpladilar va shu haqda tushuntirish ishlari olib bordilar. Toshkentlik tarixchi Muhammad Solih qoraxoʻja oʻgʻli oʻzining «Tarixi jadidai Toshkand» degan asarida Iskandar toʻra ismli bir rus olimining uyiga kelgani, u bilan suhbatlashgani va Oʻrta Osiyo tarixiga oid

ko'p savollar berib, bahslashgani hddida yozadi. Iskandar to'ra aslida Aleksandr Kun bo'lib, mahalliy xalq qadimdan Aleksandr ismini Iskandar deb atashadi. Faqat A. Kunning emas, balki O'rta Osiyoga kelgan barcha sharqshunoslarning xam xalq orasida yurib tarixga oid savollar berishy, ayrim masalalar yuzasidan bahslashishlari hamda ularga yo'l-yo'riqlar ko'rsatishlari, shubhasiz, erli xalqlar o'rtasida tarixga qiziqish hissini oshirdi. Bunday bahslashuvlar, savol-javoblar mahalliy xalq o'rtasida «diniy tus berilgan» arxeologik yodgorliklar va tarixiy hodisalarni aniqlashga, ularning **sirini** ochishga yordam berdi.

Usha vaqtda nashr qilingan «Turkiston viloyatining gazetisi», «**Turkestanskije** vedomosti» va boshqa gazeta sahifalaridagi mahalliy tarchxchi va havaskorlar tomonidpn **yozilgan** yodnomalar, yodgorliklar haqidagi kichik-kichik **xabarlar** va maqolalar, arxeologik kolleksiyalar rus sharqshunoslarining mahalliy tarixchilikka samarali ta'sir ko'rsatganligini va erli xalq orasida ham tarixga qiziqish avj olganligini ko'rsatadi. Rus sharqshunosligi bu tuyg'u va intilishlarni qizg'in qarshi olib, qo'llab-quvvatlaganligi Turkiston tarixchiligidan rivojlanishi uchun yangi sahifa ochib berdi.

Sattorxon Abdug'afforov ham rus sharqshunosligining bevosita ta'siri ostida tarixchilar qatoridan o'rin olgan. U 1876 yili Peterburgda chaqirilgan **III** xalqaro sharqshunoslar s'ezdiga A. Kun, Jo'rabek, toshkentlik Muhammadqulov, Abdulla Niyozov va Buxorolik Musajon Saidjonovlar bilan birga Turkiston vakili bo'lib qatnashadi. U Turkistonga ruslarning kelishi bilan o'lkaga rus fani ham kirib kelganligini ta'kidlab, bu orqali Turkiston dunyo fanidan yanada ko'proq bahramand bo'lishiga ishonch bildirdi. O' o'zining bu nutqi bilan s'ezd qatnashchilarining diqqatiga sazovor bo'ldi. Rus tilini qunt bilan o'rgangan Sattorxon rus tilida «Rossiyaning istilosiga qadar Qo'qon xonligining ichki ahvoli haqida qisqacha ocherk» nomli asarini yozib, «Turkestanskije vedomosti» gazetasining 1892 yil 26, 36- sonida va 1893 yil 61-sonida bostirdi. Asarda Qo'qon xonligining ma'muriy bo'linishi, boshqaruv idoralari, shahar va qishloqdagi amaldorlar, ularning huquqlari, hokim va beklarning mehnatkash xalqqa nisbatan tutgan siyosati, gunohkorlarga beriladigan jazolar, qo'shinning tuzilishi, shuningdek, sinfiy kurashlar, ya'ni Xo'jand va o'ratepada xonlikka qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonlar, Toshkent hokimi Mirzaahmadga qarshi xalq qo'zg'oloni va uning qo'zg'olonchilar talabiga rozi bo'lishi, Qo'qon xonligining chor Rossiyasi tarafidan bosib olinishi kabi masalalar yoritilgan. Mahalliy o'zbek tarixchisining rus tilida shunday bir tarixiy asar bilan maydonga chiqishi rus sharqshunosligining bevosita katta ta'sirini ko'rsatadi. Bu asar rus sharqshunosligi uchun ham katta axamiyatga ega edi.

Rus sharqshunoslari, jumladan, N. I. Veselovskiy rahbarligida Akrom polvon Asqarov kabi xavaskor tarixchi va arxeologlar etishib chiqdi. Akrom Asqarov Toshkentning Rossiya tomonidan bosib olinganiga qadar Qo'qon qo'shinida nog'orachi edi. Toshkent bosib olingach, u 1870 yillarda Toshkentda tashkil qilingan ko'rgazmalarda faol qatnashdi. SHarqshunoslar ta'sirida Turkistondagi yodgorliklarga qiziqib qoladi. O'zining havaskorligi va qizyquvchanligi bilan bora-bora Turkistondagi fan ahliga tanila boshlaydi. Akrom Asqarov 1884 yilda arxeologiyaga oid qazish ishlari o'tkazish maqsadida Turkistonga kelgan professor N. I. Veselovskiyga yoqib qoladi, yordamchi sifatida u bilan birga Buxoroda, Farg'ona vodiysida va boshqa joylarda o'tkazilgan arxeologiyaga oid tadqiqotlarda qatnashadi, tez fursatda arxeologiya bilimini o'zlashtirib oladi. SHuning uchun xdm u N. I. Veselovskiyning «tez fursatda arxeologiyaga oid ishlarni o'zlashtirib oldi» degan yuksak bahosiga sazovor bo'lib arxeologiya sohasida mahdliiy xalq orasidan etishib chiqqan birdan-bir fan arbobi amaliyotchi bilimdon sifatida tanildi. Akrom Asqarov N. I. Veselovskiydan Turkistondagi arxeologiyaga oid yodgorliklarning qaysi biri muhim va qaysi biri ustida ish olib borish zarurligini so'raganda, u unga ma'lum ko'rsatmalar berib turdi. N. I. Veselovskiy Turkistondan ketgandan keyin Akrom Asqarov bir necha yil mustaqil ravishda arxeologiyaga oid tadqiqot ishlari olib bordi. Uning faoliyati xddida mahalliy va markaziy matbuotda hech narsa yozilmagan bo'lsa-da, ammo uning to'plagan boy va qimmatli arxeologiyaga oid ashyolar to'plami o'sha yillar davomida nihoyatda samarali va keng ko'lamda ish olib borilganidan dalolat beradi. Akrom Asqarov 1891 yilda vafot etgach, uning boy

arxeologiyaga oid ashyolar to'plami juda ehtiyotlik bilan Peterburgga olib ketilib, hozir ham Davlat ermitajida saqlanmoqda.

«Turksstanskije vedomosti» gazetasining 1892 yil 31- sonida bosilgan professor evarnitskiyning «Akrom Asqarovning arxeologiyaga oid ashyolar to'plami» nomli maqolasida berilgan ma'lumotga ko'ra, ashyolar to'plamida 17 dona oltin pul, 1370 dona kumush pul, 13 274 dona mis pul, neolit davriga oid tosh bolg'a, jezdan yasalgan sulug', jez oyna, jez iskana, jez ketmonlar (motiga), turli joylarda to'plangan sopoldan yasalgan odam hdykallari, bir bo'lak nefrit, isirg'a, krest (but), baldoq, tumor, mis, sopol idish va shunga o'xshash garixiy buyumlar bo'lgan. Akrom Asqarovning fan uchun qimmatli bo'lgan bu ashyolar to'plamiga professor N. I. Veselovskiy ham katta baho bergan edi. Rossiya arxeologiya jamiyati 1887 yilda uning arxeologiya sohasidagi xizmatlarini taqdirlab, uni kumush medal' bilan mukofotladi. O'zi to'plagan tarixiy buyumlarning tarixning qaysi davriga oid ekanligini idrok qila olmagan bo'lsa-da, oddiy bir o'zbekning «o'sha vaqtda **tarixiy** nodir buyumlarning fan uchun katta ahamiyatga ega ekanini tushungani holda, fan uchun to umrining oxirigacha tinmay xizmat qilishi rus sharqshunosligi faoliyatining samarasi bo'lib, bu rus sharqshunosligi uchun ham, mahalliy tarixchilik uchun ham yangilik va foydali ish edi.

O'rta Osiyo, shu jumladan Qo'qon xonligi, Namangan va Toshkentda yashagan, o'zbek xalqining tarixi, tilini va urf-odatlarini o'rganishda Vladimir Petrovich Nalivkinning (1852—1918) ham qo'shgan hissasi kattadir.

Uning ilmiy faoliyati O'rta Osiyo xalqlari tarixi, tilini va etnografiyasini o'rganishdan boshlandi. U rafiqasi M. V. Nalivkina bilan xdmkorlikda «Farg'ona mahalliy aholisi ayollarining turmushi haqida ocherk» degan kitob yozdi. V. P. Nalivkin rus olimlari ichida birinchi bo'lib, mahalliy tillarni urganib, mahalliy tarixchilar qo'lyozma asarlarini o'**rgangan** va shular asosida «Qo'qon xonligining qisqacha **tarixi**» va «Ruscha-sartcha va sartcha-ruscha lug'at» hamda «Intihob ut-tavorix mamlakati Rusiya» («Rossiyaning qisqacha tarixi») kitoblarini va 40 dan ortiq ilmiy agarlar, maqolalar yozgan. Mahalliy xalq tilini juda mukammal bilganligi sababli uni erli xalqlar Jahongir to'ra deb ataganlar, u ham bir necha asarini Jahongir to'ra nomi bilan chop etgan.

Uning 1885 yilda Jahongir to'ra nomi bilan yozilgan' «Intihob ut-tavorix mamlakati Rusiya» nomli asari buning yorqin dalilidir. Muallifning «Bu faqir... zaboni nochor va suxoni ojiz birlan tavorix kitoblari **tahriridagi** voqealarni intihob **aylab ko'p tafsili** keltirmay ijmolli birla muxtasar **bayonini** qilardiki, Rusiya mamlakatining paydo va **bino bo'lganidan** to oxir zamonigacha mazkur viloyat ichra o'tgan hodisa va voqeliklarni tasnif qilg'ay»,— deyishidan ma'lumki, u o'z asarini ko'p adabiyotlardan foydalangan holda yozgan. Bu asarning erli aholini Rossiyaning o'tmish tarixi bilan tanishtirish maqsadida o'zbek tilida yozilishi o'z davri uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lgan bir hodisa edi.

SHunday qilib, XX asrning 20- yillariga qadar olimlar va turkshunos havaskorlarning kuchlari bilan Ozbekiston o'lkasini o'rganishga doir anchagina materiallar to'plangan. Biroq bularning orasida uzuq-yuluq va tasodifiy materiallar anchagina bo'lib, keng, ilmiy asosda umumlashtirilmagan edi.

O'rta Osiyo, shu jumladan, O'zbekiston tarixini ilmiy asosda o'rganish faqat asrimiz boshlarida va undan keyingi yillarda samarali va fidokorona ish olib borish natijasida yaratildi va u yanada chuqurlashtirildi.

5. Tarixiy o'lkashunoslikning 1917 yildan keyingi ahvoli

Qadriyatimiz o'z o'lkamiz tarixini o'rganishdan boshlanishi hech kimga sir emas. 70yildan ortiq davr mobaynida biz yosh avlodga o'tmishimiz tarixini o'rgatishda juda katta chalkashlik va xatoliklarga yo'l qo'yib keldik.

1917 yilgacha yashagan sharqshunos olimlar va mahalliy tarixchilarning o'lkani o'rganishga bag'ishlangan asarlari unutildi. O'lka bilan bevosita shug'ullanganlar millatchilik tamg'asiga duchor bo'ldilar.

Sobiq SSR Xalq ta'limi vazirligi tomonidan dorilfununlar va pedagogika oliy o'quv yurtlari tarix fakul'tetlari uchun tavsiya etilgan «SSSR tarixi» (1- tom, eng qadimgi zamonlardan 1861 yilgacha, hajmi 70, 71 bosma taboq) darsligida «O'rta Osiyo va Qozogiston» degan mavzuga atigi yarim varaq joy berilganligini qanday baholash kerak?

Ona diyorimiz — o'lkamiz tarixini o'rganishga yoki shu vaqtlarga qadar tariximiz rivojiga munosabat shumi?

X — XII asrlardayoq O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston jahonning eng madaniyatli o'lkalaridan biri bo'lgan. Bu erda mashhG'ur matematik, falakiyotshunos, tarixshunos, faylasuf va tabobat ilmining mashhur namoyandalari etishgan, ularning nodir qo'lyozma asarlarining ba'zilari respublikamizdagi SHarqshunoslik va qo'lyozmalar institutlarining hujjatxonalarida hozirga qadar o'rganish uchun navbat kutib yotibdi.

YUqorida tilga olingan 32 bobdan iborat darslikning 186- paragrafida deyarli tamoman Rossiyaning Evropa qismi tarixi yoritilgan bo'lsa, O'rta Osiyo, Kavkazorti, qora dengiz bo'ylaridagi davlatlarda feodalizmning tashkil topishi mavzulari yuzasidan har biri 2,5 — 3 varaqdan iborat 8 ta siyqasi chiqqan ma'lumot berilgan, xolos.

Darslikning birinchi bo'limida «Ibtidoiy jamoa tuzumi» degan mavzu bor. O'nda Rossiyaning Evropa qismida paleolit, mezolit, neolit, eneolit davrlariga doir manzil va makonlarning kamligi sobiq SSJI tarixi uchun misol bo'la olmaganligi hamda o'sha hududda quldorlik tuzumi va uning rivojiga oid ma'lu-motlarning kamligi sababligina Kavkazorti va O'rta Osiyo tanlab olingan.

Bir misol. O'zbekiston hududida mezolit (o'rta tosh) davri miloddan avvalgi 12 ming yillikdan 5 ming yillikkacha davom etgan bo'lib, o'sha vaqtda ibtidoiy tasviriy san'at boshqa joylardagiga qaraganda ancha rivojlangan. g'orlarda yashagan odamlar qoya toshlarga qizil bo'yoq bilan naqsh chizib yoki o'yib yozib, ajoyib ov manzaralarini qoldirib ketganlar. Bunday nodir san'at obidalarini Surxondaryoda Zarautsoy, Jizzaxda Takatosh, Buxoroda Sarmish, qoraungursoy, Toshkent vohasida qorazov, Xo'jakent, Parkent hududlaridan topib o'rganilganligi haqiqat. Bu O'zbekiston xalqlarining ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganishda g'oyat qimmatli tarixiy hujjatdir.

Termiz yaqinidagi Ayritomda toshga o'yilgan bo'rtma rasmlar, Xorazmning qadimgi poytaxti — Tuproqqal'adan chiqqan haykal-u devorga ishlangan rasmlar hmda Surxondaryodagi Xolchayon, Dalvarzintepadan topilgan gil va ganchdan yasalgan haykallar o'lkamiz xalqlari qadimdan o'ziga xos betakror usullar bilan yuksaklikka ko'tarilgan tasviriy san'at madaniyatini allaqachon yaratganligini ko'rsatadi. Ammo bunday nodir topilmalar o'lkamiz farzandlariga tanishtirilmadi.

1917 yilga qadar o'lkamizda har xil fanlarning rivojiga o'z hissalarini qo'shib kelgan anchagina mahalliy kishilar foydali qazilmalar topish va ularni ta'riflash, qadimgi zamon yodgorliklarini, osori-atiqalarni o'rganish kabi ishlarni amalga oshirganlar. Bunday ajoyib kishilarning nomlari keyinchalik esdan chiqarib yuborilgan. Masalan, o'lkamizda mineral boyliklar qidirgan, qo'rg'oshin va feruza konlarini topgan xo'jandlik Mulla Sang'in, CHimkentda o'lkadagi birinchi rus-tuzem maktabini ochishda faollik ko'rsatgan, Qo'qon shahar maktabida ishlagan hamda «Turkiston viloyatining gazetisi»da mas'ud muxarrirlik qilgan, Turkiston muallimlar seminariyasida o'zbek va fors tillarida dars bergan, 1876 yilda Peterburgda orientalistlar III xalqaro kongressida ma'ruza qilgan, o'lkadagi tub joy aholi orasida dunyoviy bilimlarning tarqalishiga katta xissa qo'shgan Sattorxon Abdug'afforov, o'zbek arxeologiyasi rivojiga ham katta hissa qo'shgan, numizmatik kolleksiyalar to'plagan, hozirgacha boy kollektsiyasi Davlat ermitajida tilga olinmagan samarqandlik Mirzo Buxoriy, Mirzo Abdullolarning nomlari unutildi. Vaholanki, shu iste'dodlardan biri ajoyib san'atkor-xattot Mirzo Barot Mullo qosimov Samarqand va uning atroflaridagi ko'pdan-Ko'p qadimgi zamon yodgorliklarining rasminichizgan, Ulug'bek madrasasining g'oyat aniq chizmasini tayyorlagan edi.

A. L. Kunning Iskandarko'l ilmiy safarida qatnashib, fanga qadimgi toshlarga va daxma toshlariga yozilgan xatlar qayd qilingan juda ajoyib kundalik qoldirgan Mirzo Abdullo Abdurahmonni ham unutdik.

Tarixiy o'lkashunoslik fanining sodiq tashkilotchilaridan bir Akrompolvon Asqarov juda ajoyib yodgorliklar O'rta Osiyoda eng qadimda zarb etilgan tanga-chaqalardan 15 mingdan ko'p kolleksiya to'plagan. Akrompolvon arxeologiya faniga ko'rsatgan xizmatlari uchun Rus arxeologiya jamiyatining nishoni bilan mukofotlang'an. U Toshkentda 1890 yilda ochilgan Turkiston qishloq xo'jaligi va sanoati ko'rg'azmasiga oliy navli g'o'za, pilla vaxom ipak, pilla qurti boqishda eng yaxshi nav **deb** topilgan tut navlarini qo'ygan.

Buxoroda qadimgi gilamlar, qo'lyozmalar, nodir sopol idishlar to'plagan Muhammad Vafo juda mashhur bo'lgan. Havaskor-geograflardan Olimxo'ja YUnusov, Mirza Hakim va boshqalar Rus geografiya jamiyati Turkiston bo'limining jonkuyar xodimlari edi. Jamoatchilikning olqishiga sazovor bo'lgan mana shunday yuzlab ajoyib olimlar faoliyatini, ularning asarlarini hozirgacha o'rganilmay kelinishini izohlab bo'ladimy? Bas, shunday ekan, hozirgi yosh avlod qadimgi tanga pullarning zarb etilish tarixi, uning ahamiyati va savdo rivojidagi o'rnini bilib olmas ekan, hozirgi pullarning ham mohiyatini tushuntirib bera olmaydi. Numizmatika faniga bo'lgan qiziqish juda past. Jumhuriyatimiz hududidan topilgan qadimgi va o'rta asrga oid tanga pullar ko'pgina noma'lum qadimgi shaharlar «yoshi»ni aniqlab olishda katta yordam beradi. Masalan, Buxoro, Termiz, Kat, Quva va boshqa joylarda zarb etilgan oltin, kumush va mis tanga pullar shu hududda tashkil topgan Xorazm, Kanxa, Farg'ona, Dahiya, Kushan, So'g'd, Somoniylar, qoraxoniylar, Temuriylar va boshqa podsholiklarning iqtisodiy hamda siyosiy tarixini, ayniqsa bu davlatlardagi pul hamda tashqi va ichki savdo munosabatlarini o'rganishda juda qimmatli ashyoviy dalil bo'lib xizmat qiladi. SHunisi achinarliki, **1917** yildan so'ng to hozirgi kunimizgacha o'lkashunoslik fani o'lkamiz tarixini davrma-davr o'rganishdan iborat o'z vazifasini bajarmay, ko'proq Rossiyaning Evropa qismidagi o'lkalarni o'rganish bilan mashg'ul bo'lib kelaveradi. Biz esa indamadik. O'rta Osiyo xalqlaridan boshqa deyarli barcha xalqlar o'z tarixini ozmi-Ko'pmi biladilar. Biz esa rus knyazlarini, rus davlatini, Moskvaning tashkil topishi va uning birinchi knyazi YUriy Dolgorukiy 1147 yilda Moskvaga asos solganini bilamiz-u, ammo o'z ona diyorimizda miloddan oldingi **III** asrda Grek-Baqtriya davlatiga asos solib, birinchi tanga zarb etgan Diodot haqida o'ylab ham ko'rganimiz yo'q.

Ona diyorimizni arab bosqinchilaridan himoya qilgan Hakim ibn Hoshim (Muqanna) boshchiligidagi qo'zg'olon xususida chala-chulpa ma'lumotga ega bo'lgan xalqimiz Xorazmda arablarga qaqshatqich zarba bergan ajoyib qahramon Xorazm shohi yoki Samarqand hokimi Guraklarning Qusam ibn Abbosga qarshi olib borgan shiddatli janglari, SHohi Zinda ansambli bilan bog'liq tarixiy afsonalar haqida tasavvurga egami? Yo'q, albatta.

O'zbek maktablarida o'quvchilarimizga Dmitriy Donskiy va uning qahramonligi, rus davlati, iqtisodiyoti, ichki va tashqi siyosatini maroq bilan tushuntirib bersak-da, IX X asrlarda dunyoga mashhur bo'lgan Somoniylar davlatida etishib chiqqan ilm-fan darg'alari-yu, o'z she'riyati bilan jahon afgor ommasini hayratga solgan Rudakiy, Firdavsiy, Sa'diy, Hofiz kabi zabardast daholar haqida deyarli hech narsa demaganmiz. Ular SHarq poeziyasining asosiy xususiyatlarini belgilab bergan bo'lsalar-u, ularning ijodiy faoliyati bilan o'quvchilarni tanishtirmasak, nima degan odam, qanday o'lkashunos olim bo'lamiz?

O'sha davr ilm-fanini jahonga taratgan Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy kabi mutafakkir olimlar hayoti hamda ijodi taraqqiyparvar insoniyat tomonidan o'rganilsa-yu, biz nega o'rganishimiz mumkin emas? Mana endigina mustaqillikni mustahkamlab borib, maktab dasturlariga allomalar va qahramonlarimizning hayoti va ijodiy faoliyatlarini kiritayotirmiz.

O'lkamizda o'zbek tiliga davlat maqomi berilganda o'zbek tilining qadimgi til ekanligini isbotlab berishda asosiy manba Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarining nechog'li ulkan ahamiyati bor ekanligi ozmi-ko'pmi ma'lum bo'lsa ham bu daho mutafakkir urning dumaloqligini isbotlab, dunyo xaritasini chizib qoldirganligi haqidagi ma'lumotni o'rganishning vaqti kelmadimikin?

Hozirgi kunda o'lkashunoslik fani oldida quyidagi eng mas'uliyatli vazifalar turibdi: ko'hna Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Andijon, Namangan, SHahrisabz kabi shaharlardagi sayohat mazmunini tushuntiruvchilarga to'g'ri ilmiy yo'nalish berish; viloyat, voha va

vodiylardagi o'lkashunoslik muzeylariga ma'lumotnoma va yo'l ko'rsatkichlar tayyorlash; viloyat, voha va vodiylardagi xamda jumhuriyat markaziy arxividagi hujjatlarni o'rganish; SHarqshunoslik ilmgohi va qo'lyozmalar ilmgohida saqlanib turgan 5000 dan ortiq nodir qo'lyozma asarlarni o'rganib, ularni aholi keng ommasiga etkazish.

Ushbu vazifalar amalga oshirilsa, mustaqil davlatimiz O'zbekistonning haqiqiy vatanparvarlarini tarbiyalab etishtirishga munosib hissa qo'shilgan bo'ladi.

6. O'lkashunoslikning asosiy manbalari

O'lkashunoslik besh asosiy manbaga: arxeologiya, etnografiya, toponimika va arxiv hujjatlari xamda muzey materiallariga tayanib ish tutadi.

Qishloq, rayon, shahar yoki viloyat hududining tarixini o'rganishda shu manbalardan birontasi ham diqqat-e'tibordan chetda qolmasligi lozim, busiz o'lka tarixini mukammal o'rganib bo'lmaydi.

O'sha besh manbadan biri bo'lgan arxeologiya to'g'risida gap borganda, avvalo maktab tarixi kursining qaysi qismida, qaysi sinfda va qanday qilib, qachon arxeologiyaga oid materiallardan foydalanish mumkin degan savolga javob berish kerak bo'ladi. CHunonchi, V sinf tarixi kursida O'zbekiston xalqlarining eng qadimgi ibtidoiy jamoa davri: odamlar to'da holda yashagan davr, ona urug'i (patriarxat) davri, ona urug'ining rivojlanishi, kaltaminorliklar chaylasi, ota urug'i (patriarxat) davri, temirning tarqalishi, sug'orishning kelib chiqishi davridan boshlab, quldorlik jamiyati, feodalizm davri, nihoyat XVIII asrning ikkinchi yarmida feodalizmning emirilishi va kapitalistik munosabatlarning rivojlanishigacha bo'lgan juda katta tarixiy davr o'z ifodasini topgan. Demak, bu kursda ayrim mavhum tarixiy tushunchalar haqida o'quvchilar ma'lum tasavvur hosil qilishida, tarixiy faktlarni ishonarli qilib tushuntirishda arxeologiyaga oid materiallardan o'rinni foydalanish juda muhimdir.

O'quv qo'llanmada «Ibtidoiy jamoa davri» qisqa berilganligi tufayli so'nggi yillarda yaratilgan ba'zi asarlar hamda turli ilmiy adabiyotlardagi xulosalar asosida O'zbekistonda ibtidoiy jamoa davrini quyidagi mayda davrlarga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Ibtidoiy to'da davri.
2. Ona urug'i (matriarxat) davri.
3. Ona urug'ining rivojlanishi.
4. Kaltaminorliklar chaylasi.
5. Ota urug'i (patriarxat) davri, temirning topilishi va xo'jalikda iiglatila boshlanishi davri.
6. Sun'iy sug'orishning kelib chiqishi hamda quldorlik jamiyati va nihoyat, feodalizm davri

O'zbekiston misolida besh manba — avval arxeologiya, etnografiya, toponimika, arxiv hujjatlari, so'ng muzey eksponatlari orqali tartibli ravishda bayon qilinadi.

Mavzuga oid tayanch so'z va iboralar.

- | | |
|--------------------------------|----------------------------|
| 1. Tarixiy yodgorliklar. | 6. Ilmiy o'lkashunoslik. |
| 2. Jamoat o'lkashunosligi. | 7. Arxeologik yodgorliklar |
| 3. Maktab o'lkashunosligi. | 8. San'at yodgorliklari. |
| 4. Turkiston xalq kutubxonasi. | 9. Etnografiya |
| 5. Kolleksiya. | 10. Toponimika. |

Mavzu yuzasidan nazorat savollari.

1. O'lka deganda nimani tushunasiz?
2. O'lkashunoslik fani qanday vazifalarni o'z ichiga oladi?
3. O'lkashunoslik fanining asosiy manbalari nimalardan iborat?
4. O'lkashunoslik qanday turlarga bo'linadi?

5. O'lkashunoslik fani qanday rivojlanish bosqichlarini bosib o'tdi?
6. O'rta Osiyo olimlari jamiyati kachon praydo buldi?
7. O'lkashunoslik faning rivojlanishida muhim rol o'ynagan qanday tarixiy asarlarni bilasiz?
8. Akrom Asqarovning o'lka tarixini yoritishdagi asosiy vazifasi nimadan iborat edi?
9. V.V. Bartol'dning ulka tarixini o'rganishdagi roli.
10. O'rta Osiyo olimlari jamiyati faoliyati xaqida to'xtaling.
11. Turkiston arxeologiya to'garagi xaqidagi gapirib bering.
12. Turkiston xalq kutubxonasining ochilishi qanday ahamiyatga ega bo'ldi?
13. Sobiq Ittifoq davrida o'lkashunoslik fanining markazdan andoza olgan xolda rivojlanishiga qanday qarasiz?
14. O'lkani o'rganishda statistik komitetlarning roli.
15. Sobiq Ittifoq davrida o'lkashunoslikka tegishli bo'lgan ishlar nima uchun chetda qolib ketdi?
16. Ilmiy o'lkashunoslik deganda nimani tushunasiz?
17. Jamoat o'lkashunosligi deganda nimani tushunasiz?
18. O'lkashunoslikni o'rganishni tarbiyaviy ahamiyati.
19. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi tashkil topgandan so'ng ulka tarixini o'rganishga yangicha qarash.
20. Etnografik yodgorliklar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. Vatan sajdagox kabi muqaddasdir. Toshkent «O'zbekiston 1996 yil.»
2. Artsixovskiy A.B. «Arxeologiya asoslari» Toshkent «O'qituvchi» 1970yil.
3. Nabiev A. «Tarixiy o'lkashunoslik» Toshkent «O'qituvchi» 1996 yil.
4. Sa'diev A. «XIX asrda Turkistonda tarix fani» Toshkent 1960 yil
5. Gulomov YA.G. «O'zbekistonda arxeologiya» Toshkent 1956 yil.

2-MAVZU: Tarixiy o'lkashunoslikning asosiy manbalari. O'lkashunoslikda arxeologiyaning roli.

REJA:

1. **Fanning asosiy manbalari**
2. **O'zbekistonda arxeologiya: Yozma va moddiy ashvoviy manbalar.**

O'lkashunoslik besh asosiy manbaga: arxeologiya, etnografiya, toponimika va arxiv hujjatlari xamda muzey materiallariga tayanib ish tutadi.

Qishloq, rayon, shahar yoki viloyat hududining tarixini o'rganishda shu manbalardan birontasi ham diqqat-e'tibordan chetda qolmasligi lozim, busiz o'lka tarixini mukammal o'rganib bo'lmaydi.

O'sha besh manbadan biri bo'lgan arxeologiya to'g'risida gap borganda, avvalo maktab tarixi kursining qaysi qismida, qaysi sinfda va qanday qilib, qachon arxeologiyaga oid materiallardan foydalanish mumkin degan savolga javob berish kerak bo'ladi. CHunonchi, V sinf tarixi kursida O'zbekiston xalqlarining eng qadimgi ibtidoiy jamoa davri: odamlar to'da holda yashagan davr, ona urug'i (patriarxat) davri, ona urug'ining rivojlanishi, kaltaminorliklar chaylasi, ota urug'i (patriarxat) davri, temirning tarqalishi, sug'orishning kelib chiqishi davridan

boshlab, quldorlik jamiyati, feodalizm davri, nihoyat XVIII asrning ikkinchi yarmida feodalizmning emirilishi va kapitalistik munosabatlarning rivojlanishigacha bo'lgan juda katta tarixiy davr o'z ifodasini topgan. Demak, bu kursda ayrim mavhum tarixiy tushunchalar haqida o'quvchilar ma'lum tasavvur hosil qilishida, tarixiy faktlarni ishonarli qilib tushuntirishda arxeologiyaga oid materiallardan o'rinli foydalanish juda muhimdir.

«Arxeologiya» so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, «arxayos» — qadimgi, «logos» — fan, ya'ni qadimgi davrni o'rganuvchi fan degan ma'noni bildiradi. Arxeologiya — o'lkashunoslik va tarix fanlarining asosiy manbalaridan biridir.

Dunyo xalqlarining bir necha yuz ming yillardan beri davom etib kelayotgan tarixi bor. Lekin shu uzoq tarixiy taraqqiyotning eng keyingi 5 — 6 minginchi yillaridan boshlabgina yozma asarlar bo'lib, undan avval xalqlarda yozuv va yozma tarix bo'lmagan.

YOzuv paydo bo'lgandan keyin xam ko'pgina voqealar yozilmay qolgan, podsholarning buyruqlari, ruhoniylarning diniy ta'limotlari, xazinalarning hisob-kitoblari hamda turli urushlar haqidagi yozma asarlar esa o'z zamonasining ishlab chiqarish usullari va vositalarini, xalqning maishatini etarlicha aks ettirmagan.

Demak, qadimgi shahar va qishloqlar qazib ko'rilganda, u erlardan qadimgi xalqlarning uy-joy qoldiqlari, uy-ro'zg'or asboblari, zeb-ziynat buyumlari, e'tiqod yodgorliklari topiladi; bu narsalar esa yozma tarixdagi ma'lumotlarga qaraganda o'sha davr turmu-shini har taraflama va aniqroq, yoritib berishga yaraydi. YOzma tarix paydo bo'lgungacha o'tgan bir necha yuz ming yillik davr tarixini hamda yozma tarix chiqqandan keyingi davr hayotini to'la o'rganish zaruriyati o'sha davr xalqlaridan qolgan buyumlarni tekshirib ko'rishni taqozo etadi. Bunday yodgorlik buyumlarini tekshiruvchi fan arxeologiyadir, Arxeologiya ibtidoiy odamlar yashagan makonlarni, sinfiy davrdan qolgan shahar, qishloq va mozorlarni qazib ko'rib, tarixni aniqlaydi.

Arxeologlar qazishma usuli bilan ish ko'radilar. Ayniqsa yozuvlar paydo bo'lmasdan burungi davr tarixini arxeologiya qazishmalarida topilgan buyumlar to'ldiradi, arxeologiya qazishmasining natijalari matbuotda keng yoritib boriladi.

Katta qurilishlarda o'tkaziladigan er qazish ishlarida arxeologiya buyumlariga ehtiyot bo'lish yuzasidan ilmiy tushuntirishlar o'tkaziladi. Arxeologiya fani hali boshqa fanlarga qaraganda yosh bo'lishiga karamasdan, dunyoda katta e'tibor qozongan va hammani qiziqtirgan fandir.

1. Rus sharqshunosligi va arxeologiya

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, tarixchilik O'rta Osiyoda juda ham qadimdan boshlangan. Xorazmlik mashhur olim Beruniyning yozishiga ko'ra, arab istilochilari O'rta Osiyodagi mahalliy olimlarni yo'qotibgina qolmay, mahalliy til va mahalliy yozuvdagi asarlarni ham yo'q qilib, yondirib yuborganlar. SHu sababli eng qadimgi zamonlarda yozilgan asarlar saqlanmagan. Ming yil davomida yozilib kelgan tarixiy asarlar juda ko'p. Muhammad Narshaxiyning «Buxoro tarixi», Bal'amiyning «Tarix tabari tarjimai» kabi asarlari yozilganiga ming yildan oshdi.

Lekin O'rta Osiyoda arxeologiya, yuqorida aytilganidek juda yosh fan. Rossiyada bu fan XVIII asrning o'rtalarida paydo bo'lib, XIX asrda ancha rivojlangan. O'sha vaqtda olimlar Rossiya erlarida ko'p topilgan O'rta Osiyo qadimgi tanga pullarini to'plab, ularni tekshirib, Rossiya bilan O'rta Osiyo xalqlarining qadimdan iqtisodiy aloqada bo'lib kelganligini isbot etdilar. XIX asrning ikkinchi yarmida, O'rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin, bu erga kelgan har bir mutaxassis va savodli kishi qal'alar xarobasini, sun'iy tepalarni, shaharlar xarobalarini, qadimdan qolgan bino xarobalarini ko'rib, ularning tarixini surishtira boshladilar. Natijada 1870 yillarda Toshkentda chiqa boshlagan gazeta va jurnallarda bu tarixiy yodgorliklar haqida turli ma'lumotlar e'lon qilina boshlandi. Bunday xarobalarni tekshirish jarayonida, hatto «xazina» izlab ba'zi tepalarni buzib yuborishgacha ham bordilar.

Bir guruh taraqqiyparvar rus ziyolilari — arxeologiya havaskorlari hozirgi tarix muzeyini tashkil etib, har joyda topilgan arxeologiyaga oid yodgorliklarni bu erga to'plashga kirishdilar. Rus sharqshunoslari N. I. Veselovskiy, V. V. Grigor'ev, I. Kallaur, V. V. Bartol'd, V.

L. Vyatkin, shuningdek, o'zbek arxeologlaridan Akrompolvon Asqarov va boshqalar bu yodgorliklarni tarixshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish ishida tashabbuschi bo'ldilar. O'rta Osiyoning cho'llari, tog'lari va qishloq erlaridagi ba'zi yodgorliklar haqidagi turli afsona va xabarlarni matbuotda e'lon qilish odat bo'la bordi. Bu ishga qozoq, o'zbek, tojik, turkman havaskorlari ham tortildi.

Hozir Toshkentdagi tarix san'at va tabiat muzeylarida to'plangan boy arxeologiyaga oid ashyolar to'plamining katta qismi o'sha havaskorlar tomonidan XIX asrda yig'ilgan.

Bundan tashqari, ular bir qancha muhim yodgorliklarda qazishma ishlari ham olib bordilar. Bu borada, ayniqsa, arxeolog-sharqshunos V.L.Vyatkinning xizmatlari alohida tahsinga loyiqdir. Rus sharqshunoslari buzib tashlangan Ulug'bek rasadxonasining izlarini topish uchun ko'p urindilar, nihoyat, Samarqandda istiqomat qiluvchi V.L.Vyatkin qadimgi vasiqalarni o'rganish asosida rasadxonaning o'rnini aniqladi. 1908—1909 yillarda bu joy arxeologik yo'l bilan qazildi va rasadxonaning g'ildirak shakldagi binosining kursisi, binoning buzilgan g'isht va naqshlari hamda rasadxonaning sakkizdan bir qismi topildi. Bu ish tarix fani uchun katta kashfiyot bo'ldi. SHu bilan birga, arxeologiya havaskorlari qadimgi Samarqanddagi «Afrosiyob» tepaligida birmuncha qazishmalar o'tkazdilar.

XX asrning 20- yillarigacha O'rta Osiyoda arxeologiya mustaqil fan darajasiga ko'tarilmadi. Arxeologlar arxeologiya yodgorliklarini ma'lum tarixiy bosqichdagi ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyot natijasi deb baholay olmadilar, ishlab chiqarish munosabatlari qanday bo'lganini payqay olmadilar, madaniyatni ishlab chiqarish taraqqiyoti va ijtimoiy munosabatlar mahsuli deb tushuna olmadilar, balki uni bironta din bilan yoki birorta «alohida iqtidorli shaxslar» bilan bog'ladilar. So'ngra arxeologiya yo'li bilan topilgan buyumlarga faqat yozma tarixni tasdiqlovchi material sifatidagina qarab, arxeologiyaning imkoniyatlarini chegaralab qo'ydilar. SHuning uchun ham ular tarixning uzoq o'tmish davrlarini o'rganishga kirisha olmadilar.

Natijada, arxeologiya ham, tarixshunoslik singari, idealistik nazariya bilan sug'orilgan holda tarixchilarga jiddiy yordam bera olmadi.

2. O'zbekistonda arxeologiyaning rivojlanishi

Tarixchilikning katta yutuqlaridan biri arxeologiyaga katta e'tibor berganligi bilan belgilanadi. Jamiyat tarixi ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivoji va shu asosda ishlab chiqarish munosabatlarining turli davrda o'zgarib borishidan iborat ekanligi fanda e'tirof etilgach, tarixni ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarga ajratib davrlash masalasi kun tartibiga qo'yildi.

Tarixchilikda butun insoniyat tarixi quyidagi davrlarga bo'lib o'rganiladi:

1. Ibtidoiy jamoa tuzumi davri. 2. quldorlik davri. 3. Feodalizm davri. 4. Kapitalizm davri.

Hozirgi fanning aniqlashiga ko'ra, kishilik jamiya-ti tarixi bir million yilga yaqinlasha boradi. SHu uzoq davrning oxirg'i ming yillaridagina sinfiy jamiyat, ya'ni quldorlik jamiyati vujudga kelgan bo'lib, unga qadar o'tgan davrlar ibtidoiy jamoa davrini, ya'ni sinf paydo bo'lgunga qadar o'tgan davrni o'z ichiga oladi. O'zbekistonda tarix fani rivoj topgunga qadar, birinchidan, tarixni ishlab chiqarish usullariga qarab davrlashtirish yo'q edi. O'zbekistonda, umuman O'rta Osiyoda ibtidoiy jamoa davri bo'lganligiga shubha bilan qaralgan edi. Ikkinchidan, O'rta Osiyoda aholi eron va SHimoliy Hindiston tomondan ko'chib kelgan, deb taxmin qilinardi. quldorlik davri ham go'yo bo'lmagan, eng qadimgi zamonlardan tortib, so'nggi Buxoro amirlari yamonigacha O'rta Osiyo xalqlarining hayotida o'zgarish bo'lmagan, deb uqtirilar edi.

Tarixni davrlashtirish masalasining qo'yilishi tarixchilar va arxeologlarni ishga solib yubordi. Birinchi besh yillik oxiridayoq sobiq SSJI tarixini, shu jumladan, O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi yuzasidan yozma manbalarni o'rganishga kirishish bilan birga, arxeologiya yodgorliklarini qazib topishga ham jiddiy e'tibor berila boshlandi. Bu ishning boshida Moskva, Sankt-Peterburg va O'zbekiston arxeologlari: A. YU. YAkubovskiy, G. V. Grigor'ev, S. P. Tolstov, M. E. Masson, V. A. SHishkin, YA. g'. G'ulomov va boshqalar

turdilar. Birinchi ish O'zbekistonning alohida rayonlarida arxeologiyaga oid qidirish o'tkazishdan boshlandi.

Masalan, 1925-1930 yillarda Samarqandda V. L. Vyatkin, 1926—1928 yillarda Termizda B. P. Denike, 1929—1930 yillarda A. A. Potapovlar Farg'ona vodiysida hamda 1932 — 1933 yillarda Namangan viloyatining o'chqo'rg'on rayoni Norin daryosi bo'yida elektrostantsiya qurish tayyorgarligi munosabati bilan Sankt-Peterburg arxeologlaridan B. A. Latinin Farg'ona vodiysining shimoli-sharqiy rayonlarida; 1934 yili Sankt-Peterburg arxeolog G. V. Grigor'ev YAngiyo'l rayonida; o'sha yili professor A. YU. YAkubovskiy boshliq Sankt-Peterburg va O'zbekiston arxeologlari Buxoro viloyatining sharqiy qismida, yana o'sha yili arxeolog M. E. Masson boshliq arxeologlar Ohangaron vodiysida jiddiy arxeologik qidiruv ishlarini o'tkazdilar.

1936 — 37 yillarda bu ish kengayib, qadimgi Termiz shahrini qazish yuzasidan ilmiy ishlar kuchaytirilishi bilan birga prof. S. P. Tolstov boshchiligidagi Xorazmda, V. A. SHishkin boshchiligidagi Buxoro viloyatining g'arbiy qismida yangidan tekshirishlar boshlandi. Bu ilmiy safarlar katta miqyosda uyushtirilib, ularning hammasida Moskva, Sankt-Peterburg va O'zbekiston arxeologlari hamkorlik qildilar. Bu ilmiy safarlar 1939 — 1940 yillarda O'zbekistonda sug'orish sohasida xalq qurilishlari boshlanishi munosabati bilan arxeologiya kuzatishlari o'tkazdi, bu borada Farg'ona vodiysida katta natijalarga erishildi.

Mavzuga oid tayanch so'z va iboralar.

Arxeologiya	Afrosiyob	Ibidoiy jamoa tuzumi
Paleolit	Mezolit	Neolit
Eneolit	Ibtidoiy	Poda
Ashel'	SHel'	Must'e
Pitekanthrop	Sinantrop	Geydelberg
Neandertal'	Neolit inqilobi	Ona urug'i davri
Naus	Ossuariy	Dexqon
CHopper	Kadivarlar	Ota urug'i davri

Mavzu yuzasidan nazorat savolar.

1. Arxeologiya qanday fan va uni o'lka tarixini o'rganishdagi ahamiyati?
2. Arxeologiya deganda nimani tushunasiz?
3. Arxeologiya fani qanday rivojlanish bosqichlariga ega?
4. Farg'ona vodiysidagi ibtidoiy jamoaga oid qanday arxeologik yodgorliklarni bilasiz?
5. O'zbekistonda arxeologiya fanini rivojlanishiga xissa qo'shgan olimlar kimlar?
6. O'rta Osiyo arxeologlaridan kimlarni bilasiz?
7. Ashel' davriga oid bo'lgan yodgorliklarni aniqlang.
8. Professor S. P. Tolstov boshliq Xorazm arxeologik ekspeditsiyasining faoliyatiga baxo bering.
9. Teshiktosh gori topildiklari xaqida gapirib bering.
10. O'zbekistondagi neolit davri topildiklari va ularning o'lkashunoslikdagi ahamiyati?
11. O'zingiz yashayotgan xududda arxeologik topildiklar bormi? Bor bo'lsa ular xaqida ma'lumot bering.
12. O'rta Osiyoda ibtidoiy tuzum necha davrga bo'linadi?
13. O'zbekistondagi mezolit davriga oid arxeologik yodgorliklarni sanang.
14. Tosh davri nechaga bo'linadi?
15. Arxeologik tadqiqotlarning o'lkashunoslik fanini o'rganishga bogliq tomonlarini ayting.

16. O'zbekiston o'lkashunosligini o'rganishga katta xissa qo'shgan rus arxeologlaridan kimlarni bilasiz?
17. Arxeologiya qanday fanlar bilan aloqada bo'ladi?
18. Arxeologiyaga oid materiallar maktab muzeyingizda mavjudmi, mavjud bo'lsa gapirib bering?
19. Arxeologiyaga oid yodgorliklar qanday o'rganiladi?
20. Arxeologiyaga oid yodgorliklar qanday o'rganida ishtirok etganmisiz?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. «Vatan sajdogox kabi muqaddasdir. Toshkent O'zbekiston 1996 yil.
2. Artsikovskiy A. V «Arxeologiya asoslari» Toshkent. "O'qituvchi" 1974 y.
3. Axmedov B. «O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari» Toshkent. "O'qituvchi" 1991 yil
4. Nabiev A. «Tarixiy o'lkashunoslik» Toshkent. "O'qituvchi" 1996 yil
Sulaymonova F. G'arb va shark. Toshkent. "O'zbekiston" 1997 yil

3-MAVZU: Mamlakatimizdagi ibtidoiy va qadimgi davrning o'rganilishi.

Reja:

- 1. Ibtidoiy jamoa davri**
- 2. Ona urug'ining rivojlanishi**
- 3. Kaltaminorliklar chaylasi**
- 4. Ota urug'i davri. Metallning tarqalishi**
- 5. Qadimgi davr yodgorliklari**

1. Ibtidoiy jamoa davri

Ibtidoiy jamoa davri maymunga yaqin turgan odam zotining paydo bo'lishidan to jamiyatning sinflarga ajralishigacha bo'lgan uzoq davrni o'z ichiga oladi.

1. Odamlar urug', aymoq va oila degan narsani bilmasdan ibtidoiy (to'da) holda yashagan davr. Bu davr odamlari toshdan qurol yasab, uni ishlatib va qurollarni takomillashtira borgan sari, o'zlari ham rivojlanib borganlar. Bu qurollar qo'lda qo'pol qilib, kertib ishlangan, bir-ikki xildan oshmagan tosh qurollar bo'lgan. Ishlab chiqarish texnikasi jihatidan bu davr paleolit (qadimgi tosh) davri deb atalib, qurollar taraqqiyot bosqichi jihatidan shell', ashel' va must'e deb ataladi; bu uch davr paleolit davrining quyi va o'rta bosqichini tashkil qiladi. Bu davrlarda yashagan pitekanthrop (maymun odam), sinantrop (xitoy odami), geydelberg (germaniya odami), neandertal' tipidagi odamlar tuzilishi jihatidan odam bilan maymun o'rtasidagi holatda bo'lganlar. Ular to'da-to'da bo'lib yashab, mayda hayvon, hasharot, turli meva va o'simlik ildizlarini eb, kun kechirganlar. Ular so'zlashishni bilmaganlar. Sinantrop ashel' texnikasidan foydalangan bo'lsa, neandertal' odami must'e davriga to'g'ri keladi.

Eng qadimgi odamlardan pitekanthrop YAvA orolidan, sinantrop Xitoydan, neandertal' odami Germaniyadan topilgan.

O'z-o'zidan uzoq tosh davrlarining izlari bizning O'zbekistonda ham bormi degan savol tug'iladi.

1955 yilning kech kuzida Toshkentdan chamasi 15 km g'arbda SHoimKo'prik degan joyda qoraqamish suvining bo'yidagi qadimgi qatlamlardan ashel' davridan tortib must'e va undan keyingi davrlarda yashagan xalqlarning juda ko'p qurollari topilib, hozir respublika tarix muzeyida saqlanmoqda.

Janubiy Turkmanistonda, Toshkent viloyatining Bo'stonliq rayonida va Farg'onada, qayroqqum cho'lida ham ashel' davrining ba'zi qurollari topilgan. Demak, bundan taxminan 400-500 ming yillar ilgari O'rta Osiyo va O'zbekistonda ashel' qurollarini ishlatgan ibtidoiy, to'da holatidagi odamlar yashagan.

Bundan keyin er yuzida uzoq davom qilgan muz davri boshlanadi. Havo sovib, tabiat o'zgarib, ko'p hayvonlar o'zini tog'lar orasiga oladi. Odamlar sovuq iqlimda chidashga o'rganadi, u yog'ochni yog'ochga ishqalab olov hosil qilish yo'lini topadi. Olov kashf etilgach, odam uning yordamida yirtqich hayvonlarni tog'lardagi g'orlardan quvib chiqarib, u erlarda makon tutadi. Ochiq erlarda esa erto'lalarga, jarlar ostiga kirib yashaydilar. Olovda isinib, podapoda bo'lib ov qilib kun ko'radilar.

Bu davrda tosh qurollarning turi va ishlanish texnikasi ancha yaxshilanganligi sababli, odamlar yog'ochning uchini sixcha qilib ishlash hamda suyakdan asbob yasashni o'rganadilar. Bu xil yuqori texnika davri o'rta paleolitda «must'e madaniyati» davri deb ataladi. Bu ashel' davridan keyin keladi. Bu davrda neandertal' odam yashagan. Bular ibtidoiy to'da holdan urug'-aymoq munosabatlariga o'tishga yaqinlashib, bir oz so'zlashishni ham o'rgana boshlaganlar. Bu davr kishilari jamoa bo'lib, katta-katta hayvonlarni ovlash, bir joyda ko'plab yashash orqasida to'da holda urug' tartibiga ko'cha boshlaganlar.

1938 yili Surxondaryodagi Boysun tog'ida joylashgan Teshiktosh g'ori tekshirilganda bu joy must'e davrida yashagan odamlarning makoni bo'lib chiqdi. G'orning qatlamlarida toshdan qilingan. O'choqning o'rni, kul qatlamlari, ko'mir, turli hayvon va qushlarning suyaklari, must'e davriga xos qurollar ko'p topildi. Bulardan u davr odamlari ko'pincha ov bilan kun ko'rgani ma'lum bo'ldi. G'orning bir erida 8 — 9 yoshli bir bolaning toshga aylanib qolgan kalla suyagi ham topildi. Bu hozirgi zamonamizdan taxminan 100—120 ming yillar ilgari yashagan neandertal' odamining kalla suyagidir.

1946 yilda Samarqand viloyati Urgut rayonidagi Omonqo'ton g'orida o'sha davr odamining makoni va tosh qurollari topildi. 1954 yilda Farg'ona vodiysining qayroqqum cho'lida ham bir necha erdan must'e davri qurollari topilgan edi. Bundan tashqari, ashel' davri tosh qurollari respublikamizning yana bir necha eridan topildi. Navoiy viloyatining Navoiy rayonidagi Uchtut qishlog'i yaqinida Voush tog'ining janubiy yon bag'rida, Farg'ona vodiysining qayrag'och qishlog'i yaqinidagi Boqirg'on darasida, Isfayram soyida, Pal'man qishlog'i yaqinida hamda Xo'jaxayr soyining o'ng sohilida, shu nomdagi qishloq yaqinida, shubxasiz, qadimda O'rta Osiyo, jumladan hozirgi O'zbekistonning geografik sharoiti ibtidoiy odamlarning yashashi uchun juda qulay bo'lgan va ilk paleolit davrida uning keng hududida odamlar yashaganligini ko'rsatadi.

Keyingi yillarda bir qancha yangi-yangi yodgorliklar topilib tekshirilishi tufayli O'zbekiston paleolitida must'e davri juda yaxshi o'rganildi. Must'e makonlari Surxondaryo viloyati Boysun rayonidagi Teshiktoshda, Samarqand viloyatidagi Omonqo'ton g'orida, Toshkent viloyatining CHirchiq vodiysidagi Xo'jakent va Obirahmat g'orlarida, Ohangaron vodiysidagi Ko'lbuloqda, Buxoro viloyatidagi Uchtutda, Farg'ona vodiysi, qal'acha va So'x atroflarida topib tekshirildi. Bular O'rta Osiyoda topilgan must'e odamining qoldiqlari va qurollari bo'lib, ularning ilmiy ahamiyati nihoyatda kattadir. Teshiktoshda o'sha davr odamining topilishi arxeolog'iya fanining nihoyatda katta yutug'i bo'lib, uni tekshirgan professor A. P. Okladnikovga Davlat mukofoti laureati degan unvon berildi. Teshiktosh g'orida 1,5 m qalinlikda 5 ta madaniy qatlam topildi. qatlamlar tekshirib ko'rilganda, ularning har biridan diametri 40 sm, sathi 2 metrdan ortiqroq keladigan gulxan qoldiqlari, 3 mingdan ko'proq tosh qurollar va tosh siniqlari hamda qush va hayvonlar: kaklik, kaptar, o'rdak, qirg'ovul, sug'ur, tog' echkisi, kiyik, qulon, qoplon, ayiq, sirtlon suyaklari topildi. Teshiktosh makonida uchratilgan topilmalar ichida eng muhimi mayda bo'laklarga bo'linib ketgan 8 — 9 yashar bolaning bosh va tana suyaklari topildi. Mashhur antropolog olim M. M. Gerasimov uni qayta tikladi. Bu noyob topilma must'e odamining fizik tipini belgilashda juda qimmatli material bo'libgina qolmasdan, bu bilan birga insonning yagona ajdoddan kelib chiqqanini va O'rta Osiyoda ham odamzod neandertal' bosqichini bosib o'tganini isbotlab berdi.

Demak, O'zbekistonda ibtidoiy (to'da) holdan urug'chilik tuzumiga ko'chish bosqichi bo'lgan must'e davrida aholi g'orlarda va ochiq erlarda makon tutib hayot kechirganlar.

1988 yili O'zbekiston Respublikasi FA muxbir a'zosi O'tkir Islomov rahbarligida Farg'ona vodiysining So'x va SHohimardon soylari sohillarida arxeologik tadqiqotlar olib borilib, katta

natijalarga erishildi. O'lar Selungur g'oridan o'sha zamon tosh qurollari bilan ko'milgan odam suyagini topdilar. Bu suyak must'e davri odamlarining suyaklari bo'lib, na neandertal' va na pitikantropga o'xshamaydi. Buni aniqlash maqsadida YUNESKO dan mutaxassislar chaqirildi. O'lar bu suyakni sinchiklab o'rganishib, uni «fergantrop» odami deb topdilar. Bu esa fan olamida katta yangilik hisoblanadi.

2. Ona urug'ining rivojlanishi

Must'e davrining oxirlariga kelib ov qilinadigan qurollarning birmuncha yaxshilanishi, olovdan foydalanish imkoniyatining kengayishi, uzoq atrofdagi aholi bilan aloqa bog'lanishi natijasida ma'lum bir joyda o'troq holda yashagan bir guruh kishilar o'rtasida qon-qardoshlik munosabatlari boshlanadi. Bolalar faqat onani tanib, urug' tepasida ona turadi. SHuning uchun bola o'zini ona urug'ining bolasi deb hisoblaydi.

Ishlab chiqarish imkoniyatlarining rivoji jihatidan bu davr must'e davrining oxiridan boshlanadi. Pitekanthropdan tortib to neandertal' (bizda Teshiktosh) odamigacha yarim million yildan ortiqroq zamon ichida o'zgarib kelgan odam tipi bu davrda hozirgi odam holatiga aylanadi. Olimlarning hisoblab chiqishiga qaraganda, bu davrning boshlanganiga 40 ming yilcha bo'lgan, endi quyi va o'rta paleolit tamom bo'lib, yuqori paleolit boshlanadi.

YUqori paleolit davrida aholining tirikchiligi kollektiv ovchilik va baliqchilikdan iborat bo'lib, tosh va suyak qurollarni yasash va ishlatish texnikasi juda rivojlanib ketadi.

YUqori paleolitda urug'chilik sharoitida ov va baliqchilik mahsulotlari ko'payib borgan, dev, pari, jin va xudolar haqida turli afsonalar to'qila boshlangan. O'zbekistonda yuqori paleolit davrining deyarli barcha bosqichlari madaniyatidan darak beruvchi makonlar Toshkent yaqinidagi SHOimKo'prikda, Boysun tog'larida Machay g'orida, Amir Temur g'orida topilgan. Bundan tashqari Samarqand shahri ichida eski Ivanov chorbog'ida, Surxondaryo, viloyatida 15 ga yaqin yuqori paleolit makonlari, Toshkent atrofida 3 — 4 ta makon, Samarqand viloyatida 5 — 6 ta makon topilgan.

Bular ichida SHOimKo'prik va Machay g'ori yodgorliklari o'sha davr hayoti xaqida yaxshi ma'lumot beradi. YUqori paleolitda yashagan odamlarning asbob va makonlari ko'p topilgan bo'lsada, yaxshiroq o'rganilgani Samarqand shahridagi Komsomol ko'li hududida joylashgan Samarqand makonidir. 1939 yilda ochilgan bu yodgorlikda O'zbekiston fanlar akademiyasi va Samarqand Davlat universitetining D.N.Lev boshliq arxeologik ilmiy safarlari 1958 yilda qazishmalar olib bordi. Samarqand makoni uchta madaniy qatlamdan iborat bo'lib, undan bir necha o'choq qoldiqlari va tosh qurollar: pichoqsimon plastinkalar, keskichlar, yoy, tig'li qirg'ichlar, botiq tig'li tosh qurollar hamda hayvonlar: yovvoyi ot, kiyik, tuya, qo'y, qoramol suyaklari topildi. Bulardan tashqari, Samarqand makonida yuqori paleolit odamining ikkita pastki jag'i topildi. Bu Teshiktoshdan topilgan neandertal' bola qoldig'idan keyingi ikkinchi nodir topilma bo'lib, garchi u so'nggi paleolitga mansub bo'lsada, genetik jihatdan Teshiktosh odami bilan bog'liqdir. YUqori paleolit davriga oid tosh qurollar Buxoro viloyatida Uchtut qishlog'i atrofida, Toshkent yaqinida Bo'zsuv I, Bo'zsuv II makonlarida, Ohangaron vodiysida Ko'lbuloq makonida va boshqa joylarda topildi.

Paleolit tamom bo'lib, mezolit davri boshlanadi. Mezolit o'rta tosh davri bo'lib, qadimgi tosh davri (paleolit) bilan yangi tosh davri (neolit)ning orasida o'tgan davr bo'lgani uchun shunday ataladi. Bu davrda kishilar o'q-yoyni kashf qiladi, ovchilik birmuncha osonlashadi, birinchi marta it uy hayvoni sifatida xonakilashtiriladi.

O'rta tosh asri, ya'ni mezolit davri yaxshi o'rganilgan bo'lib, u davrda yashagan ajdodlarimiz ibtidoiy tasviriy san'at mo'jizalarini yarata boshlaganlar. Bular asosan g'orlarga va qoya toshlarga qizil bo'yoq yordamida yoki o'ymakorlik usulida tasvirlangan ov manzaralaridir. Bunday yodgorliklar Surxondaryo viloyatidagi Zaravutsoy dasarida, Jizzax viloyatining Takatosh mavzesida, Buxoro viloyatidagi Sarmish va Qoraungursoyda, Toshkent viloyatining Parkent, CHotqol tog' tizmalarida, Xo'jakent yaqinida hamda Andijon viloyatining Xo'jaobod tumani hududidagi Imomota tog' tizmalarida topib o'rganilgan. Ular orasida Zaravutsoy,

Takatosh va Imomotadagi suratlar ayniqsa diqqatga sazovordir. Zaravutsoy darasidagi suratlarda yovvoyi buqalarda ov qilish manzarasi qizil bo'yoqlar yordamida gavdalandirilgan. Boshqa bir manzarada ovchilar guruhi yovvoyi buqalarni va tog' echkilarini o'rab olayotgani, yopinchiq yopinib o'q-yoy hamda sopqonlar otayotgani tasvirlangan. Takatoshdagi suratlar esa qoyaga o'yib ishlangan. Bu erdagi manzaralardan birida o'ndan ortiq ovchi yovvoyi buqa va arxarlar podasiga kamonlardan o'q uzayotgani ifodalangan. O'rta — ko'rinarli joyga bir ayolning rasmi katta tarzda solingan. Rasmda itlar ham bor. Bu, shubhasiz, odam qo'liga o'rgangan dastlabki hayvonning tasviridir.

Mezolit davrida yaratilgan tasviriy san'at asarlari orasida Xo'jaobod tumani hududidagi Imomota g'ori ichida topib o'rganilgan asarlar alohida ajralib turadi. SHulardan biri qoya toshga o'yib ishlangan jigarrang ko'rinishdagi tasvir bo'lib, unda shoxlari bir necha bor qayrilib ketgan, biri-biridan ulkan arxarlar va ularning o'rtasida yanada ko'zga tashlanarli qilib ishlangan duldul ot tasviridir. Bu mezolit davriga oid topilgan birinchi nodir surat sanaladi.

G'orga kirish joyida toshga o'yib solingan arab yozuvidagi bitiklar hdm mavjud, ammo bu yozuvlar bugungi kunda o'z qiyofasini yo'qotgan, hatto o'qib bo'lmaydigan darajaga kelib qolgan. g'orning kiraverishida bir masjid bunyod etilgan, uning g'ishtlari xuddi Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi g'ishtlariga o'xshaydi, bu masjid ham IX asrlarda qurilganligidan dalolat beradi. Ushbu masjid orqali g'orga kiriladi. G'or ichkarisi tog' darasiga o'xshab uzoqqa cho'zilgan. G'orga Imomota qishlog'ida istiqomat qiluvchi ziyoli Anvarjon Hosilov yordamida kirdik. 250 metr uzunlikdagi shnurga chiroq o'rnatib, chamasi 200 metrlar ichkariga kirgach, ot suratiga duch keldik.

Imomota qishlog'i aholisi o'rtasida bu ot haqida turli xil afsonalar mavjud. SHu qishloqlik 76 yoshli Fozil ota tilidan yozib olingan bu haqdagi afsona ayniqsa diqqatga sazovor: «Bolalarim, men 14 yoshligimda shu masjid dahlizi orqali g'orga kirib, o'sha ot rasmi solingan joyni o'z ko'zim bilan ko'rganman. Bunday chiroyli otni hali hayotimda ko'rgan emasman. Ammo bu rasmdagi chiroyli otni jonli ko'rganlar ham bo'lgan ekan. Buni qarangki, o'shanday kishi bilan otam rahmatli suhbatlashgan ekan. Imomota — tog'li qishloq. Otamning aytishicha, qishloqning yuqorisi — to o'ttiz adirgacha bo'lgan joylarga lalmikor bug'doy ekilgan. qishlog'imizdagi dehqonlarning deyarli hammasi kech kuzda va erta bahorda o'sha joylarga bug'doy ekanlar.

Kunlardan bir kun qariyalar orasida mana shu g'ordan bir duldul ot chiqib, o'tlab, qechqurun g'oyib bo'lib qolganligi haqida gap ketadi. Bir dehqon: «Mening bug'doyimning ancha joyini ot eb ketibdi, oyog'ining izi qolibdi, har kuni ot bug'doyimni eb qo'yayotir, bu o'sha ot bo'lmasin tag'in», deb qoladi. SHunda ular: «Bo'lmasa poyla — u o'sha otni yoki boshqasimi, bilib olasan», deb maslahat berishadi. Dehqon otni poylay boshlabdi. Bir kuni erta tong o'sha chiroyli yoldor duldul g'ordan chiqib bug'doyzorga kirib, o'tlab qornini to'yg'aza boshlabdi. Dehqon esa otning chiroyliligiga mahliyo bo'lib, bug'doyini eganiga ham achinmabdi. Nihoyat, ot ortiga qaytib, g'orga kirayotganida, dehqon ham uning izidan ketma-ket g'orga tomon yura beribdi. Ot g'orga kirgach, g'oyib bo'libdi. Dehqon g'or ichiga kirib, charxga yig yasab o'tirgan, yuzlaridan nur yog'ilib turgan bir qariyaga duch kelibdi. Dehqon salom beribdi, chol alik olgach, o'tirishga joy ko'rsatib, nima sababdan uning bu g'orga kirganini so'rabdi. SHunda dehqon ot voqeasini, ya'ni shu g'ordan chiqqan ot ekan bug'doyini eb qo'yayotganini aytibdi. CHol: «Xafa bo'lmang, o'g'lim, o'tim keltirgan zararini to'layman, mang oling», deb qirib o'tirgan tig' qirindisidan bir hovuch beribdi. Alamzada dehqon chol oldidan shahd bilan chiqib ketayotib, qirindini to'kib yuboribdi. g'ordan tashqariga chiqib qarasa, belbog'iga yopishib qolgan ozgina qirindi yaltirab turgan emish. Ne ko'z bilan ko'rsinki, u oltin ekan. Dehqon afsuslanib, darhol g'orga qaytib kirmoqchi bo'lgan ekan, g'orning og'zi yopilib qolibdi. SHu voqea bo'lib o'tgandan buyon ko'rkam duldul ot g'ordan chiqmay qolgan ekan».

SHunday hdqiqat, rivoyat va afsonalarga boy bo'lgan hududimizda mezolit davrida chizilgan qoya toshlardagi suratlar — qadimgi tasviriy san'atning bu kabi yodgorliklari

mustaqillikka erishgan O'zbekistonning ibtidoiy jamoa tarixini chinakamiga o'rganishda g'oyat qimmatli tarixiy hujjat bo'lib xizmat qiladi.

3. Kaltaminorliklar chaylasi

Neolit (yangi tosh) davriga o'tish, asosan toshni silliqlash va teshish usullarini rasm qilishdan boshlanadi. Bu davrda odamlarning katta yutuqlaridan biri sopol idishlar yasash bo'ldi. Ko'pchilik xalq bu davrda daryo, ko'l va dengizlar bo'yida, aksariyati qum ustida chayla qurib yashagan. Bular asosan o'troq bo'lib, faqat ovchilik va baliqchilik bilan kun kechirganlar. SHuning uchun sopol idishlarning tagi tekis emas, yumaloq yoki tuxum uchiga o'xshash bo'lgan. O'zbekistonda Boysun tog'laridagi Machay, Amir Temur g'orlarida, Uzboy atrofida va Qoraqalpog'istondagi YOnbosh qal'a atroflarida neolit davri madaniyatining qoldiqlari topilgan. Bu makonlar ichida eng diqqatga sazovori qoraqalpog'istondagi kaltaminorliklar chaylasidir.

Professor S. P. Tolstov boshliq Xorazm arxeologiya ilmiy safari 1937 yilda qidirish ishlari olib borib, Janubiy Qoraqalpog'istondagi qizilqum ichida qolib ketgan qadimgi obod erlarda g'oyatda ko'p va ahamiyatli yodgorliklarni topib tekshirdi. Bu yodgorliklar orasida eng qadimgisi kaltaminorliklar chaylasi bo'lib, unda so'nggi davrlarning yodgorliklari ham yaxshi saqlangan.

Qizilqum sahrosidagi qum tepaliklar orasida YOnbosh (Jonbos) qal'a nomli qir ustida eramizdan 300 — 400 yillar ilgari solingan qal'a bor. O'sha qirning janub tomon etagida shamolda buzilib nurayotgan taqirlar tagida kul, sopol siniqlari, mayda tosh qurollar va boshqa narsalar ko'rinib qolgan.

1940 yili o'sha joy qazilganda, u erda qum tepasini tekislab, xodachalar va qamishdan juda katta chayla qurilganligi aniqlandi.

Professor S. P. Tolstovning taxminiga ko'ra, deb yozadi marhum akademik YA. G'. G'ulomov, bu chaylada 100—120 odam ona urug'i oilasi tartibida yashagan. CHaylada qumni o'yib ishlangan 20 dan ortiq o'choq bo'lgan. Har bir o'choq atrofida baliq suyaklari, kiyik, yovvoyi cho'chqa, qirg'ovul, suv qushlarining suyaklari, o'rdak, g'oz tuxumlarining po'choqlari, yovvoyi jiyda danaklari, chaqmoqtoshdan yasalgan mayda pichoqsimon asboblari, toshni silliqlab ishlangan bolg'asimon asbob, sopol idish siniqlari va shunga o'xshash narsalar ko'p bo'lgan. Bu joyda hali metall, uy hayvonlari, qo'lda ekiladigan ekin qoldiqlari yo'q.

CHaylada topilgan narsalarning hammasi bu joyda qadim zamonda suv bo'lganligidan dalolat beradi. Bu atrof bir zamonlar ko'l va botqoq bo'lgan, unda yovvoyi jiyda danaklari bo'lgan, chaqmoqtoshdan yasalgan mayda pichoqsimon qurollar topilgan joy atrofida paxta daraxtlari o'sgan chakalakzorlar va qamish o'sadigan to'qaylar bo'lgan. CHaylani shu materiallardan yasanaganlar. Baliq suyagining ko'pligi bundagi odamlarning asosiy kasbi ko'lda baliq ovlash va to'qayda ovchilik qilishdan iborat bo'lganligidan guvohlik beradi.

Metallning yo'qligi, uy hayvonlari va dehqonchilik alomatlarining yo'qligi — bular hali ona urug'i bosqichida yashaganligidan darak beradi. Bu chayla ahli bundan 5000 yillarcha muqaddam yangi tosh (neolit) davrining oxirida yashagan. Bu O'zbekistonda ona urug'i tartibining oxiri hisoblanadi.

4. Ota urug'i davri. Metallning tarqalishi

Bu davrgacha odamlar tabiatdagi bor narsalarni tutib va terib eb, tirikchilik qilib kelganlar. Ular chorva boqishni ham, ekin ekishni ham bilmaganlar.

Ovchilik va baliqchilikning rivojlanib borishi natijasida kishilar avval misni va keyinroq misga qalayni qo'shishdan chiqqan jez (bronza)ni ishlata boshlaganlar.

Turkmanistonda Kopetdog' etaklaridagi soylar quyi oqimida Anav, Qahqa, CHacha, Namozgoh kabi tepalar metall yangi tarqalgan zamonda paydo bo'lgan eng qadimgi o'troq dehqon aholi yashagan qishloqlar xarobalaridan iboratdir. Bu vaqtda Xorazmda Kaltaminor chaylasidagi kabi katta-katta to'da bo'lib yashash davri o'tib, aholi mayda guruhlarga bo'linib, suv toshqinlari chegarasida juda ibtidoiy dehqonchilik va bir oz chorvachilik bilan kun ko'rgan. Ular Turkmanistondagi singari soyning quyi oqimida bo'lmasdan, balki daryo toshqinlari ketidan

tentirab yurgani uchun ularning turmushi ancha qoloq, o'ylar ham omonat chaylaldan iborat bo'lgan. Bu xil hali mustahkam o'rnamagan dehqon va chorvadorlar madaniyati birinchi marta Xorazmda o'sha Kaltaminor chaylasi yaqinlarida aniqlangani uchun «Toza bog'yop madaniyati» deb atalgan. Qariyb shu xil madaniyat Moxondaryo xavzasida ham topildi. Moxondaryo Zarafshon daryosining qurib qolgan bir irmog'i bo'lib, qorako'l rayonining shimolidagi cho'lda uning (Moxondaryoning) izlari hali yo'qolib ketmagan va uning bo'ylarida o'sha ibtidoiy davr qishloqlari va mozorlari mavjud. Bu joy professor YA. G'. G'ulomov tomonidan 1950 yildan boshlab tekshirilgan. Bu joydagi qishloqlarning suv toshqinlari o'tgan joylaridagi taqir ustida juda ko'p chaylalar o'rni bo'lib, unda bino izlari ko'rinmaydi. Lekin idish, qurol va boshqa narsalar ularning o'troq aholi bo'lganligidan darak beradi. Bunda ibtidoiy ochiq qishloqlar va ularda teshdan, jezdan ishlangan qurollar, zeb-ziynat buyumlari shunchalik ko'pki, u joylarni tekshirish kelgusida katta natijalar berishi mumkin.

Qorako'l shaharchasidan qariyb 15 km shimoli-g'arbda Zamonbobo ko'li bo'yida o'sha davr aholisining katta qabristoni topilib tekshirildi. Muzorlarda o'liklarning oyoq-qo'lini bukib, g'ujanak qilib, chap tomonga yonboshlatib ko'mganlar. SHu tariqadagi 41 ta mozor ochildi, ulardan ba'zilarida er va xotin birga dafn etilgan. U zamonda ona urug'i davri bitib, ota urug'i hukmron bo'lgan va erkakning xo'jalikdagi va oiladagi roli ortgan, xotin unga xususiy mulk qatori tobe bo'lib qolgan davr edi. SHuning uchun er o'lsa, xotinini ham o'ldirib birga ko'mish odat bo'lgan.

Muzorlarda idishlar, o'qlar, zeb-ziynat buyumlari, ba'zi qurollar, hatto jez oynalar o'likning yoniga qo'yilgan. Lahad qilib ko'mish o'sha vaqtda amalda bo'lgan. SHunga yaqin bir joydan topilgan ikkinchi bir qabristonda ham o'liklarni yuqoridagiday g'ujanak qilib ko'mganlar. Topilgan suyaklar yonida jez isirg'alar, qimmatbaho toshlardan marjonlar, jez bilakuzuklar topilgan.

Bu joydagi qishloqlar atrofida ekin erlari bo'lgani, toshqinlarni birlashtiruvchi kichik ariqlar qazilganligi aniqlandi. Bu erlarda janubiy Turkmaniston tepalaridagi singari bo'yoqli sopol idishlar ishlab chiqarishni bilganlar, kulollik charxi ishlatilgan, sug'orib dehqonchilik qilish vujudga kelgan.

Namangan viloyati CHust shaharchasi yonidagi «Buvana mozor» degan joyda ham shunday qishloq topilgan. U erdagi aholi atrofida buloq Suvlaridan foydalanib, dehqonchilik qilib, o'troq holda qishloq-qishloq bo'lib yashaganlar. CHustliklarning sopol idishlari Turkmaniston o'troq dehqonlariniki singari bo'yoqli, xilma-xildir. Jezdan quyma buyumlar ko'p ishlatganlar. Xom g'ishtlardan erto'la uylar qurib yashaganlar. Bu qishloq aholisi bundan qariyb 300 ming yil muqaddam, temir davriga ko'chishda ham o'sha joyda kun kechirganlar.

Xuddi shunday qishloq Andijon viloyati Qo'rg'ontepa rayonidagi Dalvarzintepada ham topilgan. Bularning har ikkisi ham bir xil bo'lib, bu ahvol jez davrida Farg'ona soylari suvidan foydalanib dehqonchilik qiluvchi o'troq dehqonlar qishlog'i ko'p bo'lgan, degan xulosani chiqarishga imkon beradi.

Jez davrida bunday obod bo'lgan Xorazm, Moxondaryo rayonlari, CHust, Dalvarzin va Kuchuktepada olib borilgan arxeologiyaga oid qazishmalardan shu ma'lum bo'ldiki, CHust madaniyatini yaratgan qadimgi dehqonlar atrofi devorlar bilan o'ralgan mustahkam qishloqlarda paxsa yoki xom g'ishtlardan qurilgan uylarda yashaganlar. Masalan, qadimgi CHust qishlog'i xarobasida uzunligi 286 metr, eni 2—3 metr va balandligi 1,5 metrcha keladigan tashqi devor qoldiqlari ochildi. SHunday devor qoldiqlari Dalvarzinda ham 200 metr masofada topilib, uning eni 4,6 metr, balandligi 2,5 metr keladi. Dalvarzintepada atrofi devor bilan o'ralgan ark xarobasi topilib, devorining uzunligi 130 metrga va balandligi 2,5 metrga teng. Dalvarzintepaning sharqiy qismida hatto 80 m masofada eni 4 mli tosh yo'l ochildi. Bulardan tashqari, bu erda bir necha to'rt burchakli paxsa devorli uylar ham topildi.

Dalvarzinda topilgan 900 ga yaqin tosh o'roq, CHustdan topilgan tosh va jez o'roq, 415 tosh yorg'uchoq, don uchun kovlangan 17 ta o'ra hamda kuyib ko'mirga aylangan arpa, bug'doy, tariq, sulii donlari va boshqa ashyolar qadimgi dalvarzinliklar va chustliklar asosan dehqonchilik bilan shug'ullanganligini ko'rsatadi. Arxeologiyaga oid topilmalar: suyakdan

yasalgan moki, qadoq toshlar, urchuqlar, jez igna va bigizlarga qarab hukm qilganda, aholining turmushida to'quvchilik va tikuvchilik ham ma'lum rol' o'ynaganligini ko'ramiz. CHustliklarda hdm, dalvarzinliklarda ham mahalliy degrezlik va miskarlik ancha taraqqiy qilgan. CHunki bu yodgorliklardan juda ko'p metall buyumlar: jez, o'roq, pona, pichoq, kamon o'qlarining paykonlari, nayza uchlari, zeb-ziynatlar, jez oynalar, bilaguzuklar, isirg'alar, cho'lpilar, munchoqlar hamda turli xil jez buyumlar qo'yiladigan tosh qoliplar, shuningdek, degrezlik qo'rasining qoldiqlari topilganligi buning yaqqol dalilidir. CHust madaniyatiga mansub yodgorliklardan topilgan guldor sopol buyumlar kulolchilikning ham ancha rivoj topganligidan guvohlik beradi. Sopol idishlar shakli xilma-xil, ular asosan tovoq, ko'za va xumcha, tuvak, qozon va ko'pgina boshqa xil idishlardan iborat. Sopol idishlarning sirtiga qizil bo'yoq berilib sayqallangan. Ularning bir qismi qora bo'yoqdan turli xildagi geometrik chiziqlar bilan naqshlangan. Agarda CHust madaniyatiga mansub yodgorliklarda chiqqan topilmalar yuqorida qayd etilgan chorvador qabilalarga mansub moddiy madaniyat qoldiqlari bilan solishtirilsa, bronza davrida o'troq dehqonchilik bilan shug'ullangan aholining madaniy jihatdan chorvador qabilalarga nisbatan ancha ustunligi ma'lum bo'ladi.

Demak, jez davrida xalq o'zi ekin ekib, o'z qo'lida hayvonlarni urchitib tirikchilik o'tkazish yo'liga o'tgan. Bu narsa jamiyat tarixida juda katta iqtisodiy va ijtimoiy burilish edi. Erga ekin ekish, qo'sh qo'shish kabi asosiy xo'jalik ishlari faqat erkaklarning qo'lidan keladigan ish bo'lib, bu narsa erning, ya'ni otaning oilada hukmronlik holatini mustahkamlaydi. Ona o'z urug'idan ajralib, erning urug'iga o'tadi. Bola otaniki hisoblanib, merosni ham otadan oladi.

Hozirgi zamon dehqonchiligi va chorvachiligining asosi o'sha jez davrida, taxminan hozirgi zamonamizdan 4000 yillar avval vujudga kelgan. Misr, Iroq, Janubiy Turkmaniston kabi mamlakatlarda undan ham ilgariroq vujudga kelgan.

Bundan keyin jamiyat vohalarda o'troq dehqonlarga, dasht va tog'larda esa ko'chmanchi chorvadorlarga ajraladi. CHorvasi ko'payganlar o'tloq izlab, molini haydab, joydan-joyga qo'chib yurishga majbur bo'lib qoladi. Xullas, Farg'ona, Surxondaryo vodiylarida so'nggi bronza davriga mansub atrofi mudofaa devorlari bilan o'ralib, mustahkamlangan qishloqlar xarobalarini topib tekshirish bronza davrida o'troq dehqonlar yaratgan madaniyatni o'rganishda juda boy va qimmatli materiallar beradi.

5. Sug'orishning kelib chiqishi

Xorazmda Kaltaminor, Tozabog'yop madaniyatlari izlari, Amudaryoning toshqin suvlaridan foydalanib yashagan xalqning madaniyatli ekanligi, bu erda va Moxondaryo xdvzasida toshqin suvlarni chuqur erlarga tortib tushirib, unda tariq, arpa, kunjut, qovoq, bug'doy etishtirilganligi ko'rinadi. Sug'orish kanallarining yo'nalishi o'sha ibtidoiy jamoa tuzumi davrida odam yashagan erlar bilan bog'liq. Toshqin suvlar tartibga solinib, ular kanal holatiga keltirilganligi ma'lum bo'ldi.

Farg'ona kabi tog' soylari bilan bog'liq erlarda soylarning oyoqlarida toshib yotgan suvlarni boshqarish yo'li bidan dehqonchilik qilingan.

Eng eski dehqonchilik joylari ham avvalo shu toshqinlar atrofida vujudga kelgan. Demak, ibtidoiy jamoa odamlari kanal qurish usulini bilmaganlar. Faqat daryo toshqinlaridan hosil bo'lgan tabiiy suvlardan foydalanganlar. Xullas, asrimizning boshlarigacha butunlay qorong'i bo'lgan ibtidoiy jamoa davri faqat arxeologiya fanining yutuqlari natijasida birmuncha yoritildi. Ashel' madaniyati davridan tortib to sinf va davlatlar vujudga kelguncha, to'g'rirog'i, O'rta Osiyoda ilk yozma tarixiy ma'lumotlar paydo bo'lgungacha o'tgan bir necha yuz ming yilni o'z ichiga olgan davrda o'lkamiz xalqlari dunyodagi hech bir xalqning ibtidoiy davr tarixidan qolishmaydigan boy tarixga ega ekanligi ma'lum bo'ldi.

5. Qadimgi davr yodgorliklari

Bundan 3000 yilcha ilgari odamlar temirni olovda eritish yo'lini topib, uni ishlata boshlaganlar. Bu davrda ishlab chiqarish imkoniyati shu darajaga etadiki, bir kishining mehnatidan unadigan daromad uning bir o'zini boqishgagina emas, balki bir necha kishini

boqishga kifoya qila boshlaydi. Dehqonchilikda va chorvachilikda urushda qo`lga tushirilgan asirlar zo`rlab ishlatiladi. Ular qullarga aylantiriladi. Natijada quldorlik jamiyati kelib chiqadi, jamiyat ko`proq qo`l mehnatiga tayana boshlaydi

O`zbekistonda va umuman O`rta Osiyoda bu bosqichning bo`lib o`tgan-o`tmaganligi haligacha mutlaqo tekshirilmagan edi. Qadimgi Xorazm erlarida, g`arbiy Buxoro cho`llarida Ulug` Vatan urushi arafasida o`tkazilgan arxeologiyaga oid tekshirishlar bu masalaga ravshanlik kiritdi. SHu tariqa Amudaryo va Zarafshon etaklarida cho`lga aylanib yotgan katta maydonlarda arxeologiyaga oid tadqiqotlar o`tkazilgan vaqtda bu erlar qadimgi qal`alar, ko`shklar va shaharlarning vayronalari bilan, ular orasidan o`tgan qadimgi sug`orish kanallari izlari bilan to`la ekanligi birmuncha aniqlandi.

Arxeologiyaga oid tekshirishlarning aniqlashicha, Xorazmning g`arbida, Qoraqum ichlarida bundan 2500 — 2600 yillar ilgari juda katta qal`alar bino qilingan. Ular ichida imoratlar solingan, aholi bu qal`alar atrofida Amudaryoning qadim Sariqamish ko`liga kirib ketgan tarmog`i bo`lmish Dovdon suvi toshqinlarini boshqarib, unda dehqonchilik va chorvachilik bilan shug`ullangan. Hozirgi Qoraqalpog`iston tuprog`ida ham ahvol shunday bo`lgan.

Bunday ulkan qal`alarning xom g`ishtdan bino qilinishi, toshqin suvlarini tartibga solib, sug`orish kanallari qurilishi bu davrda O`rta Osiyoda Qadimgi SHarq davlatlari tipidagi davlat bo`lganidan darak beradi. Ayni zamonda Gretsiya va eronda maydonga kelgan yozma ma`lumotlarda miloddan burungi VII asrda O`rta Osiyodagi Saklar davlati bilan g`arbiy erondagi Midiya davlati o`rtasidagi Janubiy Turkmaniston erlarida hukmronlik qilish uchun kurash borgani, eronda Ahamoniylar davlati vujudga kelguncha bu joylar Xorazm davlatiga qaram bo`lgani hdqida so`z boradi.

Buni g`arbdagi burjua sharqshunoslari pisand qilmagan edilar. Ammo arxeologiyaga oid tekshirishlar bu holning haqiqat ekanligini tasdiqladi va juda ko`p yangi muammolarni o`rtaga tashladi.

Bundan 2100 yilcha burun O`rta Osiyoga kelib ketgan Xitoy sayyohi CHjan TSyanning ma`lumotlariga ko`ra, «Davan» deb atalgan Farg`onada 70 ga yaqin katta va kichik qal`alar, 300000 ga yaqin aholi bo`lib, bu erda beda, uzum etishtirilgan va yilqichilik keng rivojlangan.

Katta Farg`ona kanali qurilishida o`tkazilgan arxeologiyaga oid kuzatishlar va keyingi yillarda o`tkazilgan maxsus ilmiy safarlar natijasida esa Farg`ona vodiysida ashel' va must'e davrlarida odam yashaganligi, keyingi taraqqiyot natijasida jez davrida CHust va Dalvarzin kabi ibtidoiy qishloqlar bo`lgani aniqlandi.

Bundan keyingi o`troq madaniyat soylarning etagidagi toshqinlar va ko`llar orasida keng tarqalib, hozir Sirdaryoga yaqin cho`llarda bu davrning xarobalari ko`p uchraydi.

Farg`onaning CHjan TSyan safaridan keyingi davrda qanday bo`lganligi haqida yozma ma`lumotlar yo`q, lekin arxeologiya bu xususda ko`p ma`lumotlarni aniqlab berayotir.

Ko`pgina burjua sharqshunoslari O`rta Osiyodagi qadimgi madaniyatni yo`qqa chiqarib, bu erlarda madaniyat faqat eron davlati ta`siri ostida vujudga kelib, keyinroq Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) istilosi va umuman greklar hukmronligi ta`sirida taraqqiy qilgan, so`ngra yana xarobalikka yuz tutib, faqat arablar istilosidan so`ng islom dini ta`sirida yana ko`tarilgan degan fikrni ilgari surar edilar. Xorazmda, G`arbiy Buxoro cho`llarida va umuman butun O`zbekistonda arxeologiya yordamida topilgan narsalar va dalillar esa g`arbning bu uydirmalarini fosh qilib tashladi.

Eroniylar va greklar istilosigacha hamda undan keyin bo`lgan moddiy madaniyat chetdan kelgan ta`sirning yaqqol izlari emas, albatta. eron pullari Makedoniyadan kelgan, bu erda rasm bo`lgan ba`zi idish shakllari arxitektura yodgorliklari topilgan, ammo buni chetdan kelgan moddiy madaniyat ta`siri tufayli O`rta Osiyo madaniyatida keskin siljish vujudga kelgan deb bo`lmaydi.

O`rta Osiyoda quldorlik davrining yuqori taraqqiyoti Parfiya, Gretsiya, Baqtriya hamda Kushon kabi mahalliy xukmronlar zamonida paydo bo`ldi. Bu zamonda qal`alar bino qilishda, sug`orish kanallari qurishda, hunarmandchilik, shaxar hayoti, yo`l ishlari, ichki-tashqi savdo

hamda san'atda jiddiy ko'tarilish yuz berganligida sinfiy munosabatlarning keskinlashganligi ko'rinadi. Bu holat yolg'iz Xorazmda topilgan arxeologiyaga oid ashyolardangina emas, balki butun O'rta Osiyoda o'tkazilgan va o'tkazilayotgan tekshirishlardan ham yaqqol ko'rinib turadi.

Ilgari O'rta Osiyoning madaniy-siyosiy va iqtisodiy aloqalari haqidagi targ'ibot faqat eron hamda Old Osiyo bilan munosabat, «Eron ta'siri» degan gaplardan nariga o'tmas edi. Xorazm va Buxoro viloyatida o'tkazilgan arxeologiyaga oid qazishlar O'rta Osiyo xalqlari Russiyaning markaziy rayonlari, ayniqsa Volga daryosining havzasida bo'lgan davlatlar bilan juda qadimdan muntazam aloqada bo'lib kelganini ko'rsatadi. Daliliy ma'lumotlar qadimdan boshlangan bu aloqaning ilgari etarlicha o'rganilmay kelinganini ko'rsatadi. Bu aloqaning ko'pgina qirralari kelajakda yana ham ravshanroq tekshirilishi shubhasizdir.

Otashparastlik zardusht (zaroastrizm) dinining rivoji eronda emas, O'rta Osiyoda bo'lganligi arxeologlar tomonidan isbotlandi. Buni qazishmadan topilgan daliliy ma'lumotlar tasdiqladi. Milodimizdan bir necha asr burungi yodgorliklarni tekshirish muhim iarsalarni ochmoqda. CHunonchi, akademik YA.G'.G'ulomov 1936 yili Xorazmning Mang'it rayonidagi qubba tog' ustida zardushtiylarning qabristonini topdi. Unda katta hom g'ishtlardan qurilgan 60 metrli tor bino xarobasi ichida benihoya ko'p odam suyaklari topildi. Suyaklarning ko'miklari g'ajilgan, ba'zi mayda suyaklar mutlaqo yo'q. Suyaklarni allaqaerdan to'plab, binoning ichiga tashlay berganlar. Keyinchalik alohida kishilarning suyaklarini sopol dan yasalgan maxsus qutilar (ossuariylar) yoki ostadonlarga solib, o'sha binoda saqlaydigan bo'lganlar.

Arxeologlar zardushtiylarning muqaddas kitobi sanalgan «Avesto»da ham qadimgi yunon yozuvlarida aytilgan marosimga duch kelganlar. «Avesto»da aytilishicha, qadimgi zardushtiylar o'likni erga ko'mishni, suvga tashlashni, o'tda kuydirishni qattiq gunoh deb hisoblaganlar. SHuning uchun o'likni uzoqdagi yalang'och qoyalar ustiga eltib tashlaganlar. Uni yirtqich hayvon va qushlar eb ketganidan keyin uning suyaklari uzoq vaqt quyosh ta'sirida qolib tozalangach, yig'ib olingan va boyagi bino — «novus»da saqlangan. Suyaklarni ossuariylarda saqlash odati keyingi zamonlargacha, ya'ni O'rta Osiyoda musulmonchilik keng tarqalguncha davom etgan. Bu xildagi suyaklar solingan sopol qutilar hozir O'rta Osiyoning ko'plab joylaridan topilmoqda.

Qoraqalpog'istonda Jonbos (YOnbosh) qal'asini qazishda zardushtiylarning otashkadasi, ya'ni o'tga topinadigan ibodatxonasi topilgan. Qal'aning darvozasidan kirilgach, to'g'ri ko'chani ikki tomoni ikki imorat bo'lib, ko'cha borib qal'aning to'rda shu otashkadaga taqaladi. Uning yonida qal'aning hokimi turadigan katta bino qoldig'i topilgan. Otashkadaning tashqari xonasi atrofiga supalar qilingan. O'rtada erda ovqat qoldiqlari, suyaklar, danaklar, siniq idishlar juda ko'p topilgan. Ichkari xonaning devorlari uzoq yongan olovdan yaltirab qorayib ketgan bo'lib, uyning narigi tomonidagi maydonchada benihoya ko'p kul saqlanib qolgan. Bu kuldanda qisman olovxona uyning ichidan ham topilgan. Demak, ichkarida muqaddas olov to'xtovsiz yonib turgan, ziyoratga kelganlar tashqari xonada supalarda o'tiruvchi maxsus din arboblari — «atrabon»larga o'z xddiyalarini berib, ular orqali «olovning duosini olib» qaytganlar. Arxeologiya ma'lumotlari va turli e'tiqodlar to'g'risida saqlangan xotiralarning hammasi zardusht dinining vatani xmda «Avesto» kitobi maydonga kelgan joy O'rta Osiyo, ya'ni Xorazm va Balxda bo'lib, 200 kiyik terisiga zarhal harflar bilan yozilgan bu kitob, 1992 yili Dushanbeda oddiy qog'ozda nashr etildi va haqiqatdan ham uning Vatani o'lkamizda ekanini tasdiqlaydi.

Milodimizdan avvalgi III asrdan boshlab O'rta Osiyo va SHimoliy Hindiston Grek-Baqtriya davlati, so'ngra Kushon hamda eftalit davlatlari qo'l ostida bo'lgan; o'sha zamondan bu ikki mamlakat orasida ma'lum munosabat boshlangan. Mavjud yodgorliklar bu to'g'rida juda ko'p ma'lumot beradi.

1933 yili Termiz rayonida, Ayritom degan joyda, budda dini ibodatxonasining xarobasi topilgan. Ibodatxonada buddaning haykali va boshqa ibodatxona qismlari qatorida toshdan yasalgan odam haykallari topilgan; ular musiqa chaluvchi, xadyalar tashuvchi erkak va ayol haykallari bo'lib, ibodatxonaning tashqi tomon karnizi shu haykallar bilan bezatilgan.

Haykallarning qiyofasida, kiyimlarida Hindistonga xos belgilar yorqin boʻlib, bu sanʼat ikki mamlakat orasidagi munosabatlarning samarasidir.

II asrda Kushon davlati budda dinini Hindistondan Oʻrta Osiyo va SHarqiy Turkistonga tarqatib, uni davlat dini darajasiga koʻtargan. Oʻzbekistonda, ayniqsa uning janubiy rayonlarida va SHarqiy Turkistonda topilgan koʻplab buddizm yodgorliklari oʻsha davrga qarashlidir.

III asrda eronda moniy dini vujudga keldi, lekin u uzoq saqlanmadi, uning tarafdorlari Oʻrta Osiyo va SHarqiy Turkistonga qochib oʻtib, koʻproq savdo yoʻli ustidagi shaharlarda bu dinni tarqatdilar.

Baʼzi arxeolog olimlar oʻrta Osiyoda topilgan koʻplab suratkashlik va haykaltaroshlik yodgorliklaridagi tasvirlarning murakkabligiga qarab, ularni moniy dini bilan bogʻlashga harakat qiladilar. Aslida bu hol Kushonlar hukmronligi davri (I-II asrlar) — quldorlik tuzumining oʻrta Osiyo sharoitida eng rivojlangan davri boʻlganligi bilan bogʻliqdir. Bu davrda, bir tomondan, qabilalarning oʻtroqlikka koʻchib, sugʻoriladigan erlarda joylashish jarayoni kuchaygan - boʻlsa, ikkinchidan, quldor aristokratiya jamoalar erini tortib olib, oʻzlashtira boshlaydi, shu tariqa jamoalar oʻz ichidan buzilib, butun-butun qishloqlar quldor aristokrat «dehqon»larga tobe boʻlib qoladi. Bu feodalizmning kurtaklari edi.

Mavzuga oid tayanch soʻz va iboralar.

Arxeologiya	Afrosiyob	Ibidoiy jamoa tuzumi
Paleolit	Mezolit	Neolit
Eneolit	Ibtidoiy	Poda
Ashelʼ	SHelʼ	Mustʼe
Pitekanthrop	Sinantrop	Geydelberg
Neandertalʼ	Neolit inqilobi	Ona urugʻi davri
Naus	Ossuariy	Dexqon
CHopper	Kadivarlar	Ota urugʻi davri

Mavzu yuzasidan nazorat savolar.

1. Arxeologiya qanday fan va uni oʻlka tarixini oʻrganishdagi ahamiyati?
2. Arxeologiya deganda nimani tushunasiz?
3. Arxeologiya fani qanday rivojlanish bosqichlariga ega?
4. Fargʻona vodiysidagi ibtidoiy jamoaga oid qanday arxeologik yodgorliklarni bilasiz?
5. Oʻzbekistonda arxeologiya fanini rivojlanishiga xissa qoʻshgan olimlar kimlar?
6. Oʻrta Osiyo arxeologlaridan kimlarni bilasiz?
7. Ashelʼ davriga oid boʻlgan yodgorliklarni aniqlang.
8. Professor S. P. Tosltov boshlik Xorazm arxeologik ekspedi-tsiyasining faoliyatiga baxo bering.
9. Teshiktosh gori topildiklari xaqida gapirib bering.
10. Oʻzbekistondagi neolit davri topildiklari va ularning oʻlkashunoslikdagi ahamiyati?
11. Oʻzingiz yashayotgan xududda arxeologik topildiklar bormi? Bor boʻlsa ular xaqida maʼlumot bering.
12. Oʻrta Osiyoda ibtidoiy tuzum necha davrga boʻlinadi?
13. Oʻzbekistondagi mezolit davriga oid arxeologik yodgorliklarni sanang.
14. Tosh davri nechaga boʻlinadi?
15. Arxeologik tadqiqotlarning oʻlkashunoslik fanini oʻrganishga bogʻliq tomonlarini ayting.
16. Oʻzbekiston oʻlkashunosligini oʻrganishga katta xissa qoʻshgan rus arxeologlaridan kimlarni bilasiz?
17. Arxeologiya qanday fanlar bilan aloqada boʻladi?

18. Arxeologiyaga oid materiallar maktab muzeyingizda mavjudmi, mavjud bo'lsa gapirib bering?
19. Arxeologiyaga oid yodgorliklar qanday o'rganiladi?
20. Arxeologiyaga oid yodgorliklar qanday o'rganida ishtirok etganmisiz?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. «Vatan sajdogox kabi muqaddasdir. Toshkent O'zbekiston 1996 yil.
2. Artsikovskiy A. V «Arxeologiya asoslari» Toshkent. "O'qituvchi" 1974 y.
3. Axmedov B. «O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari» Toshkent. "O'qituvchi" 1991 yil
4. Nabiev A. «Tarixiy o'lkashunoslik» Toshkent. "O'qituvchi" 1996 yil
5. Sulaymonova F. G'arb va shark. Toshkent. "O'zbekiston" 1997 yil

4-MAVZU: O'LKAMIZ O'RTA ASRLAR VA YANGI DAVRNING O'RGANILISHI.

Reja:

1. Ilk o'rta asr yodgorliklari.
2. Rivojlangan o'rta asrlar yodgorliklari.

Ekin maydonlarining ko'payib borishi, xususan sug'oriladigan erlarning kengayishi, qishloqlarning ko'payishi, er hosildorligini orttiruvchi sun'iy o'g'itlarning yaratilishi, suvni baland erlarga ko'taradigan charxpalaklarning va suv tegirmonining kashf qilinishi, paxta ekinining tarqalishi, meva navlarining yaxshilanishi yo'lidagi muvaffaqiyatlarning hammasi zamonaning ishlab chiqaruvchi kuchlarini o'stirib yuborgan va uni yangi feodal munosabatlarga olib kelgan yangi ijtimoiy voqea bo'ldi.

Bunday muhim sharoitda kushonlarning saltanatiga putur etib, inqirozga yuz tuta borishi bilan birga ichki ziddiyatlarga muvofiq diniy oqimlar o'rtasidagi munosabatlarning ham murakkablashmasligi mumkin emas edi.

III asrdan boshlab quldorlik davrining shaharlari xarobalikka yuz tutib, iqtisodiy hayot asosan alohida vohalarga, qishloqlarga ko'chadi. Er aristokratiyasi — «dehqon»lar qishloqlarga, ariqlar boshiga kelib, ko'shklar bino qiladi. VI asrga kelib ular qullardan qurolli yigitlar — chokarlar saqlab, atrofdagi qishloq aholisini o'z foydasiga ishlatib kun kechiradi. SHu taxlitda Milodning I asrining 25 yilidan to IV asrning 50-yillariga qadar hukm surgan markazlashgan kuchli Kushon davlati tugab, har qaysi shahar atrofidagi vohada alohida-alohida mustaqil hukmdorlar paydo bo'ladi, ularning boshida «dehqon»larning vakili turadi.

Hozir Toshkent, Samarqand, Buxoro, Jizzah Farg'ona vodiysidagi va boshqa ko'plab shahrdlar atrofidagi sug'oriladigan erlarda baland-baland «oqtepalar» bor. Arxeologiyaga oid qazilmalar, bularning xdmmasi feodallarning xom g'ishtdan solingan feodal ko'shklarining xarobasidan iborat bo'lib, «dexqonlar» yapgab o'tgan joylarning qoldiqlari ekanligini ko'rsatadi. Akademik YA. G'G'ulomovning kuzatishlari bunday ko'shklarning hozirgacha saqlanib kelganligini ko'rsatadi.

Feodallashish jarayonida ichki urushlar, xalq qo'zg'olonlarini bostirish uchun keskin choralar ko'rish natijasida ancha vayronagarchilik, qirilishlar bo'lib, butun-butun rayonlar vaqtincha bo'shab qolgan. SHunga qaramay, ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojida ma'lum siljishlar bo'lgan. SHu siljishlarni madaniyat soxasida ham ko'rish mumkin. Masalan, Xorazmda Tuproqqal'a (IV asr) ko'shkini qazishda u erdan «podsholar zali» deb atalgan zal topilgan. Zalning atrof devorlariga taxmon singari ravoqlar ishlanib, ularning har biriga turli qiyofadagi kishilarning haykallari o'rnatilgan. Haykallar nihoyatda yuqori did bilan ishlangan. Professor S. P. Tolstov «Bu zalda Xorazmda Ofrig' xonadoniga mansub podsholarning haykali ota-bobolar ruhiga sig'inish tariqasida aks ettirilgan», deb aytadi. Bu joyda haykallardan tashqari, turli bo'yoqli devor suratlari ham bo'lib, undagi manzaralarda dengiz to'lqini, baliqlar, yirtqich hayvonlar, sozanda qizlar surati va boshqa narsalar tasvirlangan. Bu saroydan Xorazm

shox.larining yozma hisob-kitob arxivi ham topilgan. Bular qadimgi Xorazm yozuvi bilan taxtaga va charmga bitilgan.

1938 yili VI — VIII asrlarga oid Xorazm pullaridagi yozuvlar yordamida ularning ko'pgina asoslari aniqlangan. Umuman, Tuproqqal'adan topilgan arxiv yozuvi fanga juda ko'p yangilik bergan.

1934 yili Samarqand yaqinidagi Mug'tepadan Panjakent hokimi Devashtichning VIII asrdagi arxivi to'pildi. Arxivdagi so'g'diycha va arabcha xatlar asosida so'g'd yozuvining xususiyatlari aniqlandi, bu esa tarix faniga ancha ravshanlik kiritdi. Bunga Xorazm arxivining qo'shilishi esa O'rta Osiyodagi o'sha zamon hayoti va madaniyatiga doir ko'p masalalarni aniqlash imkoniyatini yaratdi.

Keyingi yillarda Surxondaryo viloyatida «Bolaliktepa» degan joyni qazish jarayonida uning bir zali devorlari odam suratlari bilan bezatilgan ibodatxona ekanligi ma'lum bo'ldi. Unda zeb-ziynatli kiyimlar kiyib, qo'llarida qimmatli qadahlar tutgan va tavoze bilan allaqanday bir ishorat ko'rsatib turgan erkak va ayol suratlari shubhasiz, moniy mazhabi ibodatxonasida o'tkazilayotgan marosimdan darak beradi. Bu bino V asr oxirlariga tegishli deb topildi.

1937 yildan boshlab to 1956 yilga qadar Buxorodan 40 km g'arbdagi cho'lda Varaxsha shahrining xarobalari tekshirilgan. Bu erda VII — VIII asrlarda Buxoro hukmdorlari solgan Rachfandun saroyining xarobalari topilgan. Unda 3 zal va bir ayvon ochilgan. Ayvonning oldi tomoni o'ymakor ganchdan qilingan dabdabali toqi varavoqlar bilan bezatilgan, ichkari tomoni allaqanday meva bog'larini, ov manzaralarini tasvirlovchi bo'rtma ganch suratlari, bulbullar, duldul otlar haykali bilan bezatilgan.

Zallarning birida oq fil mingan kishilar filga hujum qilayotgan allaqanday afsonaviy yirtqich hayvonlar, qoplonlar bilan olishib turgani, ikkinchi zalda rum qo'shinlari, yana bir devorda ustiga oltin taxt qo'yilgan qanotli tuya va boshqa ko'p ajoyib narsalar rang-barang bo'yoqlar bilan tasvirlangan,

Qadimgi Panjakent xarobasi marhum professor A.YU.YAkubovskiy boshchiligida qazilganda, u erda ham VII-VIII asrlarga doir shunday bino topilgan. Devorlarga bo'yoqli suratlar solinib, ularda dafn marosimi, bazm va allaqanday diniy bir marosim tasvirlangan.

Tuproqqal'a, Bolaliktepa, Varaxsha, Fayoztepa, Panjakentlarda topilgan rasmlarning san'ati va tasvirlarining boyligi ilk feodalizm madaniyatining o'z zamonasida ancha rivoj topganligini va mulkdorlik davrida an'anaviy ravishda taraqqiy qilib kelgan tasviriy san'atning bu davrga kelib avj olganini tasdiqlaydi. VIII asrda arablar istilosidan keyin bunday san'atga ham ahamiyat berilgan.

Bu davrda savdo-sotiq va hunarmandchilik, xususan, idishlarni sirlash va nozik shisha buyumlar ishlash rivojlandi.

SHaharlarning quldorlik, ilk feodalizm davrlaridagi va so'nggi asrlardagi tarixiy topografiyasi, arxitektura yodgorliklari va boshqa o'rta asr inshootlari hozirgi kunda ancha yaxshi o'rganilgan. eski Urganch, eski Marv, Buxoro, Xiva, Samarqand va boshqa bir qator shaharlarning tarixiga bag'ishlangan maxsus asarlar maydonga keldi. Bulardan tashqari, Samarqandda Go'r Amir maqbarasidagi mozorlarning ochilishi, Ulug'bek rasadxonasining qayta tiklanishi (1941, 1948, 1967), SHahrisabzda Amir Temur tomonidan soldirilgan bir dahmatsing 1933 yilda ochilishi va hokazolar ko'pchilikning e'tiborini o'ziga jalb etdi.

Garchi Ulug'bek rasadxona (observatoriya)si 1908 yili topilib, uning er ostidagi sekstant qismi qazib ochilgan bo'lsada, bu yodgorlikning er ustidagi shakli qanday bo'lgani noma'lum edi. Rasadxona 1948 yilda V.A.SHishkin boshchiligida qazilib, uning qanday bo'lganligi aniqlandi. Uni Bobur Mirzo uch qavatli azamat bino deb ta'riflagan edi. Arxeologlar qazish ishlari olib borishlari natijasida bino to'garak shaklda ekanligi, ichkarisi juda ko'p qismlarga bo'linganligi, hozirgi Samarqand madrasa va maqbaralari singari rang-barang koshinlar bilan bezatilganligi aniqlandi. SHu ma'lumotlarga asoslanib, arxitektor V.A.Nil'sen rasadxonaning tashqi ko'rinishini taxminiy ravishda chizib berdi.

SHunday qilib, respublikamizda keng ko'lamda olib borilgan arxeologiyaga oid tadqiqotlar tufayli xalqimizning uzoq o'tmishi, sug'orish sohasida asrlar davomida orttirgan tajribalari ochib berildi.

Keng ko'lamda respublikamizda olib borilayotgan arxeologiyaga oid tadqiqotlar tufayli O'zbekiston arxeologiyasining deyarli hamma davrlariga: paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza va temir davrlari hamda antik dunyo va o'rta asrlarga oid juda ko'p xilma-xil ajoyib moddiy madaniyat yodgorliklari topib tekshirildi. Arxeologiyaga oid tekshirishlar natijasida to'plangan boy va qimmatli moddiy manba O'zbekiston xalqlarining qadimgi tarixini yoritish imkonini beribgina qolmay, balki o'rta asrlar tarixi, shuningdek, shaharlar «yoshini» aniqlashga ham katta yordam berdi.

Ozbekistonda arxeologiya fanining rivojlanishida yirik rus olimlari: A.YU.YAkubovskiy, S.P.Tolstov, M.E.Masson, A.P.Okladnikov, V.X.SHishkin, birinchi o'zbek arxiologi, akademik YAxyo G'omovning xizmatlari benihoya kattadir. Atoqli olim o'zining qisqa va mazmundor hayotida tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi darajasiga ko'tarildi. Iste'dodli olimning fan sohasidagi faoliyatlari uchun unga O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi degan yuksak unvon berildi.

Olimning ijodiy faoliyati ham o'ziga xosdir. U 1926 yilda Toshkentdagi O'zbekiston erlar bilim yurtini, 1930 yili Samarqanddagi Pedagogika akademiyasini tamomladi. 1931-1932 yillarda Toshkent pedagogika texnikumida o'qituvchi bo'lib ishladi. YOshlik chog'idayoq keng ilmiy jamoatchilikning e'tiborini qozondi. Ilmga, tarixga chanqoqligini sezgan mashhur o'lkashunos arxeolog V. L. Vyatkin uni o'zi rahbarlik qilayotgan ko'hna Afrosiyobda olib borilayotgan qazishmalarda ishtirok etishga taklif etdi. YA. G'ulomov mustaqil arxeologik tadqiqotlarni ilk bor 1936 yili qadimgi Xorazm erlaridan boshladi. 1933 — 1940 yillarda O'zbekiston qadimgi davr va san'at yodgorliklarini muhofaza qilish qo'mitasi (Uzkomstaris)da ilmiy xodim, so'ngra ilmiy kotib bo'lib ishladi. YA. G'ulomov 1940—1943 yillarda sobiq SSSR Fanlar Akademiyasi O'zbekiston bo'limi Tarix til va adabiyot instituti arxeologiya bo'limining mudiri va 1943 yildan Ozbekiston FA Tarix va arxeologiya institutining qadimgi va o'rta asrlar tarixi sektori mudiri, institut direktori vazifasini bajaruvchi (1956-1959 yillar) bo'lib ishladi. «Xorazmning sug'orilish tarixi. Qadimgi zamonlardan hozirgacha» mavzuida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. YA. G'ulomov 1936 yildan to umrining oxirigacha bir qancha arxeologiyaga oid (Toshkent, Buxoro, Farg'ona, Xorazm va boshqa) otryadlarga rahbarlik qildi. YA. G'ulomov 4 jildli «O'zbekiston SSR tarixi», 2 jildlik «Samarqand tarixi» asarlarining mualliflaridan. YA.G'ulomovning O'zbekistonning sug'orilish tarixiga doir ilmiy ishlari qadimgi dehqonchilik massivlari (Amudaryo, Zarafshon, Qashqadaryo va boshqa daryolarning qadimgi o'zanlari)ni aniqlash va undan xalq xo'jaligi maqsadlari yo'lida foydalanishda katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. YA.G'ulomovning O'zbekiston vodiy va vohalarida olib borgan arxeologiyaga oid tadqiqotlari O'zbekistonda qadimgi tosh davrlari: paleolit, mezolit, neolit, eneolit, jez va temir davrlarini o'rganishda muhim rol' o'ynadi. YA. G'ulomov bir qancha xalqaro konferentsiya va simpozi-umlarda muhim ilmiy dokladlar bilan qatnashdi. O' ajoyib tashkilotchi va pedagog ham edi. Xalqlar Do'stligi ordenli Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika institutida O'zbekiston tarixi va arxeologiyasidan ma'ruzalar o'qib, ko'pgina hozirgi zamon talabiga javob beradigan pedagog kadrlar etishtirgan. 4 tomlik «O'zbekiston irrigatsiyasi» tarixiga oid masalalarni yoritishda faol ishtirok etgan. O'zbek Sovet entsiklopediyasi Bosh tahrir hay'ati a'zosi bo'lgan.

YAxyo G'ulomov bag'ri keng va mehribon, g'amxo'r odam edi. O'z shogirdlarig'a fan so'qmoqlari qiyinchiliklarini engish yo'llarini, ilmiy izlanish uslublarini, davr talablarini izchillik bilan qabul qilish va uni amalga oshirishda faol qatnashishlarini o'rgatish bilan ham respublika olimlari orasida katta obro'-e'tibor qozongan.

O'lkani o'rganishda, ayniqsa O'zbekiston vodiy va vohalarining tarixini, etnografiyasini, arxeologiyasini, toponimikasi va nodir qo'lyozma asarlarini o'rganishda tarix fakul'teti studentlari uchun YA.G'ulomov asarlari dasturamal bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Ularning qunt

va matonat bilan olib borgan arxeologiyaga oid tadqiqotlari tufayli jahon ahamiyatiga ega bo'lgan qator moddiy-madaniyat yodgorliklari kashf etildi.

Mavzuga oid tayanch soʻz va iboralar.

Arxeologiya	Afrosiyob	Ibidoiy jamoa tuzumi
Paleolit	Mezolit	Neolit
Eneolit	Ibtidoiy	Poda
Ashel'	SHel'	Must'e
Pitekanthrop	Sinantrop	Geydelberg
Neandertal'	Neolit inqilobi	Ona urug'i davri
Naus	Ossuariy	Dexqon
CHopper	Kadivarlar	Ota urug'i davri

Mavzu yuzasidan nazorat savolar.

1. Arxeologiya qanday fan va uni o'lkada tarixini o'rganishdagi ahamiyati?
2. Arxeologiya deganda nimani tushunasiz?
3. Arxeologiya fani qanday rivojlanish bosqichlariga ega?
4. Farg'ona vodiysidagi ibtidoiy jamoaga oid qanday arxeologik yodgorliklarni bilasiz?
5. O'zbekistonda arxeologiya fanini rivojlanishiga xissa qo'shgan olimlar kimlar?
6. O'rta Osiyo arxeologlaridan kimlarni bilasiz?
7. Ashel' davriga oid bo'lgan yodgorliklarni aniqlang.
8. Professor S. P. Tosltov boshlik Xorazm arxeologik ekspedi-tsiyasining faoliyatiga baxo bering.
9. Teshiktosh gori topildiklari xaqida gapirib bering.
10. O'zbekistondagi neolit davri topildiklari va ularning o'lkashunoslikdagi ahamiyati?
11. O'zingiz yashayotgan xududda arxeologik topildiklar bormi? Bor bo'lsa ular xaqida ma'lumot bering.
12. O'rta Osiyoda ibtidoiy tuzum necha davrga bo'linadi?
13. O'zbekistondagi mezolit davriga oid arxeologik yodgorliklarni sanang.
14. Tosh davri nechaga bo'linadi?
15. Arxeologik tadqiqotlarning o'lkashunoslik fanini o'rganishga bogliq tomonlarini ayting.
16. O'zbekiston o'lkashunosligini o'rganishga katta xissa qo'shgan rus arxeologlaridan kimlarni bilasiz?
17. Arxeologiya qanday fanlar bilan aloqada bo'ladi?
18. Arxeologiyaga oid materiallar maktab muzeyingizda mavjudmi, mavjud bo'lsa gapirib bering?
19. Arxeologiyaga oid yodgorliklar qanday o'rganiladi?
20. Arxeologiyaga oid yodgorliklar qanday o'rganida ishtirok etganmisiz?

Foydalanilgan adabiyotlar.

5. Karimov I.A. «Vatan sajdogox kabi muqaddasdir. Toshkent O'zbekiston 1996 yil.
6. Artsikovskiy A. V «Arxeologiya asoslari» Toshkent. "O'qituvchi" 1974 y.
7. Axmedov B. «O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari» Toshkent. "O'qituvchi" 1991 yil
8. Nabiev A. «Tarixiy o'lkashunoslik» Toshkent. "O'qituvchi" 1996 yil
- Sulaymonova F. G'arb va shark. Toshkent. "O'zbekiston" 1997 yil

5-MAVZU: **Tarixiy o'lkashunoslikda etnografiyaning ahamiyati.**

1. **O'zbek xalqi to'g'risidagi etnografiyaga oid dastlabki ma'lumotlar**
2. **O'zbek etnografiyasi**
3. **«XIV-XVI asrlarda madaniyatning rivojlanishi» mavzusini o'tishda etnografiyaga oid ma'lumotlardan foydalanish uslublari.**

Etnografiya (etnos xalq, grapxio — yozish) xalq haqidagi fan bo'lib, u xalqni o'rganuvchi, ta'riflovchi fan yoki xalqshunoslik fani deb ham yuritiladi. Bu fanni ayrim vaqtlarda «etnologiya» (lotin tilida «etnos» — xalq, «logos» — so'z, tushuncha, fikrlash) deb ham atashgan. Ba'zi olimlar etnografiya bilan etnologiya o'rtasida ma'lum darajada chegara borligini ta'kidlaydilar. Ba'zi olimlar esa buni inkor etadilar. Aksincha, bu ikki fan o'rtasida hech qanday chegara yo'q, balki ularning biri ikkinchisini to'ldiradi, izohlaydi.

Etnografiya dunyo xalqlarining madaniyatini, maishiy hayotini, kelib chiqishi (etnogenezi)ni joylashishi (etnik geografiyasi)ni va madaniyat tarixini, o'zaro aloqa va munosabatlarini o'rganuvchi fandır.

Etnografiya tarixiy fanlar, ayniqsa, arxeologiya, antropologiya, geografiya va tilshunoslik bilan bevosita bog'liqdir. Bundan tashqari, u yozma manbalar, geografik hujjatlar, moddiy va maishiy materiallardan xam foydalanadi. Mana shu xususiyatlari bilan etnografiya boshqa tarixiy fanlardan farq qiladi.

Inson aql-zakovati va qo'li bilan yaratilgan hamma narsa madaniyat etnografiyasidir. Madaniyat ham o'z navbatida ikkiga bo'linadi. Transport, arxitektura inshootlari, kiyim-kechak, zeb-ziynat, qurol-yarog', mehnat qurollari va shu kabilar moddiy madaniyatni tashkil etadi. Insonning ilmiy faoliyati bilan yaratilgan san'at, adabiyot, yozma manbalar, fan, falsafa, oilaviy hayot, diniy marosimlar, diniy e'tiqodlar va shu kabila ma'naviy madaniyatga kiradi.

Etnografiya faqat moddiy madaniyat bilan ma'naviy madaniyat o'rtasidagi asosiy farqlarnigina o'rganib qolmay, balki ular orasidagi o'xshashlik va umumiy qonuniyatlarni ham o'rganadi.

Bu qonuniyatlarni tadqiq etish esa insoniyatning umumiy tarixiy taraqqiyoti qonunlarini bilish imkonini beradi. etnograflar oldida turgan keng va xilma-xil masalalar etnografiya fanini boshqa yaqin fan sohalari bilan uzviy bog'labgina qolmay, uning o'zini ham bir qator ixtisoslarga bo'lib yubordi. Bular xo'jalik va texnika tarixi, xalq me'morchiligi va tasviriy san'at, urf-odat va marosimlar, oilaviy tuzum, kiyim-kechak va uy-ro'zg'or, ijtimoiy va maishiy turmush ixtisoslari va hokazolar. Lekin, odatda, etnografiya ayrim qit'alar, mamlakatlar yoki xalqlarga qarab, masalan, Afrika, Avstraliya, Amerika, Evropa, O'rta Osiyo xalqlarini o'rganish, shuningdek, yanada torroq doirada rus, ukrain, ozarbayjon, tojik, o'zbek xalqlari va etnografiyaga oid guruhlarini o'rganish bo'yicha ixtisoslarga bo'linadi. Bunday tor ixtisoschilik asosida etnografiya fani turmush yo'sinidagi hodisalarni bevosita kuzatish usullariga tayanib, insoniyat tarixining hamma bosqichlari — eng ibtidoiy shakllaridan to hozirgi zamondagi ko'p qirrali, yuqori madaniyatli turmush yo'sinlarigacha o'rganadi.

Etnograflarimiz etnografiya fanining hamma sohasida peshqadam bo'lib bormoqdalar. Ba'zi etnograflarning asarlari faqat fan nuqtai nazaridangina emas, balki amaliy masalalarni hal qilish jihatidan ham muhim ahamiyatga ega. etnografik bilimlar xalqlarning g'oyat boy madaniyat merosidan foydalanish imkoniyatini beradi. etnograflarning markaziy vazifalaridan biri barcha xalqlarga xos yangi turmush tarzining umumiy xususiyatlarini o'rganishdan iborat. Ijtimoiy va oilaviy turmushdagi yangi progressiv formalarni tadqiq qilish yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga katta yordam beradi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilib, uni mustahkamlayotgan hozirgi sharoitda uning o'tmish an'analarini, navro'z singari qadimiy bayramlarni nishonlash jonajon o'lkamiz yangi fuqarosini kamol toptirish imkonini beradi.

Bunday murakkab jarayonni ilmiy jihatdan aniqlash va o'rganish etnograflarning asosiy vazifalaridan biridir.

1. O'zbek xalqi to'g'risidagi etnografiyaga oid dastlabki ma'lumotlar

Etnograf olimlar oldida turgan muhim vazifalardan biri — xalqlarning kelib chiqishini, ular haqidagi etnografiyaga oid ma'lumotlarni to'plash, yig'ish, umumlashtirish va tadqiq qilish hamda shular asosida ilmiy xulosa chiqarishdan iboratdir. Masalan, o'zbek xalqining kelib chiqishi va xalq bo'lib shakllanishi juda xam murakkab jarayonni boshidan kechirgan. Ko'p vaqtlardan beri tadqiqotchilar orasida o'zbek xalqining kelib chiqishi to'g'risida har xil, ayrim hollarda chalkash fikrlar hukm surib kelmoqda. Ko'plab tadqiqotchilar bu murakkab va chalqash masalani echib berish ustida ish olib bormoqdalar.

Ma'lumki, «o'zbek» etnik nomining kelib chiqishi Dashti qipchoqda tashkil topgan Oq o'rda va SHaybon ulusida, ya'ni Sirdaryo, Orol dengizi va Volga bo'ylari oralig'idagi keng hududda ko'chib yurgan, XIV asrdan boshlab o'zbeklar deb yuritilgan turk-Mo'g'ul qabilalari bilan bog'liqdir.

Bu qabilalar XV asr davomida nihoyatda zo'r xarbiy-siyosiy kuchga ega bo'lgan davlat tashkil qilib, XVI asrning boshlaridan Muhammad SHayboniyxon boshchiligidagi O'rta Osiyoga, shu jumladan, hozirgi O'zbekiston hududiga bostirib kiradi va o'nasha boshlaydi.

Ayrim tadqiqotchilar o'zbek xalqining kelib chiqishi tarixini mazkur istilo davri bilan bog'lab, o'zbek xalqining shakllanishi XV — XVI asrlardan boshlanadi, degan mutlaqo noto'g'ri fikr yuritib kelgan edilar. Yirik olimlar, chunonchi, S. P. Tolstov, A. YU. YAkubovskiy, YA. G'. G'ulomov, A. Asqarov, B. Ahmedov, I. Jabborov va boshqalar o'zbek xalqining boshlang'ich yadrosi O'rta Osiyoda quldorlik davrida yashagan qadimgi so'g'diylar, xorazmiylar, sak qabilalari va urug'-aymoqchilikni unutgan, keyinroq ko'chmanchilikdan o'troq dehqonchilikka o'tib sart nomini olgan, turkiy tilda so'zlashuvchi chigil, qorluq, yag'mo, tuxsi, arg'u kabi qavmlardan iborat ekanligini, o'zbek elatining shakllanishi asosan XI-XII asrlarda tugaganligini va XVI asr boshlarida paydo bo'lgan ko'chmanchi SHayboniy o'zbeklarning o'zbek xalqining qadimgi yadrosiga aralashib ketib, unga faqat o'z nominigina berganligini asosli dalillar bilan isbotlab berganlar.

Keyinchalik keng miqyosda o'tkazilgan arxeologiyaga oid va antropologiyaga oid tadqiqotlar, bizgacha etib kelgan yunon, arab, fors va xitoy mualliflarining va boshqa sayyohlarning juda ham noyob axborotlari o'zbeklarning Farg'ona, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo vodiylarida, Xorazm va Toshkent vohalarida yashagan qadimiy avlod-ajdodlarining etnografiyaga oid qiyofasini to'liq bo'lmasa ham ko'z oldimizga keltirishga imkon beradi.

O'rta Osiyo, shu jumladan, O'zbekiston hududida Rossiya Fanlar akademiyasining va O'zbekiston Fanlar akademiyasining tarix va arxeologiya institutlari tomonidan uyushtirilgan ko'p yillik samarali ishlar natijasida o'zbeklarning avlod-ajdodlari qadimdan o'troq, yirik sug'orish inshootlariga asoslangach dehqonchilikka, mustaqil, o'ziga xos yuksak madaniyatga ega bo'lganligi isbot qilindi. Bu holat ba'zi tadqiqotchilarning O'rta Osiyo xalqlari go'yo tarixiy xalq emas, ularning madaniyati eron va boshqa mamlakatlarning madaniyatiga tobe, bu go'zal o'lkada uzoq o'tmishda faqat ko'chmanchi, yovvoyi qabilalar yashagan, degan har xil da'volarni fosh qildi va puchga chiqardi. Holbuki, irqiy «nazariyani» targ'ib qiluvchi ba'zi olimlarning uzoq ajdodlari ibtidoiy madaniyatga endi erishgan bir paytda qadimgi Xorazmda CHiriqrobot, Bobishmulla, qo'yqirilgan qal'a, Tuproqqal'a kabi yodgorliklardan qazib topilgan ajoyib arxitektura, san'at hamda yozuv durdonalari, Bolalitepa va Panjakentda kashf etilgan har xil marosimlarni tasvirlovchi rang-barang rasmlar, Varaxshaning go'zal ganch haykal va bezaklari, butun antik davr ichida qurilgan hashamatli shahar va qal'alar, dabdabali. sug'orish inshootlari, bepoyon ekinzorlar o'zbek va boshqa O'rta Osiyo xalqlarining uzoq o'tmishda nihoyatda zo'r iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga ega ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Uzoq asrlar davomida shakllanib kelgan yuqori darajadagi madaniy zamin bo'lmaganda, ilk feodalizm davrida, ya'ni IX — XII asrlarda butun O'rta Osiyo, shu jumladan, O'zbekistonda fan va madaniyat gurkirab o'sib, jahonga Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad

ibn Muso Xorazmiy, Abunasr Forobiy kabi fanning ko'p sohdlarini mukammal egallagan ulug' siymolarni etkazib berishi mumkin emas edi.

O'rta asrning eng yirik olimlaridan iste'dodli tilshunos Mahmud Koshg'ariy o'zining «Devonu lug'atit turk» nomli noyob asarida o'zbek xalqining eng qadimgi turkiy tilda gapiruvchi ajdodlaridan biri bo'lgan chigil qabilalari Iskandar Zulqarnayn yurish qilgan davridayoq ko'p nufuzli etnografiyaga oid guruhlardan hisoblangani haqida ma'lumot beradi.

XI asrning etuk shoiri va olimi Yusuf Xos Hojib tomonidan yaratilgan, o'z davrining zo'r badiiy asari hisoblangan «Qutadg'u bilig» ning ana shu chigil qabilalari tili asosida yozilganini va bunday ajoyib asar agar uzoq asrlar davomida iqtisodiy, madaniy birlik negizida dunyoga kelgan umumiy bir til bo'lmagan holda paydo bo'la olmasligini ham e'tiborga olsak, u vaqtda o'zbek xalqining tili nihoyatda uzoq tarixga ega ekanligiga ishonchimiz komil bo'ladi.

Mahmud Koshg'ariy o'z asarida ilk o'rta asrlarda ham turkcha, ham so'g'diycha so'zlaydigan, ya'ni ikki tilli bo'lgan va faqat turkcha gapiradigan kishilarning juda ko'pligini, lekin faqat so'g'diycha so'zlaydigan kishilarning mutlaqo yo'qligini xamda turkiy tillar eski tillarni siqib chiqarganligini aytadi. Demak, o'zbek xalqi milodimizdan avvaloq muayyan bir hududda o'ziga xos moddiy va ma'naviy birlik yarata boshlab, asta-sekin til jihatidan xam umumiylikka erisha boshlaydi. Natijada, yuqorida aytilganidek, XI-XII asrlarga kelib o'zbek xalqi asosan shakllanadi.

Arxeologiyaga oid va antropologiyaga oid kashfiyotlar natijasida to'plangan ma'lumotlardan tashqari, o'zbek xalqining avlod-ajdodlari to'g'risidagi ba'zi paleoetnografik ma'lumotlarni yozma manbalarda ham uchratish mumkin. Qadimgi xorazmiylar, so'g'diy va saklar yoki massagetlar haqidagi ayrim ma'lumotlar antik davr mualliflari-miletlik Gekatey, Strabon, Gerodot, Arrian va Ptolomey asarlarida, qadimiy forsiy yozuvlar va butun o'rta SHarqda tarqalgan muqaddas kitob — «Avesto» da mavjud.

Milodimizdan oldingi II asrdagi Xitoy elchisi va sayyohi CHjan TSyanning Davan (qadimgi Farg'ona) va Kangyuy (Xorazm) davlatlari haqida qoldirgan ba'zi ma'lumotlari ham etnografiya jixatidan diqqatga sazovordir. Afsuski, islom dini tarqalguncha, ya'ni VII — VIII asrlargacha bo'lgan davrni yoritish uchun mahalliy yozma manbalar yo'q.

Arab istilosi davrida tarixiy asarlar va ularning mualliflari vahshiylarcha yo'q qilib tashlanganligi haqida Beruniy xabar qiladi. Arab istilosi arafasiga oid bo'lgan yodgorliklar (Tuproqqal'a, Bolalitepa, Varaxsha, Panjakent) dan topilgan boy, devorga ishlangan rasmlar, har xil haykal va o'ymakor bezaklar ajoyib san'at durdonalari bo'libgina qolmay, o'sha davrda yashagan xalqning xo'jalik faoliyati, etnik tuzilishi, moddiy va maishiy turmushi, urf-odatlarini o'rganishda muhim va birinchi darajali tarixiy etnografik manba bo'lib xizmat qiladi.

Arab istilosidan keyingi asrga oid etnografik ma'lumotlar mahalliy va arab yozuvchi-sayyohlarining asarlarida mavjud. IX — XII asr mualliflaridan Ibn Xurdadbeh al-Balxiy, al-Istaxriy, Ibn Havqal, Mas'uddiy YOqut singari yirik geograf va sayoxatchilar, mahalliy mualliflardan faylasuf, musiqashunos Abu Nasr Forobiy, mashhur qomuschi olim Abu Rayhon Beruniy va buyuk tabib Abu Ali ibn Sino, etnograf, geograf, tarixchi olim Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad Sam'oniylar hamda noma'lum muallif yaratgan «Xudud al-olam» singari asarlarda O'zbekiston hududidagi o'sha davrda yashagan aholi to'g'risida ba'zi etnografiyaga oid lavhalar keltirilgan. Ma'lumki, CHingizxon hukmronligi davrida Mo'g'ullar saltanati misli ko'rilmagan darajada kengayib ketdi. Ular bosib olgan o'lkalarini vahshiylarcha taladi, shahar va qishloqlarning kulini ko'kka sovurdi. Qo'l ostidagi o'lkalarda nihoyatda og'ir zulm o'tkazdi. Evropa monarxlari va Rim papasi dahshatli, jahonni larzaga solgan CHingizxon bilan savdo, siyosiy va diplomatik munosabatlar o'rnatishga qiziqishdi. Birinchi bo'lib, «Tatarlar o'lkasiga» ga papa Innokentiy IV 1245 yilda frantsiskalik Ioanna Plano Karpini boshchiligidagi monarxlardan iborat elchilarni yuboradi. Xuddi shu maqsad va shu yo'l bilan 1249—1251 yillarda safar qilgan Plano Karpini vatandoshi Vil'gel'm Rubruk asarida va venetsiyalik Marko Polo (Rim papasining topshirig'i bilan kelgan) asarlarida

ham (ular Xitoyga O`rta Osiyo orqali o`tishgan) o`lkalar haqida etnografiyaga oid ma`lumotlar keltirganlar.

Qudratli va keng saltanat tashkil qilgan buyuk sarkarda Amir Temur va uning taxt vorislari h,ukmronlik qilgan davrda O`rta Osiyo, shu jumladan, O`zbekiston yirik madaniyat markaziga aylandi va uning boshqa mamlakatlar bilan har tomonlama aloqalari kuchaydi. Bu davrga oid qiziqarli ba`zi etnografiyaga oid ma`lumotlarni ispan elchisi ritsar' Rui Gonzales de Klavixoning asarida, rus solnomalarida, mahalliy mualliflar Nizomiddin SHomiy, Abdurazzoq Samarqandiy va boshqalarning asarlarida uchratish "mumkin. Temur davlati hukmronlik qilgan davr haqida hamda ko`p yurtlarni bosib olib va o`z boshidan kechirganlarini yozib qoldirgan (buyuk o`zbek shoiri Alisher Navoiyning zamondoshi) yirik davlat arbobi, andijonlik Zahiriddin Muhammad Boburning «Voqeaiy Boburiy» yoki «Boburnoma» deb nomlangan asarida etnografiyaga oid ma`lumotlar ham keltirilgan.

XVI asr boshlarida O`rta Osiyoni bosib olgan ko`chmanchi o`zbeklarning etnik tarkibi, joylashgan hududi, turmushi va urf-odatlar haqida Mas`ud ibn Usmon Ko`hisoniyning «Tarixi Abulxayrxoni», Kamoliddin Binoiyning «SHayboniynoma» va Abdulxayr Fazlulloh Ruzbehonning «Mehmonnomayi Buxoro» nomli asarlarida etnografiyaga oid qimmatli ma`lumotlar keltirilgan.

O`rta Osiyoda o`zbek xonliklari paydo bo`lganidan keyin markazlashgan rus davlati bilan ular orasida muntazam ravishda savdo va diplomatik munosabatlar o`rnatila boshlanadi. XVI asrning faqatgina ikkinchi yarmidayoq O`rta Osiyodan Rusiyaga 8 marta elchilar yuborilgan bo`lsa, XVII asrda Xiva xonligidan 12 marta, Buxorodan esa 13 marta elchilar jo`natilgan. Bunga javoban rus davlati ham o`z elchilarini o`zbek xonliklariga yuboradi va ularga diplomatik vazifalardan tashqari, mazkur o`lkalar to`g`risida har xil ma`lumotlar to`plash ham topshiriladi. Rus elchilarining, to`plagan ma`lumotlari hozir ham ilmiy jihatdan o`z qimmatini yo`qotmadi.

Bu sohadagi tashabbusni dastlab 1558 yilda Xitoyga O`rta Osiyo orqali savdo yo`lini aniqlash maqsadida Moskvaga kelgan Angliya savdo kompaniyasining vakili Antoniy Jenkinson boshlab berdi. U Moskva hukumati yordamida Astraxan' va Kaspiy dengizi orqali Xiva va Buxoroga boradi. Qishni o`sha erda o`tkazib, 1558 yilda Moskvaga ketayotgan Buxoro va Xiva elchilariga Angliya savdo kompaniyasi o`z vakili A. Jenkinsonni qo`shib yuboradi. U o`z maqsadiga erisha olmagan bo`lsada, O`rta Osiyo haqida anchagina ma`lumotlar to`pladi.

Rossiya bilan O`rta Osiyo o`rtasidagi munosabatlar ayniqsa XVIII asrda Buyuk Pyotr davrida kuchayadi. Rossiya iqtisodiy jihatdan rivojlanib, xom ashyo manbai va sanoat mahsulotlari sotadigan yangi bozorlarga muhtoj bo`lib qoladi. SHu munosabat bilan O`rta Osiyoga har xil diplomatik va savdo vakillarini yubora boshlaydi. Pyotr I O`rta Osiyoni o`z ta`siriga olish maqsadida ikkita ilmiy safar uyushtirdi. Ilmiy safarning bittasiga qnyaz' Aleksandr Bekovich-CHerkasskiyni, ikkinchisiga Ivan Buxgol'tsni boshliq qilib tayinlaydi. Bu ilmiy safarlar mag`lubiyatga uchragan bo`lsa-da, Pyotr I to`umrining oxirigacha o`z maqsadidan voz kechmadi. Uning buyrug`i bilan 1718 yilda Kaspiy dengizini tekshirish uchun yangi ilmiy safar tuziladi va 1720 yili Kaspiy dengizining birinchi xaritasi yaratiladi. Kelasi yili Buxoroga rus elchisi bo`lib kelgan Florio Beneveni Xivaga ham borib, faqat 1725 yilda Pyotr I o`limidan so`ng Rossiyaga qaytgan va bu mamlakatlar to`g`risida geografiyaga oid tarixiy hamda etnografiyaga oid ma`lumotlar olib kelgan.

Ko`hna Xorazm aholisining XVIII asr o`rtalaridagi turmushi to`g`risidagi etnografiyaga oid muhim ma`lumotlarni 1740—1743 yillarda Dmitriy Gladishev va Ivan Muravin boshchiligidagi Orol dengizi va Xiva ilmiy safari hmda 1753 yilda Samara savdogari Daniil Rukavkinning Xivaga qilgan sayoxdti davrida to`plagan ma`lumotlaridan olish mumkin. 1774 yilda Orenburg cho`llarida qozoqlar tomonidan asir olingan rus unter-ofitseri Filipp Efremov asirlikdan qochib, Qo`qon, Marg`ilon, qashqar, YOrkent, Tibet, Hindiston va Angliya orqali 1782 yilda Rossiyaga qaytib keladi va ko`rgan-bilganlarini yozib qoldiradi. 1781 yilda Buxoroga elchi bo`lib kelgan Mendiya Bekchurin va 1794-1796 yillarda Buxoroga sayohat qilgan T. Burnashevning hikoyalari ham bor. SHu davrdagi Xiva xonligiga oid tarixiy va etnografiyaga

oid ma'lumotlar xonning taklifi bilan Xorazmga kelgan ko'z shifokori, mayor Blankennagelning yozib qoldirgan xotiralari ham mavjud.

O'zbek xalq etnografiyasiga oid ma'lumotlar to'plash XIX asrning birinchi yarmida N.N.Murav'ev, A.F.Negri, N.V.Xanikov G.I.Danilevskiy olib borgan kuzatishlar O'rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, o'zbeklarning etnografiyasini o'rganishdagi dastlabki ilmiy qadamlar bo'ldi.

1819—1820 yillarda Xiva xonligiga sayohat qilgan kapitan N.N.Murav'ev o'z taassurotlarini asar tarziga keltirib katta ish qildi. N.N.Murav'ev asarining ba'zi boblarida bevosita o'zbeklarning tabiati, diniy e'tiqodlari, urf-odatlar, ma'rifati, kiyim-kechagi, uy-ro'zg'ori, urug'-aymog'i kabi etnografiyaga oid sof ma'lumotlar keltirilgan. Uning aytishicha, Buxoro tomondan kelgan o'zbeklar asosan to'rt toifadan — qiyot-qo'ng'iro't, uyg'ur-nayman, qang'li-qipchoq, po'kis-mang'itdan iborat; har bitta toifa mustaqil hokim — inoqqa ega, ammo ularning eng kattasi qiyot-qo'ng'iro't inoqidir. Uning ko'rsatishicha, Xiva xonligidagi qabilaviy o'zbeklar ko'chmanchi bo'lgan. Ularning ko'pchiligi qora uylarda yashaganlar, ammo boy urug'doshlari o'troq sart singari katta paxsa devor bilan o'ralgan uylarga ega bo'lgan.

1820 yili Buxoroga jo'natilgan A.F.Negri boshchiligidagi diplomatik missiya qatnashchilaridan e.A.Eversman, X.Pander, P.Yakovlev, Budrin va polkovnik G.Meyendorflarning kitob va xotiralari nihoyatda boy tarixiy etnografik ma'lumotga ega, G.Meyendorfnining turli tillarda nashr qilingan «Orenburgdan Buxoroga sayohat» nomli kitobida Buxoro xonligining geografik o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, davlat tuzilishi, aholisi va uning mashg'uloti, qishloq xo'jaligi, sug'orish tizimi, hunarmandchiligi, ichki va tashqi savdo, oila va xotin-qizlarning turmushi haqida qimmatbaho ma'lumotlar keltirilgan. Bu borada ayniqsa 1833-1841 yillarda Orenburg gubernatorining maxsus topshirig'iga binoan ishlagan iste'dodli yozuvchi, fol'klorch, etnograf, vrach va adabiyotshunos, mashhur leksikograf V.I.Dallning olib borgan ilmiy ishlari diqqatga sazovordir.

CHet el mualliflaridan biri — fors tilini yaxshi bilgan ingliz sayohatchisi Aleksandr Boris 1831—1832 yillarda Buxoroda turib, muhim siyosiy, iqtisodiy, harbiy va etnografiyaga oid materiallar to'playdi. Boris yozib qoldirgan sayohatnomada o'zbeklar haqida nixshtda qiziqarli ma'lumotlar mavjud.

D840—1850 yillar ichida Qozog'iston va O'rta Osiyo xalqlarining etnografiyasini ilmiy jihatdan o'rganishda talantli aka-uka Nikolay va YAKov Xanikovlarning xizmati katta. YAKov Xanikovning 1851 yilda nashr qilingan «Orol dengizi va Xiva xonligi xaritasiga izohnoma» asarida etnografiyaga alohida e'tibor berilgan. Uning ishlariga P.P.Semyonov va I.V.Mushketovlar yuksak baho berdilar.

Etnografiyaga oid muhim ma'lumotlar 1843 yilda Xiva xonligiga diplomatik missiya a'zolari bilan kelgan polkovnik G.I.Danilevskiy, F.N.Baziner asarlarida ham keltirilgan.

O'sha davrlarda atoqli sharqshunos olim V.V.Grigor'ev Orenburgda istiqomat qilgan va u Rossiyada birinchi bo'lib SHarq xalqlari tarixi kursini o'qita boshladi. Uning 200 dan ortiq ilmiy ishlari orasida o'rta Osiyo xalqlariga, jumladan, o'zbeklarga tegishlilari ham mavjud.

1851 yilda Orenburgga kelib sayohat qilgan V.V.Vel'yaminov-Zernov ham o'zbek xalqiga oid bir qancha qiziqarli tarixiy asarlar yaratgan.

1858 yilda polkovnik N.P.Ignat'ev boshchiligidagi Xiva va Buxoroga yuborilgan yirik diplomatik missiya ham ancha samarali ish olib borgan.

Turk tillarini yaxshi bilgan mashhur vengr sharqshunos olim Arminiy Vamberi 1863 yili darvesh libosini kiyib, savdo karvoni bilan Xiva, Buxoro, Samarqand va boshqa O'rta Osiyo shaharlariga sayohat qiladi. Sayyoh olimning O'rta Osiyo haqida yozgan asarlarida mahalliy aholi, shu jumladan, o'zbek xalqi etnografiyasiga oid qiziqarli ma'lumotlar bor. U o'zbek urug'lari haqida gapirib, birinchi bo'lib «o'zbek» so'zining kelib chiqishi to'g'risida mulohaza yuritadi. A.Vamberi 32 o'zbek qabilalarining ro'yxatini beradi va ularning kiyim-kechaklari, taomlari, o'yin va musiqa asboblari, urf-odatlar va diniy marosimlari to'g'risida hikoya qiladi. Asar muallifi ayrim bo'rttirish, xatolarga yo'l qo'yganligi uchun uni sharqshunos olimlar, jumladan, V.V.Bartol'd ancha tanqid qilgan.

SHunday qilib, bu ayrim jasur va bilimli sayyoh, hamda elchilarning samarali mehnati tufayli XIX asrning birinchi yarmiga kelib o'zbeklar to'g'risida etnografiyaga oid dastlabki muhim ilmiy ishlar paydo bo'la boshlaydi.

Rus sharqshunos olimlari fors-tojik va arab tillarida bitilgan qo'lyozma asarlarni o'rgandilar va uning ma'lumotlarini o'zbek xalq etnografiyasini o'rganishga tatbiq qildilar.

Haqiqatan ham XVI — XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan davr ichida mahalliy mualliflar tomonidan yaratilgan tarixiy asarlarda ba'zi muhim etnografik lavxalar bor. Iste'dodli tarixchi, shoir va musiqashunos Hofizi Tanish Buxoriyning «Abdullanoma», tarix tibbiyot va adabiyot sohasida tanilgan davlat arbobi Abulg'ozixonning bir necha bor chet tillarga tarjima qilingan «SHajarai turk va Mo'g'ul» hamda «SHajarai tarokima» kabi asarlari mavjud. Mashhur o'zbek tarixchilari SHermuhammad Munis, Muxammad Rizo Ogahiy va Muhammad YUsuf Bayoniylarning «Firdav ul-iqbol», «Riyozi ud-davlat», «Zubda ut-tavorix», «Jomi' ul-voqeoti Sultoniy», «Gulshani davlat», «SHohidi iqbol», «SHajarai Xorazmshohiy», «Xorazm tarixi» kabi asarlarida XVII asrning II yarmidan to XX asr boshlarigacha Xorazm va qo'shni yurtlarda ro'y bergan tarixiy voqealar yuksak mahorat bilan tasvirlanadi. O'zining boy mazmuni, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ma'lumotlarning ko'pligi va rang-barangligi bilan ajralib turuvchi bu tarixiy asarlar o'sha davrdagi o'zbek xalqi etnografiyasini o'rganish uchun muhim manba bo'la oladi.

O'rta Osiyoni, shu jumladan, O'zbekistonni Rossiya bosib olishi tufayli o'zbek va boshqa O'rta Osiyo xalqlari bilan rus xalqi hamda uning «inqilob» to'fonlari bo'sag'asida turgan ishchilar sinfi o'rtasida bevosita aloqalar o'rnatilganligi 6u tarixiy voqeaning asosiy progressiv oqibati hisoblanadi. Ilg'or rus olimlari va o'lkani o'rganuvchilar mustamlakachilik rejimining og'ir sharoitida, mahdliiy ma'murlarning jaholatiga bardosh berib, o'zbek, tojik, turkman qirg'iz va boshqa O'rta Osiyo xalqlarining iqtisodiyoti, tarixi, turmushi va madaniyatini o'rganish borasida hormay-tolmay ish olib bordilar. Ulug' rus demokrat tanqidchisi V.V. Stasov bular haqida: «Rossiya tadqiqotchilarining vazifasi O'rta Osiyo mamlakatlaridagi hozirgacha ma'lum bo'lmagan badiiy va etnografiyaga oid durdonalar haqida Rossiya va Evropa uchun umumiy ma'lumotlar berishdan iborat edi. CHunki Rossiya bu mamlakatlar bilan qadim zamonlardan buyon aloqada va yaqin munosabatda bo'lib, ularning o'zaro ta'siri uzoq o'tmishdan buyon davom etib kelmoqda» — deb yozgan edi.

O'zbek xalqining etnografiyasini o'rganish bilan shug'ullangan N. P. Ostroumov, N. S. Likoshin singari tadqiqotchilar o'lkadagi mustamlakachilik ma'murlarining vakillari bo'lib, o'z asarlarida chorizmning mustamlakachilik siyosatini targ'ib qildilar. Biroq bularning asarlarida ham mahalliy aholining turmushi, madaniy hayotiga doir dalillarga asoslangan bir qancha diqqatga sazovor ma'lumotlar bor. O'rta Osiyo yurishlari davrida V. V. Radlov, A. P. Fedchenko, A. L. Kun, M. A. Middendorf kabi tadqiqotchilar katta va samarali mehnat qildilar. V.V.Radlov O'rta Osiyo xalqlarining tili, etnografiyasi haqida ma'lumotlar to'plagan; o'rta Zarafshon vodiysi bo'ylab sayohat qilib, qiziq-qiziq ocherklar yozgan.

A. P. Fedchenko o'z rafiqasi bilan o'zbek xalq etnografiyasiga oid juda ko'p ma'lumotlar to'plagan va «Qo'qon xonligida» degan asarini yozgan.

1917 yildan ilgari tadqiqotchilarning ishlarini mujassamlashtirgan umumiy monografiyalarda ham o'zbeklar haqida qimmatli ma'lumotlar to'plangan.

Etnografiyaga oid ma'lumotlarni saqlash va keng ommaga etkazishda ilmiy jurnallar, statistik boshqarmalarning spravochnik va to'plamlari hamda «Turkistanskie vedomosti» gazetasining xizmatlari ham katta bo'ldi.

Ilmiy jamiyatlar va to'garaklar ichida o'zbek etnografiyasini o'rganishda Rus geografiya jamiyati va uning Turkiston bo'limi, Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi, tabiiyot, antropologiya va etnografiya havaskorlari jamiyati Turkiston bo'limining faoliyati alohida e'tiborga sazovor.

SHunday qilib, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida o'zbek etnografiyasini o'rganishda ilmiy jihatdan diqqatga sazovor bir qancha ishlar paydo bo'lib, jiddiy tadqiqotchi olim va o'lkashunoslar safi ancha kengaydi. Ular o'z asarlarida o'zbek va

boshqa O`rta Osiyo xalqlari madaniy va maishiy turmushining xususiyatlari, ijtimoiy va oilaviy tuzumning o`tmish va o`z zamonasidagi shakllari, urf-odatlar, urug`-aymoq va qabilaviy tuzumi, diniy e`tiqodlari va etnografiyaga oid boshqa xususiyatlarini ta`riflash bilan birga ularning ma`nosini ilmiy jixatdan ham sharhlashga intilganlar. Lekin o`z davrining hukmron g`oyalari ta`siri ostida bo`lgan bu tadqiqotlar ma`lum masalalarni yoritishda bir qadar cheklangan edi. Burjua etnografiya faniga xos mujmallik bu sohaga deyarli taalluqli bo`lmagan yuzaki ishlarning kelib chiqishiga yo`l ochib berganligini xam unutmash kerak.

Ijtimoiy masalalarni sharhlashda o`tmish tadqiqotchilarining oqilchiligi, sub`ektivizmi, ba`zan irqiy kontsepsiyalarning hukm surganligi ularning ko`p asarlarida ham o`z aksini topgan. Ammo o`sha davrning olim va o`lkashunoslari orasida ozodlik, gumanizm va demokratik g`oyalar bilan sug`orilgan shaxslarning borligi diqqatga sazovordir. Ular to`plagan daliliy ma`lumotning qimmatiga esa benihoyadir.

2. O`zbek etnografiyasi

O`z ilmiy faoliyatini juda yoshligidan boshlagan va 1920 yilda tashkil etilgan O`rta Osiyo Davlat universitetiga kelib ishlagan etnograf professor N. G. Mallitskiy, mashhur olimlar M. S. Andreev, A. A. Semyonov, A. A. Dinaevlar keyingi yillarda xdm ilmiy ishlarini davom ettirdilar va O`rta Osiyo xalqlari haqida ko`pgina tarixiy-etnografik asarlar yaratdilar. Ular o`z bilimlarini xalq xizmatiga bag`ishlagan bo`lsalarda, dastlabki yillarda ularning dunyoqarashi va metodologiyasida burjua faniga xos ba`zi xatolar ma`lum darajada saqlanib qoldi. Bu hol o`sha davrda yosh mutaxassislarni tayyorlashda o`z aksini topdi. eski olimlarning oliy o`quv yurtlarida ta`lim berishi tufayli 20-yillarda, hatto 30-yillar boshida etnografiya fanining vazifalari haqida mujmal, noaniq tushunchalar ma`lum darajada tarqalgan bo`lib, tadqiqotchilarning diqqat markazida deyarli o`tmishga oid^ masalalarni o`rganish turgan edi. Avvalgidek, turar joy va uy-ro`zg`or, kiyim-kechak va taomlar, oilaviy va ijtimoiy turmush diniy e`tiqodlar va etnografiyaga oid boshqa masalalarni bir-biridan ajratilgan holda o`rganish va ularni ijtimoiy turmush hamda ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan bevosita bog`liq ekanligini ko`rsatmaslik o`sha davrda paydo bo`lgan ilmiy ishlarning asosiy kamchiligidir. Ijtimoiy voqelik har bir tadqiqotchi etnograf oldiga mutlaqo yangi, rivojlanish davriga xos vazifalarni, chunonchi, har bir xalqning xo`jaligi, ijtimoiy tuzumi va madaniyatidagi xususiyatlarni o`sha davrning nuqtai nazaridan qarab o`rganish vazifasini qo`ygan edi.

Asrimizning dastlabki yillaridayoq fan va ma`rifat organlari Turkiston respublikasi xududida etnografiyaga oid tadqiqotlarni o`tkazishga katta e`tibor berdi. 1918 yilda ochilgan Turkiston xalq dorilfununida o`zbek etnografiyasidan maxsus kurs o`qitila boshlashi va bu kurs bo`yicha dasturning bosilib chiqishi mazkur fikrimizga dalil bo`la oladi.

O`rta Osiyoda 1920—1924 yillarda o`tkazilgan aholi ro`yxatining tashkilotchisi va faol qatnashchisi I.P.Magidovich diqqatga sazovor ish qildi. U o`zining aholi o`rtasida to`plagan tarixiy etnografiyaga oid ma`lumotlariga asoslanib, o`zbek xalqi qabilalarining ro`yxati hamda ularning qisqacha etnografiyaga oid tavsifini berdi. Mamlakatimiz aholisining qabilaviy tarkibini o`rganish komissiyasining a`zosi I.I.Zarubin ham o`zbek etnografiyasi haqida materiallar to`plab, ba`zi maqolalar chop etgan edi. SHu yillari ajoyib geograf va etnograf professor N.G.Mallitskiy o`zining ma`ruzalari va ilmiy geografik asarlarida o`zbeklarning urug`-aymog`i va ularning etnografiyaga oid tavsifini berdi. Butun umrini O`rta Osiyoda o`tkazgan, mahalliy tillarni to`liq egallagan va nihoyatda ko`p asarlar yaratgan iste`dodli tadqiqotchilar M.S.Andreev va A.A.Semyonovlar ham o`zbek etnografiyasini o`rganishda muhim hissa qo`shdilar. 1920 va 1921 yillarda M.S.Andreev boshchiligidagi shimoliy Farg`ona va Samarqand viloyatida o`tkazilgan etnografiyaga oid ilmiy safar nihoyatda boy ma`lumotlar to`plagan edi.

30-yillarga kelib atiqli rus olimlaridan S.P.Tolstov va L.P.Potapov o`zbek xalqi va O`rta Osiyodagi boshqa xalqlarning etnografiyasini o`rganish ishlarini jonlantirib yubordi. Bu olimlar o`tmishning ijtimoiy tuzum shakllari va sarqitlari masalasini ilmiy nuqtai nazardan yoritib, kapitalizmga bo`lgan ishlab chiqarish munosabatlariga doir yoritilmay kelgan ko`pgina

masalalarni oydinlashtirdilar. Mazkur tadqiqotchilar O`rta Osiyo xalqlari etnografiyasini o`rganishga mahalliy sharoitni hisobga olgan holda yondashdilar.

Hukumatimizning fanni har tomonlama rivojlantirish haqida ko`rsatayotgan doimiy g`amxo`rligi tufayli eski etnografiya markazlari tashkiliy jihatdan mustahkamlanibgina qolmay balki yangi etnografiya markazlari ham barpo etildi. Bu markazlar oliy o`quv yurtlarida hozirgi zamon talablariga javob beradigan darajada ta`lim olgan yangi etnograf kadrlar bilan ta`minlandi.

O`zbekiston hududida urushdan avvalgi yillarda katta etnografiya ishlarini o`tkazish dastlab O`rta Osiyo davlat dorilfununida hamda qadimgi yodgorliklar va san`atni muhofaza qilish qo`mitasida, shuningdek, Toshkent, Samarqand va Buxoro muzeylarida markazlashgan edi. Keyinchalik, 1943 yilda tashkil topgan O`zbekiston fanlar akademiyasi, chunonchi, tarix va arxeologiya institutining etnografiya bo`limi kelajakda etnografiyaga oid tadqiqotlarning markazi bo`lib qoldi.

Hamdo`stlikda istiqomat qiluvchi barcha xalqlarning, shu jumladan, o`zbeklarning moddiy va ma`naviy madaniyati, xalq san`ati va fol`klorining xususiyatlarini aniqlash uchun ularning etnografiyasini o`rganish 1917 yildan keyingi dastlabki yillarda, ayniqsa urushdan keyingi davrlarda juda keng avj oldi.

O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarix va arxeologiya institutining 1950 yildan boshlangan Farg`ona etnografiya ilmiy safari keyinroq Toshkent vohasi va boshqa viloyatlarda o`tkazgan ilmiy safarlari bunga misol bo`la oladi.

O`zbek xalqining etnografiyasini o`rganish sohasida markaziy etnografiyaga oid muassasalar xdm keng miqyosda ish olib bormoqdalar. Bu muassasalar xdr yili yirik ilmiy safarlar tashkil etib, mahalliy etnograflar bilan hamkorlikda ish olib bormoqdalar. Moskva va Sankt-Peterburg etnograflari tomonidan tashkil qilingan ilmiy safarlar bir necha yillardan buyon Janubiy O`zbekiston va Zarafshon vodiysida o`tmishda yarim ko`chmanchi bo`lgan o`zbeklar qabilasini ularning ilgarigi va hozirgi turmush tarzini o`rganish ustida ish olib bormoqda. Bu ilmiy safarlarning ishlarida o`zbek etnograflari ham ishtirok etmoqdalar.

Xorazmda chorak asrdan ko`p vaqtdan beri ish olib borgan. S.P.Tolstov rahbarligidagi arxeolog — etnograflarning ilmiy safari O`zbekiston xalqlarining turmush va madaniyatini o`rganishda yangi sahifa ochdi. Bu ilmiy safar asosan, qadimgi Xorazm madaniyati yodgorliklarini o`rganish bilan birga Xorazm vohasidagi o`zbeklarning etnografiyasini ham tekshirdi. Urushdan keyingi davrda ilmiy safar tarkibida ikki o`zbek etnografiya guruhi shimoliy va janubiy O`zbekiston etnografiya guruhlarini tuzildi. Bu guruhlar oldiga voxddagi hozirgi o`zbek aholisining moddiy va ma`naviy madaniyatini mufassal o`rganish qo`yildi. Ilmiy safar ko`p yillar davomida olib borgan ishlarining ajoyib samaralarini bir necha jildidan iborat kitoblarda yoritib berdi.

Xorazm ilmiy safari O`zbekiston hududida yashovchi, lekin o`sha vaqtga qadar butunlay unutib qo`yilgan qoraqalpoq xalqi etnografiyasini o`rganish sohasida ham katta ishlar qildi. Ilmiy safarning Qoraqalpog`iston guruhiga atoqli etnograf T. A. Jdanko rahbarlik qildi. Olima qoraqalpoqlarning tarixiy etnografiyasiga oid ajoyib asar yaratdi. Guruh ishida mahalliy etnograflardan S. Kamolov, Qo`sbergenov va U. A. Shelekenovlar ishtirok etdilar. Ular tomonidan yozilgan kichik maqolalar Xorazm ilmiy safari asarlari to`plamining uchinchi jildida nashr etildi. Mazkur yirik ilmiy safarlarda bevosita ishtirok qilish mahalliy o`zbek etnograf mutaxassislari uchun ajoyib bir maktab bo`ldi. Bundan tashqari, mahalliy millat vakillaridan bir guruhi Moskva va Sankt-Peterburg shaharlaridagi peshqadam etnograflar raxbarligi ostida maxsus ta`lim olib qaytdilar.

Etnografiya faniga xos kompleks masalalarni bir-biriga bog`lab tadqiq qilish xususiyati o`zbek xalqi etnografiyasini har tomonlama o`rganishga imkon tug`dirdi. Bu imkoniyat tadqiqotchilar oldiga yangi muhim vazifalar qo`ydi.

1917—1990 yillarda paydo bo`lgan xilma-xil va mazmunli ilmiy tadqiqotlar o`zbek xalqining kelib chiqishi, xo`jalik faoliyati, moddiy va ma`naviy madaniyati, ijtimoiy va oilaviy turmushini mukammal ravishda umumiyLashtirishga imkon beradi.

To'ntarishdan ilgari va undan keyin ham ancha vaqtgacha echilmay kelgan, mujmal va chuqur o'rganilmagan muhim masalalardan biri o'zbek xalqining kelib chiqishi, uning etnik tarkibi va o'zbek millatining shakllanish masalalari edi. Arxeolog va tarixchilardan tashqari bu muammolarni hal qilishda etnograflarning ham xizmatlari kattadir. O'zbeklarning etnogenezig oid dastlabki ilmiy ishlari ichida daliliiy ma'lumotlarga boy bo'lgan professor E. D. Polivanovning asarlari katta ahamiyatga egadir.

Atoqli tarixchi — sharqshunoslar A.YU.YAkubovskiy, A.A.Semyonov va P.P.Ivanovlar o'zbek xalqining kelib chiqishi va etnik tarkibi masalalariga o'zlarining mazmunli asarlarida ancha o'rin berganlar. Bu muhim masalalarni yoritishda R. G. Muqminova va B. A. Ahmedovlar ham ma'lum hissa qo'shganlar.

Zamonamizning eng murakkab va muhim muammolaridan biri milliy masaladir. Har bir xalqniyg milliy shakllanishi, etnik tarkibi va xususiyatlari, o'zaro yaqinlashuvi kabi masalalarni chuqur tushunish uchun ayrim etnografik guruhlarini har tomonlama o'rgapit zarur. O'zbeklarning ayrim qabila va urug'larini tadqin; qilish va ularning o'zbek millatiga singib ketish jarayonini o'rganishda etnograflardan V.G.Moshkiva, K.L.Zadixina, B.X.Karmisheva, K.SHoniyozov, T.Fayzievlarning ilmiy ishlari ham diqqatga sazovordir. Millatlarning yaqinlashuvi masalasini falsafiy jihatdan yoritishda Q.Honazarov ham ba'zi tadqiqotlar o'tkazgan edi. O'zbek etnografiya guruhlaridan loqay, qorliq, qurama, SHimoliy Xorazm va Zarafshon vodiysida yashovchi ayrim qabilalar ancha mukammal o'rganilgan. etnografiya guruhlarini, asosan, tarixiy-qiyosiy uslub, etnografiyaga oid xaritalar yordamida o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Jamiyatda ro'y berayotgan har bir voqea negizida moddiy ne'matlar ishlab chiqarish yotganligini e'tiborga olib, xalqlarning xo'jalik faoliyatini o'rganish xam muhimdir.

Hunarmandchilik o'zbeklarning eng qadimgi va asosiy xo'jalik kasblaridan biri bo'lib hisoblanadi. Hunarmandchilikni o'rganishda xalq ijodkorligiga zo'r e'tibor qilinishi tabiiy miskarlik, zargarlik, kulolchilik, yog'och, ganch va marmar o'ymakorligi, gilamchilik, kashtachilik singari an'anaviy nozik san'at faqag etnograflarnigina emas, balki shu bilan birga juda ko'p san'atshunos tadqiqotchilarning ham diqqatini ko'pdan beri jalb qilib kelmoqda. Hamdo'stlik davlatlarida, shu jumladan, O'rta Osiyoda olib borilgan arxeologiyaga oid qazishlar nafis zargarlik ishlari bilan milodimizdan avvalgi III-II ming yilliklarda shug'ullanganliklari ma'lum bo'ldi. Zargarlik, ayniqsa, Grek Baqtriya podsholigida, Xorazm, Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo'qon, SHahrisabz va boshqa hududlarda rivojlangan. Zargarlikda quyish, bolg'alab (zarb berib) ishlash, hallash (oltin va kumush suvi berish), uyib, bo'rttirib naqsh yasash, bosib (siqib) naqsh solish kabi usullardan foydalanganlar.

Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ham o'zbek hunarmandchiligini etnografik jihatdan o'rganishda muhim manba bo'la oladi. Bu tadqiqotlarda xususan Sobirjon Ibrohimovning asarlarida kulolchilik, tandirchilik, shuvoqchilik, degrezchilik, ijtimoiy sohalaridagi ish jarayoni juda ko'p maxsus atamalar ancha batafsil tahlil qilingan.

O'zbek xalqining eng qadimiy va an'anaviy kasb-korlaridan biri dehqonchilikdir. Dehqonlarning xo'jalik faoliyati, ijtimoiy iqtisodiy munosabatlari, dehqonchilik bilan bog'liq urf-odatlarini o'rganish ularning rivojlanish bosqichlarini tasavvur qilishga yordam beradi.

Xalqlarning milliy xususiyatlari ularning uyi, uy-ro'zg'ori va jihozlari, kiyim-kechak va taomlarida ayniqsa yorqin ifodalanadi. SHuning uchun ham moddiy madaniyat etnograflarning diqqat markazida turadi.

Ayniqsa, o'zbek xalqining kiyim-kechaklarini o'rganish etnografiya jihatidan ancha muhim ahamiyatga ega. Ular asosida o'zbek xalqining madaniy saviyasini, u yashagan geografik muhitni bir qadar belgilash mumkin. O'zbek an'anaviy moddiy madaniyati tobora chuqur o'rganilmoqda. Ayniqsa, respublika viloyatlari aholisining o'ziga xos milliy kiyim-kechaklarining etnografiya atlas xaritasi tuzilgan. Bu atlaslar o'zbek etnografiyasini o'rganishda muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Bu o'rinda Rossiya Fanlar Akademiyasining tashabbusi bilan «O'rta Osiyo va Qozog'istonning tarixiy-etnografik atlasini»ning yaratilishi juda katta ahamiyat kasb etdi.

O'zbek xalqining ma'naviy turmushini tadqiq qilishda etnograflardan tashqari fol'klorchilar va san'atshunoslarning ham xizmatlari bor. O'zbek xalq teatri, ayniqsa drama teatri hamda origyogaal janrlardan biri bo'lgan qo'g'irchoq teatri haqida asarlar yaratildi. o'zbek xalq musiqasi xalq o'yinlari ko'p tadqiqotchilar diqqatini o'ziga jalb qildi.

O'zbek xalqining juda boy va rang-barang og'zaki ijodini o'rganish uning etnografiyasi bilan bevosita bog'liq bo'lgani tufayli fol'klor materiallarida ham muhim etnografiyaga oid lavhalar to'plandi. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot instituti fol'klor bo'limi hujjatxonasida ko'p yillik ilmiy safarlar natijasida to'plangan xalq ijodining boy merosi etnografiyaga oid muhim manba bula oladi.

O'zbek etnograflari so'nggi yillarda respublikamizda yashovchi kolxozchi dehqonlar va ishchilarning hozirgi turmushi va madaniyatini jamoa ravishda o'rganishga katta e'tibor berdilar. 1950 — 1953 yillar davomida O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti tomonidan Namangan viloyati YAngiqo'rg'on (CHortoq) rayoni kolxozlarida o'tkazilgan etnografiyaga oid ilmiy safarlarda muhim ma'lumotlar to'plandi. Bu ma'lumotlar asosida yozilgan O.A.Suxareva va M.A.Bekjonovanning «Oyqiron qishlog'ining o'tmishi va hozirgi turmushi» degan asarida Oyqiron qishlog'ining qisqacha tarixi, aholisining o'tmishidagi etnik tavsifi, kasb-hunari, er egaligi va tavsifi munosabatlari, 1917 yildan keyingi tarixiy o'zgarishlar, kolxozchilarning madaniy-maishiy turmushi aks ettirilgan. Kitobda jamoa xo'jaligidagi oilalarning shakllanishi, oilaviy munosabatlar va turmushiga alohida e'tibor berilgan. Bunday ilmiy safarlar respublikaning ko'pgina viloyatlarida o'tkazildi. O'zbekiston etnograflari qishloq xo'jaligi mashinasozligi sanoatida band bo'lgan o'zbek ishchilari turmushini bir necha yil davomida kuzatib qimmatli ma'lumotlar to'pladilar. Bu ma'lumotlar asosida yozilgan etnografiyaga oid maqola va sanoat ishchilarining shakllanishi tarixiga bag'ishlangan muhim ilmiy ishlar diqqatga sazovordir.

So'nggi yillarda o'zbek ishchilar sinfining maishiy va madaniy hayotini aks ettiruvchi bir qator ilmiy ishlar maydonga keldi. O'zbekistonda yashayotgan boshqa qardosh xadqlar etnografiyasini o'rganishga ham katta ahamiyat berilmoqda.

O'zbekiston taryxiga oid ko'p jildlik yirik ilmiy asarning etnografiyaga bag'ishlangan bo'limlari fanning so'nggi yutuqlari asosida mutaxassis tadqiqotchilar tomonidan yozilgan «Jahon xalqlari» turkumida bosilib chiqqan ikki jildlik «O'rta Osiyo va Qozog'iston halqlari» nomli mukammal ilmiy asar deyarli butun etnografiyaga oid tadqiqotlarning yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan. etnografiya sohasida bunday yirik tarixiy asarlarni yaratishda mahalliy tadqiqotchilar faol ishtirok qilgan edilar. Asarning «O'zbeklar» nomli bobini yozish va tahrir qilishda mahalliy etnograflardan O.A.Suxareva, M.A.Bekjonova, I. Jabborov va boshqalar qatnashganlar.

O'zbek xalqi etnografiyasini o'rganish sohasida erishilgan yutuqlar — mahalliy tadqiqotchilarni yangi, umumiy lashtirilgan yirik ilmiy asar yozishga undadi. Mahalliy mualliflar tomonidan tayyorlangan ma'lumotlar 1972 yildan boshlab O'zbekiston etnograflarining ilmiy to'plamida yoritila boshlandi. 1917 yildan ilgari va undan keyin o'tkazilgan ko'p sonli ma'lumotlar ilmiy safarlar etnografiyalarga oid har xil buyumlarning to'planishiga imkon tug'dirdi. Hozirgi kungacha to'plangan bu boy ashyolar respublikaning muzeylarida, ayniqsa, Toshkent, Samarqand, Xiva, shuningdek, Moskva va Sankt-Peterburg muzeylarida saqlanib kelinmoqda.

SHunday qilib o'zbek xalqining etnografiyasini o'rganish yuqori bosqichga ko'tarildi va ajoyib yutuqlarni qo'lga kiritdi.

Mavzuga oid tayanch so'z va iboralar:

- | | |
|---------------------------|-------------------------|
| 1. Etnografiya | 9. Qang'li - qipchok |
| 2. Etnologiya | 10. Nukus- mang'it. |
| 3. San`at | 11. Fol'klorit |
| 4. Etnik va oilaviy tuzum | 12. Leksikograf. |
| 5. Etnogenez | 13. Diplomatik missiya. |

- | | |
|----------------------|---------------------------------------|
| 6. Antropologiya | 14. Farg`ona etnografik ekspeditsiya. |
| 7. CHigil qabilalari | 15. Qiyot-qo`ng`irot, |
| 8. "Xudud ul-olam" | 16. Moskva kompaniyasi. |

Mavzu yuzasidan nazorat savollari.

1. Etnografiya qanday fan?
2. Etnografiya nimani o`rganadi?
3. Etnografiya fani qanday qonuniyatlarni o`rganadi?
4. O`zbek nomini kelib chiqish xaqida nimalarni bilasiz?
1. Qadimgi etnografik ma`lumotlar qaysi asarlarda uchraydi?
2. VII-VIII asrlarda turkiy axoli qaysi xududlarda istiqomat qilganlar?
3. Sug`dlarning savda xunarmandchilik manzillari qaerlarda joylashgan edi?
4. Maxmud Qoshgariyning «Devoni lugotit-turk» asarining etnografik ahamiyati?
5. O`zbek xalqining avlod ajdodlari to`g`risidagi ma`lumotlar qaysi qadimgi manbalarda uchraydi?
6. IX-XII asr mualliflaridan qaysilari etnografik ma`lumotlar beradi?
7. Plano Karpini va Marko Pololar qanday etnografik ma`lumotlar beradi?
8. A. Temur va uning vorislari davrida qanday etnografik asarlar yaratildi?
9. XVI asrdagi o`zbeklarning etnik tarkibi joylashgan xududi va urf-odatlar xaqida qaysi asarlar kimmatli ma`lumot beradi?
10. XIX asrning yarmida O`rta Osiyo xalqlarini o`rganishdagi rus olimlarining faoliyati?
11. Xerman Vamberining o`zbek xalqi etnografiyasiga oid ma`lumotlari?
12. XVI-XIX asr maxalliy mualliflar tomonidan yaratilgan tarixiy asarlarda etnografik lavxalarni yaratilishi.
13. 1930 yillardagi O`rta Osiyo xalqlarining etnografiyasining o`rganilishi?
14. O`zbek xalqi etnografiyasini o`rgangan rus olimlardan kimlarni bilasiz?
15. O`zbek xalqi etnografiyasini o`rgangan o`zbek olimlardan kimlarni bilasiz?
16. Mustaqilligimiz qo`lga kiritilgandan so`ng o`zbek etnografiyasining qo`lga kiritilgan yutuqlari nimalardan iborat?
17. Qishlog`ingiz yoki shaxringiz axolisining turmush tarzi va urf-odatlar xaqida gapiring.
18. Tarix o`qituvchilari etnografiyani o`rganishda nimalarga e`tibor berish kerak?

Раздел 1.01

Раздел 1.02 Foydalanilgan adabiyotlar.

1. **Karimov I. A. O`zbekiston: Milliy istiqlol, iktisod, siyosat, mafkura. Toshkent. «O`zbekiston» 1996 yil.**
2. **Nabiev A. «Tarixiy o`lkashunoslik» Toshkent. «O`qituvchi» 1978 yil.**
3. Sulaymonova F. SHark va G`arb. Toshkent. «O`zbekiston» 1997 yil.
4. CHoriev Z Tarixiy atamalarni kiskacha izoxli lugati, Toshkent. 1999y.
5. Jabbarov I. "O`zbek xalq etnografiyasi" Toshkent. 1964y.

6-MAVZU: TOPONIMIKA - TARIXIY O`LKASHUNOSLIKNING ASOSIY MANBALARIDAN BIRI.

REJA:

1. **Toponimika tushunchasi va uning mohiyati haqida**

2. O'lkalar tarixini o'rganishda toponimikaga oid ma'lumotlar to'plash va ulardan foydalanish
3. Buxoro, qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari toponimikasini o'rganish
4. Samarqand viloyati toponimikasi va uni o'rganish
5. Sirdaryo viloyati toponimikasidan O'zbekiston xalqlari tarixi darsida foydalanish
6. Xorazm viloyati toponimikasidan darsda foydalanish
7. Farg'ona vodiysidagi qishloq, shahar nomlarining kelib chiqish tarixini dars jarayonida o'rganish.

1. Toponimika tushunchasi va uning mohiyati haqida

1917 yilga qadar toponimika mustaqil fan sifatida o'rganilmay, uning vazifasini tarixiy geografiya fani bajarib keldi.

Toponimika geografik nomlar, kishi ismlarini o'rganadigan fan sifatida maydonga keldi. Toponimikani «zamin tili», ya'ni er tili deb ham atashadi. Toponimika atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, «topos» — joy, «onom» yoki «onima» — nom, umuman joy nomini o'rganadigan fan degan ma'noni bildiradi. Geografik nomlar va zamin qat'ida o'rganilmayotgan nomlar, insonlarga qo'yilgan ismlar toponimikaning o'rganish manbai hisoblanadi. Toponimika ikki ob'ektdan: mikro va makro toponimlardan iborat bo'lib, mikrotoponimika — grammatik jihatdan mayda ob'ektlarni, ya'ni «turdosh otlarni», mikroob'ektlarning nomlarini, makrotoponimika esa atoqli otlar, ya'ni yirik ob'ektlarning nomlarini tadqiq qiladi.

Hozirgi vaqtda toponimika faqat katta va yirik ob'ektlarning: tog'lar, o'rmonlar, vodiylar, vohalar, shaharlarning nomlarinigina emas, balki kichik ob'ektlarning — mahallalar, daralar; jarliklar, anhorlar, daryo irmoqlari, ariqlar va ko'llarning nomlarini Geografiyaga oid atamalar turdosh otlar toponimika tarkibiga to'lig'icha kirmaydi, ammo ular toponimikani o'rganishda katta ahamiyatga egadir. Nomsiz «ob'ekt» — toponim emas. Toponimika geografiyaga oid joylarni emas, balki ularning nomlarini o'rganadi.

Toponimikaning tilshunoslik, tarix geografiya, arxeologiya va boshqa fanlarga aloqadorligi uning muhim xususiyatlaridandir. Toponimikaga oid ma'lumotlar tadqiq qilinayotganda tarixiy ma'lumotlarga, ayniqsa arxeologiyaga oid tekshirish natijalariga suyangan holda ish ko'rish zarur. Chunki toponimika ko'pincha tarixiy dalillarga va isbotlarga muhtoj. Masalan, biror yodgorlikning nomini o'rganish uchun, albatta, uning qaysi davrda yaratilganligini va nima sababdan shu nom berilganligini tarixiy davr sharoiti muhiti nuqtai nazaridan tadqiq qilish talab etiladi. Tadqiqotning yozma manbalarga ko'pincha arxeologiyaga oid ma'lumotlarga suyangan holda ish ko'rish usuli nomlarning qo'yilgan davrini aniqlashga va nomlarning paydo bo'lishini o'rganishga qo'l keladi. Bir nomning o'zgarishini kuzatmoq uchun birmuncha vaqt ketadi.

SHuni unutmash kerakki, geografik nomlar ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat taraqqiyoti bilan mustahkam bog'liqdir. Ma'lum bo'lishicha, har bir rayon toponimikasi murakkab tarixiy jarayon bilan bog'liq bo'lib, er ostida ko'plab madaniy qatlamlar mavjudligi uni siichiklab tadqiq qilishni talab etadi. Toponimika metodologiyasiga muvofiq uni fan sifatida o'rganish uchun toponimlarning paydo bo'lishiga doir ma'lumotlardan foydalanish, nomlarning mavjud bo'lgan barcha formalarini aniqlash, nom va atamalarni o'sha joy bilan bog'liq holda tanlash va eng muhimlarini o'rganish zarur.

Toponimik asoslarga vaqt, manbalar va yo'nalishlar bo'yicha joylarga aholining ko'chishi, o'rnatilishi kiradi. Toponimlar aniq tarixiy jarayon bo'lib, u aholining ko'chishi, madaniy, iqtisodiy va tashkilot munosabatlari bilan vujudga keldi, so'ng tarqala boshlaydi. Toponimika jamiyatning muomala vositasi bo'lgan tilni, uning iqtisodiyotini, madaniyatini va tarixiy taraqqiyotini o'rganish jarayonida o'sib, rivojlanib boradi. Toponimik nomlar manbai va ularni o'rganishda qo'llanilgan uslub va usullarning to'g'riligini aniqlash maqsadida yozma va boshqa manbalar qo'lyozmalar, akt materiallari, aholi joylashgan chegaralarni aks ettiruvchi bosh

(asosiy) va maxsus xaritalar hamda ilmiy safar xaritalari bilan solishtirib chiqiladi. Toponomikada xam, moddiy va madaniy yodgorliklar o'rganilganidek, oddiydan murakkabga, ya'ni bugungi kundan asrlar ichkarisiga kirib borish zarur. Bilish murakkab dialektik jarayondir, chunki bu usul bilan madaniy qatlamlarning eng qadimiysidan boshlab, to navqironigacha momlarning manbai asta-sekinlik bilan ochiladi nomlarning «yoshi» aniqlanadi. O'z navbatida toponimik nomlar tarix uchun ham bebaho manbadir. Geografik nomlar uzoq muddatli bo'lib, ma'lum hududdagi u yoki bu xalqning tili haqida guvohlik beradi. Nomlar ma'lum bir aholining hamjihatligi yoki tarqoqligiga ham bog'liqdir.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida nomlar juda kam bo'lgan, keyinchalik aholi paydo bo'lib, qo'yilgan nomlar xam ko'p vaqtlar o'tishi bilan boshqa nomlarga o'zgartirilib yuborilgan yoki butunlay yo'q bo'lib qetgan. Ezma manbalardagi toponimikaga oid ma'lumotlar tahlil qilinganda buni yaqqol ko'rish mumkin. Bu noqeani hozirgi vaqtda xam aniq ko'rishimiz mumkin. Ayrim shahar va qishloqlarning eski nomlari o'rniga yangi nomlar qo'yiladi, bu eski nom nima uchun yo'qotildi-yu, nima uchun yangi nom qo'yildi, buning sabablarini ham aniqlash mumkin.

O'tmishda esa yangi zamindor (er egasi) paydo bo'lishi bilan ko'pincha aholi eski geografik nomlar o'rniga shu zamindorning nomini qo'yishgan. Dialektologiyadan farqli o'laroq toponimikaga oid ma'lumot to'plashda, joylarning nomlarini o'rganishda aholidan yoppasiga so'rash uslubi qo'llaniladi. Faqat shunday uslub bilangina turli daralar, kichik soy va anhorlar, jarliklar, ko'llar va boshqa shunga aloqador bo'lgan nomlarning miqdorini aniqlash mumkin, xolos. SHunday joylarning hammasi aholi yashaydigan joylarning kartasiga yoki aholi joylari ro'yxatiga kiritilmagan, ehtimol kiritilmasa ham kerak. Toponimikaning eng katta xizmati shundaki, u hujjatxona hujjatlarini sinchiklab o'rganish, xalq og'zaki ijodi asosidagi ayrim tomonlar va nihoyat hech qanday manbalarda aks ettirilgan noma'lum joylarni bizga ma'lum qiladi. Toponimikaga oid ma'lumotlar yig'ishda va joy nomlarining kelib chiqishini o'rganishda etnografiya ham katta rol o'ynaydi.

Toponimikaning ayrim toifalari va tizimlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganish yo'li bilan toponimlarni tavsiflash toponimik tadqiqotlarning asosini tashkil etadi. Ko'pgina mutaxassis toponimistlar mahalliy toponimlarni har tomonlama regional tadqiq qilishga katta e'tibor beradilar. Bunda, albatta, mikro va makro toponimikani o'zaro taqqoslash zarur. Toponimika vazifalarini aniqlar ekanmiz, ma'lum joyning geografik nomi tarixi to'laroq, shu o'lkada yashagan xalqlar tarixi bilan bog'liq xolda aniqlanishini uning asosiy maqsadi qilib olishimiz zarur. Bundan tashqari, toponimikaga oid tadqiqog ma'lumotlaridan foydalanilayotganda o'sha o'lka xalqlarining tilini o'rganish, arxeologiya va etnografiyaga oid ma'lumotlarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Toponimikaga oid tadqiqot olib borilayotgan rayonning tabiiy geografiyasini, o'tmish tarixini, til tarixini yaxshi bilish shart. Toponimikani o'rganishda yuqoridagilarga amal qilingan taqdirdagina tadqiqotchi o'z maqsadiga erishishi mumkin. Tadqiqotni toponimikaga oid ma'lumotning yaratilgan davri va tarixini aniqlashdan boshlash kerak.

Hozirgi vaqtda toponimistlar joy nomlarini faqat etimologik va semantik jihatdangina emas, balki so'z yasaliishi jihatidan ham tahlil qilmoqdalar. Antrotoponim kishining ismi, familiyasi, laqabini (masalan, Mahmud Koshg'ariy, Munis Xorazmiy), antrotoponimika kishi ismi, shahar, qishloq, ovul va shu kabi joylarning nomidan olingan toponimlarni (masalan, Toshkentboy, Qo'qonboy, Xo'jaqul, etnotoponim esa qabila, urug'-aymoq nomiga qo'yilgan nomlarni (masalan, Qozoqboy, Qirg'izboy, o'zbek) o'rganadi.

Dalvarzin, Qo'ng'iro't, Nukus, Miton va hokazolarni istisno qilganda, barcha toponimlar ikki va undan ortiq tarkibiy qismdan (komponentdan) iborat. Bunday qaraganda hech qanday qo'shimchasiz faqat bir so'zdan iboratday tuyuladigan Jizzah Qo'qon, YOzyovon, G'alcha kabi toponimlar aslida ikki komponentdan tuzilgan.

Biroq, Qarshi (saroy, qasr), Hisor (qo'rg'on), Buxero (bixara — ibodatxona), chim (qo'rg'on), yon (bekat), yop (kanal) kabi nomlar mustaqil toponimlar shaklida uchraydi. Ba'zan esa qum, zah supa kabi geografik atamalar ham hech qanday qo'shimchasiz toponimlar hosyl qilgan. Biroq ana shunday birgina geografik atamadan tuzilgan nomlar ko'pincha shu

toponimlarning xalq og'zida qisqartirilgan shakli bo'lib chiqadi. Masalan, Qumqishloq deyish o'rniga Qum; Zaxariq deyish o'rniga Zah Supatepa deyish o'rniga Supa deb qo'ya qodishadi. Biroq hech qanday qo'shimchasiz Tol, Pidana (yalpiz), YAntoq, Tulki kabi nomlar ma'naviy jihatdan aslida bu o'simlik va hayvonlarga hech qanday aloqasi bo'lmasligi, ko'pincha tamomila boshqa so'zlarning fonetik jihatdai o'zgarishi natijasida shu shaklni olgan bo'lishi mumkin.

YUqorida aytilganlardan shunday xulosaga kelish mumkin: toponimika uch printsipga asoslanadi: 1) toponimlarning paydo bo'lish tarixini o'rganish; 2) toponimlarning geografiyaga oid ma'lumotlarini aniqlash; 3) asosiy qidirilayotgan toponimlarning barcha nomdagilarini ilmiy asosda alohida-alohida o'rganib, ulardan xulosa chiqarishdir. Bu printsiplar qo'llanmaning muqaddimasidan to xotimasigacha yoritib borilgan.

Статья II. O'zbekiston toponimikasi

Geografik nomlarni ularning kelib chiqishi va tarixi bilan bog'liq holda o'rganish, ularni klassifikatsiya qilish nisbatan yaqin vaqtlarda boshlangan. Bu sohada atoqli toponimikachi A.X.Vostokovning xizmati kattadir. U Rossiyadagi daryo nomlarini ularning oxirgi qo'shimchalariga qarab guruhlarga bo'ladi va bu qo'shimchalar hozir biron ma'noni anglatmasa ham qadimgi xalqlar tilida ma'lum ma'noni bildirgan bo'lsa kerak, deb to'g'ri xulosaga keladi. A.X.Vostokovning fikri XIX asr oxiri — XX asr boshlaridagi ba'zi bir toponimikachilarning asarlarida o'z rivojini topdi.

XX asr boshlarida toponimik tadqiqotlar ancha keng quloch yoydi. 2-jahon urushidan oldingi davrda olimlardan A.I.Sobolevskiy, N.YA.Marr, S.V.Veselovskiy, V.V.Bartol'd, V.P.Semyonov-Tyanshanskiy, V.G.SHostakovich toponimika sohasida ayniqsa samarali ishlar qildilar. O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston toponimikasini o'rganish sohasida V.V.Bartol'dning xizmatlarini alohida qayd qilib o'tish kerak. Urushdan keyingi yillarda toponimika rivojida katta bir o'sish davri bo'ldi. endilikda toponimika soxasida ayrim olimlarga emas, balki butun-butun olimlar jamoasi ish olib bormoqdalar.

Endilikda o'lkamizda toponimik tadqiqotlar avj oldirilmoqda. Toponimikaga, uning nazariyasiga doir ko'pgina asarlar yaratildi.

Bir necha o'nlab yosh olimlar ham toponimika sohasida samarali ish olib bormoqdalar. CHunonchi, T.Nafasov «Qashqadaryo toponimikasi», SH.Qodirova «Toshkent mikrotoponimikasi», e.Begmatov esa antrotoponimika — kishi nomlarini o'rganish sohasida ilmiy ish olib bormoqdalar.

O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston toponimlarini o'rganish ham uzoq tarixga ega. O'zbekiston toponimikasini o'rganishda mashhur rus sharqshunos olimlari hamda tarixchilari: V.L.Vyatkin, N.F.Sityakovskiy, L.N.Sobolev, V.V.Bartol'd, S.P.Tolstov, P.P.Ivanov. M.E.Masson, O.A.Suxareva va boshqalar bu sohada juda katta ishlarni amalga oshirdilar.

Respublika joy nomlarining kelib chiqishi tarixini va millat, qabila, elat, urug'-aymoq nomlarining kelib chiqish tarixini (etnogeneziyani) hamda geografiyaga oid atamalarni o'rganishda YA.G'.G'ulomov, R.N. Nabiev, A.R.Muhammadjonov, F.Abdullaev, S.Ibrohimov, O'zbekistonda birinchi toponimik kartoteka tuzishda ishtirok etgan X.T.Zarifov; etnonimlar — e.Fozilov M.SHoabdurahmonov, X.Doniyorov, R.Qo'ng'irov; geograflardan H. Hasanov, S.Qoraev kabilarning ishlari diqqatga sazovordir.

2. O'lka tarixini o'rganishda toponimik material to'plash va ulardan foydalanish

Статья III.

Статья IV. Toponimik ma'lumot to'plash uslublari

Toponimikani o'rganish ma'lumot to'plashdan boshlanadi. Bu ish odatda o'lkashunoslik bo'yicha tadqiqot olib borilayotgan mikrorayon qishloq, ovul, kolxoz-sovxo hududida, keyinchalik ma'muriy rayon xamda viloyat va nihoyat jonajon o'lka miqyosida amalga oshiriladi. Toponimik ma'lumot yig'ish ishini boshlashdan avval ma'lumotlarni qanday va qaerlardan to'plash hamda kimlar bilan qanday mavzuda suhbatlar o'tkazishning hech

bo'lmaganda taxminiy ish rejasi va dasturi ishlab chiqilishi shart. Mana shu reja va dastur asosida puxta tayyorgarlik ishlari olib boriladi, so'ng dala tadqiqot ishlariga o'quvchi va studentlar jalb qilinadi. Dalada tadqiqot ishlarini amalga oshirish jarayonida aholidan eshitgan hikoya, afsona va o'tmish haqidagi suhbatlarni xamda boshqa materiallarni muntazam yozib boradigan maxsus daftar bo'lishi shart. SHundan so'ng surishtirish va suhbat natijasida olingan ma'lumotlarni tadqiq qilishda toponimik toifalar bo'yicha maxsus kartotekalar tuziladi. Keyin shu asosda lug'atlar tuziladi. Keyinchalik tadqiqotchilarning fikrini hisobga olgan holda bir tipdagi ommaviy toponimlarni sinchiklab o'rganish katta ahamiyatga ega. Tadqiq qilingan va to'plangan toponimik ma'lumotlar o'lkashunoslik muzeylarida aniqlanadi. SHuningdek, bu ma'lumotlar maxsus kutubxonalarda alohida bo'lim qilib saqlanadi. Toponimik ma'lumotlar to'plash ko'pincha shu o'lka tarixini o'rganish ishi bilan parallel holda olib boriladi. Turistik sayohatlarda va poxodlarda, ilmiy safarlarda qatnashgan, shuningdek muzeylar, arxeologik yodgorliklar, tarixiy obidalar va arxitektura yodgorliklariga borgan o'lkashunoslar arxeologik, etnografik ma'lumotlar bilan bir qatorda toponimik ma'lumot ham to'playdilar.

V. A. Nikonovning «Vvedenie v toponimiku» (M., 1965) asarida toponimika bo'yicha tadqiqotni qanday olib borish, uni nimadan va qachon, qaerdan boshlashning uslubi va usullari aniq ko'rsatib berilgan.

Demak, toponimika o'lkashunoslikning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Tarixiy o'lkashunoslik fani esa tarix fanining bir bo'limi sifatida rivojlanib bormoqda. Bu fan har bir o'lkashunos va ziyolidan o'z o'lkasining tarixini har tomonlama va chuqur o'rganishni talab qiladi.

Hozirgi vaqtga kelib, o'lkashunoslik bo'yicha olib borilayotgan tadqiqot ishlari bilan bir qatorda uning ajralmas qismi bo'lgan toponimika ham asta-sekin ijtimoiy fanlar qatorida rivojlanib bormoqda. Toponimik ma'lumotlar to'plash va o'rganishda tarixi geografiya inson va jamiyat fanlari o'qituvchilari bilan tilshunoslarning hamkorlikda ishlashi muhim ahamiyatga ega.

O'lka tarixini yaxshi o'rganmay Turib toponimik ma'lumotlardan o'lkashunoslikning muhim manbai sifatida foydalanish nihoyatda qiyin.

O'lkashunoslik bilan shug'ullanadigan o'qituvchilar toponimikaga doir adabiyotlar bilan yaxshi tanishib chiqishlari zarur. O'zbekiston tarixini o'rganishda toponimik ma'lumotlardan foydalanish, toponimik va geografik lug'atlar tuzish, mavjudlaridan foydalanish dars mazmunini yanada boyitadi. Biz shu maqsadda V. A. Nikonovning «Vvedenie v toponimiku» va «Kratkiy toponimicheskiy slovar'» asarlari, H. Hasanovning «O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan», Hodi Zarifning «Lug'at va termin to'plovchilarga yordam», e. M. Mirzaev va V. G. Mirzaevalarning «Slovar' mestno'x geograficheskix terminov» va S. Qoraevning «Geografik nomlar ma'nosini bilasizmi?» kabi asarlaridan foydalanishni tavsiya qilamiz. Bu asarlarda toponimlar xaqida har xil bahslar va munozaralar yuritilgan bo'lib, o'lka tarixini o'rganishda o'qituvchiga juda qo'l keladi.

Toponimlardan nom olgan buyumlar, o'simlik, hayvonlar shu qadar ko'pki, ba'zan hattoularning etimologiyasi to'g'risida o'ylab ham o'tirmaymiz. Qo'qon arava, buxori qovun, chust pichog'i kabi so'zlarda o'sha joy nomlari hamon esga kelishi mumkin. Biroq akademiya (Afina yaqinidagi changalzor), vulkan (Tirren dengizidagi Vulkano oroli nomidan), jersi (Normandiyadagi shahar), kofe (Afrikadagi Kaffa o'lkasi nomidan), olimpiada (Gretsiyadagi eng baland Olimp tog'i nomidan), roman (Rim shahri nomidan olingan) kabi so'zlarning ham aslida toponimlar ekanini ko'pincha xayolimizga ham keltirmaymiz. quyida toponim nomlarga bir qancha maqollar keltiramiz.

Kimyoviy elementlar. Ko'pgina kimyoviy elementlar joy nomlari bilan atalgan: ameritsiy (Amerika), galliy (Frantsiyaning lotincha nomi — Galliya), germaniy (Germaniya), gol'miy (SHvetsiyaning poytaxti Stokgol'mning lotincha nomi — Gol'miya), evropiy (Evropa), indiy (Hindiston), lyutetsiy (Parijning lotincha nomi — Lyutetsiya), poloniy (Pol'sha), ruteniy (Rossiya), ittriy (SHvetsiyadagi Itterbo qishlog'i) va hokazolar.

Qit'alar (materiklar) va dengizlar nomlaridan hosil bo'lgan toponimlar. Avstraliya — grekcha «Janubiya quruqlik» degan so'z. Antik dunyo olimlarining faraz qilishicha, janubiy

yarim sharda noma`lum quruqlik Terra australis inkognito bo`lishi kerak edi. XVII asr o`rtalarida bu quruqlik kashf etilgach, inkognito (noma`lum) so`zi tushib qoladi va janubiy erni Terra Australis deya boshlaydilar. Bir vaqtlar uni «YAngi Gollandiya» deb ham ataganlar. XIX asrdan e`tiboran qisqacha Avstraliya (Janubiya) shakli qaror topdi.

Evropa — osuri tilida ereb — «kun botish», «qorong`ulik», «g`arb» demakdir.

Osiyo — ruscha Aziya, xitoycha YAsiya, yaponcha Adziya. Bu nom dastlab Gomer dostonlarida tilga olingan. Miloddan oldingi V asrda Gerodot asarlarida Osiyo deb hozirgi Turkiyaning g`arbiy qismi anglashilgan. Xullas, Osiyo nomi o`rta dengiz sohillariga xos atoqli otdir. Bora-bora bu nom sharqiy erlarga ham yoyilib, umumlashib ketadi va avvali quyi Osiyo, so`ngra Buyuk Osiyo nomlari, XVIII — XIX asrlarda Kichik Osiyo, O`rta Osiyo, Markaziy Osiyo singari ayrim qismlarni anglatuvchi nomlar paydo bo`ladi. Osiyo nomining ma`nosi turlicha manba va adabiyotlarda turlicha izohlangan: Aziya shahri nomidan, filosof Aziya ismidan, Aziya vodiysi nomidan kelib chiqqan deb faraz qilinadi, osuri tilida asu «kun chiqish tomon». «SHarq» ma`nosida qo`llanilgan.

Qora dengiz — janubiy xalqlar tomonidan berilgan nom qora so`zining «shimol», «salqin» degan ma`nosi ham bor. Uning suvi qoramtir bo`lgani uchungina qora dengiz deyiladi deb izoxlash noto`g`ri. Milodimizdan avvalgi IX — VII asrlarda yunonlar qora dengizni yoki mamlakatimizning janubiga joylashgan bu dengizni «uzoq shimol» deb ham ataganlar.

Qizil dengiz — arabcha «Bahri axmar, grekcha eritreya. Afsonaga ko`ra, eron shohi eritr (qizil qalpoq) bosib olgan va Nil tomon kanal qazitgan ekan. Boshqacha izohi ham bor: qirg`oqlarida qizg`ish suv o`tlari va chig`anoqlar ko`p bo`lganidan shunday nom olgan.

O`rta dengiz — Evropa, Afrika va Osiyo o`rtalarida joylashgan dengiz. Grekcha Mediterraneo — «O`rta er» so`zlaridan ruschaga aynan tarjima qilingan, o`zbekcha shakli shundan qisqartirib olingan. Tarixiy sharq manbalarida ko`pincha Rum dengizi, SHom dengizi nomlari bilan ham mashhur bo`lgan.

O`lik dengiz — g`arbiy Osiyodagi ko`l. Suvi juda sho`r va unda hayot yo`qligidan «hayotsiz», «jonivorsiz», «o`lik dengiz» deb atalgan.

Lotin Amerikasi — Markaziy va Janubiy Amerikada ispan va portugal tillari tarqalgan. Bu tillar lotin yoki roman tillar guruhiga kiradi. Bu erda yashovchi xalqlarning asosiy qismi lotin tilida so`zlashganligi uchun shunday nomni olgan.

Bolqon — Evropadagi yarim orol. Turkiy tillarda balqon, balxan «tog`», «tog`li er» degan ma`noni anglatadi. Turkmanistondagi Balxan nomini turklar Evropaga ko`chirgan bo`lishi ham mumkin (V. F. Minorskiy).

Bosfor — Qora dengizdan o`rta dengizga o`tadigan erda joylashgan bo`g`oz. Turkiyada ko`pincha Bo`g`oz, Istanbul bo`g`ozi, qora dengiz bo`g`ozi deb ataladi. Bosfor xonancha «buqa» degan so`z. Afsonaga ko`ra, go`yo bu bo`g`ozdan buqalar sakrab o`tgan emish. Ammo yana boshqa haqiqatga yaqinroq izoh ham bor. Qadimda bu bo`g`ozdan suzib o`tadigan kema egalari boj haqini qoramol bilan to`laganlar, shu-shu «buqa to`lanadigan bo`g`oz» nomini olgan.

Arabiston — G`arbiy Osiyodagi yarim orol. «Arab» aslida «cho`l» degan so`z, shundan «cho`lliklar», «ko`chmanchilar» arablar so`zi hosil bo`lgan, so`ngra «arablar eri» Arabiston paydo bo`lgan.

Avstriya — aslida nemischa Osterreyx: ost — «sharq», reyx «o`lka», ya`ni «sharqiy o`lka» degan ma`noni bildiradi.

Angliya — G`arbiy Evropadagi Buyuk Britaniya davlatining nomi; V — VI asrlarda kontinental Evropadan shu erga suzib o`tgan angl qabilalari nomidan olingan. O`simlik va xayvonlardan olingan nomlar. Apel`sin — gollandcha «xitoy olmasi» demakdir. Yorkshir — cho`chqa zoti (Angliyadagi Yorkshir grafligi nomidan).

Kashtan — buklar oilasidan bo`lgan daraxt, Kichik Osiyodagi Kastan shahri nomidan olingan.

Maxorka — Gollandiyadagi Amesofront shahri nomidan olingan bo`lib, dastlab amerfor, keyinchaliq amerforka, keyin maforka va nihoyat, maxorka deb atala boshlangan. Evropada maxorka chekish ayrim kishilarga zararli deb tushuntirilgach, kashandalar chekishini tashlay

olmay burunlariga hidlay boshlaganlar va uni nosovoy tabak (burnaki) deb ataganlar. O`rta Osiyo xalqlari esa bu tamakini ishlash texnologiyasini ancha murakkablashtirib, uni endilikda burunga hidlab emas, balki til ostiga tashlaydigan bo`lganlar. Uning nomi tobora o`zgarib, hozirgi nos formasini olgan.

Simmental — qoramol zoti (Germaniyadagi vodiylar nomi).

Sardina, «sardinka» — baliq (Sardiniya oroli nomidan olingan).

Geologiya va geografiya atamalaridan olingan toponimlar. Toponimlar minerallar orasida ayniqsa ko`p uchraydi. Buni quyidagi misollardan ko`rish mumkin: avstolitmineral (Avstraliya), agat (o`zbek tilida aqiq deyiladi) — qimmatbaho tosh (Sitsiliyadagi Akaita daryosi nomidan), adulyar — mineral (Al`p tog`larining Adul tizmasi nomidan), alebastr — oq gips (Misrdagi alebastr shahri va tog`i nomidan), al`mandin — qimmatbaho tosh (Kichik Osiyodagi Albanda shahri), alyaskit — granitga o`xshash qattiq tosh (Alyaska), aragonit (Ispaniyadagi Aragoniya pasttekisligi nomidan), baykalit (Baykal ko`lidan), birmit — kahraboning bir turi (Birja nomidan), inderit — mineral (qozog`is-tondagi Inder tog`lari nomidan), muskovit mineral (Moskva davlatining qadimgi nomidan, Moskoviya), surik bo`yoq (Suriya nomidan), tuyamuyunit — mineral (Farg`ona vodiysidagi Tuyamo`yin koni nomidan), ferganit (Farg`ona) va hokazolar. Xazorasp — ming ot, Sariosiyo — bosh tegirmon, Go`rlan — ko`r va lang so`zlarining birikuvidan tashkil topgan. Hindikush — hind, kush — o`lim, degan ma`noni bildiradi.

Gazlamalar. Boston — AQSHdagi shaharning nomidan, Jersi — Normandiya-Frantsiya qirg`og`i yaqinidagi orol nomidan, Sarpinka — Saratov oblastidagi Saropta degan nomdan kelib chiqqan.

Antroponimika — Turkiy «Axmet», arabcha «Ahmad — maqtoqli, maqtovg`a sazovor» degan ma`noni anglatadi, undan Ahmetov degan familiya vujudga kelgan; Baxmet — turkiy «boy» yoki Axmet arabcha Ahmad so`zlarining qo`shilishidan Baxmetov familiyasi vujudga kelgan. Sabur (Saburov) — turkiy «sabr», arabcha «sobir» (chidamli) so`zlaridan olingan. Mamon — turkiy mo`min (qobil, beozor, yuvvosh ma`nolarida) so`zidan olingan Mamonov familiyasi shundan kelib chiqqan. Polvonov — turkiy tillarda «polvon», forsha — «pahlavon» (botir, qahramon ma`nosida) so`zlaridan olingan, keyinchalik ruscha «ov» qo`shimchasi qo`shilib Polvonov familiyasi kelib chiqqan. Saymon turkiy «saymon» (abjir, chaqqon, dadil ma`nolarida) — Saymonov familiyasi shundan olingan. Dashikturkiy «dashuk» — «tashuk» (dimog`dor, kekkaygan ma`nolarida) so`zlaridan «Dashkov» familiyasi, kurdyuk — turkiy «kuduruk» — «kuzuruk» — «quyruq» so`zlaridan ruscha «Kurdyukov» familiyasi kelib chiqqan va hokazo.

Oziq-ovqat nomlari. Lag`mon (xitoycha) — «lag`» — uzun, «man» — xamir, «uzun xamir» degan ma`nolarni bildiradi. Buterbrod (nemischa) — go`sht va non yoki non va yog` degan ma`nolarni bildiradi. Pirog — qoraqalpoqlarda «burek», tatarlarda esa «chiyburek», har ikkisi ham go`shtli pirog degan ma`no bor. Bu so`zning o`zagi «bur» o`ramoq, chulg`amoq ma`nolarini bildiruvchi fe`ldan yasalgan, ruscha «pirog» so`zi shundan kelib chiqqan.

Ichimliklar nomlari. Toponimlarda ichimliklar nomlari ham ma`lum darajada o`z aksini topgan, masalan: borjomi — mineral suv (Gruziyadagi kurort shaharning nomi), esentuki — mineral suv (SHimoliy Kavkazdagi kurort shaharning nomi), Toshkent mineral suvi (Toshkent shaharining nomidan olingan) va hokazo.

Bulardan tashqari, respublikamizning barcha ovul, qishloq, posyolka, vodiylari va vohalari hamda viloyatlari nomlari ham toponimlar bo`lib, ularning ko`pchiligi hali to`la o`rganilmagan. O`rganilganlaridan VII — X sinflarda O`zbekiston xalqlari tarixi darsida foydalanish katta ham ta`limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bu usulda toponimikaga oid ma`lumotlardan foydalanish yoshlarni tarbiyaning ajralmas qismi bo`lgan estetik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning negizi bo`lib xizmat qiladi. Biz quyida O`zbekiston xalqlari tarixi kursini o`qitishda Toshkent vohasi toponimikasi va ulardan darsda foydalanish namunasini keltiramiz.

Toshkent vohasi toponimikasi va ulardan darsda foydalanish

Toponimikaga oid ma`lumotlardan foydalanib o`tiladigan bir soatlik aralash dars reja — konspekti.

Darsni tashkil qilish: a) o`quvchilar bilan salomlashish va sinfning darsga hozirligini kuzatish; b) o`quvchilar diqqatini darsga jalb etish.

O`tgani mavzu: «Reaksiya yillarida O`zbekiston» mavzusi yuzasidan o`quvchilarga beriladigan savollar:

- 1) qaysi yillar reaksiya yillari deyiladi?
- 2) Yangicha yuksalishga nima sabab bo`ladi?
- 3) O`zbekistonning qaysi joylarida xalq xarakatlari bo`lib o`tdi?

Bu savollarga o`qituvchi o`quvchilardan javob olgach, o`zi qisqacha mavzuga yakun yasaydi va uni yangi mavzuga bog`laydi.

Yangi mavzu: «Birinci jahon urushi yillarida O`zbekiston».

Darsning maqsadi: o`quvchilarni O`zbekiston mehnatkashlarining 1916 yildagi milliy ozodlik harakati bilan tanishtirish, bu harakat Rossiyada etilgan tanglikning natijasi ekanligini tushuntirishdan iborat.

Dars o`tish uslubi: o`qituvchi suhbat usulidan foydalangan holda materialni bayon qiladi: o`quvchilar mustaqil ish bajaradilar.

Ko`rgazmali qurollar. «Birinci jahon urushi», «O`zbekistonda 1916 yil qo`zg`oloni» va O`zbekistonning siyosiy xaritalaridan foydalaniladi.

Rossiya davlati tarixi kursini bu mavzu bilan bog`lab olib borish uchun darsni quyidagi savollar asosida suhbat o`tkazishdan boshlash maqsadga muvofiqdir: 1. CHor Rossiyasining urushga tayyor emasligi nimada ko`rindi? 2. Urush Rossyaning iqtisodiyotiga qanday ta`sir qildi? 3. Birinci jahon urushi qanday oqibatlarga olib keldi? 4. Rossiya davlat to`ntarishi uchun vaziyat vujudga kelganligini dalillar bilan isbotlab bering.

O`qituvchi suhbatning oxirida darsga xulosa qilib, 1917 yilning boshlariga kelganda Rossyaning iqtisodiy ahvoli keskin og`irlashganligi, uzoqqa cho`zilib ketgan urush chor Rossiyasining iqtisodiyotini ancha izdan chiqarganligi, bu hol xalq ommasining ahvolini mushkullashtirib yuborganligi, Rossiyada tanglikning etilishini tezlashtirganligi, birinci jahon urushi davrida O`zbekistonda keng quloch yoygan milliy ozodlik harakati ana shu tanglikning ko`rinishlaridan biri bo`lganligini darsni umumlashtirish jarayonida o`quvchilarga tushuntiradi.

Birinci jahon urushi va tanglikning etilishi. Bu mavzuni o`rganish vaqtida darslikdagi matn ustida o`quvchilarning mustaqil ishlashini uyushtirish zarur. O`quvchilarga quyidagi savollar beriladi: 1. Birinci jahon urushi O`zbekiston mehnatkashlar ommasining ahvoriga qanday ta`sir qildi? 2. Birinci jahon urushi davrida O`zbekistondagi tanglikning etilishi nimalarda ko`rindi? 3. O`zbekistonda 1916 yildagi xalq qo`zg`olonining boshlanishiga nima sabab bo`ldi?

O`qituvchi o`quvchilarning javoblarini eshitib bo`lgach, birinci jahon urushi yillarida O`zbekistonda ijtimoiy va milliy zulm ancha kuchayganligini tushuntiradi. O`sha davrda O`zbekistonning eng muhim sanoat xom ashyosi - paxta etkazib beruvchi o`lka sifatidagi o`rni yana ham o`sdi. Rus kapitalistlarining manfaatlarini ko`zlab, paxtaga bozor narxidan 20 foiz kam majburiy narx belgilandi, vaholanki, sanoat mollarining, galla va boshqa oziq-ovqat maxsulotlarining narxi haddan tashqari ortib bormoqda edi. Bu hol mehnatkashlarning ahvolini yanada mushkullashtirib yubordi. 1916 yilda qaxatchilik bo`ldi.

Birinci jahon urushi yillarida avj olib ketgan feodal, kapitalistik va mustamlakachilik zulmi sinfiy ziddiyatlarni g`oyat keskinlashtirib yubordi. Ishchi va dehqonlar orasida chorizmning siyosatidan norozilik benihoya kuchaydi. 1915 yilning oxiri — 1916 yilning boshlarida mamlakatda vaziyat juda keskinlashdi.

O`zbekistonda 1916 yilgi xalq qo`zg`oloni va uning ahamiyati. Bu masala darslikdagi doimiy ma`lumot asosida to`liq ochib beriladi. Qo`zg`olonning qanday davom etganligi «O`zbekistonda 1916 yil qo`zg`oloni» xaritasidan kuzatib boriladi.

Materialni tushuntirish jarayonida o`quvchilarning e`tiborini quyidagi muhim holatlarga jalb etish kerak.

O`rta Osiyo tarixida xalq harakati hali hech qachon 1916 yil qo`zg`oloni davridagidek keng quloch yoymagan edi.

Qo'zg'olon chorizmning milliy-mustamlakachilik zulmiga qarshi qaratilgan bo'lib, fuqarolik huquqlari va siyosiy huquqlarni qo'lga kiritish uchun boshlangan harakat edi. Bu qo'zg'olon O'zbekiston xalqlari tarixidagi muhim voqealardan biri hisoblanadi.

Mustamlakachilikka qarshi, imperializmga qarshi harakat bo'lib boshlangan 1916 yil qo'zg'oloni ayni vaqtda antifeodal xarakterga ham ega edi; bu hol qo'zg'olonchilarning boylarning er-mulkiga, sudxo'rlar va savdogarlarning uylariga qilgan hujumlarida o'z ifodasini topdi.

1916 yilgi qo'zg'olon xalq qo'zg'oloni edi. Bu harakatda keng xalq ommasi, avvalo, dehqonlar va shaxar kambag'allari qatnashdi. SHahar va shahar atroflarida mahalliy hunarmandlar va ishchilar, qishloq joylarda esa kambag'allar va batraklar qo'zg'olonga boshchilik qildilar. Asrlar bo'yi asoratda yashagan ayollarning qo'zg'olonda ishtirok etishi — bu xarakatning muhim xususiyatlaridan biri edi.

Qo'zg'olon, umuman olganda, progressiv milliy ozodlik harakati tusini oldi. Ayrim rayonlarda (masalan, Jizzax uezdida) firibgar unsurlar bu qo'zg'olonning xarakterini o'zgartirishga va undan o'zlarining sinfiy manfaatlari yo'lida foydalanishga urindilar, ammo ular bunga muvaffaq bo'la olmadilar. Ularning milliy adovatni avj oldirish va umuman ruslarga qarshi qo'zg'olon ko'tarish yo'lidagi urinishlari ham tamomila barbod bo'ldi.

Qo'zg'olonga qarshi chiqqan mahalliy feodallar va burjuaziyaning xalqqa qarshi qaratilgan firibgarona yo'li qo'zg'olon vaqtida batamom ayon bo'ldi. Qo'zg'olon kunlarida mahalliy aholi mehnatkashlarining milliy burjuaziyadan yuz o'girishi haqiqatda nihoyasiga etdi. Bu jarayon 1905 — 1907 yillardagi to'ntarish davridayoq boshlangan edi.

Qo'zg'olon Rossiyada etilib kelayotgan tanglikning natijasi bo'ldi va, o'z navbatida, ana shu tanglikning yanada chuqurlashib ketishiga yordam berdi. Bu qo'zg'olon chorizmning O'rta Osiyo va Qozog'istondagi mustamlakachilik siyosatiga qattiq zarba berdi. Qo'zg'olon Ettisuv va Zakaspiy viloyatlariga hamda Qozog'istonning dasht viloyatlari — Akmolinsk, Semipalatinsk, Ural'sk va To'rg'ay viloyatlariga xam yoyildi. Bu viloyatlarda qo'zg'olonchilar soni necha o'n minglab kishiga etdi.

Xalq ommasining tazyiqi natijasida chor hukumati 1916 yil 30 iyulda farmon chiqarib, mardikorlikka safarbarlik muddatini 15 sentyabrgacha kechiktirishga majbur bo'ldi. Bu — chorizmning qisman yon berganligidan dalolat berar edi. Hukmron doiralar Kavkazdagi safarbarlikni bekor qilganidek, Turkistonda ham bunday safarbarlikni bekor qilmoqchi edilar. Ammo chor ma'murlari mahalliy aholi chiqishidan, xususan qurolli qo'zg'olondan keyin bu yon berishni Rossiya hukumatining zaifligidan boshqa bir narsa emas, deb talqin etishdan qo'rqr edilar. CHor hukumati mardikorlikka odam olish ishlarini to'la miqdorda amalga oshira olmadi. 1917 yil 1 martgacha Turkistondan jami 123 ming kishi, ya'ni mo'ljallangan miqdordagi kishilarning yarmidan kamrog'i mardikorlikka olindi.

SHu munosabat bilan boshlangan qo'zg'olon milliy ozodlik harakatining rivojlanishida, Turkiston xalqlarining sinfiy ongini uyg'otishda muhim bir bosqich bo'ldi. O'qituvchi buning oqibatida Turkistonda ijtimoiy va milliy zulmning tobora zo'rayib borayotganligi, imperialistik urush yillarida kuchayib ketgan feodal, kapitalistik va mustamlakachilik zulmi xalq ommasining ahvolini toqat qilib bo'lmas darajada og'irlashtirganini, xalq ommasining ezuvchilarga qarshi kurashga otlantirganligini uqtirishi bilan birga joylarda ko'tarilgan milliy ozodlik harakatlari va g'alayonlar bo'lgan joylar haqida tushuncha bera boshlaydi. Bu qo'zg'olon va g'alayonlar milliy ozodlik harakatlaridan biri ekanligi ko'rsatiladi. Qo'zg'olon ko'tarilgan joylar va bu mavzuda uchraydigan nomlarning toponimikasi o'rganib boriladi.

Demak, bu sohada uchraydigan nomlarning kelib chiqishi, ma'nosi shu sohada ilmiy tadqiqot olib borgan olimlarning asarlaridan foydalanilgan holda o'rganiladi.

O'qituvchi «Birinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston» mavzusini bayon qilish jarayonida ijtimoiy va milliy zulmga, kapitalistik va mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik uchun kurash olib borgan shahar va vohalar nomlarining kelib chiqish tarixi haqida qisqacha to'xtab o'tadi. Asosiy e'tiborni har bir joyning nomi va uning ma'nosi, o'z tarixi borligiga, birinchi eshitganda ma'nosizday tuyulgan nomlar chuqurroq qaralsa ko'pincha

kutilmagan mazmun berishiga qaratadi. SHuni aytish kerakki, mazkur joyga nomi berilgan o`simlik yoki hayvon yo`q bo`lib ketgan, bu joylarda yashaydigan xalqlar esa boshqa bir erlarga ko`chib ketgan bo`lishi ham mumkin, biroq joy nomi deyarli o`z holicha qolaveradi. Boshqacha qilib aytganda, geografik nomlarning ma`nosiga qarab bu erlarda qadimda qanday hayvonlar yashagani yoki qanday o`simliklar o`sganini aytib berish mumkin. Mana sizga bir misol. Bir vaqtlar O`rta Osiyoda qulon deb atalgan yovvoyi otlar uyur-uyur bo`lib yurishgan. Qulonni ovlay berib, qirib yuborishgan. Hozirgi vaqtda qulon Turkmanistondagi Bodxiz qo`riqxonasida qolgan, xolos. Lekin Qulonsoy, Qulonboshi, Qulontepa kabi joy nomlari ana shu qimmatli jonivorning bir zamonlar ko`p bo`lganligidan dalolat beradi. Bulon degan ham hayvon bo`lgan. Qulon va bulon to`g`risida xalq og`zida mana shunday she`r bor:

Qulon yurmas erlardan.

Quvib o`tib boradi,

Bulon yurmas erlardan

Qalqib o`tib boradi.

Bulonni bundan 9 asr oldin Mahmud Koshg`ariy «Qipchiqlar mamlakatda bo`ladigan katta gavdali hayvon» deb ta`riflagan. Aslida bulon ruscha «los`» deb ataladigan katta bug`udir. Bulon, Bulonti kabi joy nomlari ana shu xdyvonlardan qolgan esdalikdir.

Boshqa bir misol. So`kso`k — saksoy. Munis Xorazmiy Xorazmda to`xtovsiz urushlar natijasida el-yurt xarob bo`lganini tasvirlab, bunday deb yozgan edi: «Bu jihatdan Xorazm diyorida kaxat va gilo shoing` bo`ldi... Xivakning (ya`ni Xivaning) oliy imoratlari munhadim (vayron) bo`lib, o`miga so`kso`k va yulg`un ko`kardi». Demak, bu o`simlik nomi Buxoro viloyatning Qorako`l rayonidagi So`kso`k degan qishloq nomiga ko`chgan.

Respublikamizda o`zbekcha nomlardan tashqari arabcha, tojikcha, Mo`g`ulcha nomlar ham ko`p uchraydi. Qashqadaryo viloyatida Maymanak degan qishloq bor. Maymanak arabcha so`z bo`lib, «O`ng» tomon, «O`ng qo`l» degan ma`noni bildiradi. Farg`ona vodiysidagi Pochchaota soyidan chiqarilgan bir ariq Barangar deyiladi, bu nom esa Mo`g`ul tilida (barangdor) «O`ng qo`l, o`ng tomon» degan ma`noni bildiradi. Samarqand viloyatidagi Bulung`ur rayoni va kanalining nomi Mo`g`ulcha «loyqa suv» degan ma`noni anglatadi. Reg, Reginav, Registon, Regzor degan joylar nomi fors-tojik tilidagi reg, ya`ni «qum» so`zidan olingan. Registon shaxarning qum to`shab qilingan markaziy maydoni bo`lgan. SHuning uchun xam nomlarni er tili deyishadi. Joy nomlari yuzlab, hatto minglab yillar yashaydi. Bu nomlarning juda ko`pi hali o`rganilmagan. O`qituvchi o`quvchilarga siz bu joylarni nima uchun shunday atalar ekan deb o`ylab ko`rganmisiz? o`zingiz yashab turgan qishloq, shahar, kolxoz-sovxo, yo bo`lmasa yonginangizda oqib o`tadigan ariq, anhor nomining ma`nosini bilasizmi? degan savollarni o`rtaga tashlaydi. Mana shunday savollarga javob toptirish yo`llari bilan ular toponimik materiallarni to`plash yo`lida mustaqil tadqiqot olib borish ishlariga jalb qilinadi.

O`qituvchi yangi mavzuni bayon qilish jarayonida uchragan barcha joylarning nomlari qanday kelib chiqqanligi va ularning ma`nolari ustida to`xtab o`tishi mumkin emas, shuning uchun u h,ar bir yangi mavzuni o`tayotganda katta-katta masalalar ustida batafsil to`xtalib, mikrotoponimlar bilan mustaqil ishlashni o`quvchilarning o`zlariga topshirsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Masalan, Toshkent shahrining nomi haqida o`qituvchi dars jarayonida batafsil tushuntirib beradi, lekin Toshkent shahrini, uning tarixiy joylari, rayon, ko`cha va mahallalari, dahalari, undan oqib o`tadigan anhor va ariqlari, xiyobonlari kabilarning nomlari haqida o`quvchilarga mustaqil o`rganib kelishlarini topshirishi ham mumkin. Bundan tashqari, toponimlarning talay qismi turli xalqlar, qabilalar, o`zbek urug`lari va ularning mayda shoxobchalarining nomlari bilan atalgan. Nukus, Qo`ng`irot, Kenagas, Metan kabi urug` nomlari bilan birga Asaka, Boyto`pi, Kal, Qul kabi mayda shoxobchalarning nomlari ham toponimlarda o`z aksini topgan. Bunday toponimlarni ilmiy asosda o`qituvchining o`zi aytib bergani ma`qul.

O`zingiz bir o`ylab ko`ring, respublikamizda 17000 dan ortiq qishloq va aholi yashaydigan punktlar, 500 taga yaqin quduq borligi ma`lum. Odatda, O`rta Osiyoda suv havzalari, jumladan ko`llar kam deb kelinardi, holbuki birgina Tyanshan` tog`larida 12000 soy va jilg`alar oqib tushishi, Sirdaryo yoqasida 2118 ko`l borligi hisobga olingan.

Har bir qishloq atrofida yuzlab jarlar, tepaliklar, qirlar, buloqlar, quduqlar borki, ularni har qanday mukammal xaritadan ham topib bo'lmaydi. Masalan, Zomin rayonidagi birgina Tomtum qishlog'i atrofidan 300 dan ortiq mayda joy nomlari yozib olingan bo'lsa, Toshkentdek azim shahar va uning vohasidan qancha joylarning nomini yozib olish mumkin.

Ana shu aytilganlarni nazarga olib, bu paragrafda Toshkent shahri tarixi va Toshkent voxasidagi joylar nomlarining kelib chiqish tarixi haqida (albatta o'rganilganlarinigina) manbalarga asoslangan holda izohlab o'tamiz.

Toshkent — qadimiy va navqiron Toshkent shahri CHirchiq daryosining sohilida bundan 2000 yil muqaddam vujudga kelgan. Akademik YA. G'. G'ulomov rahbarligida Arxeologiya institutining bir guruh yirik ilmiy xodimlari Toshkent vohasida olib borgan arxeologik tekshirishlar natijasida Toshkent shahrining «yoshi» ni aniqlash mumkin bo'ladi.

Toshkent — O'zbekiston jumhuriyatining poytaxti va Toshkent viloyatining markazi bo'lib, o'lkamizning eng yirik shaharlaridan biri. U aholi soni jihatidan Moskva, Sankt-Peterburg va Kievdan keyin to'rtinchi o'rinda turadi. Toshkent — sanoati yuksak rivojlangan, fan va madaniyati ilg'or, juda ko'p xalqaro uchrashuvlar, konferentsiyalar, festyvallar o'tkaziladigan joy, o'rta Osiyoning o'ziga xos janubiy darvozasi. U respublikaning shimoli-sharqiy qismida, Tyanshan' tog'lari etaklarida, dengiz sathidan 440 — 480 metr balandlikda, CHirchiq daryosi vodiysida joylashgan. CHirchiq daryosidan bosh olgan va butun shahardan o'tadigan Bo'zsuv, Solor, Anhor, Qorasuv, Kaykovus, BO'rjar, Oqtepa, Qoraqamish va boshqa kanallar uning mikroiklimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Iqlimi kontinental, yillik o'rtacha temperaturasi 13,3°; yanvarning o'rtacha temperaturasi —1,1°; iyulning o'rtacha temperaturasi +27,5°. Yiliga 360 — 390 mm yog'in yog'adi. Maydoni 250 km². SHaharda 11 ta rayon: Ulug'bek, SHayxontohur, Mirobod, YUnusobod, YAkksaroy, Bektemir, Sobir Raximov, Sirg'ali, Hamza, CHilonzor, Akmal Ikromov rayonlari bor.

Qadimgi manbalarda hozirgi Toshkent o'rnida 2000 yil ilgari yirik obod shahar bo'lganligi qayd qilingan. Arxeologik qazish natijasida Toshkent hududidan 2000 yil ilgari yasalgan sopol idishlar, bronza, oyna va turli mamlakatlarning tangalari topilgan. Biroq hozirgacha Toshkentning o'sha davrdagi nomi aniqlanmagan. Toshkent V — VIII asrlarda CHoch, SHosh, SHoshkent, Binkent deb atalib kelgan va ayni vaqtda shu nomdagi feodal davlatning poytaxti bo'lgan. Buyuk ipak yo'lida joylashgan Toshkent Evropa mamlakatlarining Hindiston va Xitoy bilan olib borgan turli aloqalarida muhim rol' o'ynagan.

VI asrda turk xoqonligi tarkibiga qo'shib olingan. Turklar shaxarni zabt etgach, uning atrofini kuchli mudofaa devorlari bilan o'rab olganlar. Arxeologik qazish vaqtida topilgan ishlab chiqarish qurollari va ro'zg'or buyumlari bu erda yuksak madaniyat bo'lganligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari Toshkent hududida VI —VIII asrlarga oid bir qancha qasrlar xarobasi (masalan, Toshkentning shimoli-sharqidagi Oqtepa tepaligida) saqlanib qolgan.

VIII asr boshlarida Toshkent arablar bosib oladilar: shahar aholisi arablarga qattiq qarshilik ko'rsatganlar.

Toshkent o'zaro urushlar, qo'zg'olonlar, ko'chmanchi qabilalar hujumlari natijasida bir necha marta vayron qilingan. IX asrda shahar oldingi o'rnidan shimoli-sharq tomonda — Bo'zsuv kanali etagida barpo bo'lgan.

Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Koshg'ariy ma'lumotlariga ko'ra, shahar XI asrdan Toshkent deb atala boshlagan.

IX — X asrlarda Toshkent Somoniylar davlati, X asr oxirlaridan XIII asr boshigacha Qoraxoniylar va Qoraxitoylar davlatlari tarkibida bo'lgan. Qadimiy manbalardan bayon qilinishicha, Toshkent bu davrda qal'a, ichki va tashqi shahardan iborat bo'lib, atrofi bir necha qator mudofaa devori bilan o'ralgan. SHaharda kulolchilik, o'q-yoy, gazlama, gilam, chodir hamda charm mahsulotlari ishlab chiqarish rivojlangan.

XIII asr boshida Toshkentni Muhammad Xorazmshoh bosib oladi va 1214 yili Mo'g'ul qo'shinlari yo'lini to'sish maqsadida aholini ko'chirib, shaharga o't qo'ydiradi. SHahar bir necha vaqtgacha tiklanmaydi. Faqat Temuriylar davlati tarkibiga qo'shib olingandan keyingina qayta

quriladi, 1404 yilda Ulugʻbek ixtiyoriga mulk tarzida beriladi. Keyinchalik Temuriylar oʻrtasida boshlangan taxt uchun kurashdan foydalangan Moʻgʻul xoni YUnusxon Toshkentni oʻz qarorgohiga aylantiradi.

1501 yilda SHayboniyxon Moʻgʻullarni tor-mor etib Toshkentni idora qilishni oʻz amakilari — Suyunchxoʻjaxon va Koʻchkinjixonga topshiradi. Ularning davrida Toshkent Oʻrta Osiyoning hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniy hayot markazlaridan biriga aylanadi.

XVI asrning birinchi yarmida Toshkentda katta qurilish ishlari olib boriladi. Bir qancha saroy va madrasalar quriladi. Masalan, Baroqxon va Koʻkaldosh madrasalari SHayboniyxonlar davrida qurilgan koʻrkam va hashamatli binolardandir. Hunarmandchilikning rivojlanishi savdo-sotiq aloqalarining kengayishiga olib keladi.

XVI asrning ikkinchi yarmida Qozon va Astraxanʼ xonliklarining bosib olinishi va Rus davlatiga qoʻshib olinishi natijasida Toshkent bilan Moskva oʻrtasida savdo aloqalari rivojlanadi, har ikki tomon bir-biriga elchilar yuboradilar. 1576 yilda Toshkent SHayboniyxonlardan Abdullaxon qoʻl ostiga oʻtadi. Uning oʻlimidan keyin esa Toshkentni Qozon xoni Tavakkal bosib oladi (1599). 1613 yili Ashtarxoniylardan Imomqulixon qozoqlarni tor-mor keltirib, Toshkentni qaytarib oladi va Toshkentga oʻz oʻgʻli Iskandarni noib qilib tayinlaydi.

Biroq Iskandarni tez orada qoʻzgʻolon koʻtargan toshkentliklar oʻldiradilar. Bundan gʻazablangan Imomqulixon Toshkent aholisini qirgʻin qiladi. XVIII asr boshida Toshkent uchun Jungʻoriya xonligi bilan Qozoq xonligi oʻrtasida koʻp urushlar boʻladi. 1723 yilda qozoqlar engilib, Toshkent Jungʻor xoni Galdan-TSiren qoʻliga oʻtadi. Bu davrda Toshkent aholisi uzumchilik hamda poliz ekinlari, bugʻdoy, tariq, arpa, sul, zigʻir, kunjut etishtirish bilan shugʻullangan.

SHahar rastalarida ipak mato ip-gazlama, zarbof kiyimlar koʻp boʻlgan. Rus savdogarlari Toshkentga movut, qunduz terisi va turli boʻyoqlar keltirishgan. Toshkent bilan Balh Xiva, Buxoro, Samarqand, Qulob, SHahrisabz va boshqa shaharlar oʻrtasida savdo-sotiq rivojlangan. Pul muomalasi u davrda hali yaxshi rivojlanmagan edi. Toshkent aholisiga xonlik gʻalla va qoramol bilan toʻlanadigan maxsus soliq (hosilning oʻndan bir qismi miqdorida) solgan. Jungʻoriya xonligi barham topgandan keyin (1758 yil) Katta oʻrda hujumlari natijasida Toshkent koʻp zarar koʻradi.

XVIII asr oʻrtalarida Toshkent toʻrt daha (Sebzor, Koʻkcha, Beshyogʻoch, SHayxontahur) ga boʻlingan boʻlib, ularning har birini mustaqil hokim boshqargan. Bu davr tarixda «CHor hokim» (toʻrt hokim) nomi bilan mashhur. SHaharning devori (uzunligi 14 km) va Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Sagʻbon, CHigʻatoy, Koʻkcha, Samar-qand, Kamolon, Beshyogʻoch, Qoʻqon, Qashqar, Qoʻymas degan 12 ta darvozasi boʻlgan.

XVIII asrning oxirlarida SHayxontahur dahasining hokimi YUnusxoʻja qolgan uch daha hokimligini ham oʻz tasarrufiga olib, Toshkentda feodal tarqoqlikka chek qoʻyadi. Bir necha harbiy yurishdan soʻng u Katta oʻrdadan Toshkent atrofidagi qishloqlarni qaytarib olishga, Toshkent aholisiga tinchlik bermayotgan koʻchmanchi qozoqlarni boʻysundirishga muvaffaq boʻladi.

1799 yili Qoʻqon qoʻshinlari Toshkentni qamal qildi, ammo toshkentliklarning kuchli zarbasiga uchrab, orqaga qaytadi. 1800 yili YUnusxoʻja Qoʻqon xonligiga qarashli Quramani bosib oladi. Biroq 1807 yili Qoʻqon qoʻshinlari bilan boʻlgan jangda YUnusxoʻja engilib, Quramani qaytarib beradi. YUnusxoʻja vafot etgach (1810 yili), Toshkentga uning oʻgʻli Sultonxoʻja hokim boʻladi. YUnusxoʻjaning oʻlimidan foydalangan Qoʻqon xoni Olimxon oʻz ukasi Umarxon qoʻmondonligida qoʻshin yuborib, Toshkentni egallaydi va unga Sultonxoʻjaning ukasi Hamidxoʻjani hokim qilib tayinlaydi. Hamidxoʻja Qoʻqonga boʻysunmay qoʻyadi. Natijada Olimxon shaxsan oʻzi qoʻshin tortib, Toshkentni Qoʻqon xonligiga uzil-kesil qoʻshib oladi. SHundan boshlab Toshkent hokimi faqat Qoʻqon xoni tomonidan tayinlanadigan boʻldi.

XIX asr oʻrtalarida Toshkent Oʻrta Osiyoning Rossiya bilan savdo-sotiq qiluvchi eng yirik markaziga aylanadi.

Rossiya bilan Oʻrta Osiyo shaharlari olib borayotgan savdo-sotiqning 40%i birgina Toshkentga toʻgʻri kelar edi. Har yili Orenburg va Semipalatinsk shaharlariga Toshkentdan

paxta, paxta mahsulotlari, ipak, guruch, quruq mevalar, jun va boshqa mahsulotlar ortilgan tuya karvonlari jo`natilar edi. U erdan esa Toshkentga ip-gazlamalar, temir metall buyumlar, mo`yna va boshqalar keltirilardi.

1865 yili Toshkent chor qo`shinlari tarafidan bosib olindi. 1867 yildan Turkiston general-gubernatorligi Sirdaryo viloyatining markaziga aylandi. Toshkent aholisi ikki yoqlama — podsho mustamlakachilar hamda mahalliy ekspluatatorlar zulmi ostida qoldi. Ijtimoiy va milliy mustamlaka zulmining avjga chiqishi natijasida Toshkent mehnatkash ommasi 1892 yilda qo`zg`olon ko`tardi.

1899 yili Zakaspiy temir yo`li bu ergacha etib keldi. 1905 yili esa Toshkentni markaziy Rossiya bilan bog`lovchi eng yaqin yo`l — Orenburg — Toshkent temir yo`li qurildi. Toshkent asosiy temir yo`l uzeli, savdo va tranzit punktiga, ko`p millatli Turkiston o`lkasining ma`muriy-siyosiy markaziga aylandi. SHaharda yangi sanoat korxonalari xamda savdo muassasalari vujudga keldi.

1813 yili Toshkentda III sanoat korxonasi, jumladan 15 ta paxta tozalash zavodi, 3,5 mingdan ortiq hunarmandchilik ustaxonasi, 22 rus va chet el savdo firmalarining bo`limlari, 186 ta katta-kichik magazin bor edi. Toshkent aholisi, asosan, xunarmandchilik, dehqonchilik, bog`dorchilik va savdo-sotiq bilan shug`ullanar edi. eski shaharning sharq tarafida yangi shahar barpo qilinib, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o`zgarishlar asosan Toshkentning shu qismida ro`y bergan. Trshkentda sanoat korxonalari rivojlanishi tufayli mahalliy kapitalistlar sinfi bilan bir qatorda mahalliy ishchilar sinfi ham etishib chiqa boshladi. Mahalliy ishchilar sinfi, asosan, paxta tozalash, yog`moy, vino-arog, g`isht, pillakashlik korxonalari va boshqa korxonalar ishchilaridan, temir yo`l, tramvay ishchilaridan shuningdek, hunarmandchilik ustaxonalaridan yollanib ishlayotgan ishchilardan iborat edi. Toshkentdagi Bosh temir yo`l ustaxonasi (hozirgi Toshkent teplovoz vagon remonti zavodi)ning 800 ishchisidan 120 tasi mahalliy millat vakili bo`lgan. Turkiston proletariatining ko`pchilik va ilg`or qismini tashkil etgan. Toshkent ishchilari Rossiyada sinfiy kurash maktabini o`tgan rus ishchilari ta`sirida asta-sekin siyosiy qurashga jalb etila boshlaydilar. 1903 yili Toshkentda sotsial-demokratik to`garak tuziladi. 1904 yili esa dastlabki mayovkalar o`tkaziladi, yashirin bosmaxonalar tashkil qilinadi va «Iskra» gazetasi tarqatila boshlaydi.

Toshkent mehnatkashlari ham 1905—1907 yillardagi Turkiston mehnatkashlarining g`alayonlarida ishtirok etdilar. Butun Rossiya Oktyabr' ish tashlashi podsho hukumatining eng «mustahkam» va so`nggi tayanchi bo`lgan armiyani ham qo`zg`atdi. Turkiston armiyasida g`alayon o`sib bordi. Natijada Toshkent Tuproq qo`rg`oni soldatlarining qurolli qo`zg`oloni bo`ldi. 1912 yili Lena oltin konlari ishchilarining otilishiga javoban Toshkent yaqinida joylashgan Troitskiy harbiy lager' sapyorlari qo`zg`olon ko`tardilar.

1916 yil 25 iyunda podsho Nikolay II «imperiyadagi begona aholi erkaklarini» mardikorlikka safarbar qilish to`g`risida farmon berdi. Turkistonning tub aholisi safarbarlikka qarshi norozilik namoyishlari o`tkazdi. Joylarda bu harakat qo`zg`olonga aylandi. Jumladan, Toshkent mehnatkash ommasi 4 iyulda qo`zg`olon ko`tardi.

1917 yil 25 oktyabrga o`tar kechasi Petrogradda qurolli qo`zg`olon boshlanib, muvaqqat hukumat ag`darib tashlandi, hokimiyat ishchi va soldat deputatlari Petrograd Soveti qo`liga o`tdi.

G`alayonda qatnashgan ishchilarning g`alabalari to`g`risidagi xabar 27 oktyabrda Toshkentga ham etib keldi. Bu xabardan ruhlangan ishchilar burjua hokimiyatiga qarshi qurolli qo`zg`olon ko`tardilar. 28 oktyabrda qo`zg`olonchilar qo`mitasi tuzildi. Qo`mita Toshkent ishchilar va soldatlarining- qo`zg`olondan norozi bo`lgan kuchlarga qarshi kurashiga boshchilik qildi. O`sha kuni soat 6 da temir yo`l ustaxonasi gudok chalib, qurolli qo`zg`olon boshlashga signal berdi. Qo`zg`olon 31 oktyabrgacha davom etdi. Qo`zg`olon natijasida 1 noyabrda Toshkentda yangi hokimiyat o`rnatildi. Lekin bu hokimiyat Turkiston xalqlariga ozodlik keltirmadi.

2- jahon urushigacha besh yilliklar davrida Toshkentda bir qancha sanoat korxonalari — «Qizil tong» tikuvchilik fabrikasi, «O`rtoq» tamaki fabrikasi, poyabzal fabrikasi, mashinasozlik zavodi, Toshkent to`qimachilik kombinati, metallsozlik zavodi va boshqalar qurildi.

O'zbekiston bo'yicha Toshkentda birinchi bo'lib GOELRO rejasini amalga oshirishga kirishildi. Bo'zsuv, Qodiriya va BO'rjar GES lari bunyod qilindi. 2- jahon urushi yillarida ko'pgina g'arbiy rayonlardan sanoat korxonalari, oliy o'quv yurtlari, madaniy-maishiy muassasalar Toshkentga ko'chirildi. Toshkent mamlakatning eng yirik sanoat markazlaridan biriga aylanib qoldi. Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekiston Qizil Armiyaning qudratli arsenaliga aylanib qoldi.

Sovet hukumati nemis bosqinchilariga qarshi umumiy harbiy safarbarlik o'tkazdi. O'zbekistonning harbiy xizmat yoshidagi minglarcha aholisi, shu jumladan o'zbek yoshlari xam Vatanni yovuz bosqinchilardan himoya qilish uchun urush maydonlariga jo'nab ketdilar. O'zbek jangchilari Vatan urush frontlarining hammasida kurash olib bordilar. Minglab jangchilarimiz Sankt-Peterburg, Moskva mudofaalarida ishtirok etdilar. O'zbek jangchilari Ukraina, Belorussiya, Qrim, Boltiq bo'yi respublikalarini ozod qilishda qatnashdilar. Urush davrida 118 ming o'zbek jangchilari xar xil davlat orden va medallari bilan mukofotlandi va 65 kishi «Qahramon» unvoniga sazovor bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushi maydonlarida minglarcha o'zbek yoshlari qo'rqmas razvedkachi, mohir snayper, dovyurak tankchi, to'pchi, ziyrak partizanlar sifatida dong chiqardilar.

Urush yillarida o'zbek xalqi frontni qurol, oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlashda katta xizmat ko'rsatdilar.

O'zbek xalqi O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan korxonalarni joylashtirish, front talabini qondirish uchun bir qancha yangi korxonalar, zavod-fabrikalarni ishga tushirdi. Bu korxona, zavod-fabrikalarni ishga solish uchun energetika bazasini kengaytirish uchun Toshkent vohasida 6 GES, Farg'ona vodiysida issiqlik elektrostantsiyasini qurish, CHirchiq va Bo'zsuvda 5 GES, Sirdaryoni bo'g'ib Farhod GES lari qurildi. SHunday qilib, urush yillarida O'zbekiston sanoatining barcha tarmoqlari kengaydi.

Qishloq xo'jaligida ham xalqimiz fidokorlik namunalarini ko'rsatdi. Jamoa xo'jaligi mehnatkashlari tashabbusi bilan 40 — 42-yillarda SHimoliy Toshkent kanali «xashar» yo'li bilan qurilib, Moskva, Sankt-Peterburg va Toshkent aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minladilar.

Urush o'zbek xalqini og'ir sinovdan o'tkazib, yuqori darajada chiniqtirdi. Toshkent sanoati 1943 yilda 1940 yildagiga nisbatan 3 baravar ko'p mahsulot berdi. Ukraina, Belorussiya va g'arbiy rayonlaridan Toshkentga vaqtincha ko'chirilgan aholi boshpana va ish bilan ta'minlandi.

Ko'chirib keltirilgan bolalarga alohida g'amxo'rlik qilindi. Bir qancha bolalar uylari ochildi. Minglab Toshkentliklar bolalarni o'z qaramog'iga oldilar. Toshkentlik SHoahmad va Bahri SHomahmudovlar oylasi 15 ta turli millat bolalarini, Bahrixon Ashurxodieva 8 bolani olib parvarish qildilar.

Urushdan keyingi yillarda Toshkendagi og'ir sanoat tarmoqlari tez sur'atlar bilan rivojlandi. Yirik sanoat korxonalari — «O'zbeksel'mash», «Ekskavator zavodi», «Tashtekstil'mash», «Tashxlopkomash», «Tashkentkabel'», Toshkent yog'moy kombinati, Toshkent karborund zavodi, mashinasozlik, elektrolampa va elektromexanika zavodlari, yirik panelli uysozlik kombinati va boshqalar qurildi. eski sanoat korxonalari ta'mirlanib yangi asbob-uskunalar bilan jihozlandi. YAlpi sanoat mahsuloti 1917 yilga qadar ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbatan 150 marta o'sdi.

1966 yilgi zilziladan keyin Toshkent qardosh respublikalar yordamida, yangi bosh reja asosida qurildi. Toshkent birodarlashgan shaharlar jahon federatsiyasining a'zosi, birodarlashgan shaharlar birinchi konferentsiyasining qatnashchisidir. 8 ta chet el shahri — Qarochi (Pokiston), Patiala (Hindiston), Tunis, Tripoli (Liviya), Marokash, Bamako (Mali), Skople (YUGoslaviya) va Sietl (AQSH) bilan birodarlashdi.

Hozirgi kunda Toshkent tanib bo'lmas darajada o'zgarib bormoqda. SHahar loyixasi me'morlar tomonidan qayta ishlanib, milliy uslubdagi turar joy dahalari qad ko'tarmoqda. Uning keng asfal'tlangan ko'chalari, osmono'par uylari, o'nlab madaniyat va istirohat bog'lari, yuzlab kinoteatrlari shahar mehnatkash ommasiga xizmat qilmoqda.

Toshkent shahri va uning vohasi iqlimi mo`tdil, daryolari sersuv, tuprog`i kimyoviy elementlarga boy bo`lishi, bu vohada sug`orma dehqonchilikning qadimdan rivojlanishiga qulay sharoit yaratgan.

Toshkent vohasi, shu jumladan shaharni CHirchiq daryosi ob-hayot bilan ta`minlaydi. CHirchiq daryosining o`ng sohilini 120 ta, chap sohilini esa katta-kichik 41 ta kanal va ariqlar o`z suvlari bilan ta`minlaydi. Demak, bu ariq va kanallarning gidrotoponimikasini batafsil bayon qilish, bu toponim, gidronim va etnonimlarni ilmiy jixtdan tahlil qilish kitob hajmini yanada kengaytirib yuboradi. SHuning uchun biz Toshkent shahrining asosiy suv arteriyasi bo`lgan, CHirchiq daryosidan bosh oladigan: Iskandar, Zahariq, Bo`zsuv, Anhor, Kaykovus, Solar, Qorasuv kabi kanallar, shaxdrdagi ayrim nomlarning toponimikasi haqida fikr yuritamiz, xolos.

Bo`zsuv — Toshkent shahrini oralab o`tdigan kanal nomi. N. G. Mallitskiy Bo`zsuvni «buzoq suvi» deb izohlaydi. Orenburg oblastidagi Buzuluk daryosining nomini ham ba`zilar Buzoq suv deb atashadi. Aslida esa Bo`zsuv suv rangiga ko`ra shunday nom olgan. SHunisi qiziqki, CHirchiqning bosh irmoqlaridan biri Ko`ksuv deb ataladi, xdqiqatan xdm bu suv shishadagi ko`m-ko`k.

Solor so`zining kelib chiqishini ham xdr kim xar xil taxlil qiladi. Ayrimlar sipoh, solor, ya`ni «bosh qo`mondon» nomi bilan atalgan bo`lsa kerak, deb taxmin qilishsa, yana birlari solor ariqbosh ariq, davrlar o`tishi bilan ayrim so`zlari qisqarib solor bo`lib ketgan, deytilar. SHuni aytish kerakki, Solor arig`i vaqf hujjatlarida Rudak shaklida ham qayd qilingan fors-tojik tilida ariq, «ak» kichraytirish affiksi bo`lib, «cha» qo`shimchasiga to`g`ri keladi. Akademik YA. G`. G`ulomov bu ariq milodimizning boshlarida qazilgan. ammo Solor, Kaykovus nomlari haliga qadar ma`lum emasligi, Afrosiyob, Zolariq nomlari ham keyingi asrlarda «SHohnoma» kitobi ta`siri ostida maydonga kelgan bo`lsa kerak, degan fikrni aytadi.

Qorasuv — Toshkent vohasini suv bilan ta`minlaydigan va CHirchiq daryosidan bosh oluvchi ikkita kanal — o`ng qirg`oq Qorasuv va chap qirg`oq Qorasuv kanallari. Bu so`z fors-tojik tilida siob yoki siyohob ham deyiladi. Bu nom bilan yuritiluvchi otlar respublikamizda juda ko`p uchraydi. Samarqand viloyatida bunday ariqlarni Siob deb yuritishadi. Siob so`zini xdm ba`zi olimlar o`zlaricha har xil tahlil qiladilar. Afrosiyob jarliklaridan oqib o`tdigan Qorasuv - Siobning nomini si — ob, ya`ni «O`ttiz suv» ham deyishadi. V. L. Vyatkin so`zi bilan aytganda, Qqsuv atamasi tog` daryolariga taalluqli bo`lib, Qorasuv esa fors-tojikcha Siob yoki siyohobqora suv degan ma`nolarni anglatadi.

Haqiqatan ham chashma suvlari turkiy tillarda Qorasuv deb yuritiladi. V. V. Bartol`dning ta`rificha, Siob turkcha qora suv demakdir. Bobur esa bu ariqni Obirahmat deb atagan. Hozirgi davrda ham Siobning boshlanishi Qorasuv deb yuritiladi. Ayrim vaqtlarda Qoradaryoni ham tojikchasiga Siobi kalon deb, ya`ni katta Qorasuv deb atashadi.

Xadra — Toshkentdagi hozirgi Xadra maydoni. YA. G`. G`ulomov, H. T. Zaripov, H. Hasanovlarning fikricha, xadra — xaddi rox «chegara, chekka» degan ma`noda bo`lib xon o`rdasining chegarasi hisoblangan. F. Abdullaev esa xadra past-baland, tashlandiq, yaroqsiz, er ma`nosidagi adrang so`zini asta-sekin buzib talaffuz qilinishi natijasida xadra bo`lib qolgan, deydi. Fikrimizcha, oldingi olkmlarning so`zi haqiqatga ancha yaqin. Xadra chegara ma`nosini anglatadi.

**Beshyog`och** so`zi masofani o`lchash uchun ishlatilgan tosh, farsang ma`nosini bildiradi. Bu o`lchov (bir yog`och 7 — 8 kilometrغا teng bo`lgan) yog`och o`lchov so`zidan kelib chiqqan bo`lishi mumkin.

**Bo`rjar.** Ilgarilari bu erda bo`ri yoki chiyabo`ri ko`p bo`lganligi uchun shu nom berilgan deyiladi. Ayrimlar esa bu er jarliklardan iborat bo`lib, unda faqat bo`rilar yashagan desalar, ba`zi birovlar bu nom «bo`z — oqish va jar» so`zlarining o`zgarishidan kelib chiqqan, deytilar.

Jangob — Toshkent shahridagi hozirgi A. Qodiriy nomli madaniyat va istirohat bog`ining o`rni. To`g`risi, janggoh — «goh» toponim yasovchi affiks bo`lib, asl ma`nosi joy, o`rin, maydon demakdir; poytaxtimizdagi nomozgoh guzari — juma kunlari va hayitlarda jamoat bo`lib namoz o`qiladigan joy bo`lgan. Toshkent dahalari ana shu erda jang qilishgan, degan

fikrlar mavjud, ammo bu joy faqat jang emas, xo`roz, qo`chqor urishtirib, hordiq chiqaradigan joy degan ta`riflar ham mavjud.

Darxonariq — Mo`g`ulcha «darhon» so`zidan tarkib topgan bo`lib, ma`nosi «majburiyatlardan to`la ozod qilingan» demakdir. Bunday nomlar ko`p uchraydi. Masalan, Samarqand viloyatining Ishtixon rayonida Boshdarxon, Jo`raboydarxon, Ozoddarxon, Naymandar-xon, Po`latdarxon, Qirqdarxon degan qishloqlar bor. Bu so`z o`zbek tilida «tarxon» shaklida ishlatiladi. Tarxon — xohlagan narsasini qila oladigan; harbiy xizmatdan butunlay ozod kishidir. Tarxonlar har qanday jinoyat qilsalar ham, to`qqiz nafargacha afv etilgan. Tarxonlik XV asrda ayniqsa avj olgan va feodallarga keng imtiyoz berishning bir vositasi hisoblangan. Temuriylar davlatida tarxonlar qo`lida yirik erlar va katta hokimiyat bo`lgan. Tarxonlik O`rta Osiyoda xdm saqlanib qolgan. Ba`zan ayrim kishilargina emas, balki butun bir shaxdr aholisiga tarxonlik huquqi berilgan.

Arpapoya so`zi aslida arpaning poyasi yoki arpa ekiladigan joy bo`lmasa kerak. H. Hasanov ma`lumotiga ko`ra, Aropa deganda o`rda chetidagi xandaq tushunilgan. Aropa asta-sekin Arpapoya bo`lib o`zgarib ketgan bo`lishi mumkin. Aropa (Arofa) «balandlik» ma`nosidagi «arfa» so`zining ko`pligi bo`lishi ham mumkin.

Anhor atamasi arabcha nahr (daryo, kanal) so`zining ko`pligi. Akademik YA. G`. G`ulomovning fikricha, Bo`zsuv kanali shahar ichkarisiga kirgan hozirgi Semashko nomli shifoxona yonida g`arbiga — Kaykovus nomi bilan, janubga — Anhor nomi bilan ikkiga bo`linib ketgan. Har ikkala kanal milodning V — VI asrlari mobaynida qazilgan.

**Eski jo`va** — Toshkentdagi xon arkining chekkasida, eski harbiy aslahdlar saqlanadigan omborxona — jevaxona bo`lgan. Haqiqatan ham jeba (jiba) deganda sovut yoki umuman harbiy qurol-aslaha tushunilgan. Bu o`rinda yana shuni ham aytish kerakki, tarixiy manbalarda, xususan vaqf hujjatlarida jo`ba «bozor» ma`nosida uchraydi. CHunonchi, X asr yodgorligi Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida Buxoro bozorlaridan biri Jubai baqqolon, ya`ni Baqqollar bozori deb atalganligi qayd qilingan.

CHaqar deb shahar devorining tashqarisidagi qal`a istehkomga aytilgan. YAna shuni aytish kerakki, chahar degan Mo`g`ul urug`i bo`lgan, Mo`g`ulistonda chahar degan joy ham bor. Filologya fanlari doktori S. D. Nominxonov O`zbekistonda CHaqar deb nomlangan qishloqlardan ettitasini sanab o`tadi va bu qishloqlar CHaqar degan urug` nomi bilan atalgan, deydi.

Sag`bon atamasining ma`nosi «itboqar» demakdir. Ba`zi birovlar Toshkentning shimoliy chekkasida Xasti Imom (hazrat imom) atrofida non bozori bo`lgan, ana shu erlarda chorva mahsulotlarini qayta ishlaydigan ko`nchilik kabi bar qancha hunarmandchilik korxonalari vujudga kelgan. SHu bilan bir qatorda, mol olib sotadigan jalloblarga xizmat qiladigan itboqarlar (sakbon) ham bo`lgan. Ko`cha va ariq nomi ana shundan kelib chiqqan, deyishadi. Sog`bon, Sohiron, ya`ni «Sohib»lar so`zidan kelib chiqqan degan fikr ham bor. Boshqa bir tarixchilarning fikricha, Sog`bon qadimgi otashparastlik e`tiqodi bilan bog`liqdir. Otashparastlar marhumni erga ko`mishmagan, chunki murda erni iflos qiladi, deb hisoblaganlar. SHuning uchun ular o`likni qush-quzg`unlar eb ketsin, deb uzoqroq joyga olib borib tashlaganlar, shahar ichida maxsus joylarda it boqilib, o`liklarni ana shu itlarga edirganlar, murda suyaklarini esa maxsus idishlarda — ossuari yoki ostadonlarga solib, ko`mishgan. Sog`bon mahallasida ana shu maqsadda it boqilgan. XVI asrning boshida Qumloq atrofida shayboniylardan Suyunchxojaxonning chorbog`i bo`lib, uni bog`i Kaykovus (Orig` nomi bilan) deb atashgan. Sog`bon ko`chasida uning itxonasi (ov itlari) bo`lgan. Itboqarlar ham o`sha erda turganlar, Sag`bon so`zi shun-dan kelib chiqqan degan rivoyat ham bor,— deydi B. A. Ahmedov.

Qorasaroy — Toshkent shahar darvozalari ichida Qorasaroy darvozasi ham bo`lgan. Bu darvoza dastlab qopqa deb atalgan (darvoza so`zi forscha qopqa demakdir). Ana shu yo`lda zakotxona, zakot saroyi qurilganidan keyin darvoza Qorasaroy deb atalgan.

Taxtapul — bu so`zning etimologiyasi taxta — yog`och, pul — fors tilida ko`prik, ya`ni taxta ko`prik degan ma`noni bildiradi. Bu ariq qazilgach undan o`tish uchun yog`och va taxtadan ko`prik qurilgan. SHundan so`ng ariqning va o`sha joyning nomi ham Taxtapul bo`lib qolgan.

Damachchi — Toshkent shahridagi Taxtapul arig'idan va Bo'zsuvdan suv oluvchi ariqning nomi Dchchi ham deyiladi. Mahalliy xalq ariqning suvi sho'r bo'lganidan shu nomni berishgan. Xdqiqatan ham «j» lovchi o'zbek shevalarida «achchiq»ni «achchiy» deyishadi. Bu ariq suvni pastlikdan olganligi sababli dambalar yordamida dimlanib chiqadi. Keksa otaxonlarning so'zlariga qaraganda, bu ariqni Damariq deb xdm yuritishar ekanlar. Bu ariq suvini Damachchi kanaliga va Achchisoyga quyadi. Achchisoyning suvi hdm sho'r bo'lganligidan shu nomni olganligi shubhasizdir.

CHinoz — CHinoz tarixiy asarlarda ilk bor CHingizxon davrida, ya'ni O'rta Osiyoga Mo'g'ul-tatarlar bostirib kirgan yili tilga olingan. Ba'zi bir tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, Sirdaryo etaklaridagi chin xalqi boyonining bir go'zal qizi bo'lgan va bu go'zal qizga juda ko'p kishilar odam qo'ytan, lekin qiz ularni yoqtirmagan. Bir boyning o'g'li bu qizning xusnini ko'rib hushini yo'qotgan va bu qiz haqiqatan ham CHin nozlik qiz ekan deydi. Balki shu tufayli CHinoz deb atalgan bo'lsa kerak. Bundan tashqari, yana bir afsonada aytilishicha, CHingiz Sirdaryo etaklaridagi xalqlar bilan bosqinchilik urushi olib borayotganda bu erdagi chin qabilasidagi kishilar oz bo'lsa ham botir va qo'rqmas ekanligini aytgan. SHu tufayli CHinoz deb atalgandir. Rashididdinning «Jomi` ut-tavorix» asarida chinos degan Mo'g'ul qabilasi bo'lganligi eslatiladi, ehtimol Mo'g'ul-tatarlar bostirib kirib, shu erda chinos qabilasidan tarqagan qabila bu joyda yashab qolgandir. Lekin bu hozircha aniqlangan emas, ba'zi bir ma'lumotda chimi oz, dehqonchilik qilsa bo'ladi, ya'ni chim oz so'zidan olingan deyishadi.

CHirchiq — Sirdaryoning o'ng irmog'i, Toshkent vohasini deyarli shu daryo sug'oradi. Park yoki Parak deb ham atalgan. Obi turk varianti ham bor. V. V. Bartol'd ma'lumotlariga ko'ra, CHir nomi birinchi marta Temur tarixida tilga olindi. «Boburnoma» da «CHir siyi» deyilgan. «Abdullanomada» esa «CHir daryosi CHirchiq nomi bilan ko'proq mashhur» deyiladi. e. Mirzaev (SMGT, 257- bet), H. Hasanov (UOJNT, 56-bet) «tezoqar», «shovullagan» deb izohlaydilar. CHirchiq vodiysida CHirchiqning Qolgan o'zani bor. «Qolgan» so'zi gidronimlar tarkibida (Masalan, Sirdaryo Sirdaryo viloyatida, Qolgandaryo Farg'ona viloyatida, CHirchiq shahri esa Toshkent viloyatida) ko'p uchraydi.

Piskent — Toshkent vohasining qadimiy shaharlaridan biri. X asr geograflarining ma'lumotlariga qaraganda, Iloq davlati tarkibiga kirgan. Pushti Mahmud tepaligi Piskentning dastlabki qismi bo'lib, u VI-VII asrlarda shahar qiyofasini ola boshlagan. SHosh (Toshkent) dan Farg'onaga o'tgan savdo yo'lining qulay joylashganligi tufayli IX — X asrlarda bu erda qadimiy tarixchilar tomonidan «Biskent» deb atalgan shaxarcha paydo bo'lgan, u «Yigirma xonadonli shahar» ma'nosini bildiradi. Piskent o'z nomini o'rta asrlarda olgan bo'lib, o'sha vaqtda shaharda yigirmata karvonsaroy bo'lgan va ular orqali Toshkentdan Qo'qon, Xo'jand kabi bir qancha shaharlarga savdo yo'li o'tgan.

Parkent — bu qishloq Toshkentdan 50 — 60 kilometr uzoqlikda joylashgan. Qishloqning Parkent deb nomlanishi haqida xalq orasida turli fikrlar va afsonalar mavjud. Ayrim kishilar bu qishloq oldin bir necha qishloqlardan iborat bo'lib, Parkent ularning birlashishidan tashkil topgan, desalar, boshqalar qishloqning qoq o'rtasidan kesib o'tgan Parkent soyi sababli qishloq teng ikkiga bo'lingan va shuning uchun uning nomi Parkent, ya'ni juft deydi. Lekin qishloq nomining asl ma'nosi haqida aniq ma'lumotlar yo'q.

Iskandar — bu CHirchiqdan birinchi suv oluvchi kanalning nomi. 1889 yili bu kanal o'rnida kichik bir «sart» arig'i bo'lgan, bu ariqni podsho Aleksandrning qarindoshi Konstantin Romanov qayta qurdirib, unga «Oq podsho» Aleksandr nomini qo'ydiradi. U joy obo donlashtirilib, axoli yashaydigan joyga aylantiriladi va erli xalq odatiga ko'ra Aleksandrni Iskandar deb yurita boshlaydilar. Hozirgi kunga qadar ham shu nom bilan yuritilib kelinmoqda.

Betagali — Toshkent viloyatida Betagalisoy, Betaga-li degan joylar mavjud. Betaga so'zi mayda o't demakdir. Bu o't buta-buta, ya'ni to'p-to'p bo'lib o'sadi. ehtimol, butaka so'zi vaqtlar o'tishi bilan «betaga» bo'lib ketgandir. Bobur aytgandek, betagani ayniqsa yilqi yaxshi ko'radi. Betaga egan yilqi yaxshi semiradi. Betagali yaylovda yurgan biyalarning qimizi yog'li va yoqimli bo'ladi. Betagalisoy va Betagali — Qo'ytosh degan joylarda hali ham yilqilar boqiladi. Sirdaryo va Farg'ona viloyatlarida ham Betagali — Qo'ytosh degan yaylov va yassi tog' bor.

**Bog`iston** — Toshkent viloyati Bo`stonliq rayonidagi qishloq Hoja Ubaydulloh, Ahrorning qishlog`i, u shu qishloqda tavallud topgan (1404—1490) H. Hasanov Bug`uston, ya`ni «Bug`uli er» deb izohlaydi. V. V. Bartol'd «Eronning tarixiy-geografik ocherki» asarida Bog`iston degan joyini «Xudo vatani» deb tarjima qilgan. (Islom dinidan oldin bog` so`zi eron tillarida «xudo» ma`nosini anglatgan, bu so`zning fog` (fug`) variantlari ham bo`lgan.) Bu toponim «bog`lar o`lkasi» degan ma`noda ham bo`lishi mumkin. Profes-sor I. P. Petrushevskiy bog`iston so`zini ana shunday izohlagan. Bog`iston qishlog`ida tashkil topgan birinchi jamoa xo`jaligiga rais bo`lgan hurmatli Sotiboldieva Zinnat opaning fikricha, Bog`iston «Bog`i bo`ston» degan so`zdan kelib chiqqan bo`lishi kerak.

Burchmulla — Toshkent viloyati Bo`stonliq rayonidagi qishloq. Ba`zi birovlar Ko`ksuv bilan CHotqol suvlari qo`shilgan burchakda bir mulla o`tirgan ekan, shuning uchun ham Burchmulla, ya`ni mullaning burchi (burchagi) deb atalgan, deyishadi. Aslida bu nomning «mulla» so`ziga hech qanday aloqasi yo`q. Ikkala so`z —mulla, burch (burj) so`zlari ham minora degan ma`noni anglatadi.

Gazarma — Toshkent viloyat Burchmulla yaqinidagi qishloq (joy). XX asr boshlarida bu erda mis koni ishga tushirilib, konda ishlaydigan rus soldatlari uchun Piskom tizmasi yonbag`irlarida Ko`ksuvdan ancha balandlikda kazarmalar qurilgan. Keyinchalik kon ishlatilmay qoladi, lekin kazarma so`zi Gazarma shaklida joy nomi sifatida saqlanib qolgan.

Degrezlik — Toshkentning qadimgi mahallalaridan biri. Bozorga yaqin, Xadra maydonida joylashgan. Toshkent qayta qurilgandan keyin Degrez mahallasining ko`p qismi buzilib ketdi. Bu erda hozir fontan, tsirk va bir qancha imoratlar qurilib ketgan. Deg(dek) qozon, degrez — qozon quyuvchilar, cho`yan quyuvchi degan so`z. Mahalla aholisining asosiy kasbi cho`yan, jez, abjush — etti qotishma quyish bo`lgan.

Oqtepa — bu so`z «dehqon» so`zi bilan bevosita aloqador. Dehqon atamasi V — VI asrlarda paydo bo`lgan. Dehqon ilk o`rta asrlarda yirik er egasi bo`lgan. Bu tabaqa to XI — XII asrlargacha mamlakatda hukmron sinf bo`lib kelgan. XII asrdan so`ng dehqon atamasi oddiy qishloq mehnatkashlari, degan ma`noni oladi. Odatda feodal dehqonlar to`g`on boshida, atrofi devor va handaqlar bilan to`silgan mustahkam qo`rg`onlarda yashaganlar. Bunday qo`rg`onlar davrlar o`tishi bilan vayron bo`lib, xarobalarga aylanib qolgan. Bu xarobalar hozirgi vaqtda «oqtepalar» deb yuritiladi. Masalan, Toshkent shaharida mana shunday 8 ta Oqtepa mavjud.

**Do`rmon** — Do`rmon, Do`rmoncha, YUqori DO`rmon degan nomlar Toshkent voxasida juda ko`p uchraydi. Bu so`z Mo`g`ul urug`laridan birining nomi bo`lib, ma`nosi Mo`g`ul tilida «to`rt» demakdir. Bu so`zni ba`zi kishilarning, olimlarning afsonaviy qahramon Durmon bahodir nomidan olingan deyishlari to`g`ri emasdir.

Jahonobod — Toshkent viloyati Qibray rayonidagi bir qishloq. Ilgarigi nomi Nanay. 1966 yilda O`zbekistonda yangi hokimiyatni o`rnatish va mustahkamlash uchun kurashda faol ishtirok etgan Jahon Obidova nomiga qo`yilgan.

No`g`ayqo`rg`on — Toshkent shahridan oqib o`tgan Solorning Jo`n ariqqa quyiladigan joy atrofida o`rnashgan qishloq. Hozir shahar hududiga qo`shilib ketgan. Bu erda dastlab no`g`aylar kelib o`rnashgani uchun shunday nom olgan. O`tgan asrning boshlarida Toshkent Qo`qon xonligi tarafidan bosib olingandan keyin Toshkentga ko`chib kelgan tatarlarga joy beriladi. Qo`qon xoni Madalixon yoki Muhammadalixon (1822 — 1842 yy.), g`arbda Jo`yi tarxon (hozirgi Darhon) arig`idan sharqda to Qorasuvgacha, undan janubda Sovuq-buloqqacha, shimolda Solor arig`igacha bo`lgan erlarni tatarlarga in`om etib, oliq-soliqlardan ozod qiladi.

Obdon — Toshkent viloyati Pskent xududidagi tog`. Tojikcha — ob va don so`zlaridan olingan bo`lib, «suvxona», suv ko`p joy ma`nosini bildiradi. Suv inshooti, sardobaning kichikroq turi ham obdon (ovdan) deyiladi. O`rta Osiyo va Ozarbayjonda obdon inshootlari ko`p bo`lgan.

Pasra — (fasra). Toshkentning SHayxontahur dahasidagi mahallalardan birining nomi (shahar tashqarisidagi ekin joyi). Solor arig`ining chap sohilida CHirchiqqa ketadigan temir yo`l yonida bo`lgan kichik ekin maydoni. Ozroq ekin ekib olish pasra deyilgan. Ba`zan tomorqani ham pasra deyishadi. Qashqadaryo viloyati, YAKkabog` rayonida hdm Pasra nomli qishloq bor.

Rudak — Toshkent shahrining oltin kamari, deyarli shaharni oralab o'tuvchi Solor arig'ining eski nomi. Rud — fors-tojik tilida «katta ariq» degan so'z. Ba'zan daryo ham rud deyiladi. Bu atama eski asarlarda, jumladan «Boburnoma»da uchraydi. Rudxona so'zlari ham shu atamadan olingan. Rudxona — daryo o'zani. YA. G'. G'ulomovning ma'lumotlariga qaraganda, Xorazmda rudxona atamasi ishlatilgan. SHunday qilib, Rudak nomining birinchi qismi, ya'ni Rud «ariq» suv degan so'z, «ak» esa toponim yasovchi affiksdir. Buyuk tojik shoiri Rudakiy tug'ilgan qishloq ham shu nom bilan ataladi.

Sarog'och — (Sariog'och) — Toshkent yaqinidagi qishloq. Qozoqlar Sarmagash, ya'ni «sariq daraxt» ham deyishadi. Sariog'och toponimi qurib, sarg'ayib borayotgan daraxt (O'simlik) nomidan kelib chiqqan.

Teyit — YUqori CHirchiq rayonidagi qishloq. Teyit so'zi qirg'iz — qipchoqlar urug'ining nomi. Andijon viloyati Xo'jaobod rayonidagi Qorateyit, Teyit, Sariteyit qishloqlarining nomi ham ana shu etnonimlar bilan bog'liqdir.

Turkman — Toshkentdagi sobiq «turkman bozori». O'zbekistonda joy nomi bilan uchraydigan etnonim. Ba'zi bировlar (V. G. Mogakova) Samarqand va Buxoro viloyatidagi turkmanlarni turkman millatiga mansub etnik guruh deb hisoblaydilar. K. SHoniyozov esa bu turkmanlar o'zlaricha mustaqil etnik guruh bo'lib, o'zbek millati tarkibiga kiradi, deb hisoblaydi.

Xonariq — Toshkent yaqinidagi To'ytepadan boshlanadigan ariq (kanal). Bu ariq o'tgan asrning 40- yillarida Qo'qon xoni Madalixon (Muhammadalixon) davrida qazilgan va xon sharafiga shunday nom berilgan.

CHotqol — CHirchiq daryosining bosh irmoqlaridan biri. Talas Olatovlaridan boshlanadi. CHotqol qadimgi fors-tojik tilida «qayin» demakdir. CHotqol daryosi bo'yida tojiklar yashaydi, shuning uchun shu nom bilan ataladi. O'simlik va hayvonlarning eski nomlari hech qanday qo'shimchasiz ham toponim shaklida uchraydi (So'kso'k, Do'lta, Qo'lon va hokazolar).

Paxta mahallasi — Toshkent shahridagi mahallaning nomi. Paxta mahallasi deyilishiga sabab, hozirgi mahalla o'rnida paxta zavodi bo'lgan. Bu joylar allaqachon Toshkent shahriga qo'shilib ketgan va yangi imoratlar qurilib, katta bir mahalla tashkil topgan. Mahalla hozir ham Paxta mahallasi deb yuritiladi.

Qashqar — Toshkent shahar mahallalaridan biri. Bu joyni o'tgan asrning 40- yillarida SHarqiy Turkistondan qochib kelgan qashqarliklar obod qilgan. Manjurlardan engilib qaytgan Qo'qon xoni Madalixon bilan birga kelishgan. Ular Qo'qon xonligining Toshkentdagi tayanchi hisoblangan. Keyinchalik Oqqo'rg'on darvozasi ham Qashqar darvozasi nomini olgan. Qashqar mahallasi 1966 yilgi Toshkent zilzilasidan eng ko'p zarar ko'rgan joylardan biri bo'ldi. Hozir bu erda ko'p qavatli zamonaviy binolar qad ko'targan.

Qurama — Toshkent viloyatidagi tog' va qishloqning nomi. Qurama so'zi va quramalarining kelib chiqishi masalasini professor V. V. Reshetov ancha batafsil yoritib bergan. Qurama haqiqatan ham «aralash — quralash» degan so'zdir. V. V. Reshetov bir qancha lingvistik, tarixiy dalillardan, vaqf hujjatlaridan foydalanadi. Xo'ja Ahrorning vaqf hujjatlarida (hijriy 860 y.) qurama degan joy nomlari tilga olinadi. Demak, qurama degan so'z va qurama xalqi XV asrdayoq mavjud bo'lgan. V. V. Reshetov quramalar Ohangaroi vohasiga kelib o'rnatilgan davrda tarkib topgan, ular turkiy, Mo'g'ul va boshqa elatlarning chatishib ketishidan vujudga kelgan, XV — XVI asrlarda esa quramalarga so'nggi marta ko'chmanchi o'zbeklar, undan keyin esa qozoqlar kelib qo'shilgan, degan xulosa chiqaradi. Ohangaron vohasidan boshqa erlarda ham quramalar bo'lgan. V. V. Reshetovning yozishicha, Toshkent bilan Xo'jand orasidagi xalqlar qurama deb atalgan. Karki shahri xalqi ham qurama deyilgan. Arkin urug'ining ma'nosi ham aslida qurama degan so'zni anglatadi. Samarqand viloyatining Xatirchi rayonida, Andijon viloyatining Jalolquduq rayonida Qurama degan qishloqlar bor.

Qurbaqaobod - Toshkentning shimoli-g'arbidagi guzar-mahalla. N. G. Mallitskiyning ma'lumotlariga ko'ra, bu joy zah sizot bo'lganligidan qurbaqalar ko'p bo'lib, Qurbaqaobod degan kulgili nom olgan. Hozir bu joyga eng zamonaviy binolar qurilib, Birlik dahasi deb nom berilgan.

Baytqo'rg'on — Qibray rayonidagi qishloq. CHirchiq daryosining o'ng qirg'og'iga joylashgan. Keksalarning so'zlariga qaraganda, qishloq atrofi qamishzor va to'qayzorlardan iborat bo'lib, faqat bu erda Baytiboy degan bir qozoq boyning qo'rg'oni bo'lgan. Keyinchalik Qibray va Toshkentdan dehqonlar ko'chib kelishib, uylar solishib, u erni obod qilishgan va Baytiboy nomi bilan Baytqo'rg'on bo'lib qolgan deyishadi. Ayrimlari Baytqo'rg'onga shahardan olimlar kelib, g'azalxonlik, ya'ni baytxonlik qilishgan, shuning uchun shunday nom berishgan deyishadi.

YUnusobod — Toshkent shahrining yangi dahalaridan biri. Bu joy 1917 yildan keyin tashkil topgan. Usha qishloqni barpo qilishda ishtirok etgan keksa kosib Abdulla ota Nu'monov va o'tkir ota Hoshimovlar 1919 yilda taxtapullik kosib YUnus ismli kishi o'sha joyda chayla qurib, atrofidagi bo'sh yotgan erlarni o'zlashtirib olgan. Keyinchalik ko'pgina taxtapullik kishilar qatori biz ham ko'chib kelganmiz va yangi er ochib dehqonchilik qilganmiz, deyдилar. O'shalarining aytishlaricha, birinchi bo'lib qo'riq er ochgan YUnus akaning nomi bilan YUnusobod bo'lib qolgan. B. A. Ahmedovning fikricha 1784 yili Toshkent hokimi YUnusxo'ja bu joylarni obod qilganligi sababli, uning nomi bilan YUnus obod deb atalgan.

YAlang'och — Toshkent shahridagi qishloqlardan biri. Hozir bu erlar Toshkent agrar dorilfununi va bir qator zamonaviy binolar qurilgan obod joylardan biri. Bu nomning kelib chiqishi haqida keksalar shunday deyдилar: «Ilgarilari bu erda na daraxt, na bir odam yashagan, shuning uchun bu erni yalang'och, ya'ni hech narsa yo'q» ma'nosida ishlatganlar, ba'zilar bu erda bir odam yashagan, u kiyimsiz, yalang'och yurgan, hatto yoz oylarida ham o't (olov) yoqib isinib o'tirgan, uni odamlar yalang'och devona yoki yalang'och eshon ham deyishar edilar, asta-sekin devona so'zi tushirib qoldirilib, yalang'och bo'lib qolgan deyishadi.

Qonqus — Toshkent shaxrini oralab o'tuvchi Anhor o'z suvini hozirgi kunda ham ikkiga, ya'ni «Qonqus» va «CHala» ariqlariga bo'lib beradi. Qonqus arig'ining nomi bilan ataluvchi qishloq hozirgi Zangiota rayonidagi kolxozning idorasi joylashgan hududni o'z ichiga oladi. Qishloq tarixi shunday hikoya bilan boshlanadi: «Qadim zamonlarda shu qishloqda yalang oyoq, yozin-qishin bir xil qiyinchilikda yashaydigan bir kambag'al bi-rovlarning erida ketmon chopib, tirikchilik qilgan. Kunlardan bir kuni qishloq oqsoqollari kel, shu bechora kambag'al ham bir parcha eriga ega bo'lsin, umid bilan oramizda katta bo'ldi-ku deyдилarda, qishloqning bir chetidan qo'riq er beradilar. Bundan yigitning boshi osmonga etadi. Biroq erni ishlashga hech narsasi yo'q, hamyoni quruq bu yigit shaharga tushib ikki yil mardikorlik qiladi, choyxonada choy tashiydi, Nihoyat, 5 — 10 tanga pul topib beliga tugib, ikki qop qattiq nonni elkasiga ortib, qishlog'iga keladi va erga mehr bilan qaraydi, qish va yoz demay ishlaydi, ariq qaziydi, lekin yigitning eriga suv bermayдилar, har kim kambag'alning suvini yo'ldan to'sib, o'z erlarini sug'oraveradi. Baxor o'tib yoz keladi, hamma erlar ko'm-ko'k, lekin yigitning eri qaqrab yotadi. Yigit eriga zo'rg'a suv olib keladi, yil bo'yi ariq qazib, bir ho'plam suv uchun yurak bag'ri ezilgan yigitning eriga tasodifan silqindi paynak suv etib borib qoladi. Fig'oni falakka ko'tarilgan yigit: «xudoga shukur, erimga suv keldi, mehnat suvimdan bir ho'play» deb qorni bilan erga yotadi. Issiq kunda entikib, lablari qaqragan yigitning chanqoqligidan lablari loy suvga tegadi-yu, yigit og'zidan laxta-laxta qon ketib, shu ondayoq jon beradi». SHu suv uchun qon qusib, jon bergan yigitning voqeasidan so'ng bu qishloqning nomi Qonqus bo'lib qolgan ham deyishadi. Faqat bugina emas butun Qonqus arig'idan suv ichuvchi mehnatkashlarning 1917 yilga qadar umumiy suv va sug'orish uchun tortgan azob-uqubatlari yigit tortgan azob-uqubatlardan qolishmas edi. Qonqus qishlog'ida istiqomat qiluvchi 1903 yilda tug'ilgan Xolmat ota Rahimovning hikoyasi ham diqqatga sazovor. «Rahmatli otam vafot etganda men 12 yoshli bola edim. Bu voqea 1915 yilning ko'klamida sodir bo'ldi. Otam Rahim CHO'ng'aeв degan boyning erida korandachilik qilib, tirikchilik o'tkazar edi. Otam ekin ekadigan boyning eri ham shu Qonqus arig'idan suv ichar edi. Erni sug'orish maqsadida otam uydан ertalab chiqib ketadilar. U endigina Qonqus arig'idan o'z ekiniga suv ochadigan ariq boshiga borib, suvga tushib ariqqa suv ochayotganida Zangi ota volostining mingboshisi Burxonboy kelib qolib, ha nega so'roqsiz suv ochding yalangoyoq, deb haqorat qila boshlaydi. Otam indamaydi. Nega indamaysan, karquloq, deb otdan tushib, otamni qamchi bilan qattiq savalaydi. Mingboshi

qo'ldan otamni ajratib ololmaydilar, mingboshi ketgach, otam kaltak zarbidan bir necha kun o'tgach vafot etadi» deydi. Xulosa qilib aytganda, bu ariqdan erlarni sug'orish shunchalik qiyin bo'lganki, undan suv olib kelib mehnatkash dehqonlar o'z ekinlarini sug'orguncha qon qusib yuborganlar. SHu boisdan ham mehnat ahli bu ariqqa Qonqus deb nom berganlar. Aslida qonqus so'zi qishloq arig'i degan ma'noni bildiradi. Masalan: Ugom, CHotqol, Pskom so'zlaridagi gom, qol, kom — qo'shimchasi suv degan ma'noni ifodalaydi. Demak, Qonqusdagi qon so'zi — suv, qus — so'zi esa qishloq degan ma'noni bildiradi.

CHalaariq — bu ariq ham Anhordan suv oladi. CHalaariq tarixi ham Qonqus tarixiga o'xshaydi. Bu ariqdan suv ichuvchi dehqonlar to 1917 yilgacha o'z ekinlarini to'liq sug'organlarini bilmaydilar. CHunki ariq boshi shaxarga yaqin edi. Ariq boshida boylar va amaldorlarning eri bor edi. Ular o'zlari turgan joyning atrofidagi qo'riq erlarni ham o'zlashtirib olganlarida ariqdagi barcha suvni o'zlariniki qilib olganlar va ariq oxiridagilar bilan hisoblashmaganlar. Natijada bu ariqdan suv ichuvchi boshqa dehqonlarga suv etmas edi. Suv boshida Do'simboy hoji degan boyning eri bo'lib, hamma suvni o'z eriga ochib oladi. Natijada bu ariqdan suv ichuvchilarning eri chala sug'orilar edi. SHuning uchun bu ariqqa CHalaariq deb nom berilgan.

Qoraqalpoq arig'i — YOllanma qishlog'i va CHinoz xududlarini suv bilan ta'minlovchi ariqning nomi. Bu nomning kelib chiqishi haqida qiziq rivoyatlar bor. Biz ulardan eng e'tiborlisini keltiramiz. SHu qishloqda o'sib ulg'aygan 1880 yilda tug'ilgan Muhammad ota Xidirov shunday hikoya qiladi: «Utmishda deyarli CHinoz, YOllanma qishloq hududida Bo'zsuvning o'ng va chap sohillariga suv chiqarish juda qiyin bo'lgan. SHu sababdan qishloq ahli ariq qazib suv chiqarishni orzu qilib yurgan. Bo'zsuv arig'i er sathidan ancha pastda bo'lganligi sababli erli xalq qancha urinsa ham Bo'zsuvdan yuqoriga suv chiqara olmaganlar. YUrt kattalari endi qanday qilib suv chiqaramiz, deb o'ylanib turganlarida oralarida paydo bo'lib qolgan bir cho'qqi qora telpak kiygan qoraqalpoq yigit ot minib olib, qalin yoqqan qor tepasidan iz solib beribdi. Ariq qazishga kelgan dehqonlar uning oti izidan ariq qaziy boshlabdilar. Nihoyat, suv ariq bo'ylab oqibdi va ariqqa iz solib bergan yigit qoraqalpoq bo'lganligi uchun shu yigitning millatini ulug'lab, ariqqa Qoraqalpoq deb nom qo'yishgan deyishadi. Boshqa birovlar bu ariqni qazishda juda ko'p qoraqalpoqliklar qatnashgan, ariq qazib tugatilgach, ularni qaygadir olib ketishgan, shu sababli ariqni qoraqalpoqliklar qazigan deb shu nom berilgan deyishadi. B. A. Ahmedovning ta'kidlashicha XVI asrda Sirdaryoda istiqomat qilayotgan Qoraqalpoqlarga ma'lum miqdorda taalluqli bo'lganligi sababli Qoraqalpoq nomini olgan bo'lsa kerak.

Qo'riq — YAngiyo'l rayonidagi Tursunqulov nomli kolxoz hududida joylashgan qishloqning eski nomi. U qishloqda qozoqlar yashagan. Ularning erlari juda hosildor bo'lgan. «Tosh eksang qo'karaman, deydi, biroq euv yo'q. Suv bo'lsa, qishloqlar guliston bo'ladi». el urug'lari shu haqda o'ylab, Bo'zsuvdan suv olib chiqish fikriga tushadilar. Ular to'planishib pul yig'adilar va 1904 yilda Toshkent general-gubernatori nomiga ariza yozadilar: «Podsholiq shu ishga 2000 so'mlik qarz bersin, ikki yilda to'laymiz» — deydilar. Arizadan darak bo'lmaydi, 1905 yilda yana katta pul to'lab Oqqodsho Nikolay nomiga ariza yozadilar. Oylar, yillar o'tadi, undan ham javob kelmaydi. SHundan so'ng qishloq yigitlari to'planishib, «ko'kragimizda yolimiz, bilagimizda kuchimiz bor. Ularning yordamisiz ham o'zimiz ariqni qaziyimiz» — deydilar. YUrt boshliqlari bu tashabbusni olqishlaydilar. Pastdan yuqoriga suv chiqarmoqchi bo'ladilar. Oqsoqollar maslaxati bilan er ostidan suv olib kelmoqchi bo'lib, har 15 — 20 metr joydan quduq qaziydilar. Er ostida bu quduqlarni bir-biriga bog'laydilar. Oylar, yillar va og'ir azobli kunlar birin-ketin o'tadi, azamatlar o'z ishlarida oxiriga qadar izchil turadilar. Biroq ochlik kuchayadi, qishloq xalqi bor bisotini, ko'rpa-to'shagini, hatto bo'yrasigacha sotadilar. Ketmon chopgan azamatlar, er bag'rini tilib turgan qahramon yigitlarning ancha qismi ochlikdan qirilib keta boshlaydi, qolganlarini esa quduq bosib o'ldiradi. Xay attang mehnatimiz shamolga sovirildi, bir tomchi suv deb, ming qatra qonimiz qurbon bo'ldi, azamat yigitlardan ayrildik, deb nadomat chekishadi chollar. Qo'riq qishlog'i suvsizlikdan xarob bo'ladi, xalqi bitadi, lekin ular qazigan quduqlari o'tmishdan alamli bir yodgorlik bo'lib, ayrimlarining izi hozirgacha saqlanib kelmoqda.

**Bo`stonliq** — Toshkent viloyatidagi qishloq. Bo`stonliq «bog`-rog`» ma`nosidagi bo`ston so`zidan ko`ra bo`ston (bo`zto`nli) degan urug` nomi bilan atalgan deyish to`g`riroqdir. SHu rayonda CHimboylik degan qishloq ham bor (CHimboy — urug` nomi) — lik, — lig affiksi kishilarning qaysi qabila-urug`dan ekanini ham ko`rsatadi: masalan, ming qabilasidan bo`lgan kishilar minglik deb atalgan.

Zarkent — Toshkent viloyatidagi qishloqlardan biri. V. V. Bartol'd arab geograflaridan Muqaddasiy asarlarida SHosh viloyatida qayd qilingan Zarankatu qishlog`ini hozirgi Zarkent bo`lsa kerak, deb taxmin qiladi. Zar «oltin» bo`lsa, zer, zerin «quyi», «etak» demakdir. Zerinkat bo`lganda «Pastdagi qishloq», «Tog` etagidagi qishloq» deyish mumkin edi.

**Qo`yliq** — Toshkent shahrining chekkasidagi joy. Professor H. H. Hasanov Qo`yliqni «Quyilik», «pastlik»deb izohlaydi. YAna shuni aytish kerakki, DO`rmon urug`ining bir shoxobchasi «qo`yli» deb atalgan Qo`yli Qo`yliq bo`lib ketgan bo`lishi mumkin. Bundan tashqari, Mo`g`ul sarkardalaridan birining ismi Qo`yliq bo`lgan. Mo`g`ul sarkardalarining nomlari O`rta Osiyo toponimiya-sida anchagina saqlanib qolgan. Bundan tashqari, o`sha sarkarda Qo`yliq Toshkentga ham kelgan.

Ohangaron daryosi — Sirdaryoning o`ng irmog`i. Mo`g`ullar kelmasdan oldingi manbalarda Iloq daryosi deb atalgan. Daryo vodiysida temirchilik rivojlangani uchun daryoni Ohangaron, ya`ni «Temirchylar daryosi» deb ataganlar.

**To`ytepa** — bu nomning negizida to`y ma`nosi yotishi munozara qilinishi mumkin. Turgan gapki, bu nomning to`y (svad`ba), to`yko`l so`zlariga dahli yo`q Dori o`t va kulollar ishlatadigan sopol idishlar yasash uchun ishlatadigan loy ham to`y deyiladi. Sopol yasaydigan tuproqni «gil» deb izoxlashga bir qadar asos bor. Ammo Mahmud Koshg`ariyning asarida boshqacha izoh beriladi:

«To`y — askarlarning turar joyi. Xon to`yixon askargohi». SHunga asoslanib, To`ytepa — «qal`atepa», «qo`rg`ontepa», «lashkartepa» ma`nosida bo`lishi ham ehtimol.

Toshkent shahrida bir qator qadimgi me`morchilik obidalari mavjud. Bulardan biri — Abdulqosim shayx madrasasidir. Bu madrasa Abdulqosim eshon, Qoraxon eshon, Ma`dixon qozi madrasasi ham deb atalgan.. O`rta Osiyo me`morchiligi asosida XIX asrda o`sha davr an`analari bilan qurilgan tarixiy yodgorlikdir. O`ziga tutashgan masjid va hammom bilan birga qadimgi Beshyog`och dahasidagi mahalla guzarini tashkil qilgan. Dastlab madrasa bir qavatli bo`lgan. 1864 yili hovli qismida ikkinchi qavati qurilgan. Binoni bezashda asosiy e`tibor bosh fasadga qaratilgan. U chorsi pishiq g`ishtdan ikki qavatli qilib, sharqqa qaratib qurilgan. Bosh fasadni bezash maqsadida uning ikki yoniga bir xil ravoqlar ishlangan. Bosh fasadning o`rta qismida madrasa devori sirtidan 1,82 m. bo`rttirib chiqarib, balandligi 16 m. li peshtoq ishlangan. Uning ikki yonida guldasta minora qad ko`tarib, ularning tepa qismida XVI — XVII asrga xos mezana bor. Peshtoqning old va yon tomonlari to`daxana asosigacha va devorning kungurador qismi chorsi pishiq g`ishtdan tekis qilib ishlab chiqilgan, uning yuqori qismi esa sharafa hamda kitoba bilan bezatilgan. Ko`kaldosh madrasasi singari bunda ham darvozadan kiraverishdagi chap tomonda darsxona, o`ngda masjid, to`rida xonaqoh «Mo`yi muborak» — deb ataladi. Bu bino madrasadan ilgari 1820 yili qurilgan. Darsxona va masjid tomlari o`zaro kesishadigan ravoqlar ustiga gumbaz qilib qurilgan. Hovlining tarxi — chorsi 28X22 m. Kompleksiga kirgan masjid keyinchalik buzilib ketgan. Madrasa 1983 yili ta`mir qilingan. Uning binosidan qadimgi yodgorliklarni targ`ib qilish uyi sifatida foydalaniladi.

Anbar bibi maqbarasi

Bu maqbara Zangiota qabristonida joylashgan bo`lib XIV asr oxiri — XV asr boshlarida qurilgan noyob me`morchilik yodgorligidir. Rivoyatlarga qaraganda Zangiotaning xotini Anbar bibi (Qambar ona) qabri ustiga qurilgan. Zangiota maqbarasining janubi-g`arbida joylashgan. Anbar bibi maqbarasi peshtoq, ziyoratxona hamda go`rxonadan iborat. Ziyoratxona va Go`rxonaning usti qo`sh gumbazli. Go`rxonaga oq marmardan qabr toshi qo`yilgan. Uning tevarak sirtiga arabiy xatlar va nafis girix naqshlar o`yilgan. Maqbara dastlab 2 xonali bo`lgan, keyinchalik uning oldiga peshtoq qurilib, koshinlar bilan bezatilgan.

Baroqxon madrasasi (XVI asr)

Bu yodgorlik Zarqaynar ko'chasida qurilgan bo'lib, bir necha imoratlardan iborat. Dastlab binoning sharqiy burchagidagi mo'jaz maqbara (kimga mansub ekanligi noma'lum) qurilgan. SO'ng 1530 yili shayboniylar sulolasining Toshkentdagi hokimi Suyunchxo'jaxon (1525 yili vafat etgan) maqbarasi qad ko'targan. Bu maqbara hovli to'ridagi peshtoqli xonaqoxdan iborat. Qo'shqavat gumbazi bo'lgan. Tashqi — ko'k gumbaz (moviy rang koshin bilan qoplanganligi uchun shunday atalgan) 1868 yilgi zilzila natijasida buzilib ketgan. Baroqxon madrasasi memorial kompleksining 3- bosqichini XVI asr o'rtalarida Baroqxon qurdirgan.

Jome' masjidi

Bu bino Uyg'ur ko'chasi Haqiqat tor ko'chasi 22- uyda joylashgan. Bu arxitektura yodgorligi XV — XIX asrlarda bunyod etilgan. Jome masjidini 1451 yilda Xo'ja Axror Vale qurdirgan. CHorsuda shakllashgan Registon ansambli tarkibiga kirgan. Unda juma va hayit nomozlari, hutbalar o'qilgan. SHarq tomonidagi bezaksiz darvozadan kirilgan. Hovlining ikki yoni bir qavatli, old tomoni rovoqsimon ayvonlardan iborat, XVIII asrda hovli atrofidagi ayvonlar buzilib ketgan, keyin hujralarga aylantirilib, qayta tiklangan, 1886 — 88 yillarda asosiy bino (xonakoh) ham qayta tiklangan.

Zangiota kompleksi

Toshkentdan 16 km janubda XIV asr oxiri va XX asr boshlarigacha qurilgan bu noyob kompleks o'z nomi bilan mashhur. So'fiylik targ'ibotchisi shayx Oyxo'ja ibn Tojxo'ja sharafiga shunday atalgan. Bu maqbarani Amir Temur qurdirganligi haqida bir qator rivoyat va afsonalar bor.

XVI asrning 60- yillarida qurilgan yodgorlikdir. SHaharning eng yirik qadimiy inshootlaridan biri bo'lib, uni Toshkent xonlaridan birining vaziri Ko'kaldosh qurdirgan. Madrasa o'rta asr shahristonining janubiy chekkasida qurilgan. Hozirgi ko'cha o'rni esa xandak bo'lgan. Binoni qurishda an'anaviy kompozitsiyaga rioya qilingan: chorsi hovlisi keng, xujralar va ochiq ayvonlar bilan o'ralgan. Hovlining P — simon yo'llari hujra (darsxona) larni masjid bilan ulaydi. Hujralar soni 38 ta bo'lgan. Madrasa dastlab uch qavatli bo'lgan. Bosh fasadi janubga qaragan. Darvozadan kiraverishda chapda masjid, o'ngda darsxonalar joylashgan. Masjid va darsxonalarning usti o'zaro kesishgan ravoqlar ustiga o'rnatilgan gumbazlardan iborat. Miyonsaroy (vestibul') etti gumbazli. Me'morlar madrasani bezashda asosan binoning old tomoniga e'tibor berishgan. Sirkor parchin va girix naqshlar bilan bezatilgan hashamatli peshtoqning ikki yoniga ikki qavatli ravoq ishlangan. Ikkinchi qavatdagi hujralar faqat peshtoq ikki yonidagina saqlangan. Old tomonining chekka burchaklari baland guldastalar bilan tugallangan. Guldastalar ustida minorachalar bo'lgan. XVIII asr oxirida madrasa qarovsiz holga kelib qolgan va karvonsaroy sifatida foydalanilgan. Ko'kaldosh madrasasining 1866 va 1886 yilgi zilzilalardan zararlangan peshtog'i qayta tiklangan. 1946 yilgi zilziladan ham qattiq shikastlangan. Madrasa so'nggi marta 1930—1960 yillarda butunlay qayta ta'mirlangan. Minoralarining balandligi 2- qavat bilan deyarli baravarlashtirilgan. Zamonlar o'tib bir necha bor ta'mirlanishi natijasida madrasaning tashqi ko'rinishi o'zgarib ketgan. Madrasaning old tomoniga an'anaviy usulda, zinapoya ishlangan. Ko'kaldosh madrasasi 1991 yildan Movarounnahr musulmonlari Diniy idorasi tasarrufida bo'lib ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

SHayx Zayniddin bobo maqbarasi

1214 yili SHayx Zayniddinga atab solingan yodgorlik Arxeologik tekshirishlarga ko'ra, yodgorlik yonida joy-lashgan chillaxona XII — XIII asrlarga, maqbara o'rnida bo'lgan xonakoh, XIV asrga oid. Maqbara devorlari asosi XVI asrda qurilgan, tepasi va peshtoqi XIX asr oxiri va XX asr boshlaridata'mir qilingan. YOdgorlik peshtoq — gumbazli cho'zinchoq maqbara — xonakohlar tipiga mansub. CHortoq xonakohning to'rt tomonida eshiklar ochilgan. Tashqi gumbaz baland asosga o'rnatilgan. YOG'och darvozaga ustaning nomi — «Mirshaxob Abdumo'min o'gli» o'yib yozilgan. Darvoza tepasidagi deraza o'rnida yog'och panjara saqlanib qolgan. XIII — XIV asrlarda maqbara atrofida qabriston vujudga kelgan.

SHayx Xovand Tohur maqbarasi

Bu nodir maqbara Navoiy shoh ko'chasida joylashgan me'moriy yodgorliklardan biri. Maqbara shayx Umar Bog'istoniyning o'g'li — SHayx Xovand Taxurga atab solingan. XV asrda

yashagan nufuzli ruhoniy Xo`ja Axror SHayx Xovond Tahurning avlodi bo`lgan. Mavjud yodgorlik **XV** asrga oid ko`hna maqbara poydevori ustiga **XVIII** — **XIX** asrlarda qurilgan; bunda Movarounnahrda **XIV** asr oxiridan rivojlangan ikki xonali bo`ylama maqbara — kompleks tarxlari saqlab qolingan. G`arbdan sharqqa yo`nalgan o`q bo`ylab bino yuzasidan sal chiqib turuvchi kichik peshtoq, ziyoratxona, so`ng go`rxona joylashgan. Xonalar gumbazlar bilan yopilgan; go`rxona gumbazi qo`shqavat bo`lib, 12 qirrali asosga o`rnatilgan; ziyoratxona me`morchiligi o`ziga xos xonakoh bo`lib, sakkiz ravoqdan iborat. Darchalardagi koshinkor panjaralar saqlanib qolgan. Maqbara yupqa chorsi pishiq g`ishtdan terilgan.

Qaldirg`ochbiy maqbarasi

BO` maqbara **XV** asrning 1- yarmida qurilgan me`morchilik yodgorligi bo`lib, SHayx Xovandi Taxur maqbarasidan shimolroqda. Maqbarani kim qurganligi va unga kim dafn qilinganligi noma`lum. Rivoyatga ko`ra, bu erga Qaldirg`ochbiy ismli nufuzli a`yon, boshqa bir rivoyatda Qaldirg`ochbibi ismli kifchoq malikasi dafn etilgan. Maqbaraga janubiy tomondagi peshtoqsiz taxmonsimon ravoqdan kiriladi. Xona chortoq bo`lib, to`rt tomonidagi taxmonlar orasida kichik hujralar va g`ishtdan ishlangan aylanma zina joylashgan. Beshta ravoq gajaklari pastak, bu uslub Toshkent maqbaralariga xos. Maqbara devorlari to`rtburchak pishiq g`ishtdan terilgan. Maqbaraning 12 qirrali tashqi gumbazi 1970 yilga ta`mir qilingan.

Kaffoli SHoshiy maqbarasi

Bu me`moriy obyda Zarqaynar ko`chasida Hazrati Imom (Xastimom) nomi bilan mashhur bo`lgan imom Abu Bakir Muxdmmad ibn Ali ibn Ismoil al-Kaffol ash-SHoshiyga atab qurilgan. Dastlabki maqbara saqlanmagan. Kaffol SHoshiy maqbarasi me`mor G`ulom Husayn tomonidan 1541 — 1542 yillarda qurilgan. eshik tepasidagi kitoba va gumbazning pastki qismidagi yozuvlar saqlangan. Maqbara tarxi chortoq bo`lib, o`rtadagi katta xona qo`sh qavat gumbaz bilan yopilgan. Maqbara burchaklarida ikki va uch qavatli sakkiz yoqli va to`rtburchak hujralar bor. Katta xonaning uch tomoni peshtoqli Maqbaraning janubiy tomonidan qadimgi qabrli hovliga chiqiladi. Maqbaraning tashqi tomonlari bezaksiz. Maqbara 1960 yilda ta`mirlangan.

Статья V. Hazrat imom kompleksi

O`z davrining o`qimishli kishilaridan biri bo`lgan imom, Abu Bakr Muhdmmad ibn Ali ibn Ismoil al-Kaffol al-SHoshiy (904 — 976)ning qabri asos qilinib bunyod etilgan obida. Qabr va uning atrofida vujudga kelgan qabriston hamda me`morchilik yodgorliklari kompleksi (Kaykovus bog`i bilan birga) Hazrati imom nomi bilan ataladi. Dastlab, **XVI** asrning 30-yillarida ikkita maqbara qurilgan, kattasi Toshkentning shayboniylar sulolasidan bo`lgan Xoni Suyunchxo`jaxon maqbarasi, deb taxmin qilinadi. **XVI** asrning 50- yillarida bu binolar Barakxon madrasasi me`morchilik yodgorliklari tarkibiga qo`shilgan. O`sha davrda Hazrati imom qabri ustida Kaffol SHoshiy maqbarasi buntyod etilgan. **XVI** asr oxirlarida uning qarshisida «Qo`sh» uslubida Kaffol SHoshiyning` avlodi, Boboxoji maqbarasi qurilgan (bu bino 1939 yili buzib tashlangan). **XVI** asrda Xastimom kompleksida sayrg`oh bog` bo`lgan (asriy chynorlar, qayrag`och va boshqa daraxtlar, hovuz va ayvonlar mavjud edi), xalq sayillari o`tkazilgan. **XIX** asr o`rtalarida Barakxon madrasasi ro`parasida Namozgoh, (tillashayx), Mo`yi muborak madrasasi, Jome masjidi (saqlanmagan) qurilgan. **XX** asr boshlarida 6 ustunli 12 gumbazli Tillashayx masjidi qayta qurilgan. Hazrati imom kompleksida Movarounnahr musulmonlari idorasi joylashgan.

SHunday qilib, biz Toshkent shahri va vohasidagi toponimlarni ilmiy asosda, tarixiy hujjatlar, manbalarga suyanib, turli-tuman nomlarning bir guruhininggina tarixini o`rganib chiqishga muvaffaq bo`ldik. Agar sizlar ham o`z jonajon maktabingiz, kolxoz, sovxozingiz, qishloq va rayoningiz hududidagi nomlarning kelib chiqishi bilan qiziqsangiz mana shunday toponimik ma`lumotlarga ega bo`lasiz. Bu esa jonajon o`lka tarixini o`rganishda, uni sevishda, olgan bilimla-ringizni chuqurlashtirish va rivojlantirishda, ijodiy izlanishingizda sizga yaqindan yordam beradi.

3. Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari toponimikasini o`rganish

Darsning maqsadi: o`quvchilarga arablar hukmronligining oxiri va IX asrda Somoniylar davlatining tashkil topishi va bu davlatni boshqarish hamda xo`jaligining yuksalishi, feodal shaharlarning ravnaqi, savdo aloqalarining kengayishi haqida tushuncha beriladi.

**Ko`rgazmali qurollar:** «IX — XI asrlarda O`rta Osiyo kartasi»dan, Muhammad Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asari hamda «Buxoro shahri arxitektura yodgorliklari» ni namoyish qiluvchi rangli rasmlardan foydalaniladi.

YAngi mavzuning rejasi:

- a) arablar hukmronligining ag`darib tashlanishi;
- b) somoniylar davlatining tashkil topishi;
- v) qishloq xo`jaligining yuksalishi;
- g) feodal shaharlarning ravnaq topishi;
- d) savdo aloqalarining kengayishi.

**Dars o`tish uslubi:** o`qituvchi materialni bayon qilishda suhbat usulidan foydalanadi, o`quvchilarni ijodiy izlanishga undaydi, toponimik materallarni topib, ularning ma`nosini mustaqil echishga o`rgatadi.

Suhbat uchun savollar: 1. Arablar hukmronligining qulashiga asosiy sabab nima? 2. Somoniylar davlati qachon tashkil topdi va unga kim asos soldi? 3. Xo`jalikning yuksalishiga nima sabab bo`ldi? Qanday feodal shaharlarni bilasiz?

YAngi mavzuning konspekti. VIII asr oxiri — IX asr boshlarida xalifalik og`ir siyosiy tanglikka uchradi. Bo`ysundirilgan xalqlarni itoatda tutish arab xalifalari uchun tobora qiyin bo`lib qoldi. O`rta Osiyo xalqlarining tez-tez qo`zg`olon ko`tarib turishi, xalifalikning o`z ichidagi feodal urushlar arab xalifaligini zaiflashtirib qo`ydi va mustaqil mahalliy davlatlarning paydo bo`lishiga olib keldi. Xalifaning Xurosondagi noibi Tohir ibn Husayn (u mahalliy oqsuyak er egalari orasidan chiqqan) 821 yilda o`zini mustaqil hokim deb e`lon qildi. SHu tariqa Tohiriylar sulolasi (821 —873) ga asos solindi va bu sulola Xurosonda yarim asrdan ko`proq hukm surdi. Tohiriylar davrida O`rta Osiyoning ayrim viloyatlarini 819 yildan boshlab Somonxonadonining avlodlari — Somoniylar idora qila boshladi. Bir vaqtlar Somoniylar xalifalikka qarshi ko`tarilgan xavfli qo`zg`olonni bartaraf etishda xalifaga yordam bergan edilar, o`sha qo`zg`olon Samarqandda boshlanib, butun O`rta Osiyoga yoyilgan edi.

Tohiriylar sulolasining xalqqa qilgan jabr-zulmi mehnatkashlarni qo`zg`olon ko`tarishga majbur etdi. Qo`zg`olonga shahar hunarmandlaridan misgarlar (safforiylar) boshchilik qildi. 837 yilda Tohiriylar ag`darilib, Xurosonda Safforiylar davlati barpo qilindi. Buxoro Safforiylarga tobe bo`lishni istamadi. U somoniylarga murojaat etib, Buxoroni o`z qo`l ostiga olishni iltimos qildi. Nasr Somoniy 875 yilda ukasi Ismoilni Buxoroga hokim qilib yubordi.

«Ismoil Somoniy butun Movarounnahrni o`z qo`l ostida kuchli davlat qilib birlashtirdi. Xurosondagi Safforiylar davlatiga barham berdi va bu o`lkani o`z davlatiga qo`shib oldi. Ismoil Somoniy zamonida bu davlat har tomonlama kuchaydi. SHunday qilib, IX asr oxirlarida O`rta Osiyo arablar istibdodidan tamoman xalos bo`ldi. Poytaxti Buxoro bo`lgan mustaqil feodal davlat tashkil topdi va bu davlatni Somoniylar sulolasidan bo`lgan amirlar X asrning oxirlariga qadar idora qilib keldi.

Arablar hukmronligi davrida mehnatkash kadovarlarini arablar va mahalliy feodallar talab keldilar. Aholidan turli soliq va jarimalar undirib olish uchun xalq ommasini xonavayron qilindi. SHahdrlar vayron bo`lib, huvillab qoldi. Mamlakat xo`jaligi orqaga ketdi. Xonavayron bo`lgan ming-minglab kadovarlar shaharlarda ish qidirib yurardilar. Lekin mamlakat arab istilochilari hukmronligidan xalos bo`lgandan keyin har holda ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi uchun imkon tug`ildi. YAngi-yangi kanallar, to`g`onlar, suv omborlari qurilib, minglab gektar erlar o`zlashtirildi, mamlakat chegaralari mustahkamlandi, dehqonchilik va hunarmandchilik: degrezlik, miskarlik, temirchilik, kulolchilik, to`qimachilik, shuningdek, konchilik ancha rivojlandi. YAqin SHarq mamlakatlari, Rus davlati, xazarlar, Volgabo`yi bulg`orlari hamda Xitoy bilan savdo-sotiq ishlari olib borildi.

Bu davrda Buxoro, Samarqand, Toshkent, Urganch, Kesh (SHahrisabz), Marv va boshqa shaharlar xo`jalik va madaniyatning yirik markazlariga aylandi. SHahar mahdallalarining

markaziy qismida hukmdorlar xonadoni aʼzolari xamda boy savdogarlar, ruhoniylar va boshqa oqsuyaklar xashamatli hovli-joylar qurdilar, podsholikning qurol-yarogʻ, asbob, egar-jabduq ishlab chiqaradigan maxsus ustaxonalari tashkil topdi. SHaharlarning qiyofasi oʻzgarib bordi: yangi imoratlar, hukumat idoralari, katta ustaxonalar, karvonsaroylar, machit, madrasa va boshqa binolar qurildi. Hunarmandchilik doʻkonlari, savdo rastalari koʻpaya boshladi. SHaharlarga atrof qishloqlardan kosiblar, savdogarlar va boshqalar kelib joylashdi.

Oʻrta asr shaharlari uch qismdan iborat edi: shaxar markazidagi oʻrda (ark), uning tevaragini oʻrab olgan ichki shahar (shahriston) xamda tashqi shahar (rabotlar)dan tashkil topgan edi. Bir qancha rabotlar tez orada kattalashib, obod joyga aylandi. Rabotlarda katta-katta imoratlar qad koʻtardi, bozorlar va hunarmand-kosiblar mahallalari paydo boʻldi. Bu erda zargarlar, sarroflar, toʻquvchilar, kulollar, shishagarlar va boshqa shu singari kosib-hunarmandlarning uylari va doʻkonlari joylashgan edi.

SHaharlar bilan bir qatorda qishloqlar ham mamlakatning iqtisodiy hayotida katta rol oʻynaydigan boʻlib qoldi. Movarounnaxr va Xorazm vohalaridagi koʻpgina qishloqlar toʻqimachilik, kulolchilik miskarlik, duradgorlik va boshqa xil hunarmandchilikda muhim oʻrin egalladilar. CHunonchi, Buxoro viloyatidagi hozirgi Zandona qishlogʻi Somoniylar zamonida «zandonacha» deb atalgan ip gazlamasi bilan Oʻrta Osiyoda va koʻpgina xorijiy mamlakatlarda nom chiqargan edi. Har ikki oʻlkaning, yaʼni Movarounnahr bilan Xorazmning qishloq va shaharlarida sirlangan sopol idishlar, chiroyli va nozik qilib ishlangan shisha idishlar yasaldi.

Mamlakatning iqtisodiy jihatdan rivojlanishi ichki va tashqi savdoning kengayishiga olib keldi. Paxtadan yigirilgan ip va toʻqilgan gazlamalar, kunjut va chigit moyi, mayiz, oʻrik va boshqa quruq mevalar uzoq mamlakatlarga olib ketilar edi. Dashti qipchoq, Janubiy Sibirʼ va Moʻgʻulistondagi koʻchmanchi chorvadorlarga egar-jabduq, kiyim-kechak, oʻq-yoy, qilich, boʻyoq zargarlik buyumlari, dori-darmon, idish-asbob va boshqa narsalarni etkazib berishda Movarounnahr asosiy rol oʻynaydigan boʻldi.

Fargʻonaning hunarmandchilik mahsulotlari — egar-jabduq, kiyim-kechak, shisha va sopolidan yasalgan nozik buyumlar, mevalar va Gʻarb mamlakatlaridan keltiriladigan zeb-ziynat buyumlari, qurol-yarogʻlar oʻsh va oʻzgan shaharlari va togʻ dovonlari orqali Koshgʻarga, undan Xitoyga olib borilardi. Movarounnahr bozorlari orqali YAqin va oʻrta mamlakatlariga ipak, kumush, teri, jun, qoʻy, qoramol, tuya kigiz, asal, turli xil moʻynalar olib borilardi.

Xorazmdan Ustyurt va Dashti qipchoqning gʻarbiy rayonlari orqali Volga boʻyiga, undan Novgorodga boriladigan karvon yoʻlida quduqlar qazilib, har bir bekatda rabotlar bino qilingan edi. Volganing yuqori oqimidagi Bulgʻor va quyi oqimidagi Hazar davlatlariga hamda Rusga Xorazm orqali Oʻrta Osiyodan guruch, quruq meva, paxta va jundan toʻqilgan kiyimlar, shirinliklar, gilam va shu kabi narsalar, Xitoy, Hindiston, eron, Turkiya, Iroq, Afgʻoniston va boshqa mamlakatlardan olib kelinadigan mollar chiqarilar edi. Bulgʻor va Xozar davlatlaridan esa Oʻrta Osiyoga poʻstinbop qimmatbaho terilar, mum, oʻq-yoy, baliq elimi, kastorka moyi, bulgʻori charm, qarchigʻay, qoʻy, sigir, asal, baliq va boshqa mollar olib kelinar edi. Oʻrta Osiyoda ishlangan va chet davlatlardan keltirilgan hunarmandchilik mollarinig koʻp qismi Oʻrta Osiyo shaharlaridagi bozorlarda sotilardi. Savdo muomalasida Tohiriylar va Somoniylarning kumush dirhamlari yuritilar edi.

Somoniylar davrida ariq ochish, suv omborlari va toʻgʻonlar qurish, qalʼalar va mudofaa inshootlari qurish kabi katta qurilishlar avj oldirilishi munosabati bilan mexnatkash aholining ahvoli yanada ogʻirlashdi. Bunday qurilishlarda har xonadondan bir kishi yiliga bir necha oy hasharchi sifatida safarbar etilib, tekinga ishlab berishga majbur edi. Masalan, Buxoro vohasini koʻchmanchi qabilalarning talonchilik xurujlaridan mudofaa etish uchun shu voha atrofi 783 — 831 yillarda baland devor bilan oʻrab olindi. Bu inshoot «Devori kampirak» nomi bilan mashhur boʻlib, qariyb 400 km uzunlikda boʻlgan va uni qurishda koʻp ming hasharchi 49 yil mehnat qilgan. Uning qoldiqlari hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan. SHunga oʻxshash uzun mudofaa devorlari VIII asrda Samarqand va Toshkent vohalarining atrofida ham bino qilingan.

Mehnatkash xalqni shafqatsiz ezish va jabr-zulm oʻtkazish pirovardida xalqning sabr kosasini toʻldirgan. Xalq milliy zulmga chiday olmay gʻalayon koʻtara boshlagan. Masalan, 961

yilda Buxoroda novvoy Abubakir rahbarligida xalq qo'zg'oloni bo'ladi. Bu qo'zg'olonda shaxar kambag'allari bilan birga dehqonlar ham ishtirok etadi. Qo'zg'olonchilar Somoniylar hukmdori amir Abdulmalikning saroyini talab, unga o't qo'yib ketadilar.

Xalq qo'zg'olonlari garchi engilgan bo'lsa xam, lekin mazlum xalqning mustabidlarga qarshi kurashida muhim o'rin tutdi. Bu qo'zg'olonlar feodal tuzum negiziga bolta urdi.

Feodal zulmning kuchayishi, shahar va qishloqlardagi mehnatkash omma turmushining nihoyatda yomonlashuvi mamlakatning iqtisodiy va siyosiy qudratiga putur etkazdi. Davlatning mustahkam emasligi, feodallarning markaziy hokimiyatga qarshi kurash olib borishi natijasida Somoniylar davlati ancha zaiflashdi. Bu davlat Qoraxoniylar qo'li ostida birlashgan ko'chmanchi turkiy qabilalarning zarbasiga bardosh bera olmadi.

Mavzu batafsil bayon qilingach, yangi mavzu bo'yicha o'quvchilarning javoblari umumlashtirilgandan so'ng o'qituvchi ularning diqqatini feodal shaharlar va ular nomlarining kelib chiqish tarixiga jalb etadi. Masalan, «Buxoro shahrining arxitektura yodgorliklari» tarixini quyidagicha bayon etish mumkin:

Buxoro — qadimiy, tarixiy, yodgorliklarga boy shahar. Narshaxiy Buxoroning Numijkat, Bumiskat, Madinat us — Sufriya, ya'ni «Mis shahar», Madinat o't — tujjor, ya'ni «Savdogarlar shahri» degan nomlari borligini aytadi: «Buxoro, — deb davom etadi tarixchi,— degan nom u nomlarning hdmmasidan ma'qulroqdir. Xuroson shaharlaridan birontasi ham bunchalik ko'p nomga ega emas. Bir xddisda Buxoro nomi Foxira bo'lib qolgan. CHunki «Qiyomat» kuni Buxoro shahri o'zida shahidlarning ko'pligi bilan faxr qiladi» (BT, 28-bet). Buxoroning Foxira deyilishi dinga qorilgan afsona, albatta, ikkinchidan, arab grafikasi oqibatidir. Buxoro nomi «Abdullanoma» va boshqa bir qator asarlarda «Vixara» tarzida keltirilib, otashparastlar ibodat qiladigan joy ta'riflanadi. Uning etimologiyasi xam bor.

Xalqda Buxoro — Bog'ora degan rivoyat ham bor. Buxoro so'zining etimologiyasi aniq emas.

Buxoro — sanskritcha vixara so'zidan olingan bo'lib, «ibodatxona» ma'nosini bildiradi, degan fikr bor. V. A. Livshitsning fikricha, vixara so'zi so'g'd tilida parxar shaklida kirgan. Hofizi Tanish Buxoriyning yozishicha, «Buxoro» so'zi buxor so'zidan kelib chiqqan bo'lib, O'tparastlar tilida «ilm makoni» demakdir. Bu talaffuz uyg'ur va xitoy butparastlarining tiliga yaqindir, chunki (ularda) sig'inish joylari bo'lgan ma'budalarni «buxor» deb ataydilar. Buxoro shaxrining nomi aslida Lumijkat bo'lgan (Hofizi Tanish Buxoriy, «Abdullanoma», 1-jild. T., 1966, 273- bet).

Buxorotoponimi yolg'iz emas. XI — XII asrlarda Balx shahri atrofida Navbahor ibodatxonasi bo'lgan. Navbaxor «erta bahor» emas, balki «YAngi ibodatxona» demakdir. Buxoro shahri etimologiyasi bilan Hindistondagi Bixar shtatining etimologiyasi birdir (V. A. Nikonov). V. V. SHostakovich Sibirdagi Buxoro nomli daryoni tilga oladi.

Buxoro yaqinida dul Buxoro (Jul Buxoro) nomli qishloq bo'lgan. Buxoro viloyatlaridan biri Buxorxitfar (Najar — xatfar) deb atalgan. (Buxoro hokimlari «buxorxudot» deyilar edi.) Bekobod yaqinida Buxorolik, Janubiy Uralda Buxorocha degan soy, Qashqadaryo viloyatida (Kitob, G'uzor) Buxor —go'por, Buxori, Xo'jaburxori nomli mahalla, joylar bor. SHunday qilib, Buxoro komponentli toponimlar bir qanchadir. Qadimgi turkiy runik yozuvida (Kulteginga bag'ishlangan yodgorlikda) Vuqarak degan joy nomi uchraydi (Buqaraq so'zi ulis — Buxoro edi). Bu joy nomiga S. E. Malov bemalol Buxoro deb izoh bergan. Akademik B. YA. Vladimirtsov o'sha yodgorlikda So'g'd nomi ham uchrashini aytadi va Buqaraq haqiqatan Buxoro degan so'z bo'lsa, o'yrat (oltoy) qahramonlik eposlarida buxarin cherik, ya'ni «Buxoro qo'shinlari» degan so'zlar uchraydi, deb yozadi (B. YA. Vladimirtsov, «Geograficheskie imena orxonskix nadpisey, soxranivshiesya v mongol'skom», Dokladn Akademii Nauk SSSR, Leningrad, 1929, Dokladn AN SSSR, № 10, 171-bet). Ba'zi bir tadqiqotchilar Buxoro so'zi sanskritcha emas, balki eftalitcha bo'lsa kerak, deb hisoblaydilar. Bunda ular so'g'diy yozma hujjatida Buxoro so'zining bosh harfi «P» bilan yozilganini dalil qilib keltiradilar (V. A. Livshits, K. V. Kaufman, I. M. D'yakonov. «O drevney sogdiyskoy pis'mennosti Buxarn». Vestnik drevney istorii, §- 1, 1954, 150-163-betlar).

Buxoro o'zining ko'p asrlik tarixi mobaynida bir necha bor yuksalish va inqiroz davrlarini boshidan kechirdi, chet el istilochilarining qurboni bo'ldi.

Moddiy madaniyat va san'atning shunchalik xilma-xil va turli davrga oid yodgorliklari to'plangan bunday shaharlar juda oz. SHahar SHarq me'morlari yaratgan nodir arxitektura yodgorliklari bilan butun dunyoga ma'lumdir.

Buxoroning birinchi tarixchilari yozib qoldirgan afsonalardan birida Buxoro qal'asi Siyovush tomonidan qurilgan deb aytiladi. Siyovush qadim zamonlarda ilohiy shaxs sifatida hurmatlangan, keyingi davrlarda yaratilgan she'riy afsonaga ko'ra, eron shohi va turk malikasining farzandi bo'lgan Siyovush Turon shohi Afrosiyob tomonidan o'ldirilgan.

VI asrda shahar, yuqorida ta'kidlanganidek, so'g'dcha nom bilan Numijkat deb atalgan bo'lsa, VII — VIII asrlarda Puxo, Buxo, Buge deb ham nomlangan. VII asrning ikkinchi yarmida arab istilochilari O'rta Osiyoga, shu jumladan, Buxoroga bostirib kira boshlaydilar. Amudaryoni birinchi bo'lib kechib o'tgan Ubaydulla ibn Ziyod 674 yilda Toshkentni egallab, Buxoroga bostirib kiradi. 709 yilda Qutayba ibn Muslimning katta lashkari boy va yaxshi mustahkamlangan Buxoroni egallaydi. O'sha paytgacha shaharning to'rt, keyinchalik ettita darvozasi bo'lgan.

VIII — IX asrlarda Buxoroda katta o'zgarishlar yuz berdi. 849 — 850 yillarda shahar atrofi II darvozali devor bilan o'raldi. IX asrda mahalliy Buxoro boyonlari Ismoil Somoniy (892 — 907) boshchiligida tashabbusni o'z qo'llariga oldilar. Ular nisbatan markazlashgan, amalda xalifalikdan mustaqil bo'lgan feodal davlat tuzdilar. IX — X asrlarda u iqtisodiy va madaniy jihatdan o'rta va YAqin SHarqning asosiy shaharlaridan biriga aylandi.

Bu davrlarda ijod qilgan 30 ga yaqin shoirning nomi tarixda saqlanib qolgan. Abu Abdullo Rudakiy o'sha davrning eng ulug' shoiri bo'lgan. Rudakiyning bizga ma'lum bo'lgan eng ajoyib asarlaridan «SHarob onasi», «Qarilikka qasida» larni tilga olish, qayd etish lozim. O'rta asrning buyuk entsiklopedist olimlaridan biri buxorolik Abu Ali ibn Sino (980—1037 yillar) edi. Ibn Sinoning asosiy asarlari bo'lgan «Tib qonunlari», «SHifo kitobi», «Donishnoma» va b. q. asarlarida uning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari ifoda etilgan.

1220 yilning fevralida Buxoro CHingizxon qo'shinlari tomonidan zabt etildi. 1370 yilda esa Temur imperiyasi tarkibiga kirdi. XIV — XV asrlar mobaynida Buxoro diniy markaz vazifasini bajardi. Ulug'bek tomonidan Buxoroda (1417 yil) va G'ijduvonda (1433 yil) qurilgan madrasalar feodal hukmdorning ruhoniylarga e'tiqodi bilangina emas, balki uning olim sifatida madaniy-ma'rifiy faoliyati bilan ham bog'liqdir.

XVI — XVII asrlarda Buxoro sezilarli darajada gullab-yashnadi. SHahar tubdan qayta qurildi, me'morchilik ansambllari paydo bo'ldi. Bu inshootlarning ko'plari bizning zamonimizgacha saqlanib qolgan. Noyob inshootlar shaharda o'ziga xos me'morchilik maktabi vujudga kelganligidan dalolat beradi. Qoraxoniylar davrida qurilgan Jome' masjidi xarobalari o'rnida Kalon masjidi (1514), uning qarshisida esa Mir Arab madrasasi (1530—1536 yillar). Baland Masjidi va Xo'ja Zayniddin masjidlari barpo etildi. KO'hna Buxoroning eskirib qolgan ko'plab monumental binolari qayta tiklandi va qisman ta'mirlandi. CHSHahar chekkalarida ulkan CHor Bakr ansambli, xovuzlar, sardobalar, ko'priklar, karvonsaroylar va Bahovuddin qishlog'ida maqbaralar qurildi. Qad'a devoridan tashqaridagi Fayzobodda ajoyib xonaqoh (1598—1599 yillar) qurildi. U chiroyli gumbazga, ichki tomoni esa ikki qavat, ganchga o'yilgan go'zal naqshlar bilan bezatilgan.

Buxoro jahondagi eng ko'hna shaharlardan biri. Olimlar taxminida, ayrim yozma manbalarda shaharning «yoshi» har xil ko'rsatilgan edi, ammo O'zbekiston Fanlar akademiyasining Arxeologiya instituti tomonidan tarix fanlari doktori A. R. Muhdmmadjonov boshchiligida olib borilgan arxeologik tekshirishlar natijasida Buxoroning «yoshi» 2300 yil ekanligi aniqlanmoqda.

Buxoro arki — hukumat markazi bo'lib, uning hokimi buxor-xudot deb atalar edi. Narshaxiy o'zidan ancha oldinroq yozilgan manbaga, ya'ni Abdulhasan Nishopuriyning «Xazoyin ul-ulum» («Ilmlar xazinasi») degan asariga asoslanib yozishicha, Buxoro qal'asi juda qadimiy bo'lgan va u tillarda doston bo'lib qolgan Siyovush hamda Afrosiyob zamonlarida

qurilgan. Narshaxiy Siyovush hamda Afrosiyob zamonlarida qurilgan. Narshaxiy Siyovush qo'handizning ichida, uning sharqidagi darvoza yonida ko'milgan, degan afsonani keltiradi. Qo'handiz (qal'a) ning ikkita darvozasi bo'lgan. SHarqdagi darvoza G'o'ryon darvozasi deb, g'arbdagi darvoza Registon maydoniga ochilganligi sababli Registon darvozasi deb atalgan.

Buxoroning rejasiga qaraganda, bizning zamonamizgacha etib kelgan maydoni 34675 kv. metr, aylanasi 780 metr bo'lgan. U 20 metr baland tepalik ustiga qurilgan. Hozir Ark maydoni 4,2 gektar keladi. Uning tik devori pishiq g'isht bilan qoplangan. Ark hamma tomondan qo'rg'on devor bilan gir aylantirib o'rab olingan. Bu devor so'nggi II — III asrda qurilgan. Arablar istilosiga qadar arkda shahar hokimlari — buxor-xudotlar yashaganlar. Somoniylar davrida (IX — X asrlar) Ark qaytadan qurildi hamda devor va mezonlar bilan mustahkamlandi. SHimoli-g'arbiy tomondagi mezonining o'rni hozirgacha saqlangan.

Qoraxoniylar davrida (XI — XII asrlar) va Mo'g'ullar bosqinchiligi vaqtida (XIII asr) Ark bir necha bor vayron qilingan. Arkning hozirgi qiyofasi XVI asrda SHayboniylar sulolasi davrida shakllangan. Hozir Ark viloyat o'lkashunoslik muzeyidir.

Arkka kiraverishdagi yo'l asta-sekin ko'tarila borib, uzun yo'lakdan Jome' masjidiga olib chiqadi. Arkdagi binolar XVII — XX asrlarga, ya'ni Ashtarxoniylar va

Mang'itlar sulolalari davriga doir. O'sha vaqtlarda Ark shahar hokimlari, keyinchalik xonlar, amirlar mansabdorlar va harbiy boshliqlar yashaydigan joy bo'lgan. XX asr boshlarida Ark aholisi taxminan 3000 kishiga etgan. Arkdan shaxdr va uning tevarak-atrof manzaralari va tepaliklar ko'rinib turadi.

Ismoil Somoniy maqbarasi (IX — X asrlar) — O'rta Osiyo me'morchiligining o'ziga xos aniq va muayyan xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu me'morchilik o'z xalqi va uning g'oyasi, did-farosati bilan ifodalangan xalq ustalarining ijodidan iborat.

Birinchidan, IX — X asrlarda qurilgan Somoniylar maqbarasi o'sha davrdagi binokorlarning mahorati va yuksak badiiy dididan dalolat beradi. Bu yodgorlik 892 — 907 yillarda qurilgan, deb taxmin qilinadi. Maqbara shaxardagi madaniyat va istirohat bog'i ichida joylashgan. U kub shaklida bo'lib, yarimsharsimon qubba bilan yopilgan. Unga xusn bo'lsin uchun burchaklariga to'rtta kichkina qubba o'rnatilgan. Devori qalin (1,8 metrgacha) bo'lganligi tufayli bu yodgorlik 1000 yildan beri yaxshi saqlanib turibdi.

Maqbaraning fasadi yo'q, to'rt tomoni ham bir xil. Bunday inshootlar tsentrik kompozitsiya deb ataladi. Maqbara kvadrat shaklida bo'lib, pishiq g'ishtdan qurilgan. Rivoyatlarga ko'ra, bu maqbara Ismoil Somoniy tomonidan otasi Ahmad ibn Asad uchun qurilgan. Keyinroq bu maqbara Somoniylar xonadonining daxdsi bo'lib qoldi. Unga 907 yilda vafot etgan Ismoil, keyinroq maqbaraga kiraverishdagi yozuvga ko'ra, Ismoilning nabirasi — 914 yildan 943 yilgacha xukmron bo'lgan Nasr II ibn Ahmad dafn qilingan. Bino hozirga qadar saqlanib turibdi. Bu yodgorlikni xorijiy davlatlar ham yaxshi biladilar.

Somoniylar maqbarasi sodda, ajoyib ziynati va asrlar davomida sinovdan o'tgan murakkab gumbaz tomli konstruksiyani qo'llagan binokorlarning muhdndislik mahorati jihatidan jahon me'morchiligining eng mukammal asarlaridan biri hisoblanadi.

CHashmai Ayyub mozori (XII asr). SHahardagi madaniyat va istiroxat bog'i shu mozor o'rnida joylashgan. Bu yodgorlik g'arbdan sharq tomon yonma-yon joylashgan to'rtburchakli murakkab to'rtta binodan iborat. Bu binolar turli davrlarda qurilgan. Ulardan eng qadimiysi konussimon baland gumbaz bilan qoplangandir.

Rivoyatlarga qaraganda, imoratning bu qismini Qoraxoniylardan Arslonxon Vobkentdagi Minorai Kalon bilan bir vaqtda qurdirgan. Mozor ichidagi sovuq suvli chashma hozirgacha bor. Yodgorlik chuqur soylikda bo'lib, yaqin vaqtgacha unda katta buloq suvi oqib turar edi. Bu buloq mozordagi quduq bilan birlashtirilgan.

Qadimgi g'arbiy bino yoniga XVI asrda yana ikkita bino qurilgan. Qadimii binoning eshigi tepasiga osib qo'yilgan guldor koshinga «bu binoni Temurning shaxsan o'zi qurdirdi», deb yozilgan. XVI asrning ikkinchi yarmida binoning pastak peshtoedan iborat ikki qubballi so'nggi to'rtinchi qismi qurilgan.

To'rt binoning har qaysisida bir-biriga o'xshamagan qubbalar bor. Ular tashqi ko'rinishlari yoki janub tomondan qaraganda original va o'ziga xosdir.

Mag'oki Attori masjidi (XII — XVI asrlar). Bu masjid shahar markazida joylashgan bo'lib, ilgari attorlar rastasi o'niga qurilganligi tufayli Mag'oki Attori deb atalgan. Masjid qariyb 6 metr erga kirib turadi, aslida ko'p asrlar davomida asta-sekin tuproq qatlamlari uyulib, u ko'milib qolgan. Mag'oki Attori masjidi yopiq tipdagi masjidlardan bo'lib, tomini 6 tosh ustun ko'tarib turadi.

Masjidning xiyobon tomondagi janubiy peshtoqi arxitekturaning noyob asari xisoblanadi. Peshtoq va uning ravog'i har xil, chunonchi, o'ymakor ganch, sayqal berilgan g'isht, koshin o'yib naqshlangan sopol g'ishtchalar bilan bezatilgan. Binoning sharqiy tomonidan ko'tariladigan qismida keng tosh zina bor. Zina janubiy peshtoq, qurilgandan keyin qurilgan. Bu zina uchungina emas, balki namoz o'qiladigan joy, ham bo'lgan.

Namozgoh masjidi (XII, XIV, XVI asrlar). Buxoroning janub tomonida, shahar tashqarisidadir. Bunday masjidlar hayit kunlari shahar masjidlari namoz o'quvchilarni sig'dira olmaganligidan shahar tashqarisiga qurilgan. Namozgoh masjidi ana shunday masjidlardan hisoblanadi.

Namozgohning peshayvon, galereya shaklida gumbazli binosi bo'lgan (XVI asr), unga nafis qoplama bezakli pevdtoq qurilgan. G'arb tomondan binoning monumental qismi mehrobli qadimiy devorga taqalgan. Masjid nozik o'yma gulli sopol g'ishtlar va mayda g'isht parchalar bilan bezatilgan. Hozirgi namozgoh masjidi o'rnida bir vaqtlar ajoyib bog' va hayvonotxona bo'lgan. Bu er SHamsiobod deb atalgan. Bu joyni tarixchi Narshaxiy o'z asarida to'la tasvirlab o'tgan.

Poi kalon ansambli — Minorai kalon (1127) yoki Katta Buxoro minorasi. Qoraxoniylardan Arslonxon hukmronlik qilgan davrda qurilgan. Bu minora shahardagi eng baland inshootdir. Uning balandligi 46,5 metr, uning qurilgan vaqtini (1127 yil) ko'rsatadigan yozuv korpusning o'rta belidagi koshinlardan birida qisman saqlanib qolgan. Minora baland, dumaloq ustunsimon bo'lib, tepasida ravoqli «fonusiy» tomi bor. Uning ichida 104 pillapoyali aylanma zinasi bor. Minoraning yuqori tomoni bir oz ingichkaroq bo'lib, tsilindr shaklli gumbazida 16 ta darcha bor.

Minoradan azon aytilgan. Minorada dushman paydo bo'lishini kuzatadigan maxsus punkt ham bo'lgan. Minoraning qorovulxonasi xali ham bor, uning sirti jimjimador qilib terilgan pishiq g'isht bilan qoplangan. Buxoro shahrining tashqi ko'rinishida bu minora badiiy jixatdan katta ahamiyatga ega. Gumbazning zangori belbog'i XVI asrda ishlangan koshinlardan iborat. Naqsh bilan yozilgan eeki qismi XII asrda yasalgan och moviy tusdagi koshinlardan iborat bo'lib, Buxoro muzeyining Sitorai — Mohi xosa filialida saqlanmoqda. Minora korpusining pastki qismi ta'mirlandi. U o'nburchak shaklida bo'lib, ustiga minora qurilgan.

Masjidi kalon (Katta masjid) — juma namozi o'qiladigan bu masjid 1514 yilda qurilgan bo'lib, kattaligi jihatdan Samarqanddagi Bibixonim masjididan keyin ikkinchi o'rinda turadi. U XII asrdagi eski masjid o'niga qurilgan. Masjid XV asrda qurila boshlanib, XVI asr boshlarida (1514 yilda) bitgan. Masjid to'g'ri to'rtburchak shaklida hovlisi bo'lgan ochiq masjidlar turkumiga kiradi. Masjidi kalonning ettita eshigi bor. Asosiy sharqiy eshigi oldida va ichida keng ayvonlar bor.

Masjidning umumiy maydoni bir gektar keladi (127X78). Hovli galereyasi 288 qubba bilan qoplangan, ularni 200 ta ustun ko'tarib turadi. Bu ham noyob me'morchilik yodgorliklaridan biridir.

Mir Arab madrasasi — shaxdrning markaziy qismida ikkita gumbaz atrofidagi imoratlardan ajralib turadi (1530 yil). Ulardan biri — SHimoliy gumbaz tiklanib, unga yarim moviy koshin bilan qoplangan bezak berilgan, Janubiy gumbaz esa bezatilmay qolib ketgan.

Madrasaga hashamatli baland peshtoqdan kiriladi. Madrasadagi binolar xuddi Ulug'bek madrasasidek joylashtirilgan. Faqat darsxona o'rnida go'rxona bor. Bu erda yamanlik shayx Abdulla (Mir Arab) va uning qarindoshlari dafn qilingan. Yodgorlik shuning uchun hdm Mir Arab nomi bilan atalgan.

Madrasa hovlisining chor atrofini ikki qavatli hujralar o`rab turadi. Hujralar qatorini to`rtta peshtoq ajratib turibdi. Bir vaqtlar peshtoqlar juda baland bo`lgan.

**Ulug`bek madrasasi** (1417 yil). Bu madrasa Temurning nabirasi: buyuk astronom Ulug`bek qurdirgan uch madrasa-ning eng avvalgisidir. To`g`ri to`rtburchak shaklida qurilgan bu binoning hovlisi va bezatilgan baland peshtoqi bor. Madrasaning old tomoni ikki qavat qilib qurilgan, kiraverishdagi miyonxonaning bir tomonida darsxona, ikkinchi tomonida masjid, ikkinchi qavatida kutubxona bo`lgan.

Madrasaning ustki qismini Ismoil ibn Tohir Isfahoniy qurgan. 1585 yilda bu bino qayta tiklangan. Keyingi yillarda ham u tez-tez ta`mir qylinib turgan. Naqshlarning tarkibida yulduzsimon elementlar ko`pchilikni tashkil etadi. Buni astronom Ulug`bekning kasbi-koriga bog`lash mumkin.

Ulug`bek madrasasi darvoza tavaqalariga **«Bilim olish har bir muslim va muslimaning burchidir»** degan ibora o`yib yozilgan. MadrasaO`z chiroyi va naqshlarining juda go`zalligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Bu bino O`rta Osiyo me`morchiligining ravnaq topganligini ko`rsatadigan yodgorlikdir.

Abdulazizxon madrasasi (1652 yil). Bu madrasa badiiy bezaqlarga juda boy bo`lib, o`z ahamiyati jihatidan O`rta Osiyo me`morchiligida alohida o`rin tutadi. Bu bino Ulug`bek madrasasi ro`parasida qurilgan bo`lib, nafis me`morchiligi va bezatilishi jihatidan go`yo Ulug`bek madrasasi bilan raqobat qilayotgandek tuyuladi. Holbuki, har ikki yodgorlik qurilishi o`rtasida ikki asrdan ortiq vaqt o`tgan.

Abdulazizxon madrasasi oddiy geometrik, yulduzsimon va o`simliklarni tasvirlaydigan bezaklar o`rniga ancha murakkab va xilma-xil naqshlar bilan ishlangan. Bu erda ajdar va semurg` qushning surati bor. Madrasada ikki masjid bor, yozgisi hovlida; darvoza yo`lagining g`arbiy burchagida esa qishki masjid bor. Ikkala masjidning ham devor va shiplari juda serhasham qilib bezatilgan.

Madrasa xalq me`mori usta SHirin Murodov ishtirokida ta`mirlangan (1930 yil).

Bolohovuz masjidi ,(1712 yil). U Ark qarshisida qurilgan. Masjidning hujralari va 20 ta baland yog`och ustunli ayvoni bor. U bir vaqtlar shaharning juma namozi o`qiladigan masjidi bo`lgan va amir Buxoroga kelgan paytlarida shu masjidda namoz o`qigan. Amir kelganda Arkdan masjidgacha gilamlar to`shalgan. Bolohovuz masjidiga Registon maydoni tomonidan qaralsa, uning peshayvoni, maydon yon boshidagi minorasi va o`rtasidagi chuqur hovuz kishida ajoyib taassurot qoldiradi.

CHor Minor. Uni xalifa Niyozqul madrasasi deb ham atashadi. Bu yodgorlik so`nggi vaqtlarda qurilgan obidalar qatoriga kiradi. U XIX asr boshlari (1807) da qurilgan va shaxarning shimoli-g`arbiy qismida joylashgan. Yodgorlik murakkab me`morchilik namunasi bo`lib, peshayvon turidagi masjid, bir qavatli madrasa, hovuz va ajoyib peshtoqdan iborat. To`rtta baland mezanasi bor. Ular minoraga o`xshaydi, shuning uchun ham CHor Minor madrasasi deb ataladi. Aslida esa bular shunchaki mezanalar bo`lmay, faqat binoning badiiy bezagidir. Ular Hindiston masjidlari me`morchiligining ta`siri borligini ko`rsatib turibdi.

Labihovuz (XVII asr). Qadimgi Buxoroda savdo maydonlari ko`p bo`lgan. Ulardan biri Labihovuz hozirgacha saqlanib qolgan. Bu maydon shu erdagi katta (uzunligi 42 metr, eni 36 metr, chuqurligi 5 metr chamasi) hovuz tufayli Labihovuz deb atalgan. Bu hovuz katta maydonning o`rtasidadir. U 1620 yili qazilgan. Hozirgi vaqtda hovuz ta`mirlangan. Maydonning to`rt tomoni hashamatli me`morchilik inshootlari bilan o`rab olingan, uni g`arbiy tomondan Devonbegi xonaqasi, Labihovuz masjidi, sharqiy tomondan Devonbegi madrasasi o`rab turibdi. SHimoliy tomonda esa 1578 yilda qurilgan Ko`kaldosh madrasasi bor. XVII asrning yigirmanchi yillarida qurilgan dastlabki ikki yodgorlik ayniqsa sernaqsh va serhashamdir. Bu erda shahardagi toqilarning hammasini bir-biri bilan bog`lovchi savdo ko`chasi boshlanadi.

Tim va toqlar (XVI asr). Buxoroda eng yirik savdo inshootlaridan to`rttasi: Toqi zargaron, Toqi telpakfurushon, Toqi sarrofon va Abdullaxon timi saqlanib qolgan. Toqlar shahristonning Labihovuz maydonidan Registon maydonigacha boradigan asosiy savdo ko`chasidagi

chorrahalarda qurilgan. Muntazam sakkiz burchakli ichki xonaga mahobatli gumbaz yopilgan. 16 darchali bu gumbazning meridional qovurg'alari bor. Toqi zargaronda o'ttizdan ortiq zargarlik do'koni va ustaxonalar bo'lgan. Bu erda har xil zeb-ziynat buyumlari yasab sotilgan. Toqi telpakfurushon ko'chalar chorrahasiga qurilgan. U oltiburchak shaklida bo'lib, markaziy gumbazda darchalari bor. Toqi telpakfurushon ilgari Toqi kitobfurushon deb atalgan, chunki bu erda kitoblar sotilgan. Toqi sarrofon ikki ko'cha chorrahasida bo'lib, ulardan biri Registon tomonga qarab ketgan. U shuning uchun Toqi sarrofon deb atalganki, unda ko'pincha sarroflar o'tirib, chet el pullarini almashtirganlar va pul maydalaganlar. Buxoronning Abdullaxon timi va toqlari qadimiy shaxar qurilishining obod, yirik ko'chalarida saqlanib qolgan elementlarigina, xolos. O'rta Osiyo va SHarq mamlakatlaridagi birorta shaharda bunchalik mahobatli (ulug'vor) me'morchilik inshootlari yo'q, desa bo'ladi.

Devonbegi xonaqosining old tomoni Labihoiul suvida oynadek aks etib turadi. SHuning uchun **bu** yodgorlikni Labihovuz deb ham ataydilar.

SHarq tomonda, masjid ro'parasida Nodir **devonbegi** madrasasi (1622 yil) qad ko'targan. U karvonsaroy sifatida qurila boshlagan bo'lsada, keyin qurilish davomida madrasaga aylantirilgan. SHuning uchun uning rejası oddiy va madrasalar rejasiga o'xshamaydi.

Ko'kaldosh madrasasi (1578 yil) — Labihovuz maydonida joylashgan binolar jumlasiga kiradi. Bu yodgorlik Abdullaxon hukmronlik qilgan davrda (1557-1558) qurilgan bo'lib, O'rta Osiyodagi eng katta madrasalardan biri hisoblanadi. Madrasaning 160 xujrasi bor. Madrasaning eshigi alohida e'tiborga sazovordir. eshik tabaqalari yog'och pilakchalardan yig'ilib, elim va mixsiz cho'p pona bilan birlashtirilgan, taxta pilakchalarga nozik va mayda o'ymakor gul solingan. Madrasalarning devori odatda yaxlit bo'ladi. Bu madrasaning esa ochiq ayvonchali boloxonalari bo'lgan va ular durustgina bezatilgan. Hozir bu erda viloyat davlat arxivi joylashgan.

SHaharning g'arbiy qismida, shahar madaniyat va istirohat bog'i darvozasining chap tomonida bir-biriga ro'para turgan ikkita katta madrasa bor. Ular Qo'sh madrasa nomi bilan mashhur Qo'sh madrasa Buxorodagi xodshamatli me'morchilik komplekslaridan biridir. SHarqiy tomondagi Madori xon madrasasi (1566) g'arbiy tomondagi Abdullaxon madrasasidan 22 yil ilgari qurilgan. Madori xon madrasasining hajmi kichikroq, bezaklari soddaroqdir. Abdullaxon madrasasi kattaroq, ayniqsa uning sal qiyshaygan baland old peshtoqi serhashamdir. Hovli to'rt peshtoqdan iborat. Uning eshik tabaqalari Ko'kaldosh madrasasining eshigiga o'xshatib taxta pilakchalardan yasalgan. SHaharning sharqiy qismida, vokzalga yaqin joyda ikki maqbara: Sayfuddin Boharziy va Buyonqulixon maqbalari bor.

Sayfuddin Boharziy maqbarasi din aqidalari to'g'risida asarlar yozgan va 1262 yilda vafot etgan shayxning nomi bilan bog'liqdir. Bu yodgorlik ikki binodan, ya'ni ziyoratxona va go'rxonadan iborat. Ilgari ikkinchi xonada badiiy o'ymakorlik va sirli bezaklarning noyob namunasi bo'lgan yog'och sag'ana bo'lgan (XIV asr). Maqbaraning ichiga baland minoralar gumbazidagi darchalardan yorug'lik tushib turadi.

Buyonqulixon maqbarasi (XIV asr). Bu maqbara 1358 yilda Samarqandda o'ldirilgan Mo'g'ul xoni chingiziy Buyonqulixon qabri ustiga qurilgan. Maqbara katta va kichik xonaga bo'lingan. Maqbaraning to'rt tomonida naqshinkor ustunlar bor. Devor ichidan qorong'i va tor yo'lak o'tadi. Maqbaraning ichki va tashqi tomoni rang-barang bo'yoq bilan bezatilgan. Bu erda zangori, ko'k, binafsha rang va oq bo'yoqlariga ishlatilgan. Bo'yoqlar g'oyat toza va tiniq. O'sha zamonda peshtoq xam qurilgan. Faqat u binodan alohida qurilgan. Maqbara peshtoqi ham koshin bilan bezatilgan.

1926 yilda maqbara ta'mir etildi. Uning baland supa ustiga qurilganligi yaqinda aniqlandi.

Zindon — XVII asr oxirlarida SHaxristonning shimoli-g'arbiy burchagidagi tepalikda (hozirgi kolxoz o'rnida) qurilgan. Bino ko'rimsiz bo'lib, baland g'isht devor bilan gir aylantirib o'rab olingan. Zindonga janubiy devordagi pastak peshtoqdan kirilgan. Kichkina hovli ikki qanotli tosh binoga olib boradi. O'ng qanotning boshidagi xonaga qarzini uzolmagan kishilar qamalgan. Binoning chap qanotidagi to'rtinchi xona kishida og'ir taassurot qoldiradi. U qorovulxona orqasidagi 5 metrli chuqur erto'ladir. Er ustidagi qismi darchali qubba, erto'laga katta teshikdan tushiladi.

Zindon hovlisidan mahbuslar «pirining» qabri hamda zindonning sharqiy va shimoliy tomonlaridan oʻtadigan baland tor yoʻlak bor. Hozirgi vaqtda zindonga Buxoro oʻlkashunoslik muzeyining eksponatlari qoʻyilgan.

Sitorai mohi xosa saroylari — shahardan 4 kilometr narida, shaharning shimol tomonida ikki saroy bor. Ulardan biri Buxoroning eng oxirgi amiri Said Olimxonning saroyidir. Bu saroy bir qavatli boʻlib «G» harfi shaklida qurilgan. Bunda garchi xalq ustalari oʻyma ganchkorlikda va devorlarga surat solishda ajoyib mahorat namunalarini koʻrsatgan boʻlsalarda, amirlarning meshchanlik did-farosatlari, ularning bir-biriga zid dabdabali, hashamatli suratlarga oʻchligi oʻz aksini topgan. Amir saroyini bezatirishda Evropa meʼmorchiligiga taqlid qilgan. Butun shu dabdaba-yu hashamatlarga taqlid qilib ishlangan surat va naqshlar orasida Sitorai mohi xosadagi «Oq saroy» («Oq zal») ga berilgan pardozlar xalq sanʼatkorlari hunarini koʻz-koʻz qilib turadi. Bu zalni isteʼdodli sanʼatkor usta SHirin Murodov bir guruh Buxoro ustalari bilan qurgan. Hozirgi vaqtda Sitorai mohi xosaga Buxoro viloyati oʻlkashunoslik muzeyi boʻlimining ekspozitsiyalari joylashtirilgan. Saroy hududida sanatoriy ochilgan.

Sitorai mohi xosada amirning otasi Ahmad qurdirgan ikkinchi saroy ham bor. Bu bino saroy hayotining yodgorligi boʻlib, tamoman boshqacha rejalashtirilgan va bezatilgan. Hozir bu ikkinchi saroyga bolalar sanatoriysi joylashgan.

Qoʻsh madrasadan janubda, zamonaviy binolar qurilishi olib borilayotgan joyda unchalik katta boʻlmagan Baland masjid (XVI asr) qad koʻtarib turibdi. Masjidning qishki binosi bilan yogʻoch ustunli ayvoni joylashgan poydevori baland boʻlganligi uchun Baland masjid deb nom olgan.

Imoratning barcha meʼmorchilik boyligi hozirgi paytda uning ichki tomoni hisoblanadi. Oltin suv yugurtirilgan nafis gulli yaltiroq katakcha tosh taxtachalardan iborat baland och-yashil panel kishini zavqlantiradi. Peshtoqchalardagi serhasham oʻsimlik suratidagi bezak IV asrning «guldor» gilamlariga juda oʻxshaydi.

Xoja Zaynuddin masjidi. Xoja Zaynuddin masjidi 1555 yilda qurilgan. Biz bu erda birinchi boʻlib masjid qurilishi bilan shahar qurilishi oʻrtasidagi hamkorlikni koʻramiz. Masjid asosiy fasadining ikki tomoni uning oldidan oʻtadigan, tor yoʻlakni hisobga olib qurilgan, ikki tomoni esa turar joy uylari bilan bir qatorda turibdi. Ikki old tomoni ayvonli, uning oldida esa katta tosh plitalari terilgan katta hovuz bor. Masjidning ichi juda chiroyli qilib bezatilgan. Uning peshtoqlari shunday mahorat bilan bezatilganki, u oʻsha paytdagi odamlarning shunday yuksak didi boʻlganligidan dalolat beradi va uni koʻrgan kishi hayratda qoladi.

Buxoroda katta qiziqish tugʻdiradigan yana bir qancha yodgorliklar boʻlib, biz eng asosiylarinigina koʻrsatib oʻtdik.

Oʻqituvchi Buxoro shahridagi qadimii edgorliklarni tushuntirib, shaharda katta qiziqish tugʻdiradigan yana bir qancha meʼmorchilik yodgorliklari borligini, bu erda eng asosiylarigina koʻrsatib oʻtilganligini qayd qilib, suhbatni yakunlagach, «mana endi biz Buxoro viloyatidagi qishloq va rayonlar toponimikasi ustida toʻxtalamiz», deb oʻquvchilar diqqatini quyidagilarga tortadi:

Askarcha — Buxoro viloyatidagi qishloq. Askarcha — «qoʻshin — lashkar qishlogʻi» maʼnosini bildiradi. SHu rayondagi Dovud qishlogʻida qurol-aslaha tayyorlangan.

Band — Navoiy rayonidagi qishloq. Bu soʻz — toʻgʻon, suv ombori degan maʼnoni bildiradi.

YAngi bozor — Buxoro viloyati Buxoro rayonidagi qishloq. Bu nomni oʻrganishda oʻsha joyda yashab xizmat qilayotgan oʻqituvchilarta, keksalarga va arxiv hujjatlariga murojaat qilindi. Qishloqni nima uchun YAngi bozor deb atashgan? Bunga sabab, YAngi bozor qishlogʻidan bir oz naridagi qishloqda boshqa kichik bir bozor boʻlgan, bu bozorga turli tomondan kishilar kelib savdo sotiq qilganlar. Bozor kengayib borgan, eski bozor bilan birgalikda yangi bozor ham rivojlangan. SHundan boshlab qishloq YAngi bozor deb atala boshlagan.

Sari kunda — Romiton rayonidan 15 kilometr naridagi qishloq. Urganch choʻli etaklarida joylashgan. Keksalarning aytishlaricha, oʻrta asrlarda qishloq nihoyatda obod boʻlgan. Maydoni keng, bogʻ-chorbogʻi koʻp boʻlgan. SHu erda kunda boshi, yaʼni suv boshi boʻlgani

uchun xam qishloqning nomini shunday deb ataganlar. «Sari» — tojikcha (bosh), «kunda» — suv, suv taqsimlanadigan to'g'on boshi demakdir. Vaqt o'tishi bilan xususiy boylik uchun olib borilgan kurashlar natijasida qishloq xarobaga aylangan. 1920 yilda qishloqda jami 6 xo'jalik istiqomat qilgan. Qishloq axolisining ko'pchiligi tojiklar. Keyingi yillarda qishloq tanib bo'lmas darajada o'zgardi. Dastlab 10 gektar maydonda omoch bilan dehqonchilik qilgan sarikundaliklar bugungi kunda 300 gektardan ortiq erga ekin ekib, farovon hayot kechirmokdalar.

CHor rabot — Buxoro viloyati G'ijduvon rayonidagi qishloqning nomi. CHor rabot, ya'ni to'rtta rabotdan iborat degan ma'noni anglatadi. Hozir xam qishloq to'rt qismdan iborat bo'lib, ular xalq shevasi bilan quyidagicha nomlar bilan ataladi: Sho'ro xo'rxo (sho'r ovqat iste'mol qiladiganlar) — yoki tuzlik ovqat eydiganlar mahallasi; «Markaziy ko'cha» yoki mahalla; Poy lurchho (oyoq yalanglar), yoki kambag'allar mahallasi; Oshpazho (oshpazlar mahallasi).

Hozir ham CHor rabot qishlog'i va uning 4 mahallasi yuqoridagi nom bilan atalib kelinadi. Buxoro viloyati G'ijduvon rayonidagi kolxozda quyidagi qishloqlar bo'lib, ular **CHor rabot** (to'rt rabot), **Qo'rg'on** (qal'a), **Arrabon** (suvi ravon ketadigan ariq; suvi tez oqadigan ariq) deb nomlangan (arablar yashaydigan qishloq bo'lishi ham mumkin).

Keskin terak — Karmananing nomi, hozir Navoiy deb ataladi. Bu qishloqning ham o'ziga xos tarixi bor. Uning Keskin terak deb atalishi to'g'risida shunday rivoyat bor: bu erda juda ko'p terak o'sgan. Teraklarni bir kishi kelib kesib olib ketgan. SHundan beri bu joy Kesgan terak deb atalib kelar ekan. Erli xalq tilida «Keskin terak» deyiladi.

Dabboki — Buxoro viloyati Qorako'l rayonidagi qishloq nomi. Tojikcha dabbog — teri ishlovchi, charmgar, dabbogi — terini oshlovchi kosib.

Etimak — Buxoro viloyati SHofirkon rayonidagi qishloq. Etimak (YAtimak) — «etimcha», «etim bola»; «Etimak» (yatimak) degan og'irlik o'lchovi bo'lgan; etim (yatim) so'zining «qashshoq», «batrak» ma'nosi ham bor.

YObi ariq — Buxoro viloyati Konimex rayonidagi qishloq. YObi (yobu) o'zbek xalqi tarkibiga kirgan qadimiy elat, qabila. YObilarning ko'pchiligi asosan Zarafshon vodiysida istiqomat qilgan. YObi qabilasi tomonidan qazilgan ariq YObi arig'i bo'lgan, so'ng qishloqqa ham «YObi ariq» nomi berilgan. Hozirda shu nom bilan ataladi.

Obduzd — Buxoro viloyatidagi ariq. Obduzd — «suv o'g'risi» yoki «O'g'irlangan suv» demakdir. Navbatini kutmasdan o'g'rincha suv oladigan kishi obduzd deyilgan. Ba'zan biron yoriqqa yoki o'pqonga kirib ketib, yana er yuziga chiqadigan jilg'a suvi ham obduzd deb atalgan.

Oxshix — Buxoro viloyatidagi qishloq nomi. To'g'risi, Oqshix bo'lsa kerak. Turkman urug'laridan biri shix (shiyx) deb atalgan. Bir qancha urug'lar qora, oq, ba'zan ko'k, sariq kabi turlarga bo'linadi. Buxoro viloyatida turkmanlar ko'p. Bu urug' ba'zan o'zbeklar orasida ham uchraydi. Oqshix so'zi buzilib, Oxshix bo'lib qolgan.

Oqtaqir — Buxoro viloyati Tomdi rayonidagi ovul. Taqir cho'lda qish-bahorda suv to'lib, yozda qaqrab yotadigan, yorilib-yorilib yotadigan yaydoq maydonga aytiladi.

Peshku — Buxoro viloyati Romiton rayonidagi qishloq nomi. Pesh «old», «old tomon», kuy — «ko'cha», «guzar», ya'ni ko'cha tomon degan ma'noni anglatadi. Hozir shu nomli rayon markazi.

Pozagari — Buxoro viloyati G'ijduvon rayonidagi qishloq. Poza tojikcha omochning uchiga kiydiriladigan cho'yan tish, pozagar (pozarez) omoch tishi quyuvchi usta degan ma'noni bildiradi.

Pattachi — ma'nosi ma'lum emas, lekin patta degan o'simlik (buta) bor. Termiz shahri yaqinida (Amudaryo bo'yida) Pattakesar qishlog'i ham bor. Bu qishloq ham ana shu o'simlik nomi bilan atalgan. Sepatta — «uch patta», ayrim mutaxassislarning izohiga ko'ra, «Patta» so'zi ayrim kishilarga beriladigan hujjatlarni ham bildiradi. SHuning uchun bozorda va guzarlarda boj oluvchi odamni «pattachi» deyishgan.

Tallicha — Buxoro viloyati Buxoro rayonidagi qishloq nomi. Tall arabcha soʻz boʻlib, «tepalik» degan maʼnoni bildiradi. Buxoro viloyatining koʻp joylarida tepalikni tall deyishadi. Tallicha «kichkina tepalik» degan maʼnoni bildiradi.

Tarob — Buxoro viloyati hududida joylashgan. Tarixiy manbalarda Torob qishlogʻi Buxorodan ham oldin paydo boʻlgan deyiladi. Bu qishloq dastlab Narshaxiyning «Buxoro tarixi»da tilgan olingan. Bu qishloq ahli 1238 yilda Moʻgʻullarga, keyinroq esa mahalliy boylarga, ruhoniylarga qarshi koʻtargan qoʻzgʻolonlari bilan mashhurdir. Torob soʻzining etimologiyasi maʼlum emas. Maxmud Torobiy ham shu qishloqdan chiqqan.

Toshkent — Buxoro viloyati Qorakoʻl tumanidagi qishloq nomi. Qishloqqa toshkentliklar koʻchib kelib oʻrnashgandan shunday nom olgan.

Toqi sarrofon — Buxoro shahridagi bozor. Toq soʻzi qadimiy meʼmorchilik atamalaridan biri boʻlib, «arkli bino» maʼnosini anglatadi. Buxoro xonligida usti yopilgan bozor toq deyilgan. Masalan, Toqi telpakfurushon Telpak sotuvchilar toqi, Toqi sarrofon ham shunday bozor (rasta)lardan biridir. Sarrof — «pul maydalovchi» demakdir. Oʻrta asrlarda Buxoroning Kesh (SHahrisabz) darvozasi yaqinidagi bir mahalla Rasattoq (arabcha «ark boshi») deb atalgan. Bu maxdlla qadimda ana shu erda boʻlgan gumbazli bozor nrmi bilan atalgan boʻlsa kerak, deydi tarixchi O. I. Smirnova.

Xumdonak — Buxoro viloyatidagi qishloq nomi. Gʻisht, sopol buyumlar pishiriladigan xumdon soʻziga kichraytirish affiksi «ak» qoʻshilib yasalgan toponim. Xumdonak «xumdoncha qishloq» maʼnosini bildiradi.

Xoja Tabband — Buxoro guzarlaridan biri. Maʼnosi bezgakni bogʻlovchi, yoʻq qilib tashlovchi (davolovchi) demakdir. Jonli tilda Tabbat boʻlib ketgan. Guzarda xoja Tabband mozori bor. Rivoyatlarga koʻra, xoja Tabband bezgakni davolagan. Guzar ana shu xoja Tabband nomi bilan atalib kelinmoqda.

SHoxrud — shahar arigʻi, Buxoro shahrini suv bilan taʼminlaydigan ariq. Dastlab Rudi zar deb atalgan: Arab geograflari asarlarida Nauri zar shaklida qayd qilingan. SHayx Boxarziyning vaqf hujjatlarida (XIV asr) Rudi shaOʻri Buxoro deb atalgan. Keyingi asarlarda SHohrud boʻlib ketgan. eronda hdm SHohrud degan ariq bor.

Shoʻriston — Buxoro viloyati SHofirkon rayonidagi Qishloqning nomi. Shoʻriston — «shoʻr bosgan joy», «shoʻrxok» maʼnolarini bildiradi.

Qulonxona — Buxoro viloyati Buxoro rayonidagi qishloq Bir zamonlar qulon koʻp boʻlganligidan shunday nom olgan boʻlishi mumkin. Lekin qulon (qulontik) urugʻi vakillari yashaydigan qishloq ham Qulonxona deb atalgan boʻlsa ajab emas.

Qoʻtir buloq — Vobkent rayonidagi qishloq. Qishloq qoʻtir kasalligiga davo boʻladigan buloq yonida joylashganligidan shunday nom olgan.

Gʻijduvon — Buxoro viloyatidagi shaxdr. Dastlab Narshaxiy asarida tilga olingan. Boshqa tarixiy manbalarda Gʻijduvon shaklida ham qayd qilingan. Xalq ogʻzida Gijduvon soʻzini Gʻuji devon — devlar, ins-jinslar koʻp maʼnosida deyilsa, ayrimlar Gʻuji dehkun — «Bir toʻp qishloq» demakdir, deb taxmin qiladilar. Toʻp qishloq degani toʻgʻri boʻlsa kerak. Har holda etimologiyasi aniq emas. Baxovuddin Naqshbandning ustoz Abdulxoliq Gʻijduvoniy nomiga qoʻyilgan degan fikrlar xam bor.

Havzak dorisoqlar — Buxoro viloyati Gʻijduvon tumanidagi qishloq. Bu toponim tojikcha va oʻzbekcha til qoidalarida asosida yasalgan; hovuzni tojiklar havz deyishadi («ak» esa kichraytiruvchi affiks), dori-darmon tayyorlab kun koʻrgan kishi dorisoq deyilgan. Hdvzak dorisoqlar «dorisoqlar hovuzchasi» demakdir, ikki soʻz orasidagi izafet esa tushib qolgan, tojikcha Havzaki dorusozon boʻlishi kerak.

Oʻqituvchi oʻquvchilarni Buxoro viloyatining qishloq va rayonlar tarixi toponimikasi bilan tanishtirib chiqqach, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining qishloq, rayonlari tarixi etimologiyasini oʻrganishga kirishsa, maqsadga muvofiq boʻladi.

Bu oʻrinda oʻqituvchi Qashqadaryo viloyatidagi Gubalak, Qarshi, Kitob, YAKkabogʻ, Olaqargʻa, Vargʻanza, CHimqoʻrgʻon kabi qishdoq, shahar nomining kelib chiqish tarixini oʻsha joylarda yashab, ijod etgan atoqli olimlar shoirlar, mashhur kishilar, Mehnat Qahramonlari,

urush faxriylari, shuningdek tariximizda muhim rol' o'ynagan kishilar nomlari bilan bog'lab o'rganishi kerak.

SHuningdek, o'qituvchining nima uchun bu viloyat Qashqadaryo deb nomlangan va bu so'zning ma'nosini bilasizmi? kabi savollariga o'quvchilar ilmiy ijodiy javob topishda o'taonalari, mahalliy qariyalar, shu sohaga qiziquvchilar bilan hamkorlikda ish olib borishi zarur.

Masalan, Qashqadaryo so'zi qanday ma'noga ega? degan savolga quyidagicha javob olish mumkin;

Qashqadaryo — daryoning nomidan olingan. U Qarshi vohasini suv bilan ta'minlaydi. Daryo qadimgi vaqtda Koshkirud deb atalgan. Ayrim tadqiqotchilarning (masalan, V. V. Bartol'dning) fikricha, Qashqadaryo Keshkirudning fonetik o'zgargan variantidir.

Ba'zi olimlar toponimning asosini «qashqa» so'zi tashkil etadi, qashqa «qaqshamoq, qurib qolmoq» degan ma'noni bildirishini aytadi (A. Ishaev). H. Hasanov daryoning tabiiy xususiyatida ham qashqalik bor, Qarshidan keyin daryoning suvi kamayib o'zani olachalpoq «qashqa holiga keladi», deb yozadi. S. Qoraev «qashqa» so'zining bir necha ma'nosini keltiradi. etnik nom: tiniq, tez oqar, yoqasida o'simlik o'smaydigan yalang, yolg'iz tepa va hokazo.

Daryo nomidan viloyat nomi vujudga kelgan, hozir ham shu nom bilan yuritiladi.

Qarshi — shahar nomi. Qashqadaryo viloyatining ma'muriy markazi. Qarshi O'zbekistonning eng ko'hna shaharlaridan biri. U Grek — Baqtriya davlati davridan beri mavjud. SHahar XIV asrgacha Naxshab deb atalgan. Arablar bu maxdliiy nomni buzib Nasaf deb ishlatgan bo'lsa kerak. Hozirgi Qarshi XIV asrning birinchi yarmida voha o'rtasida Samarqand, Buxoro, Afg'oniston, Hindiston va SHarqdagi boshqa qo'shni mamlakatlardan keladigan yo'llar ustida qurilgan. CHig'atoy naslidan bo'lgan Kepakxon (1309 —1326) Qashqadaryo vodiysiga o'rnashgan eski Naxshabdan ikki farsax narida o'ziga saroy qurgan. Saroy Mo'g'ul tilida Qarshi deb ataladi. **Qarshi** «SHoh qal'asi» degan ma'noni ham bildiradi, deyishadi.

Gubalak — bu qishloq Qashqadaryo viloyati Koson rayonidagi kolxoz hududida joylashgan. Qishloq viloyat markazi Qarshi shahridan 18 km shimoli-g'arbda, rayon markazidan esa 10 km janubi-sharq tomonda joylashgan. Qishloqda 200 dan ko'proq xo'jalik istiqomat qiladi. Aholining milliy tarkibi ham xilma-xil bo'lib, uning asosiy qismini o'zbeklar tashkil etadi. Aytishlaricha, qishloqning o'rni bundan bir necha yil muqaddam cho'l bo'lgan. Ko'chmanchilik bilan shug'ullangan odamlar asta-sekinlik bilan shu erga kelib o'troqlashib qola boshlaganlar. Qishloq yonida ko'chmanchi «arab» qabilalari kelib o'rnashgan. Ular avvallari kapa va erto'lalarda yashaganlar, so'ng guvala quyib, undan uy qurib olganlar. SHundan keyin bu qishloq nomi «Guvalak» bo'lib qolgan, keyinchalik Guvalak so'zi «Gubalak» bo'lib ketgan. Bu nom O'zbekistonning boshqa viloyatlarida ham uchraydi. Masalan, Farg'ona vodiysida guvalak nomli bir necha joylar bor.

Mahmud tepa — Qashqadaryo viloyati Koson rayonidagi qishloq. Qishloqning oldingi nomi «Qoratelpak» bo'lgan. Qishloq axlining aksariyati qoratelpak kiyib yurganidan shunday nom olgan, deyishadi. Keyinchalik odamlar chakalakzor va tepalarni o'zlashtirib, yangi qishloq barpo qilganlar. Ishboshi Mahmud ismli oqsoqol bo'lgan ekan. O'sha vaqtdan boshlab Mahmud ota o'zlashtirgan tepa, keyinchalik Mahmud tepa deb atala boshlagan, qishloq nomi esa o'z holicha qolavergan.

Kitob — Qashqadaryo viloyatidagi shahar. SHaxdrni uch tomondan tog'lar, ya'ni Ziyovuddin tog'ining davomi, Qo'rg'on tog', orqa tarafidan esa Taxta qoracha tog'i va shu tog'ning davomi o'rab olgan. Kitob nomining kelib chiqishi o'qiydigan «kitob» so'zidan emas, balki tojik tilidan olingan «kift» — elka, «ob» — suv, ya'ni «elkadagi suv» degan ma'noni bildiruvchi «kiftob» so'zidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Haqiqatan ham bu nom to'g'ri qo'yilgan, chunki Kitob rayonining ikki tomonidan ikkita daryo — Qashqadaryo va Oqdaryo oqib o'tadi. Kitob rayoni janubdan SHahrisabz rayoni, shimol va g'arbdan Samarqand viloyatiga qarashli Jom deb atalgan qishloq bilan, sharqdan esa Tojikiston tog'lari bilan chegaralangan. Kitob rayoni kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Kitob posyolkasida qurilgan to'rt qavatli ma'muriy binolar va qishloq xo'jalik idorasi, zamonaviy oziq-ovqat, kiyim-kechak, poyabzal,

bosh kiyimlar, atir-upa, uy-anjomlar, attorlik, «Bolalar dunyosi» do`konlari binolari shahar ko`rkiga ko`rk qo`shib turibdi. SHuningdek, 500 o`rinli «O`zbekiston 50 yilligi» kinoteatri, mehmonxona binolari, «Paxtakor» sport jamiyati va shu kabilar kitobliklar xizmatida. Kitob rayonida sakkizta kolxoz, to`rtta sovxoz bor. Bularning xammasi don etishtirish, chorvachilik bilan shug`ullanadi. Ikki sovxoz, ya`ni «Qishlik» hamda «Palandara» sovxozlari uzumchilik, chorvachilik, sabzavot va poliz ekinlari, tamaki xom ashyosi etishtiradi.

«Qishlik» sovxozni Kitob rayonining shimol tomonidan joylashgan. Sovxozni «Qaynar» deb ham atashadi. Bunday atalishining boisi shuki, qishloqda katta chashma joylashgan. Bu chashma «Qaynar buloq» deb ataladi. Qaynar buloq sovxozning eng yuqorisida joylashgan. CHashmadan butun sovxoz suv ichadi. Qishloq qariyalari chashma haqida ko`pgina rivoyatlar to`qishgan. CHashmaning o`rtasida ikki tup daraxt o`sadi. Qariyalarning aytishicha, agar shu daraxtni birov sindirsa yoki uning yonida biron nojo`ya ish qilib qo`ysa, uning ko`zi ko`r, qo`li yoki oyog`i shol, ya`ni jonsiz bo`lib qolar ekan. SHuning uchun ham bu joyda hech kim nojo`ya ish qilmaydi. Faqatgina sovxoz ishchilari buloq suvi toza bo`lishi uchun gir atrofini betondan devor qilib ustini yopib qo`yishgan. Sovxoz hududida bir necha sayrgoh joylar bor. SHulardan biri «Etti qiz g`ori», «Ahmad g`ori», «Qirq qiz» degan joylar bo`lib, bu joylar ayniqsa bahorda kishining bahri-dilini ochadi.

**Varg`anza** — Kitob rayonidagi qishloq nomi. Maxalliy aholining ko`pchiligi anorchilik bilan shug`ullanadi. Aytishlaricha, bu erga boshqa erlardan kelishib anor o`g`irlab ketishgan. Bu voqea muntazam takrorlanib turgan. SHuning uchun bu qishloqqa «varg`anza», ya`ni anor o`g`irlanadigan joy, deb nom bergan ekanlar. B. Ahmedov ta`rificha «var» so`zi so`g`diycha bo`lib, «shamol», «g`anza» — koni, ya`ni shamol koni degan ma`noni bildiradi. Hozir hdm bu qishloq shu nom bilan ataladi.

SHahrisabz — Qashqadaryo viloyatiga qarashli shahar. Bu nom XVI asrda tilga olinadi. SHaharning qadimgi nomi Kesh. XV — XVI asrlardagi tarixiy manbalarda, chunonchi, xoja Axrorning vaqf hujjatlarida va «Boburnoma» da Kesh va SHahrisabz nomlari parallel` ishlatiladi. SHahrisabz — «Ko`kalamzor shaxdr», ya`ni «YAshil shahar» demakdir. XIV — XV asrlarda Amir Temur va Ulug`bek davrlarida SHahrisabzda qator monumental binolar — sarof, masjidlar, maqbara va boshqalar qurildi. Bu inshootlarning xarobalari hozirgi vaqtda noyob me`morchilik yodgorligi sifatida saqlanib qolgan.

**YAKkabog`** — Qashqadaryo viloyati YAKkabog` rayonidagi shu nomdagi aholi yashaydigan joy nomi. Aytishlaricha, dastlabki vaqtlarda hozirgi YAKkabog` rayoni o`rnida axoli kam bo`lgan. Bularning ham ko`pchiligi ko`chmanchi xalq bo`lib, chorvachilik bilan shug`ullangan. YAKkabog` hududi ekin ekishga qulay bo`lgan. U Hisor tog`iga yaqin bo`lib, chashma va mayda soy suvlari YAKkabog`dan o`tadi. Suvning bu jixtdan qulayligi bog`rog` barpo etishga olib kelgan. Bu joyda oldyn yakka bog` barpo qilingan. YAKkabog` rayoni hududida bir necha qishloq mavjud.

Bulardan biri No`g`aylidir. No`g`aylar haqida aytilgan ayrim gaplar hozir ham xalq o`rtasida mavjud. Ikkinchi qishloq — Qatag`on (quvilganlar), uchinchi qishloq — Uchtepa.

CHimqo`rg`on — Qashqadaryo viloyatidagi qishloq. CHimqo`rg`on — chim devor bilan o`rab olingan joy demakdir. Bu qishloq aholisi talonchilardan saqlanish maqsadida o`z qishloqlarini atrofini devor bilan o`rab olishgan. Bu devor atrofida chuqur xndaqar qazib, suv bilan to`latib qo`yishgan. Qo`rg`onga kirib chiqadigan to`rtta darvoza bo`lib, ularga ko`tarma ko`priklar orqaligina kirilgan. Aholisi qo`rg`on tashqarisida dehqonchilik qilgan. Ular o`zlariga to`q va mard kishilar bo`lgan. Qo`rg`onni yov olish mushkul bo`lgan. Qishloq aholisi qo`rg`onga suvni tog`dan sopoldan yasalgan quvurlar orqali keltirishgan. Bunaqa quvur yot kishilar uchun sir saqlangan, Quvur erga ko`milib, bir uchi tog`dagi buloqlarga bog`langan. Rivoyatda aytilishicha, bu qishloqqa yov bostirib keladi, lekin qo`rg`onga bostirib kirish imkoniyatini topolmay to`xtab qolishadi. SHu vaqtda CHimqo`rg`on hokimining chiroyli qizi bosqinchilarning lashkarboshisiga xufiyona oshiq bo`lib qoladi. U muhabbat deb dushman tomonga qochib o`tadi va sir saqlangan suv yo`lini aytib beradi. Bu yovga qo`l kelib, buloq og`zini bekkitishadi. Suvsiz qolgan xalq sotqinlik natijasida engiladi. CHimqo`rg`on bosib olinib,

devorlari buzib tashlanadi. Sopol quvurlar esa er tagida qolaveradi. Ularning qoldiqlari hozir ham o'sha ko'milgan erdan topilmoqda. CHimqo'rg'on qishlog'i devorlari buzilib ketsa ham o'z nomini saqlab qolgan.

Olaqarg'a — shu nomli qishloqning kelib chiqish tarixini bevosita shayx Aqliqiron ota nomi bilan bog'lashadi. Aslida qishloq nomi Olaqarg'a emas, Aqliqiron otadir. Uning tarixi XVIII asrdan boshlangan. Qishloqning ikki tomonidan ikkita ariq oqib o'tadi. Bularning birini — Past ariq, ikkinchisini — Katta ariq deyishadi. Ariqlarning bo'yida 2 ta tepalik bor. Bu tepaliklardan biri yassi, ikkinchisi baland. Ikkala tepalik hozir ham bor. YAssi tepalik katta ariq bilan birlashgan. Aslida avvallari bu tepalik o'rnida odamlar uy qurib yashaganlar. SHu tepalikdan 1961 yili katta xum topildi. Xumning ichida eski tangalar, kamon o'qining uchlari topildi. Aqliqiron ota vafotidan keyin qishloq shu shayx nomi bilan Aqliqiron ota deb atala boshlagan. XVIII asrda shayxga atab masjid qurilgan. Qishloq nomi oldin Aqliqiron, so'ng Alaqar, keyinchalik Olaqarg'a bo'lib, o'zgarib ketgan. Masjid esa Aqliqiron otaligicha qolavergan. Bu masjid hozir ham bor. Hozirgi vaqtda ham qishloq Olaqarg'a nomi bilan atalib kelinmoqda.

Boybichakon — Qashqadaryo viloyati Dehqonobod rayonidagi osh tuzi koni. Boybicha — boyning katta xotini, ba'zan boy xotin degan ma'noni ham anglatadi. Boybichakon nomi bilan atalgan qishloq yonidagi tuz koniga ham shu nom berilgan.

SHagarak — Qashqadaryo viloyati CHiroqchi rayonidagi qishloq. Qashqadaryo viloyatida istiqomat qilib turgan saroy qabilasi tarkibiga kiradigan qipchoq saroy urug'ining bir qismini shagarak deyishadi. Zarafshon vodiysida ham bu urug' shagarak deb atalgan.

Uqituvchi Surxondaryo viloyati hududidagi toponimlar tarixini o'rganishdan avval Surxondaryo so'zining etimologiyasiga ham qisqacha to'xtalib o'tishi lozim. Viloyat nomining kelib chiqish tarixi haqida tushuncha berilgandan so'ng o'quvchilar diqqati uning rayonlari, qishloq, ovullari nomlari tarixiga jalb qilinadi.

Surxondaryo — tojik tilidan olingan bo'lib, «surx» — qizil, ya'ni Qizil daryo demakdir. Surxondaryo bosh oladigan tog' tizmalari, daralar, tog' jinslarida qizil ranglar mavjud. Suv bu jinslarni o'zi bilan oqizib kelganligi sababli qizil tusli tuyuladi. SHuning uchun erli xalq — qizil daryoni tojik tilida «Surxondaryo» deb atashgan.

Termiz — Grek — Baqtriya davlati davrida Termiz «Tarimita» nomi bilan, Makedonskiyning istilochilik davrida «Aleksandriya» deb atalgan. Somoniylar davrida «SHaxri somoniy» deb ham atalgan. X asrning oxirida shaxar yana Termiz deb ataladi. Termiz nomi «Avesto» yozuvlarida tilga olinadi. Termiz shahri tarixi xaqida ayrim afsonalar mavjud. Aytishlariga qaraganda, grek askarlari shaharni bir necha kun qamal qilib turgan. SHaxar mustaxkam baland devor bilan o'ralganligi tufayli shaharni ololmay, oxiri hiyla ishlatganlar — shahar boshliqlarini qo'lga olib, qarshilik ko'rsatganlarni esa katta bir masjidda qamab, o't qo'yib yuborganlar. SHaxar dushmanlar qo'lga o'tgach, aholi masjiddagilarga achinishib, biror kishi yoki tirik jon qoldimi? — deb chaqirganlar. SHunda masjid ichidan «biz tirikmiz», degan sado chiqqan. «Biz tirikmiz» degan so'z bora-bora «termiz» bo'lib ketgan deyishadi. Albatta, bu afsona haqiqatdan uzoq. SHahar dastlab Tarmita, Tarmeta deb talaffuz etilgan.

SHunday qilib, Termiz Balx shahrining yarmi, daryoning narigi tomonidagi qismi, deb hisoblangan. Termiz rayonidagi Namuna kolxozi hududida milodimizning VI — VII asrlarida g'ishtdan qurilgan juda katta Qariqiz binosining xarobalari bor. SHahar Mo'g'ullar tomonidan vayron qilingan bir qancha vaqt o'tgandan keyin qaytadan qurilgan.

Hakim at-Termiziy dahmasi — o'rta asrda Termiz atrofi mustahkam devor bilan o'ralgan bo'lib, saroylar va masjidlar qurilgan. Hunarmandlar va savdogarlar guzarlari barpo etilib, obodonlashtirilgan. Qal'aning etak tomonida Hakim at-Termiziy ansambli bunyod etilgan. XIII asrda CHingizxon qo'shinlari bostirib kirib, shaxarni vayron etganda shu ansambl' omon qolgan.

SHayx Abu Abdulloh ibn Ali ibn Muhammad Hakim at-Termiziy IX asrning oxirida Termizda yashagan. U bir qancha ilmiy asarlar yaratgan (lekin ular bizgacha etib kelmagan). Arab tarixchilari va geograflarining ba'zi asarlarini ham tarjima qilgan. Hakim at-Termiziy 869 yilda vafot etgan. X — XI asrlarga kelib uning qabri ustiga uncha katta bo'lmagan dahma

qurilgan. Dahmaga turli xil rangda jilo berilgan. XII asrda dahma tamoman qaytadan qurilib, murakkab bezaklar bilan bezatilgan. Qabr ustiga oq marmartosh yotqizilib unga Qur'on oyatlari va biografik ma'lumotlar yozib qo'yilgan.

Sulton Saodat ansambli — o'rta asr me'moriy yodgorliklaridan biri, Surxon daryosiga yaqin erda qad ko'tarib turibdi. X asrdan boshlab bu ansambl' sayidlar qabristoniga aylanib qolgan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, Termiz sayidlarining boshlig'i amir Husayn shu erda dafn etilgan. Ma'lumki, sayidlar o'zlarini Muhammad payg'ambarning bevosita avlodlari deb hisoblab, SHarq mamlakatlarining ijtimoiy-siyosiy hayotida katta rol' o'ynaganlar. Temur ham sayidlarni o'ziga yaqin tutgan. XVI asrda Abdullaxon Pularni o'zi tarafiga og'dirib olish maqsadida sayidlar avlodlarining maqbaralarini ziyorat qilgan va ayrimlarini qayta tiklatgan.

Sayidlarni dastlabki vaqtlarda ochiq erlarga dafn etganlar. X asr oxirlaridan boshlab mozar tepasida maqbara qura boshlaganlar. Maqbaralar har xil katta-kichiklikdagi pishiq g'ishtdan ishlangan bo'lib, ularni ishlagan ustalarning xdr biri o'ziga xos yangi elementlar bilan boyitishga harakat qilganlar. Maqbaralarning old tomoni sharqqa qaratilgan bo'lib, turli shakldagi g'ishtlar bilan chiroyli qilib ishlangan. Amir Husayn maqbarasi bu jihatdan boshqalardan ajralib turadi. Umuman, Sulton Saodat ansambli SHarq me'morchiligi taraqqiyotining 700 yillik davrini o'z ichiga oladi.

Zurmala minorasi Hozirgi Termiz shahridan 10 kilometr chamasi narida, Amudaryo shimolga tomon keskin buriladigan erda eski Termiz xarobasi saqlanib qolgan. Ana shu erda Zup^ala nomi bilan ataladigan 12 metrli minora qad ko'tarib turibdi. Garchi minora xarob bo'lib ketgan bo'lsada, u mahobatlidir. A'lo sifatli g'ishtdan tiklangan minoraning poydevori nihoyatda mustahkam ishlangan.

Minoraning tashqi tomoniga aylanma zinapoya ishlangan bo'lib, ichki tomonida qop-qorong'i yo'lak bor. Zurmala minorasi eski Termiz bilan deyarli tengdosh milodimizning dastlabki asrlarida bunyod etilgan. Zurmala minorasi budda diniga topinganlar tomonidan qurilgan bo'lib, uni balog'at uyi deb atashgan.

Termiz milodimizning dastlabki asrlarida asosiy yadrosi Baqtriya hisoblangan Kushon podsholigi tarkibiga kirgan. Ana shu vaqtda shahar obod bo'lgan. Kushon davridan boshlab Surxondaryoning hozirgi hududiga buddizm kirib kela boshlagan. Bu erga buddiy missionerlari kelib saroylar, butxonalar qurganlar.

Qirqqiz qasri Termiz shahridan olti kilometr naridagi «Namuna» kolxozi hududida joylashgan qadi-miy Qirqqiz qasri xarobalari haybatli ko'rinishi bilan kishi e'tiborini o'ziga tortadi. Bu yodgorlik XVIII asr o'zbek xalq eposi bilan bog'langan. «Qirqqiz» — bu podshoh Guloyim va uning qirqta kanizagi haqidagi ertakdir. Qirqqiz qasri qal'ani eslatsada, lekin aslida yirik feodalning qasri bo'lgan. Ikki qavatli qasr IX asrda bunyod etilgan bo'lib, karvonlar o'ta turib, bu erda dam olganlar, yozning jazirama issig'ida shu joyda jon saqlaganlar. Qasr an'anaviy SHarq me'morchiligi uslubida qurilgan. Bu yodgorlikda arablargacha bo'lgan o'rta Osiyoga xos me'morchilik maktabining uslubi ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Kasr dushmanning har qanday hujumidan, ayniqsa feodallarning o'zaro urushlaridan himoya qilishga moslab qurilgan.

Qirqqiz qasri inson hunarmandchiligi san'ati namunasi bo'lib, oddiy tuproq — loydan yaratilgan bu koshona ijodkorlarining, me'morlarining nomi ma'lum emas. Oradan ko'p yillar o'tdi. Qasr xarobaga aylandi. Ammo Qirqqiz qasri IX asrning noyob inshooti sifatida savlat to'kib turibdi.

Jarqo'rg'on minorasi — hozirgi Jarqo'rg'on rayoni markaziga yaqin erda bundan 860 yil burun bunyod etilgan ajoyib minora qad ko'tarib turibdi. Bir vaqtlar bu minora masjid bo'lib xizmat qilgan. Bizgacha minoraning xarobasigina etib kelgan. Hozir minora ta'mirlanib asl holiga keltirildi. Minora o'rta asrga xos SHarq me'morchiligida munosib o'rin egallaydi. Baland minoraning qubباسi shaxdrga fayz baxsh etadi. O'sha vaqtlarda so'filar shu minora tepasidan turib azon aytganlar. Minoradan atrofga har xil voqealar to'g'risida darak berishda ham foydalanganlar. Minora XII asrda qayta tiklangan. Minora bezaklari g'ishtdan ishlangan. U pastdan yuqoriga tomon ingichkalantirib qurilganki, bu osmono'par minorani tomosha qilish kishiga zavq baxsh etadi. Minora ichiga sakkiz qirrali qilib supacha o'rnatilgan. Minora

tashqarisiga ishlangan o`n olti dumaloq kolonna esa xuddi minoraga o`ralgan lentaga o`xshab turibdi. Minoraning pastki qismidagi ettita qirrasiga g`ishtni o`yib yozuv yozilgan bo`lib, sakkizinchi qirra bilan to`qqizinchi qirra oralig`idagi yo`l orqali minoraning ichidagi aylanma zinapoyalariga chiqiladi. Minoraning saqlanib qolgan yozuvlaridan birida shu minorani yaratgan me`morning ismi va bunyod etilgan yo`li ko`rsatilgan. Me`morning ismi Ali bo`lib, hozirgi Turkmanistonning Seraxs shahrida istiqomat qilgan Muhammadning o`g`li ekan. Minora hijriy 502 yilda, ya`ni 1108—1109 yillarda bunyod etilgan. Minoraning yuqori qismi vayron bo`lib ketgan. Qolgan qismining balandligi 30 metr chamasi keladi. Tadqiqotchilarning taxminiga qaraganda, minoraning balandligi 40 metrdan ortiq bo`lgan. Uning aylanasi 17 metrcha keladi.

**Zarautsoy qo`riqxonasi** — Termizdan yuz kilometr narida KO`hitog` oralig`ida Zarautsoy nomli manzarali joy bor. Er osti suvlari, yomg`ir va shamol natijasida qoyalarda juda ko`p shalolalar, g`orlar paydo bo`lgan. 1932 yilda ovchi va o`lkashunos I. F. Lomaev tog`li qishloq aholisidan zaraut — kamar nomi bilan mashhur bo`lgan «Qizil suratli g`orlar» to`g`risidagi afsonani eshitib qoladi va bu sirli rasmlar hiqidagi ma`lumotni Surxondaryo viloyati o`lkashunoslik muzeyiga ma`lum qiladi. Toshlarga tushirilgan rasmlar olimlar e`tiborini o`ziga tortadi. Arxeologlar va rassomlar barcha g`orlarni o`rganishadi. Tekshirishlar natijasida toshlarga solingan 200 dan ortiq rasm aniqlandi. Lekin ulardan faqat o`ttiztasigina yaxshi saqlanib qolgan bo`lib, ibtidoiy jamiyat kishilari ovchilik bilan shug`ullanganliklaridan dalolat beradi.

Zarautsoy toshlaridagi rasmlarning nusxasi olingan bo`lib, ular viloyat o`lkashunoslik muzeyi fondida saqlanmoqda. Zarautsoydagi rasmlar tosh davriga, ya`ni paleolit, mezolit, neolit davrlariga mansubdir. Ba`zi rasmlar mezolit davrining oxirlarida yaratilgan bo`lsa, ba`zilari milodimizdan oldingi **III — II** asrlarda kashf etilgan, ayrimlari milodimizning boshlanishiga yaqin bunyod etilgan bo`lsa ajab emas. Ming yillar o`tishi bilan rasmlar o`z rangi va sayqalini yo`qotgan bo`lsa-da, uzoq o`tmishdan saqlanib qolgan yodgorlik sifatida qimmatlidir.

Sariosiyo — bunday deb atalishiga sabab, kishilarning aytishlariga qaraganda, bir vaqtlar shu erda bir kishi tegirmon qurgan va uning atrofiga kelib, uy-joy qurib, o`rnasha boshlaganlar. Asta-sekin bu er qishloqqa aylangan, aholisining ko`pchiligi tojiklardan iborat bo`lganligi sababli ular o`z qishloqlarini «Tegirmon boshi», ya`ni tojikcha «Sariosiyo» deb ataganlar. Sariosiyo keyingi davrda o`sib rivojlandi. Qishloq shaharga — rayon markaziga aylanib qoldi. Hozir ham Sariosiyo rayon markazidir.

Qarsagan — Sho`rchi rayonidagi qishloq nomi. Aslida Qarsakgan yoki Qarsakkon bo`lishi kerak. Mahalliy xalq tulkingning bir turini qarsak deb atagan. Qadimgi turkiy tilda Mahmud Koshg`ariyning «Devonu lug`atit turk» asarida ham qarsak tulkilar jinsidan bo`lgan bir hayvon, uning oq o`siq terisidan po`stin qilinadi, deb aytilgan. Agar bu so`zni «qarasagan» tarzida oladigan bo`lsak, «qarsak» tulkingning bir turi, «gan» tojikcha ko`plik affiksidi.

YUrtchi — Denov rayonidagi qishloq. Aslida «yurtchi» bo`lishi kerak. «YUrtchi» so`zining o`zini esa quyidagicha izohlash mumkin: a) ko`chib qo`nadigan joy; b) ko`chmanchilar yashaydigan joy; v) yaylov. Bu qadimgi turkiy so`z bo`lib, chorvadorlar va ko`chmanchilar yashaydigan joyga nisbatan ishlatilib kelingan. Fikrimizcha, yurtchi «yurtjo», ya`ni yurtjoy o`rin demakdir. «YUrtjoy», «yurtchi» shaklida qo`llanib kelinmoqda. YUrtchi so`zining kelib chiqish tarixini B. A. Ahmedov o`zining «Istoriya Balxa» kitobida ilmiy ravishda isbotlab bergan.

Boldir — Surxondaryo viloyatidagi qishloq nomy. etimologik jihatdan bu so`z qadimgi turkiy so`z bo`lib, asl ma`nosi tog` burniga o`xshagan ko`tarilib chiqqan narsa, demakdir. Mahmud Koshg`ariyning «Devonu lug`atit turk» asarida boldir — tog` burni tarzida uchraydi. SHuningdek, devonda «boldir» boshqa komponentlar bilan qo`shilib, boldir o`g`il, qiz (O`gay o`g`il, o`gay qiz) ma`nosida ham qo`llanilgan.

Dehbolo — Boysun rayonidagi qishloq. Erli xalq «diybola», «dibolo» tarzida talaffuz qiladi. Bu so`z tojikcha deh, (qishloq), bolo (baland yuqori) komponentlaridan tashkil topgan, dehbolo — «yuqori qishloq» demakdir. Dehbolo nomi bilan ataladigan qishloqlar respublikamizning Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida ham uchraydi.

Pulxokin — Boysun rayonidagi qishloq. Qishloqning shimoliy qismida er osti sizot suvlarining qo`shilishi natijasida katta ariq paydo bo`lgan va tabiiy holda er qatlami tagidan oqib

o'tib ko'prik shakliga kelib qolgan. Pulxokin fors-tojikcha pul (ko'prik), xok (tuproq) komponentlaridan tashkil topgan, «kin» esa tojikcha sifat yasovchi qo'shimchadir. SHunga ko'ra Pulxokin — tuproqli ko'prik, degan ma'no ni bildiradi. Qishloqqa ham «tuproq ko'prik» nomi berilgan.

Egarchi — Boysun rayonidagi qishloq. Mahalliy xalq «iyarchi» deb ataydi. Aytishlaricha, bu qishloq joylashgan er otning egariga o'xshagan bo'lganligi uchun «iyarchi» deb atalgan. Fikrimizcha, bu qishloqda qachonlardir egar yasovchi kosiblar bo'lgan va shuning uchun «egarchilar» yashaydigan joy deb nomlangan bo'lsa kerak.

8 mart qishlog'ining tarixi. Bu qishloq Sariosiyo rayonida joylashgan. Oktyabr to'ntarishidan oldin u qishloq o'rnini to'qay va mayda ko'llar qoplab yotar edi. U erda har xil vahshiy hayvonlar ko'p bo'lgan. Keyinchalik bu erlar asta-sekin o'zlashtirilib, yangi erlar ochildi, yangi uylar qurildi va odamlar yashay boshladilar. Qishloqda avval juda ko'p ko'l bo'lganligi sababli «Ko'l qishlog'i» deb ham atalib kelgan. 2-jahon urushi yillarida qishloq xo'jalik ishlarini boshqarish xotin-qizlar zimmasiga tushganligi, hamma ishlarni xotin-qizlar bajarganligi uchun «Ko'l» qishlog'iga 1946 yili Xalqaro xotin-qizlar kuni bayrami «8 mart qishlog'i» deb nom berilgan.

Sho'rchi — Surxondaryo viloyatining rayonlaridan biri, u 1935 yilda tashkil topgan. Sho'rchi deb nomlanishiga asosiy sabab rayon hududidagi erlar hech narsa ekib bo'lmaydigan darajada sho'r bo'lgan. SHuning uchun ham Sho'rchi nomini olgan. Hozirga qadar ekin ekishdan avval sho'ri yuvilib, so'ng ekin ekiladi.

Boysun — Surxondaryo viloyatining rayonlaridan biri. Uning nomi haqida har xil fikrlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga qaraganda, Boysun toponimi kishi nomi bilan, ya'ni tarixiy shaxs bo'lgan Amir Temurning nevarasi Boysunqur nomi bilan aloqador deb hisoblaydilar. Boysunqur — SHohruhning uchinchi o'g'li. Onasi Gavharshodbegim. Astrobod va Jurjon viloyatlarining hokimi bo'lgan. Boysunqur so'zining qur affiksi tushib qolib Boysun bo'lib qolgan, degan fikrlar ham mavjud.

Bu rayon hududida toponimikasi qiziq bo'lgan qishloqlar ko'p uchraydi. Masalan:

Ajrim — 6u qishloq nomining ma'nosi ajratilgan bo'lib, berilgan degan ma'noni anglatuvchi o'zbekcha nomdir. Qishloq geografik joylashishiga ko'ra markazdan juda chekkada, aholi soni kam. To'ntarishdan oldin boy-imomlar erlarni dehqonlarga chorikor sifatida bo'lib-bo'lib, ajratib, chegaralarini ajrim qilib bergan. Erdan olingan hosilning to'rtidan birini o'sha boylarga berishgan. CHorikorlar o'z erlarini aniq ajratib olganlar, shuning uchun bu qishloq nomi Ajrim bo'lib qolgan deyishadi.

Dashtig'oz — bu qishloq nomining ma'nosi ikki tarkibiy qismdan: «dasht» va «g'oz» so'zidan iborat. Bu erdan soy o'tgan, soy er sathidan juda chuqur bo'lib, o'z sohillariga suv bermagan. Suvdan dasht tomonlardan uchib kelgan o'rdak va g'ozlargina naflanganlar, xolos. SHuning uchun bu joyni dashtdan kelgan g'ozlar yashaydigan joy, deb ataganlar. Mahalliy xalq (tojiklar) bu so'zlarni birga qo'shib Dashtig'oz deb yuritganlar. Hozir ham shu nom bilan ataladi.

DUGOBA — (duoba) — tog' qishlog'i bo'lib, ikki soy qo'shilishi joyida joylashganligi uchun shu nom berilgan. Haqiqatan ham qishloq Qayroq va Xo'janpok daryosi qo'shilgan joyda joylashgan. Tojikcha Dugoba bo'lib o'zlashtirilgan.

Jarqishloq — o'zbekcha nom bo'lib, jar bo'yidagi qishloq ma'nosini bildiradi va hozir ham shu nomda ataladi.

Jo'ja buloq — tog' oldi yaylovi. Sero't, sersuv erda joylashgan. Bu erga berilgan nom o'zbekcha bo'lib, ma'nosi joy sharoitiga qarab berilgandir. CHunki bu er ovloq joy bo'lib, yozda qushlar bemalol bola ochishgan. YOz mobaynida jo'jalarning chiy-chiyi tinmagan, jo'ja — kichik ma'nosida qo'llanilgan. Bu kichik buloq degan ma'noni ham bildiradi.

Zarang buloq. Afsonalarga ko'ra, bu erda chorvadorlarning homiysi xalok bo'lgan emish. Uning qabri buloq boshida bo'lib, buloq ustidan zarang daraxti o'sib chiqqan. Zarang tagida buloq bo'lgani uchun bu joyni Zarang buloq deyishgan. Haqiqatan ham buloq atrofida odam quchog'iga sig'maydigan zarang daraxti hozir ham qad ko'tarib turibdi.

Omonxona. Afsonada aytilishicha hazrati Ali Boysun tog'larini tomosha qilib yurib, shu qishloqda dam olgan va yotishda doimo: «omon bo'l», «dushman tegmasin», deb yotar erkan. Qishloq chuqur darada joylashganki, hozirda ham bu erni topish ancha qiyin. Qishloq janjal-to'olonlardan xoli bo'lgani uchun ham shunday atalgan bo'lishi mumkin. Qishloqning shimol tarafida shifobaxsh suv chiqadigan joy va tabiiy muzxona bor. Bu shifobaxshlik xususiyatidan din arboblari ustalik bilan foydalanganlar va o'sha erni boylik to'plash manbaiga aylantirganlar. YUqoridagi afsonalar haqiqatga juda yaqin. Qishloq hamma tomondan tog' bilan o'ralgan, xotirjam yashash mumkin bo'lgani uchun ham unga Tinxona, Omonxona deb nom bergan bo'lishlari mumkin.

Sariqamish — qishloq ikki xil nomlanishiga sabab eskidan hunarmandchilik rivojlanib, bo'ya to'quvchilar (bo'ya esa qurigan qamishdan to'qilgan) markazi bo'lganligidir. Qishloqning shimolidagi changalzorlarda o'sadigan qamishzorga nisbatan — qamish, changalzor qurigach bu erdagi qamishlar uzoq vaqt sarg'ayib yotishiga nisbatan sariq, ya'ni Sariqamish bo'lib qolgan.

Qizil to'lqin — 40-yillarda qurilgan qishloq. Dastlab bu er «Qizil to'lqin» kolxozi hududi bo'lgan va aholi kelib joylashgan. Kollektivlashtirish to'lqini ommaviy tus olganligi uchun shunday nom olgan.

Qayroq — tog'liq qishloq. Tog'ning etagida joylashganligi uchun bu erda tabiiy sharoit natijasida toshlar silliqlashib, mehnat qurollarining tig'ini o'tkirlash uchun ishlatilgan. SHuning uchun bu erdan qayroq toshlar ko'plab olib ketilgan. Balkim qayroq tosh ko'p uchraganligi uchun shu nomni olgan bo'lishi mumkin. Natijada qishloq shu nomni olgan.

Qo'rg'oncha — uzoq tog'liq qishloq bo'lib, kichik qo'rg'on degan ma'noni beradi. Aytishlaricha, bu atrofda ikkita qo'rg'on bo'lgan. Bittasi mustahkam katta qo'rg'on bo'lgan, ikkinchisi kichkina. Bir kuni tabiiy ofat natijasida qattiq sel kelib, katta qo'rg'onni olib ketgan. Kichik qo'rg'on esa chetroqda bo'lgani uchun omon qolgan.

Qilichbot — bu joy shu erning ko'rinishiga qarab berilgan. Agarda biron balandlik joydan qishloqqa nazar solinsa, uy va bog'lar cho'zilib qilichga o'xshab ketadi.

Qo'shbuloq — ikki buloq suvining qo'shilishiga qarab nomlangan. Zarang buloq bilan Ko'kbuloq o'rtasida joylashgan. Buloq o'rtasi serot, ajoyib yaylov. Bu er yashash uchun qulay bo'lganligi sababli qadimdan axoli istiqomat qilgan. Demak, qo'shbuloq nomi bilan YAngiobod qishlog'i vujudga kelgan. Hozir ham shu nom bilan ataladi.

Morbuloq — ajoyib, manzarali yaylov markazidagi buloq nomi. Aytishlaricha, shu buloqdan kechaning ma'lum paytida katta bir ilon chiqib turar ekan. Tasodifan uni bir kishi ko'rib qolib, yuragi yorilib o'lganmish. SHundan so'ng, bu buloq morbuloq, ya'ni ilonbuloq deb atala boshlagan. SHu nom hozir ham saqlanib qolgan.

O'rtabo'z — markazdagi qo'riq degan ma'noni bildiradi. CHunki qishloq atrofi katta suvsiz tekislikdan iborat. O'sha qishloq joylashgan hududgina o'zlashtirilgan bo'lib, o'rtabo'z, ya'ni markaziy bo'z er deb atalgan. Keyinchalik boshqa erlar ham o'zlashtirilgan, ammo qishloqning nomi o'rtabo'z bo'lib qolgan.

Selga — Surxondaryo viloyatidagi Bobotog' etagidagi dara va qishloq nomi. Ko'klam paytida sel keladigan soylik va shuningdek dara og'zida sel kelgan loyqa chirindi qumlardan hosil bo'lgan unumdor erlar «selga» yoki «selcha» erlar deyiladi.

Gilambop — Surxondaryo viloyati Angor rayonidagi qishloq nomi. Tojikcha gilambop — gilam to'quvchi demakdir. Gilambopli degan urug' ham bo'lgan.

Guliob — Surxondaryo viloyati Sariosiyo rayonidagi qishloq nomi. Guliob, gulob — atirgul suvi. Ilgari atirgul bargini qaynatib, bug'latib tayyorlangan xushbo'y suv gulob deyilgan. Ko'chma ma'nodagi toponim, ammo hozir qishloqda «gulob» tayyorlanmasa ham atirgul ko'p o'sadi.

4. Samarqand viloyati toponimikasi va uni o'rganish

O'zbekiston tarixi kursidagi «Temur davlatining tashkil topishi» deb nomlangan mavzuni o'tish jarayonida Samarqand viloyati kolxoz, sovxoz, qishloq rayonlari toponimikasini o'rganish va undan darsda foydalanishga bag'ishlangan namunaviy dars rejasi.

Darsni tashkil qilish: a) sinfnig darsga hozirligini kuzatish: b) o'quvchilar diqqatini darsga jalb qilish.

O'tilgan mavzu: «XVI asrda madaniyatning rivojlanishi» mavzusi yuzasidan o'qituvchi o'quvchilardan so'raydi, o'tilgan mavzuga qisqacha yakun yasab, yangi mavzuni boshlaydi.

Jom qishlog'i — Samarqand viloyatining Nurobod rayonidagi qishloqning nomi. Bu so'z fors tilidan olingan bo'lib, qadah, metallardan yoki sopoldan yasalgan idish demakdir. Chunki qishloqning hamma tomoni tog' bilan o'ralgan bo'lib, xuddi jomga, ya'ni kosaga o'xshaydi. Jom deyilishining boisi xam ana shu o'xshashlikdan kelib chiqqan.

Kattaqo'rg'on — Samarqand viloyatiga qarashli shahar. Zarafshon vodiysining tekislik qismida, Narpay arig'ining chap sohilida, dengiz sathidan 485 metr balandlikda joylashgan. Ko'pgina arxeologiyaga oid qazishma ishlari olib borilganligi natijasida Kattaqo'rg'onida ko'pgina ossuariy, ya'ni ostadonlar (sopol tobutlar) topilgan. Tobutda suyaklar, dafn marosimining urf-odatlarini tasvirlovchi rasmlar saqlanib qolgan. Kattaqo'rg'on yaqinida qadimgi Rabinjon shahri qoldiqlari topildi. Rabinjon shahrini XII asrda Xorazm xoni talab, vayron qilgan. Kattaqo'rg'onning eski shahar qismi XVII asrning so'ngida vujudga kelgan. XVIII asrda katta shaharlar qatorida hisoblangan. Shahar qalin paxsa devor bilan o'rab olingan, uning to'rtta darvozasi bo'lgan. Shahar katta bo'lganligi uchun ham Kattaqo'rg'on deb nom olgan.

Nurota — Samarqand viloyatiga qarashli rayonlardan biri bo'lib, shu nom bilan ataluvchi rayon markazidir. Rayon tog' bilan o'ralgan, xushtabiat, go'zal manzarali joydir. Nurota rayonining tashkil topish tarixi haqida ba'zi bir afsonalar saqlanib qolgan. Shu afsonalarga qaraganda, dastlab uning hududida hech kimsa yashamagan. To'rt tomoni tog' bilan o'ralgan, suvsiz bir sahro ekan. Savdogarlarning karvon yo'li shu erdan o'tar ekan. Kunlardan bir kuni karvondan bir chol adashib, qolib ketibdi. Cholning jazirama issig'iga dosh berolmay suv izlab ko'p yo'l bosibdi. Oxiri bir baland qirga etib kelibdi. Chol qirning tepasiga chiqib atrofni kuzatibdi. Shunda uning ko'ziga qirning yonida ko'karib turgan bir tutamgina o't ko'rinibdi. Chol oldin shunday yozning jazirama kunida ko'karib o'sib turgan o'tni ko'rib hayron bo'libdi. Qirdan tushib, o'tga yaqinlashib kelgan sari u namlikni sezibdi. Keyin o't atrofni qo'li bilan kovlab ko'rgan ekan, ozgina kovlagandan keyin loy chiqibdi. Chol charchashni ham bilmay kovlayveribdi. Shunda kovlagan eridan jimirlab suv chiqibdi. Chol bundan juda ham xursand bo'lib ketibdi. U kovlab suv chiqargan joyning atrofni tosh bilan o'rab, shu erda yashay boshlabdi. Bu erdan o'tayotgan savdogarlar shu qir atrofida to'xtab, bir-ikki kun dam olib suv ichib, keyin ketishadigan bo'libdi. Cholning oti Nur bo'lgan ekan. Undan minnatdor bo'lgan odamlar uni hurmat qilishib Nurota deb murojaat qilishar ekan. Shu-shu suv chiqqan joyga «Nurota bulog'i» deb nom berilibdi. Vaqt o'tishi bilan bu joyga odamlar kelib yashay boshlabdi. Hudud kengayibdi. Bu erga buloq nomi bilan Nurota deb nom berilibdi.

Narpay — Samarqand viloyatiga qarashli rayon. 1926 yili tashkil topgan. Markazi Mirbozor bo'lgan. 1939 yili markaz Oqtosh posyolkasiga ko'chirilgan. Rayon o'rtasidan Narpay arig'i oqib o'tadi. Rayon nomi shu ariq nomi bilan ataladi. Ariq Kattaqo'rg'on suv omboridan boshlanib, Navoiy rayonigacha oqib boradi. Bu ariq dasht joylarni sug'orish uchun qazilgan; chuqurligi 20 metrcha, eni esa 25 metr. Vaqf hujjatlarida ta'kidlanishicha, Narpay so'zi fors tilidan olingan bo'lib, nor-tuya, poy-qadam degan ma'noni anglatadi. Yana bir joyda nor — erkak tuya, demak, poy — katta qadam, ya'ni Katta tuya nomiga qo'yilgan, deyishadi. Yana bir hujjatda shunday deyiladi: ko'chmanchi qabilalarning nor tuyasi yo'qolgan, tuyani shu dashtda o'tlab yurganda topishgan. Bu dasht boshqa dashtlarga qaraganda sero't, chorva mollarining yashashi uchun qulay bo'lganligi tufayli bu erlarda xalq chorvachilik bilan shug'ullangan. Keyinchalik esa odamlar bu erlarda o'troq holda yashab hayot kechira boshlaganlar.

Narpay tarixiy hujjatlarda va arab geografi ibn Havqal asarlarida Nahri pay shaklida tilga olingan. V. L. Vyatkin vaqf hujjatlarini o'rganib, Sug'dning eng obod qismini sug'orib kelgan bu

ariqning nomi aslida Nahri pay ekanligini isbot qildi. Nahri pay (naxr — arabcha «ariq-kanal») — bora-bora Narpay (mahalliy talaffuzda Norpoy) boʻlib ketgan. Sal yuqoridagi Zarafshondan boshlanadigan Payariq arigʻi Narpay nomining turkiycha shaklidir.

Beshqozoq — Samarqand viloyati Narpay rayonidagi qishloq. Qishloqning kelib chiqish tarixini rayon arxividagi manbalardan ham bilish mumkin. Qishloq 500 yil ilgari paydo boʻlgan. Bu qishloqning oʻmi bundan 500 yil ilgari choʻl boʻlgan. CHOʻlga koʻchmanchilar va chorvador qabilalardan beshta tuyachi qozoq kelib, oʻzining qora chodirini qurib, yashay boshlagan. Bu erlar yashash uchun qulay, suv manbai quduq boʻlgan. Suv 11 — 12 metr chuqurlikdan chiqadi. Keyinchalik har erdan odamlar kelib oʻrnasha boshlaganlar va bu joy qishloqqa aylangan. Qishloqning nomi qadimdan joylashib qolgan «beshta qozoq» soʻzidan olingan. Oʻshandan beri «Beshqozoq» deb ataladi.

Urgut — Samarqand viloyatidagi rayon nomi. Urgut tarixi tosh asrlardan boshlanadi. Urgut toponimikasi etimologiyasiga olimlarimiz koʻp yillardan buyon qiziqib keladilar. Mashhur rus sharqshunos olimi V. L. Vyatkin mangʻitlar hukmronligi davridan boshlab tarixiy hujjatlarda uchraydigan Arkut qishlogʻi Urgut deb atala boshlaganini aytadi. Ikkinchi toponimist S. Qoraev oʻzining «Geografik nomlar maʼnosini bilasizmi?» asarida bu nomning maʼnosi aniqlanmaganini qayd etadi. Ayrim kishilar esa Urgut nemis tilida yaxshi soat, yaxshi havo degan maʼnoni anglatadi, deyishadi va oʻz fikrlarining isboti sifatida rivoyatlar aytishadi. Baʼzilar Urkentni ur — oʻrta, kent — shahar, qishloq soʻzining buzilishidan kelib chiqqan, deyishadi. Biz esa Vyatkinning Urgut soʻzi mangʻitiylar davrida paydo boʻlgan degan fikrlarini, oʻsha davr tarixchisi Muhammad YOqubning «Gulshan ul-mulk» asarida Urgut toʻgʻrisidagi soʻzlarini, geograf olim N. G. Mallitskiyning Fargʻona vodiysidagi Mangʻit gʻori toʻgʻrisidagi maʼlumotlarini hisobga olib, Urgut toponimi mangʻitiylar hukmronligi davrida paydo boʻlgan, degan soʻzlarini eʼtirof etgan holda, V arabcha Urgut — ofat, faloqat, yaʼni yalangʻoch, ochiq, ship-shiydon boʻlgan joy, degan maʼnoni bildiri-shini aytmoqchimiz. Lekin Urgut toponimi etimologiya-sini aniqlashga hali nuqta qoʻyilgan emas. Urgut rayon 1926 yilda tashkil topgan. Urgutliklar hozirgacha oʻz tamakisi bilan mamlakatimizda mashhur.

Jumabozor — Samarqand viloyati Urgut rayonidagi qishloq nomi. Urgutdan 4 kilometr pastroqda joy-lashgan. Rivoyatlarga qaraganda, qadim zamonlarda Juma-bozorda odam yashamagan. U erlar qamishzor boʻlgan. Keyinchalik Jumabozorga ikkita odam kelib qamishdan oʻzlariga uy yasab olishgan. Mol boqib tirikchilik qilishgan, chunki bu er chorvachilik uchun qulay boʻlgan. SHuning uchun bu erga asta-sekin odamlar yoz vaqtlarida kelib turadigan boʻlishgan. Bora-bora odamlar koʻpayib, dehqonchilik bilan ham shugʻullana boshlaganlar. Suv kam boʻlganligi sababli Uramas qishlogʻidan oʻtadigan ka-naldan Jumabozorga suv olib kelishgan. endi bu erda odamlar dehqonchilik qila boshlaganlar. Lekin bu erda hali bozor yoʻq edi. Haftaning har yakshanba kuni Bogʻizogʻon qishlogʻida bozor boʻlgan. Bu bozorga borib kelish Uramas, Jumabozor, Uroqbayjar qishlogʻida istiqomat qiluvchi odamlarga uzoqlik qilgan. SHuning uchun odamlar xdr jumada bozor qilishga ruxsat olishgan, SHu bilan qishloqning nomi xdm Jumabozor boʻlib ketgan. Hozir xdm bu qishloqning nomi Jumabozor,

Sultonobod — Samarqand viloyatidagi qishloq nomi. Qishloqning Sultonobod deb atalishiga sabab, baʼzi bir kekxa otaxonlarimizning soʻzlariga qaraganda bu erda Sulton degan kishi oʻtgan. Usha vaqtlarda bu erlar choʻli-biyobon boʻlib yotgan. Sulton bu erga koʻpgina kishilarni toʻplab, suv chiqargan hamda serhovuzlar qazishgan, imoratlar qurishgan. SHu tariqa qishloqni obodonlashtirishgan. Ana shuning uchun bu qishloq shu kishining nomi bilan Sultonobod boʻlib qolgan.

Baʼzi bir kishilarning aytishicha, Sultonobod Buxoro amirining sayohatga oʻtadigan yoʻlida boʻlgan. Buxoro amiri ovga ketayotganda shu erga tushgan. Bu erda Sulton degan kishining saroyi boʻlgan. SHunda amir boboni chaqirib, unga «bu erni rabod qiling» deb aytgan. Rabod soʻzi tojikcha soʻz boʻlib, obod degan maʼnoni bildiradi. SHundan soʻng, shu kishining nomi bilan Sulton rabod boʻlib ketgan. Koʻp vaqtlar oʻtishi bilan qishloq tobora obodonlashtirilgandan soʻng Sultonobod deb atala boshlangan.

Qorakissa — Samarqand viloyatidagi qishloqlardan biri. Qishloqning o'tmishiga to'xtaladigan bo'lsak, uning tarixi mashhur. Qo'rg'on qishlog'i tarixi bilan bog'liqdir. SHuning uchun ham avvalo Qo'rg'on qishlog'i tarixi ustida to'xtalamiz. Qadim davrlarda yashagan qabilalar bu erda Qurg'on barpo qilishib, yov bosib kelganda unda jon saqlashgan. Bora-bora Qo'rg'onga kishilar ko'plab o'rmasa boshlaganlar. SHunday qilib, Qo'rg'on qishlog'i bunyodga kelgan. Bu qishloq Nurotadan keyin ikkinchi o'rinda turgan. Uning axoli yashaydigan yirik manzil bo'lganligini quyidagi taxminlar bilan tasdiqlash mumkin. Birinchidan, hozirgi Qo'rg'on qishlog'idan ikki kilometr g'arbroqda kichik Rabod degan qishloq bo'lgan. Ma'lumki, o'rta asrlarda shaharning tashqarisi rabod deb aytilgan. Balki Qo'rg'onning chetki qismi hozirgi Rabod hududigacha etgan bo'lishi mumkin.

Qorakissa qishlog'ining bunyodga kelishi shunday bo'lganki, taxminan XVI asrning oxiri — XVII asrning boshlariga kelib Qo'rg'on qishlog'i atrofidagi aholi tarqalib keta boshlagan. Bunga qurg'oqchilik sabab bo'lgan bo'lsa kerak. SHulardan bir guruhi janubroqqa Oqtog' tomonga siljigan. CHunki suv tog'dan kelgan. Suv kamaygach, aholi suvning boshlanishi tomonga siljigan. Bu toifadagi kishilar oq bo'z ko'ylakka qilinadigan cho'ntak og'zini qora mato bilan aylantirib, tikib chiqishgan. Ana shu sabab bo'lib Qorakissa qishlog'i qora kistaliklar (qora cho'ntakliklar) nomi bilan atala boshlagan. Qishloq hozir ham shu nom bilan ataladi.

Abdal — Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on rayonidagi qishloq nomi. Abdal — o'zbeklar tarkibiga kirgan etnik guruh.

Adas — Samarqand viloyati Urgut rayonidagi qishloq. Kenagas urug'ining bir qismi andas, yana bir qismi kalpis deyilgan. Andas bora-bora adas bo'lib ketgan bo'lsa kerak.

Achamayli — Samarqand viloyati Bulung'ur, Urgut rayonlaridagi qishloqlar nomi. Ba'zan Ochamayli, Achamoyli shakllarida talaffuz qilinadi. Qo'ng'iro't qabilasining vaxtamg'ali qismi, kenagas, yuz do'rman, nayman, qurama, marqa qabilalarining bir urug'i achamayli deb atalgan. Achamayli boshqa «j» lovchi turkiy shevalarda, jumladan, qoraqalpoq tilida, ashamayli shaklida uchraydi. YOsh bolalar minishi uchun ho'kiz yoki qo'tosga uriladigan egar achamay deyilgan. Achamayli (ochamayli) «egarli», «tamg'asi egar shaklidagi urug'» demakdir. etnograf N. A. Aristovning fikricha, achamayli etnonimi ach degan qadimgi qabila nomi bilan aloqador bo'lsa kerak.

Ayuchi — Samarqand viloyati Poyariq rayonidagi qishloq nomi. Dashti qipchoq urug'laridan biri parchalanib o'zbek va qirg'izlarning tarkibiga kirgan. Zarafshon qipchoqlarning bir urug'i ayuvchi (ayuchi) deb atalgan. SHundan qishloq nomi olingan, hozir xam shu nom bilan ataladi.

Badal — Samarqand viloyati Samarqand rayonida joylashgan qishloq. Badal «chakalakzor», «butazor» degan so'z. Laqay qabilasining kichik bir tarmog'i ham badal deb atalgan. Qishloq hozir ham shu nom bilan ataladi.

Barlos — Samarqand viloyati Bulung'ur, Ishtixon rayonlaridagi qishloqlar nomi, Surxondaryo viloyati Sariosiyo rayonida ham barlos qishlog'i bor. Barlos O'rta Osiyoda qadimdan yashab kelgan va o'zbeklarning tarkibiga kirgan qabila. Hozirgi vaqtda barloslarning avlodlari Ozbekistonning CHiroqchi, Koson, SHahrisabz, Boysun, Denov, Sariosiyo, Forish, Jizzah Zomin, Marhamat, Xo'jaobod, Ishtixon, Navoiy, Nurota, Urgut, G'allaorol rayonlarida istiqomat qiladilar. «Badoi al-lug'at» asarida barlos so'zi «mard, botir, qo'mondon» deb izohlangan.

Batal — Samarqand viloyati Pstdarg'om rayonidagi qishloq. Zarafshon vodiysidagi qoraqipchoqlarning kichikrok urug'i batal deb atalgan Qishloq shu nomdan kelib chiqqan.

Boyqut — Samarqand viloyati Narpay rayonida boyqut degan urug' bor. Qishloq o'z nomini shu urug' nomidan olgan.

Boldir — Samarqand viloyati Pstdarg'om rayonidagi qishloq, Surxondaryo viloyati Muzrabod tumanida ham shunday qishloq bor. Boldirdo'ng, tumshuq. Boldir degan etnonim ham bo'lsa kerak. Qishloq hozir ham shu nom bilan ataladi.

Bolg'ali — Samarqand viloyati Bulung'ur, Narpay, Oqdaryo, Pstdarg'om, Paxtakor, Xatirchi rayonlaridagi qishloqlarning nomi. Sirdaryo viloyati Zomin, Forish, G'allaorol

rayonlarida ham shu nom bilan ataluvchi qishloqlar mavjud. Qo`ng`irot, qoraxitoy, yuz qabilalari tarkibidagi urug`lardan biri tamg`asi bolg`a shaklida bo`lganidan bolg`ali deb atalgan. Bolg`a, bolg`ali urug`i boshqird, qozoq va boshqa turkiy xalqlar tarkibida ham tilga olinadi.

CHelak — Samarqand viloyati Payariq rayonida joy-lashgan qishloq. Toshkent viloyati Bekobod rayonida ham shunday qishloq bor. CHelak, to`g`risi, chelakli urug`i bo`lgan. Masalan, do`rman qabilasining bir shoxobchasi ko`kchelak deb atalgan. Payariq rayonida Oqchelak degan qishloq bor. Urgut nomlari ko`pincha juft-juft bo`lgan: oq mang`it, qora mang`it, oq qo`yli, qora qo`yli, oq nayman, qora nayman va hokazo. Demak chelak urug`i oq chelak, ko`k chelakka bo`lingan. Ko`rinib turibdiki, mazkur qishloqning nomi urug` nomidan olingan. Hozir ham shu nom bilan yuritiladi.

Ulus — Samarqand viloyati Pastdarg`om rayonidagi qishloq. Ulus so`zining xalq, yurt ma`nolari ham bor: har ulus necha ela va har el necha uymog`a va har uymo haymoq (necha bo`ya) bo`y va urug`ga taqsim qilinur, deb ta`kidlanadi Muhammad an-Narshaxiy asarida. Bu so`zlarning ma`nosidan qat`i nazar, qanjig`ali va qo`shtamg`ali urug`larning bir qismi, dahasi ulus deb atalgan, qishloq shu nomdan olingan.

Xilboshi — Samarqand viloyati Xatirchi rayonidagi qishloq nomi. «Xil» so`zining bir necha ma`nosi bor: nav, tur, zot va hokazo. Bu so`z avlod, toifa, urug`, irsiyat ma`nolarida ham qo`llaniladi. Masalan, qabristonda bir ajdoddan tarqalgan kishilar dafn qilinadigan joy xilxona deyiladi. Tojik, fors, pushtu (afg`on) tillaridan xil so`zi xel shaklida talaffuz qilinadi. Xilboshi yoki Xeylboshi bo`lishi ham mumkin, chunki Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asarida ham bu so`z Xeylboshi sifatida yozilgan bo`lib, avlodning boshi, urug` boshlig`i demakdir. Qishloq nomi shu so`zdan kelib chiqqan.

Xoncharvoq — Pastdarg`om rayonidagi qishloq. Xoncharvoq — «Xonning chorbog`i» degan ma`noni bildiradi. Qishloq hozir shu nom bilan ataladi.

Qoraguzar — Samarqand viloyatidagi dovon. Suvdan o`tiladigan joy — kechik, guzar deyiladi, tog`dan oshib o`tiladigan joy — dovon ham ba`zi joylarda guzar deb ataladi. Aniqlikrog`i tog`dan oshib o`tiladigan joy dovon deyiladi. Qorong`i joydan, tog` darasidan o`tilgan joyni Qoraguzar deb ataganlar.

Talli Barzu — Samarqand yaqinidagi tepalik: «baland tepalik» (tall — arabcha «tepalik», bara — so`g`dcha «baland» yoki «Barzu tepaligi») demakdir. Barzu — Firdavsiyning «SHoxnoma» dostoni qahramonlaridan biri — afsonaviy paxlavonning nabirasi (Barzu degan ism uzun bo`yli yoki martabali demakdir).

Tallak — Samarqand viloyati Ishtixon rayonidagi qishloq nomi. Tall — tepalik, do`nglik, ak — kichraytirish affiksi, kichik tepalik degan ma`noni bildiradi. Mazkur qishloq nomi shundan kelib chiqqan.

**Taxdso`h** — Samarqand viloyati Nurota rayonidagi tog`. Tahko`h taxt, ya`ni «baland», «yuksak» hamda ko`h — «tog`» so`zlaridan olingan bo`lib, baland tog` degan ma`noni bildiradi.

Temirqopuq — Samarqand viloyati Nurota rayonidagi qishloq nomi. Temirqopuq qadimgi so`z bo`lib, «temir darboza» demakdir. Tor daradan o`tgan tog` yo`li turkiycha Temirqopuq, tojikcha Darbandi ohanin, arabcha Bobili hadid deb atalgan va bu tillarning hammasida «Temir darvoza» degan ma`no yotadi. Surxondaryo viloyatidagi Bo`zg`olaxona (Koxlug) darasi, Jizzax yaqinidagi Ilono`tdi darasi ham ilgarilari Temirqopuq deb atalar edi. Demak, Temirqopuq juda qadimiy nomlardandir.

Tim — Samarqand viloyati Narpay rayonidagi qishloq. Tim juda qadimiy so`z bo`lib, usti yopiq bozor yoki rasta degan ma`noni anglatgan. Arablar kelmasdan oldin O`rta Osiyoda tim deganda har qanday bozor tushunilgan va bu so`zning «bozor» ma`nosi so`nggi vaqtlargacha saqlanib qolgan. Tim so`zi Tojikistondagi Mug` tepaligidan topilgan qadimgi (VIII asr) sug`d yozuvlarida va arab tilida yozilgan manbalarda uchraydi. Sug`d tilida ham tim «do`kon», «savdo binosi» ma`nosini bildiradi.

Arab sayyohi Eqtning (taxm. 1179—1229) yozishicha, Xurosonda tim karvonsaroy ma`nosini anglatgan. Fors lug`atlarida ham tim so`ziga «karvonsaroy» deb izoh berilgan. Mazkur qishloq nomi shundan olingan.

Toshqoq — Samarqand viloyati Narpay rayonidagi qishloq nomi. Tog'lardagi toshlar orasida yig'ilgan ko'lmak suv toshqoq deyiladi. Qishloq nomi ana shu so'zdan olingan.

Suluk — Samarqand viloyati Nurota rayonidagi qishloq nomi. Farg'ona viloyati Oxunboboev rayonida, Qashqadaryo viloyati CHiroqchi rayonida suvda yashaydigan jonivor — zulukni shevalarda suluk deyishadi. Agar shunday bo'lganda, bu so'z qandaydir boshqa komponent bilan birga qo'shilgan bo'lar edi (Sulukli, Zulukli va hokazo). So'g'd, So'g'diyona o'lkasining dialektal shakli Sulik bo'lgan va mazkur toponimlar shaklida bizgacha etib kelgan bo'lishi mumkin, chunki bu toponimlar aslida So'g'd hududida qayd qilingan.

So'g'd, So'g'diyona — Zarafshon va Qashqadaryo vohalarini o'z ichiga olgan tarixiy o'lka. Dastlab eron shahanshohi Doriyning mixxatida (miloddan oldingi VI asr) tilga olingan.

Arab geograflari asarlarida, shu jumladan, Istaxriy asarining AGK, 1, 286, 288, 289, 295 va boshqa betlarida hamda O. I. Smirnova va nemis sharqshunosi I. Markvartlarning yozishicha, «so'g'd» so'zi umumeron tillariga xos «sux» so'zidan olingan bo'lib, «yaltiramoq», «yonmoq», «nur sochmoq» degan ma'noni bildiradi. «Giyos al-lug'at» va boshqa qadimiy lug'atlarda suv to'planib qoladigan pasttekislik «so'g'd» deyiladi. SHarqshunos V. L. Vyatkin keltirgan ma'lumotlarga qaraganda maxalliy xalq sug'oriladigan, unumdor pastlik erlarni «sug'ud» deb atagan. Tarixchi olim O. I. Smirnova «Katalog monet s gorodisha Pendjikent» degan asarida sug'ud so'zi tojikcha «so'g'ud», ya'ni «sersuv obod joy» ma'nosini bildiradi, deydi.

Po'latchi — Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on rayonidagi qishloq nomi. Po'latchi degan urug' bo'lgan, qishloq o'sha nomdan kelib chiqqan.

Sanguzar — Samarqand viloyati Nurota rayonida joylashgan qishloq «Toshloq kechik» ma'nosidagi Sangguzar yoki «toshloq ma'nosidagi Sangzor (qishloq) bo'lsa kerak.

Sanjarfag'on — Urta asrlarda Samarqand yaqinida qurilgan qishloq. O. I. Smirnovning fikriga qaraganda, bu nom ikki qismdan iborat: sangarama — «monastir'» va fag'an «ibodatxona» (O. I. Smirnova, «Mesta domusul'manskix kul'tov», 94-bet).

Saronan — Samarqand viloyati Narpay rayonidagi qishloq nomi. Tojikcha saronon jon boshidan olinadigan soliq. Saronon (saronagan) soliqlar, saron so'zining «harbiylar», «sarkardalar» degan ma'nosi ham bor. Qishloq hozir ham shu nom bilan ataladi.

Sebiston — Samarqand viloyati Xatirchi rayonidagi qishloq nomi. Tojikcha seb — olma, Sebiston — olmazor. Toshkent shahrida Sebzor toponimi ham bor.

Sinchi — Samarqand viloyati Pstdarg'om rayonidagi qishloq nomi. Otni yaxshi biladigan kishi sinchi deb atalgan. Hozir ham shu nom saqlangan.

Suluvqo'rg'on — Samarqand viloyati Narpay rayonidagi qishloq. «Suluv» so'zi toponimlar tarkibida ko'proq uchraydi. Masalan, Jizzax viloyati Zomin rayonida Suluvjo'na degan joy bor (jo'na — uzunasiga cho'zilgan tepalik), chiroyli tepalik degan ma'noni anglatadi. Qadimgi chiroyli qilib qurilgan qo'rg'onni suluvqo'rg'on deb atashgan. SHu qishloq o'rnida VI asrda qurilgan qo'rg'on qoldiqlari topilgan.

Nog'oraxona — Samarqand viloyati Narpay rayonidagi qishloq. Saroylarda musiqa asboblari (nog'ora, karnay, surnay) saqlanadigan va shu asboblarning ijrochilariga mo'ljallangan maxsus joy nog'oraxona (nakkoraxona) deyilgan. Saxnaga o'xshagan bir tomoni ochiq xonada maqomlar, har xil kuylar ijro etilgan. Qishloqdan nog'orachilar ko'p chiqqanligidan qishloq shu nomni olgan bo'lishi mumkin.

Ovxona — Samarqand viloyat Pstdarg'om rayonidagi qishloq nomi. «Ov» qilinadigan joy yoki «suv ombori» (obxona) ma'nosida bo'lsa kerak. Obxona — ovxona bo'lib buzilib ketgan bo'lishi mumkin. Aslida suv ombori ma'nosi haqiqatga yaqin.

Orlot — Samarqand viloyat Ishtixon, Nurota rayonlaridagi qishloqlar nomi. Orlot — CHingizxon o'z o'g'li CHig'atoyga taqdim etgan to'rtta Mo'g'ul qabilasidan biridir. Bu qabila hozirgi Afg'onistonning shimoliy qismiga o'rnatilib qolgan. Movarounnahrda orlotlar kam bo'lsa ham nufuzli qabilalardan hisoblangan, deb ta'kidlaydi o'zining «Ocherklari»da B. X. Karmisheva. Orlot qabilasi 92 bo'li o'zbek «qavmlari» qatorida ko'plab tarixiy manbalarda tilga olingan. Qabila pilot, olot shakllarda ham talaffuz qilingan. Buxoro viloyati Qorako'l rayonidagi Olot qishlog'i ham o'sha etnonimdan olingan.

**Oytamg`ali** — Samarqand viloyati Narpay rayonidagi qishloq. Oqdaryo, Payariq rayonlarida, Jizzax viloyatining Forish rayonida Oytamg`ali, do`rmon, qipchoq, kurma, qo`ng`irot kabi o`zbek qabilalari tarkibiga kirgan urug`lar bor. Ulug` tamg`asi yangi oy (taqa) shaklida bo`lgan uchun Oytamg`ali deb atalgan. Qishloq ham shu nom bilan atalgan.

**Oqqo`yli** — Samarqand viloyati Pastdarg`om rayonidagi qishloq nomi. Oqqo`yli — urug` nomi. Qoraqo`yli nomlar ham mavjud.

**Og`aliq** — Samarqand viloyati Samarqand rayonidagi qishloq va tog` nomlari. To`g`risi, Ohaklik bo`lgan. CHunki, bu tog`dan XIV — XV asrlarda Samarqandda jome` masjidi qurish uchun ohaktosh qazib olingan. SHu bilan birga og`alik degan ijtimoiy atama bo`lgan. Farg`ona vodiysida esa og`alik degan urug` (etnonim) qayd qilingan.

Mavlush — Samarqand viloyati Oqdaryo rayonidagi qishloq nomi. Qo`ng`irot qabilasining bir urug`i mavlish deb atalgan (I. Magidovich). Qishloq nomi mana shu so`zdan kelib chiqqan.

Mojoy — Samarqand viloyati Narpay va Paxtachi rayonlaridagi qishloqlarning nomlari mojoy (mojar) — o`zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri. Ular XIX asr boshlarida Samarqand atrofida tog` yonbag`irlarida, Narpay arig`i bo`ylarida, SHahrisabz vohasida yashaganlar. Ba`zi bir olimlar mojoylar Vengriyaning asosiy aholisi mad`yarlar bilan qon-qarindosh deb hisoblaydilar.

Minglar — Samarqand viloyati Ishtixon rayonidagi Kattaming, Kattaqo`rg`on rayonidagi Mingqishloq, Sirdaryo viloyati G`allaorol rayonidagi ming urug`i yashaydigan qishloq nomlari. Ming (mingli) o`zbek xalq tarkibiga kirgan yirik qabilalardan biridir. 1917 yilgacha minglarning ko`pchilik qismi Farg`ona vodiysi hamda Buxoro vohasida, tarqoq holda Surxondaryo viloyati Boysun, SHerobod rayonlarida, Xorazmda va Tojikistonning Xisor rayonida yashagan. Minglarni ba`zan tumon yoki tumonming deb ham ataganlar.

Misr — Samarqand viloyati Narpay rayonidagi qishloq nomi. Amir Temur Samarqand atrofida bir necha shaharlar qurib, ularni chet mamlakatlarning bosh shaharlari nomi bilan Bag`dod, Dimishq (Damashq), Misr (Qohira), SHeroz va Sultoniya deb atagan.

Kamongaron — Samarqand viloyati Urgut rayonidagi qishloq nomi. «Kamon ustalari» demakdir. Ohangaron — «temirchilar», «So`zangaron» — «nina ustalari» ana shu turdagi toponimlardir. (3. Dusimov kamongaron toponimlarni kom (katta ariq) — ango (angiz) so`zlaridan va-on affiksidan iborat deb izohlaydi).

Kasovli — Samarqand viloyati Ishtixon rayonidagi qishloq nomi. Qo`ng`irot qabilasining bir shoxobchasi kesavli deb atalgan (tamg`asy kosov shaklida bo`lgan), qishloq nomi shu so`zdan olingan.

Kovon — Samarqand viloyati Pastdarg`om rayonidagi qishloq nomi. etimologiyasi noma`lum. Zarafshon vodiysida yashaydigan qoraqipchoqlarning bir urug`i kovon deb atalgan.

Koreys — Samarqand viloyati Kattaqo`rg`on rayonidagi qishloq. Koreys qishloq Poyariq rayonida ham bor. O`zbekistonga koreyslar 1920 yildan ko`chib kela boshlagan. Ular yashagan joylarni koreys qishlog`i deb ataganlar.

Ko`kqarg`a — Samarqand viloyati Narpay rayonidagi qishloq. Qarg`a urug`i ko`k qarg`a, qora qarg`a kabi tarmoqlarga bo`lingan bo`lsa kerak.

Ko`kqovg`a — Samarqand viloyati Nurota rayonidagi qishloq. Qo`ng`irot qabilasining bir urug`i qavqa deb atalgan. To`g`risi qovg`a bo`lsa kerak. Qovg`a — quruqdan suv tortadigan charm idish. Osmondagi 12 burjdan biri — dalv yulduzlar turkumi xam qovg`a deyilgan. Idish-tovoq, uy-ro`zg`or asboblari nomlari bilan atalgan urug`lar kam emas. Masalan, boltali, bolg`ali, cho`michli, kosovli va hokazo. Ko`kqarg`a — qovg`a (to`g`risi qovg`ali) urug`ining bir tarmog`i.

**Og`aliq** — Samarqand shahridan 20—22 km masofada joylashgan oromgoh. Hozirgi kunda u erda turistik baza joylashgan. Bu erdan to 1920 yillarga qadar samarqandliklar ohak olib ketishgan, shu sababdan bu joyni ohakli deb atashgan. Keyinchalik ohakli so`zi buzilib, joy ma`nosiga mos kelmaydigan nom — Og`aliq deb atala boshlagan. Hozir xdm shu nom bilan yuritiladi.

Loyqa — Samarqand viloyati Bulungʻur rayonidagi qishloq. Togʻlardan sel olib kelgan jinslardan xosil boʻlgan maydon loyqa deyiladi. Lekin bu qishloq Bulungur arigʻi yoqasida joylashgan. Bulungʻur Moʻgʻul tilida «loyqa suv» demakdir. Demak, loyqa bilan Bulungʻur «adash» nomlardir.

Zambar — Samarqand viloyati Nurota rayonidagi tog. Biron narsaning oʻrta qismi chuqur, ikki chekkasi baland boʻlsa zambar (zanbar, zambil) deyiladi. Masalan, zambarbel (zambilbel) ot.

Zanjirbogʻ — Samarqand yaqinidagi qishloq. Arab jugʻrofiy olimlarining asarlarida Samarqand viloyatining 12 rustaqlaridan biri Sanjarfagʻn deb atalgan. Sanjarfagʻn toponimi YAngiariq arigʻining oʻng tomonidagi Zanjirbogʻ qishlogʻi nomida saqlanib qolgan vaqf hujjatlarida «Sanjarfagʻn degan joy Zanjirbogʻ nomi bilan mashxurdir», deyiladi. Sanjarfagʻn nomi qompo-nentdan iborat, sangarma — sanskritcha «budda monastiri» va fagʻn (vagʻi) «ibodatxona» soʻzlaridan tashkil topgan.

Ishtixon — Samarqand viloyati Ishtixon rayonining markazi. Rivoyatga koʻra, Samarqanddan Ishtixongacha maxsus quvurda oqizilgan qimizdan podsho totib koʻrgan emish, xalq oʻshanda «Qimizni ichdi xon, xon ichdi» degan emish. SHundan buyon qishloq Ichta xon, keyinchalik Ishtixon boʻlib qolgan emish. Ishtixon Oʻrta Osiyodagi eng qadimiy toponimlardan biri. X asrdayoq Ishtixon kattagina shahar boʻlgan. O. I. Smirnovaning fikricha, Ishtixon soʻzi sugʻdcha «Sakkiz ariqli», «Sakkiz kanalli» maʼnosini bildiradi. Isht — xasht — sakkiz, xon — ariq, demak sakkiz ariq degan maʼnoni bildiradi. Qishloq shu soʻzdan olingan.

Yoʻgʻotepa — Samarqand viloyat Ishtixon rayonidagi qishloq. Toshkent yaqinida ham Yoʻgʻotepa degan joy bor (yoʻgʻon — katta, semiz, ulkan demakdir; ingichka nomli joylar ham bor). Yoʻgʻotepa — katta tepa degan maʼnoni anglatadi.

Kavsar — Samarqand viloyati Ishtixon rayonidagi qishloq nomi. Aslida biron-bir suv — buloq yoki koʻl nomi boʻlsa kerak. Qishloq suvi shirin boʻlganligi sababli «jannat suvi» — «jannat bulogʻi» degan nom olgan.

Gumbaz — Samarqand viloyati Pastdargʻom rayonidagi qishloq nomi. Qubbali bino gumbaz deyilgan, shu bilan birga toza suv saqlanadigan sardobalar ham usti pishgan gʻishtdan gumbazli qilib ishlanganligi sababli qisqagina gumbaz deb atalgan. Qishloq nomi xam oʻsha soʻzdan olingan. Zarafshon vohasida yashaydigan qora qipchoqlarning bir urugʻi gumbaz deb yuritilgan va qadimdan Pastdargʻom rayonida yashab kelgan.

Goʻrxokasoy — Samarqand viloyati Nurota rayonidagi soy. Goʻrxona mozor, qabriston degan maʼnoni anglatadi; qabristonga oʻxshagan joydan oʻtganligi sababli soyga ham Goʻrxonasoy deb nom berilgan.

Davlatobod — Samarqand viloyati Samarqand rayonidagi qishloq nomi. Temurning Samarqand shahridagi bogʻlaridan biri Davlatobod nomi bilan atalgan. Buning oʻrnida tashkil topgan qishloq xam oʻsha Temur bogʻining nomi bilan Davlatobod deb nomlangan.

Dahbed — Samarqand viloyati Oqdaryo rayonidagi qishloq. Tojikcha — dah — oʻn, bed — tol, yaʼni oʻntol degan maʼnoni anglatadi. Qishloq ham shu nom bilan yuritiladi.

Deybaland — Samarqand viloyati Nurota rayonidagi qishloq nomi. Tojikcha Dehibaland baland joydagi qishloq, yaʼni baland qishloq degan maʼnoni bildiradi. Qishloq shu nom bilan ataladi.

Dukchilik — Samarqand rayonidagi qishloq. Bu erda dukchilik (yikchilik), boʻz toʻqish uchun duk (yik) yasash kasbi bilan shugʻullanishgan. SHu sababdan kishlok shu nomni olgan.

Jaylov — Samarqand viloyati Xatirchi rayonidagi qishloq nomi. Jaylov — yaylov soʻzining shevada talaffuz etilishi. YAylov asli yozda mol-qoʻy boqiladigan joy demakdir. Qishloq nomi oʻsha soʻzdan olingan.

Jalpaqteva — Samarqand viloyati Urgut rayonidagi qishloq. Baʼzilar yalpoqtepa deb toʻgʻri talaffuz qiladilar. Oʻzbek-qipchoqlar tepa deyish oʻrniga «teva» deb talaffuz qiladilar. Qishloqda jarat urugʻi yashagani uchun uni Jarat ham deyishadi. YAlpoq tepani erli xalq shevasida Jalpoqtepa deyishadi.

**Jo`gi** - Samarqand viloyati Narpay rayonidagi qishloq nomi. Jo`gi — O`rta Osiyo lo`lilarining bir qavmi. Jo`gi so`zining «qashshoq», «kambag`al» ma`nosi ham bor.

Dapsan — tog` yonbag`ridagi tekis maydoncha, supa degan ma`noni anglatadi. Farg`ona viloyati O`zbekiston rayonida Depsan degan qishloq bor. Surxondaryo viloyati Jarqo`rg`on rayonida Jo`gidapsan degan tepalik ham bor.

**Qo`shxavut** — Samarqand viloyati Xatirchi rayonidagi qishloq nomi. SHu qishloqliklar va Nurota rayonining qo`shni qishloqlarida yashaydiganlar hovuzni «hovut» deyishadi. Hovuz so`zi o`zbek tilining barcha shevalarida arabchaga aslida yaqin shakllarda («ovuz», «avuz» deb) tallaffuz etiladi. Qishloqda ikkita hovuz bo`lganligi sababli erli xalq Qo`shhovuz — Qo`shhavut deb atay boshlaganlar.

Gonchi — Samarqand viloyati Oqdaryo rayonidagi ariq va Tojikiston Jumhuriyati Xo`jand rayonidagi qishloq nomi. Gon (gonchi) so`zi tarixiy manbalarda, jumladan Alisher Navoiy asarlarida ko`p uchraydi. Gonchi — it g`ajib uzmasin uchun o`ning arqoniga bog`lanadigan yog`och, jun to`qimini tishlab iflos qilmasin uchun otning bo`yniga bog`lanadigan tayoq ham gonchi deyiladi.

Afrosiyob — Samarqand shaxrining dastlabki nomi. Hozir arxeologiyaga oid kurixxona shu tepalikdan topilgan arxeologiyaga oid topilmalar Samarqandning yoshini aniqlashda asos bo`lib xizmat qiladi. Sug`dcha par siyov (par siyoh ob) — qora suv tepaligi degan ma`noni bildiradi. YA. G`. G`ulomovning fikricha, Solor, Kaykovus, Zolariq va Afrosiyob nomlari «SHohnoma» kitobi ta`siri ostida maydonga kelgan bo`lsa kerak.

Varaksar — Samarqand yaqinidagi Robotxoja qish-log`ining oldingi nomi. Bu so`z «varg», «bandivarg» shaklida Rudakiy asarlarida ham tilga olingan, Varaksar «to`g`on boshi» demakdir. Haqiqatan ham o`rta asrlardayoq bu qishloq yonida Zarafshonga to`g`on qurilib, daryo suvi uch tarmoqqa bo`lingan. Bu ariqlar keyinchalik Darg`om, Abbos va Qoraunus deb atalgan. YAqin vaqtlargacha Zarafshon vodiysidagi Barkbon shahri yaqinidagi Varakdex — To`g`on qishlog`i bo`lgan. Qishloq hozir ham shu nom bilan ataladi.

SHunday qilib o`qituvchi keltirilgan tarixiy-geografik joylarning nomlari va toponimlaryga asoslanib, mazkur darsda Samarqand va uning vohasida juda ajoyib va turli-tuman nomlarning bir guruhinigina ko`rib chiqishga muvaffaq bo`linganini, o`quvchilar ham o`z jonajon maktabi, jamoa va davlat xo`jaligi, qishloq va rayon hududidagi nomlarning kelib chiqishi bilan qiziqishi hamda mana shunday toponimik ma`lumotlar yig`ishi zarurligi, bu esa ularga jonajon o`lka tarixini o`rganishda, mustaqil ijod qilishda olgan bilimlarini chuqurlashtirishda yaqindan yordam berishini ta`kidlaydi.

5. Xorazm viloyati toponimikasidan darsda foydalanish

Xorazm O`rta Osiyodagi eng qadimgi madaniyat markazi serunum vohalardan biri. U hozir paxtachilik sohasidagi erishgan yutuqlari tufayli mash`al viloyatga aylandi. Uning tarixi zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»da miloddan avvalgi IX — X asrlarda qayd etilgan.

Bu viloyat tarixi va uning toponimikasi haqida fikr yuritilganda o`quvchilarga, avvalo, «Xorazm» so`zining etimologiyasi haqida batafsil ma`lumot berish zarur.

O`qituvchi bir qator viloyatlar tarixi va uning rayon, qishloq va ovullari nomlarining kelib chiqish manbalari ustida to`xtalar ekan, Xorazm viloyati rayonlari, qishloq va ovullarining nomlari toponimikasiga ham batafsil to`xtalishi lozim. Masalan «**XII — XIII** asrlarda Xorazm davlatining kuchayishi» mavzusi quyidagi mavzuchalarga bo`lib o`rganilsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Mavzu quyidagi reja asosida bayon etiladi:

a) Xorazmning kuchayishi;

b) Xorazmshohlar davlatining ijtimoiy va xo`jalik hayoti;

v) Buxoro va Samarqanddagi qo`zg`olonlar. SHundan so`ng o`qituvchi Xorazm viloyati tashkil topgandan to hozirgi kunga qadar bosib o`tilgan tarixiy jarayon va uning kelajagi haqida qisqacha ma`lumotlar keltirib, viloyat va uning hududidagi jamoa xo`jaliklari, ovul, qishloq, rayon, shaharlar nomlarining kelib chiqishi haqidagi masalalarga batafsil to`xtalishi lozim.

Biz quyida O'zbekiston tarixi kursini o'qitish jarayonida Xorazm vohasi bo'yicha toponimikaga oid ma'lumotlardan qanday foydalanish mumkin? degan savolga javob berishni maqsad qilib qo'ydik. Toponimikaga oid ma'lumotlardan foydalanib o'tkaziladigan bir soatlik tarix darsining taxminiy rejasi keltiriladi.

Darsni tashkil qilish: a) sinfnig darsga hozirligini kuzatish; b) o'quvchilar diqqatini darsga jalb qilish.

O'tgan mavzu: «Turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlarning shakllanishi» degan mavzu yuzasidan o'quvchilarga beriladigan savollar: a) Xaritadan turkiy tilda so'zlashuvchi o'zbek xalqlarining dastlabki ajdodlari yashagan joylarni ko'rsating; b) Turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar ajdodlari shakllanishini necha bosqichga bo'lish mumkin? Har bir bosqichga ta'rif bering; v) o'zbek tilining dastlabki shakllanishi qaysi lahja va tillardan kelib chiqqan edi? g) IX — XII asrlarda o'zbek xalqi va uning tilining shakllanish jarayoni xususiyatlarini aniqlang; d) Tilning aniq shakllanishi qaysi rayon, shahar, voha va vodiylarda aniq sezilgan?

O'quvchilar yuqoridagi savollarga javob berganlaridan so'ng o'qituvchi ulardan Xorazmning qaysi hududlarida hozirgacha o'sha turkiy til elementlari saqlanib kelayotganligi va Xiva, Xo'jayli shaharlarining hamda Xorazm so'zi qanday ma'noni anglatishini so'raydi.

SHu savollarga olingan javoblar o'quvchilarning shahar tarixini va uning nomini o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttiradi. Demak, o'qituvchi o'quvchi to'g'ri yorita Olmagan savollarni to'ldirib, o'tilgan mavzuni yangi mavzuga bog'laydi.

YAngi mavzu. «XII — XIII asrlarda Xorazm davlatining kuchayishi».

Mavzuning maqsadi: o'quvchilarga Xorazmning qadim-qadimdan ma'lum va mashhur bo'lganligi, Somoniylar davrida yarim mustaqil davlat sifatida uning tarkibiga kirganligi, uning Ma'mun ibn Muhammad davrida qudratli davlatga aylangani, ayniqsa Ma'mun ibn Ma'mun davrida fan va madaniyat g'oyat rivojlanib Xorazm akademiyasi tashkil topganligi tushuntiriladi.

Darsning tarbiyaviy vazifasi: Bunda o'quvchilarga Xorazm yuksalgan davrda fan va madaniyatning nihoyatda rivojlanganligi, XI asrning eng mashhur qomusiy olimlari bu erga jalb etilganligi, bu erda Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Sahl Masihiy, mashhur tabib Abulxayr Hammor, yirik riyoziyun Abu Nosir A'rrk va boshqa atoqli olimlarning Ma'mun ibn Ma'mun akademiyasini yaratganligi so'zlanib, o'quvchilarni o'z avlod-ajdodlariga mehr-muhabbat va ona diyoriga sadoqatli inson bo'lib etishish ruhida tarbiyalashdan iborat.

Dars o'tish uslubi: dars og'zaki bayon qilish uslubi bilan olib boriladi.

Darsni jihozlash: O'zbekiston xalqlar tarixining IV jildligi A. Asqarov tahriri ostida chop etilgan 3 jildlik O'zbekiston xalqlari tarixining 1-jildi, uning 5-sinf uchun yozgan O'zbekiston tarixi, SH. Karimov rahbarligida chop etilgan «O'zbekiston tarixi va madaniyati» (ma'ruzalar to'plami) ko'rsatiladi. O'zbekiston xaritasi atlas va al'bomlardan foydalaniladi.

YAngi mavzuni o'tish rejasi

1. Xorazm davlatining kuchayishi.
2. Xorazmshohlar davlatining ijtimoiy-siyosiy va xo'jalik hayoti.
3. Buxoro va Samarqand shaharlarida bo'lib o'tgan qo'zg'olonlar.
4. Xorazm hududidagi jamo xo'jaliklari, qishloq va rayonlar nomlarining kelib chiqish tarixi.

5. o'tgan mavzuni zamonga bog'lash.

YAngi mavzuning konspekti

Xorazm X asrda Somoniylar davlati tarkibiga kirardi. Somoniylar davlati bo'linib ketgan vaqtda u o'z mustaqilligini saqlab qolishga va Qoraxoniylar va G'aznaviylar davlatlari tarkibiga kirmay qolishga muvaffaq bo'ldi. Bu davrda Xorazm xo'jalik va madaniy hayotda katta yutuqlarga erishdi. Biroq 1017 yilda Mahmud G'aznaviy qo'shinlarini tor-mor keltirib, uni o'z davlatiga qo'shib oldi. 1240 yilda g'aznaviylar Xurosonni qo'ldan boy bergach, Xorazm Saljuqiylar davlati tarkibiga kiradi. Saljuqiylar bilan qoraxoniylar o'rtasidagi o'zaro urushlar bu davlatlarning kuchsizlanishiga olib keladi va XII asr boshlaridan Xorazm mustaqil davlat sifatida yana taraqqiy eta boshlaydi. Uning hududi unchalik katta bo'lmasada, iqtisodiy jixtdan

kuchli va boy edi. Ko'chmanchi turkmanlar, eron, Volgabo'yi va Uzoq SHarq bilan olib borilgan savdo-sotiq aloqalarining qizg'in rivojlanishi shunga imkoniyat tug'dirgan edi.

Hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi Xorazmda yuqori darajaga ko'tariladi. Bularning barchasi mustaqillik uchun kurashda qulay shart-sharoitlar yaratdi. 1141 yilda Samarqand yaqinida qoraxoniylar qo'shini bilan ko'chmanchi qoraxitoylar o'rtasida jang bo'ladi. Jangda qoraxitoylarning qo'li baland kelib, g'alaba qozonadilar. Bundan foydalangan Xorazm sultoni Otsiz Marvni bosib oladi. Takesh (1172 —1200) hukmronligi davrida Xorazm kuch-qudratga to'lgan davlat edi. Bu vaqtda davlat xududi eron sharqiy qismining bosib olinishi evaziga ikki marta kengaygan edi.

Gurlan — Gurlan so'zining asl ma'nosi hali ma'lum emas. Bu so'zning kelib chiqishi haqida bir rivoyatda shunday deyiladi: bir vaqtlar bu hududga ko'r chol bilan cho'loq kampir ko'chib kelishibdi. Ular juda mohir hunarmand ekanlar. Ular tuzatgan narsalarini bozorga olib chiqib sotar ekanlar. Bozorda hech kimning narsasi o'tmasa ham ularniki bemalol sotilaverarkan. SHunda odamlar ikkalalarida biron sir bor, deb ularning atrofiga kelib joylasha boshlabdilar. O'sha hududni esa «ko'r va lang» deb atay boshlabdilar. Vaqtlar o'tishi bilan bu so'z o'zlashtirilib «Gurlan» bo'lib ketibdi. Xorazm lahjasida k — tovushi ko'pincha «g» shaklida ishlatiladi. SHuning uchun «ko'r» so'zi «gur» shaklida ishlatilib «gurlan» bo'lib ishlatilib kelinmoqda Hozir ham shu nom bilan yuritiladi. YAna bir manbada — «Qadimgi mualliflar O'rta Osiyo haqida» degan kitobda aytishlaricha, qadimgi yunon tarixchisi Gerodot Xorazm haqida ko'p ma'lumotlar yozib qoldirgan. Gerodotning yozishicha, xorazmliklar, girkaniyaliklar, parfiyaliklar bilan bir-biriga yaqin joyda istiqomat qilganlar. YUnon tarixchisi tilga olgan «girkaniya» so'zi qadimgi turkiy yozuvlaridagi «Kurikan» qabilasining nomi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning asrlar davomida fonetik o'zgarishidan «Gurlan» varianti kelib chiqqan bo'lishi ham mumkin. Ammo bundan Gurlandagi aholining nomi girkanlardan kelib chiqqan ekan, degan xulosaga kelib bo'lmaydi. Kichik bir ovulning nomi ham yoki oila boshlig'i yoki uning bir a'zosi nomi toponimikada asos bo'lib ketaverishi mumkin.

Hazorasp — shu nomli rayon markazi. Hazorasp so'zining ma'nosi quyidagicha: Hazor degani fors-tojik tilida «ming», asp degani “ot” ya'ni ming ot degan ma'noni bildiradi. Hazorasp Xorazmning janubiy chegara qal'asi bo'lib, unda ming otliq saqlangan. Dushman hujum qiladigan bo'lsa, Hazorasp qal'asi zarbani birinchi bo'lib o'ziga olgan. Xivadan madad kelgunga qadar dushman bilan kurashgan. Asta-sekinlik bilan qal'a ichida aholi ko'payib, qal'adan tashqarida o'rnatish boshlagan. Qal'adan bir necha kilometr beriroqda ham qishloq qurila boshlagan.

YAngibozor — aholining savdo-sotiq ishlari faqat qal'a bozorida bo'lgan, so'ngra u chekka qishloqlarning birida to'planib, savdo-sotiq ishlarini olib borganlar. Qal'a bozori bilan bu bozorni bir-biridan farq qilish uchun qishloq bozoriga «YAngi bozor» deb nom qo'yishgan. SHu-shu bo'lib qishloqning nomi YAngibozor bo'lib qolgan.

Qo'shko'pir — rayoni Xorazm viloyatining yirik rayonlaridan biri. Hozirgi kunda rayonda 9 ta qishloq bo'lib, bu qishloqlar nomlarining kelib chiqishi juda qiziq. Quyida biz bu haqda fikr yuritamiz:

Kenagas — bu qishloq mahalliy xalq orasida Kanayas deb yuritiladi, chunki hududdan Kanayas arig'i oqib o'tadi. Qishloqning markaziy qismiga Karaman qal'asi deyishadi. Karaman — Xorazmda o'suvchi ulkan daraxt. Qariyalarning so'zlariga qaraganda, bu erda Xiva xonligi davrida mudofaa vazifasini bajaruvchi kichik, o'ziga xos qal'acha bo'lgan. Kenagas degan qabila ham bo'lgan.

Xadra — Qo'shKo'pir rayonidagi ikkinchi qishloqning nomi. Xadra so'zining ma'nosi qal'a yoki shaharning cheti demakdir. Xadra qishlog'i Xiva qal'asining shimol tomonida joylashgani uchun ham Xadra nomini olgan bo'lishi mumkin.

O'zbekyop — shu rayondagi uchinchi qishloq bo'lib, uning ma'nosini shunday tushuntirish mumkin. O'zbek — shu qishloqda yashovchi xalqning millati. «yop» so'zi xorazmcha bo'lib, ariq yoki kanal ma'nosini bildiradi. Bu qishloq qo'shni Turkmaniston erlariga yaqin bo'lgani uchun ular bu ariqni o'zbekning yopi, ya'ni arig'i deyishgan. O'zbekyop

qishlog`ining markazi Qorovul deb ataladi. Bu so`zni mahalliy sheva tili ma`nosida qora va ovul deb tushunish mumkin, u bora-bora Qoravul bo`lib qolgan.

Hayrovot — rayondagi beshinchi qishloq bo`lib, Xiva qal`asining shimoli-g`arbiy tomonida joylashgan. Ma`lumki, rovot — bu darvoza degani. Demak, qishloq Xiva xonligining shimoli-g`arbiy tomondagi darvozasi bo`lgan. Hayrovot balki, odamlar aytganlariday, xayrli darvoza, fayzli darvoza, yaxshi darvoza ma`nolarini bildirishi ham mumkin.

**O`rtayop** — rayondagi oltinchi qishloq, o`rtayop cho`zilib ketgan ariqning o`rta markaziy qismida joylashgan qishloq ma`nosini ham bildiradi. Qishloq hozir ham shu nom bilan ataladi.

**Qatag`on** — rayondagi ettinchi qishloqning nomi. SHEvada qatag`on so`zi yo`q. Bu so`z fors tilida — yo`qolgan, qurilgan va topib bo`lmaydi, degan ma`noni bildiradi. Urganch, SHovot va Qo`shKo`pir rayonlari hududiga o`xshash qumlik sahrolar shu qishloqning yo`q bo`lib ketishiga, nomi esa Qatag`on bo`lib ketishiga sababchi bo`lishi mumkin. Suv chiqarish qiyin bo`lgan paytlarda qum barxanlari qishloq erlarini ko`mib yuborgan, natijada qurg`oqchilik bo`lib turgan. Qatag`on nom albatta bejiz berilmagan. Mahalliy aholi orasida bu qishloq to`g`risida ma`lumotlar deyarli saqlanmagan.

Qo`shKo`pir — rayondagi sakkizinchi qishloq bo`lib, hozirgi kunda rayon markazidir. Nomining o`zidan ko`rinib turibdi, qo`sh — juft, ko`pir — ko`prik ma`nosini, ya`ni qo`shma ko`prikli, degan ma`noni bildiradi. Marhum akademik Muhammadjon YO`ldoshevning «Xiva xonligida feodal er egaligi va davlat tuzilishi» degan kitobida bu haqda ancha ma`lumotlar bor. eng avval Qo`shKo`pir qo`sh ko`prik deb nomlangan. U erda katta G`azovon arig`i bor. Bu ariqning u tomoni bilan bu tomoniga o`tish uchun ikki joyiga katta ko`prik kurilgan. Qo`shKo`pir degan so`z shundan olingan.

**G`azovot** — rayondagi to`qqizinchi qishloq nomi. O`rta Osiyoda suv masalasi og`ir bo`lgani uchun Xiva xonlari ming-minglab odamlarni ariq qazishga safarbar qilganlar. Xon amaldorlari mehnatkash xalq ommasini ayamadan ishlatganlar. Ariq qazish oddiy xalqqa ko`p mashaqqatlar keltirgan. Bu qishloq esa o`sha G`azovot arig`i bo`yida joylashgan bo`lgani uchun ham G`azovot nomini olgan, degan fikrlar bor.

**Bog`ot** — Xorazm viloyatidagi rayon markazi. Bog`ot etimologiyasini bog`zor, bog`lar, bog` va arabcha ot ko`plik affiksi «arz so`raydigan bog`» so`zi bilan bog`laydilar. Mahalliy xalqning aytishicha «bog`ot» poliz, polizchi degan ma`noni bildiradi.

Amudaryo — uni yunonlar hamda rimliklar Oksus yoki Oqsus, arablar esa «Jayhun» (telba) deb ataganlar. Daryoning hozirgi nomi esa Amuya shahri (XVI asr) nomidan olingan; bu shahar keyinchalik Amudaryo deb atala boshlagan.

**Xo`jayli** — XII — XIII asrlarda barpo qilingan. Xo`jayli so`zining leksik mazmuni xo`jarlar, ya`ni katta er egasi bo`lgan kishilar ma`nosidadir. Xo`jayli so`zini xo`ja eli degan xalq nomidan olingan, deb ta`riflaydi sharqshunos olim B. A. Ahmedov.

**Mo`ynoq** — Orol dengizi janubidagi yarim orol, shahar. Mo`yin (bo`yin), oq aslida — ak — «kichik» so`zlaridan yasilib, «kichik bo`yin», «bo`yinch», «yarim orol» ma`nosida.

**Tuyamo`yin** — Amudaryo quyi oqimidagi joy. Sirtan qaraganda «tuya bo`yini» dek tuyuladi. Aslida tog`, daryo va qumlik joylarning tor qismini — yo`lagini «Tuyamo`yin» deb atashgan. Tuyaning qing`ir va tor bo`yniga o`xshatilgan bo`lsa ajab emas.

To`rtko`l — Qoraqalpog`iston jumhuriyatining janubidagi shahar. SHaharning yaqin yillarga qadar to`rt tomoni ko`l bo`lgan. SHuning uchun ham shunday nom berilgan. Hozir ham To`rtko`llicha saqlanib kelmoqda.

Farg`ona vodiysida eng katta, serxosil, qadimdan paxta etishtirib kelayotgan, O`zbekistonning gullagan viloyatlaridan uchitasi, ya`ni Andijon, Farg`ona va Namangan.

Andijon — O`zbekistonning xushmanzara va qo`hna shaharlaridan biri. U Farg`ona vodiysining janubi-sharqida joylashgan.

SHahar nomining kelib chiqishi to`g`risida bir qancha fikrlar bor. Bir afsonada aytilishicha, shaharning nomi Afrosiyob noibining qizi Andijon nomidan kelib chiqqan deyiladi. Boshqa bir rivoyatda bu so`zning birinchi qismi «Andi» — shaharga asos solgan kishining nomi, ikkinchi — «jon» qismi esa jon degan ma`noni anglatadi, deyiladi. Birovlar qachonlardir bu erlarni «andi

— hind» lar ishg`ol qilganlar, bu hindlar makoni deydilar. YAna bir guruh kishilar esa «Andi» shaharga asos soluvchi, «jon» esa baxsh etmoq demakdir, deyishadi. YAna bir guruh kishilar karvon yo`lida ketayotganda qaroqchilar xujum qilib «O`nta jonni» o`ldirganlar. Andijon so`zi o`nta jon so`zining buzilganligidan kelib chiqqan, deb ta`kidlaydilar. X asrda yashagan arab geografi va sayyohi Ibn Havkal Andijon shahri to`g`risida «Dehqonchiligi rivojlangan shahar, iqtisodiy va siyosiy jihatdan ham rivojlangan, katta hunarmandlar shahri» deb yozgan.

Andijon shahrining paydo bo`lishi va nomi haqida tarixchilarimiz quyidagicha fikr yuritadilar. Masalan, mashhur tarixchi V. Nalivkin o`zining «Kratkaya istoriya Kokandskogo xanstva» degan kitobida «Andijon» so`zi hozirgi shahar hududida yashagan «andi» qabilasi nomidan olingan, deb ko`rsatadi. «Andi» so`ziga «gan» qo`shimchasini qo`shish bilan «Andigan» yasalgan va keyinchalik bu Andijonga aylanib ketgan, deb yozadi. SHahar IV asrdan V asrgacha Andukon, XII asrdan to XIX asrgacha Andijon deb yuritiladi.

Andijon shahri toponimikasi haqida ba`zi bir tarixchi olimlar, jumladan, S. Jalilovning shu sohadagi fikri ham haqiqatga yaqindir. YAqin yillarga qadar, hatto hozir ham ayrim kishilar bu shaharni Anjon deb keladilar. Ayrim kishilarning aytishlari bo`yicha O`rta Osiyo chorizm tarafidan bosib olingandan so`ng ruslar «j» tovushi oldiga «d» qo`shib aytishlari natijasida «Anjon» Andijon bo`lib qolgan. Xullas, Andijon shahar tarixi qadimiy yozma manbalarda aniq ta`riflangan bo`lsa-da, Andijon so`zining etimologiyasi haliga qadar ilmiy ravishda isbotlangan emas.

**Qo`qonboy** — Qo`qonboy qishlog`ining tashkil topish davri qariyalarning va qishloq ziyolilarining shoxidligi bo`yicha, Qo`qon xonligi davriga to`g`ri keladi. Qishloq Toshkent — Andijon temir yo`li va Xo`jand — Qo`qon karvon yo`llari yoqasiga joylashgan. Qishloqdagi katta-katta, eng hosildor erlar Qo`qonlik boylardan PO`stin-purushboy, Tovoqchiboy, Pichaqchiboy, Olloboy va shu kabilarga qarashli bo`lib, yaqin kunlarga o`sha boylarning nomi bilan atalib kelar edi. Qariya otaxonlarning aytishicha, qishloq erlari suv boshida bo`lib, eri juda unumli bo`lgan. SHu sababli bu erlarni Qo`qonlik boylar egallab olib, chorikorlarga bo`lib bergan va bu erda asta-sekin aholi to`planib, qishloq paydo bo`lgan. Qishloq asosan Qo`qonlik boylarning eridan iborat bo`lgani uchun Qo`qonboy deb atala boshlagan degan fikr bor.

Savay — 1930 yili tashkil topgan sovxoz nomi. U Farg`ona vodiysining shimoli-sharqidagi Andijon viloyati Qo`rg`ontepa rayonida joylashgan bo`lib, Qirg`iziston Respublikasi bilan chegaradoshdir. Bu er nomining kelib chiqishi quyidagicha bo`lgan. Sovxoz tashkil topmay turib, shu erga yaqin joyda Isavay degan odam yashagan ekan. U o`z tomorqasiga Qoradaryodan bosh oladigan ariqdan suv ochgan. Keyinchalik mana shu joyda davlat xo`jaligi tashkil topgan, xuddi shu ariq o`rnida kanal qazilgan. Odamlar bu kanalni xaligi ariq o`rnidan ochilgani uchun «Isavoy ariq» deb, keyinchalik bu so`z buzilib Savay ariq deb atay boshlangan. «Savay ariq» atrofida tashkil topgan davlat xo`jaligi nomi ham «Savay» bo`lib qolgan. Hozir ham shu nom bilan mashhur. Mo`g`ul urug`laridan biri ham Savay deb yuritilgan deydi B. Ahmedov.

**Xo`jand** — Tojikiston respublikasidagi shahar. 1936 yilga qadar shu nom bilan atalib kelingan. Nima uchun Xo`jand deb atalganligi to`g`risida bir qancha rivoyatlar mavjud.

Bir vaqt Sirdaryo toshib, kechasi bu shaxarni suv olib ketgan emish. Podsho Nushirvon mamlakatdagi eng yaxshi odamlarni yig`ib, eski shahar o`rnidan sal nariroqda yangi shahar barpo qilishga buyruq bergan ekan. SHunda oldingi shaharning nomi unutilib, XO`bchand (tojik tilida bir so`zi chand, yaxshi so`zi — xo`b) deyilgan, ya`ni bir qancha odam kelib o`rnashgan shahar degan ma`noni bildiradi. Bora-bora, vaqt o`tishi bilan, XO`bchand so`zi Xo`jand bo`lib ketgan, deyishadi. YAna boshqa bir rivoyatda Xo`jand so`zi bu shaharda «oq suyaklar» ko`p bo`lganligi sababli «Xo`jalar shahri» so`zidan olingan, deyiladi.

SHunday qilib, shaharning nima uchun Xo`jand deb atalganligi to`g`risida ishonchli bir fikr yo`q.

Namangan — Farg`ona vodiysining go`zal shaxarlaridan biri. Namangan soy, YAngiariq va SHimoliy Farg`ona kanalidan suv ichadi. Namangan haqidagi dastlabki ma`lumotlar Zaxiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» kitobida tilga olinadi. Namangan qishlog`i tuz koniga yaqinligidan «Namak kon» deb atalgan. Keyinchalik bu nom o`zgarib Namangan bo`lib

ketgan. Novmakon (yangi joy) degan rivoyat ham bor. SHaharning vujudga kelishiga qadimgi Axsikent shaxridan ko'chib kelgan aholi ham ta'sir qilgan bo'lsa kerak. Axsikent shahri Namangan yaqinida Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida bo'lgan. U 1620 yilgi zilziladan yakson bo'lib ketgan. Namangan shahrining rivojlanishida Norin daryosidan 1818—1822 yillarda o'tkazilgan YAngiariq kanali katta rol o'ynadi. Bu erda hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlanadi. Farg'ona viloyati tuzilgach, Namangan uning uezd shaharlaridan biri bo'lib qoldi. 1877 yili yangi shaxar qurilishi boshlanadi. Bu erda dastlab Andijon va Farg'ona shaharlaridagi singari qo'rg'on qurilgan. YAngi shahar uchastkasida harbiy mashqlar o'tkaziladigan maydon, shahar bog'i va bozor uchun joy ajratilgan. 1894—1895 yillarda shahar aholisi 60 ming kishidan ko'proq bo'lgan. XX asrning boshlarida Namangan temir yo'l orqali Qo'qon bilan bog'lanadi. SHundan keyin paxta va yog' zavodlari paydo bo'ladi. 60- yillarga kelib Namangan juda katta shaharlardan biriga aylandi. Hozir shahar Farg'ona vodiysidagi yirik shaharlardan biri, Namangan viloyatining markazi.

Haqqulobod — Norin rayonidagi qishloq. Arxeologlarning va erli keksalarning so'zlariga qaraganda, bu qishloq XVIII asrning oxirida tashkil topgan. O'sha vaqtda bu joylarning o'rni botqoqlik va balchiq bo'lgan. SHuning uchun bu erda odamlar yashamagan. Rayon markazidan 6 km nariroqda «Eski Haqqulobod» degan qishloq bor. XVIII asrning oxirida bu erda juda boy va johil Haqqulibek degan kishi yashagan. U er mulkini ko'paytirish uchun o'z odamlarini to'qayzor va balchiq erlarni o'zlashtirishga majbur qilgan: Uning buyrug'i bilan odamlar botqoqlarni quritib, ekin ekkanlar. Bu qishloq uning xo'jayini Haqqulibek nomi bilan Haqqulobod deb atalgan. 20 -30- yillarda undan keyingi davrlarda bu erda ijtimoiy o'zgarishlar yuz berdi. Hozir Haqqulobod Namangan viloyatining eng go'zal qishloqlaridan biri bo'lib, Norin rayonining markazi va shaxar tipidagi aholi yashaydigan manzilga aylantirildi.

Qo'qon. Bu so'zning etimologiyasi xaqida ham turli-tuman ma'lumotlar bor. Aytishlaricha, shahar joylashgan hudud botqoqlik, qamishzorlardan iborat bo'lgan va u erlarda ho'k (yovvoyi cho'chqa) lar juda ko'p bo'lgan. SHuning uchun u erni cho'chqalar, ya'ni to'ng'izlar makoni — ho'kkon deb ataganlar. Keyinchalik bu so'z Qo'qon bo'lib qolgan, degan fikr soxtadir. Akademik A. N. Kononov: Xo' so'zi «shamod» ma'nosida keladi va Qo'qon (HO'qand) «SHamol shahri», «sershamol shaxdr» ma'nosida bo'lishi mumkin, deb ta'kidlaydi.

Dastlab «Hudud al-olam» da Xo'kand, Xuvakand — xalq zich yashaydigan shaharcha deyilgan. Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarida Xo'kand (Xuvokand) va Xo'qand (Xuvoqand) shakllarida qayd qilingan. «Boburnoma» da Xo'qon viloyati deb tilga olingan. Hozirgi Qo'qon shahri tarixiy Xo'qand o'rnida XVIII asrda o'zbeklarning ming urug'i boshlig'i SHohruhbiy tomonidan barpo etilgan. V. V. Bartol'd shaxdr nomining adabiy jihatdan to'g'ri shakli Xo'kand bo'lib, Qo'qon jonli tilda talaffuz etilishidir, deb hisoblaydi.

YUqoridagi olimlarning turli izohlaridan qat'i nazar, hozirgi kunda qadar Qo'qon so'zining etimologiyasi ilmiy asosda o'rganilgan emas.

Farg'ona — antik davr yunon olimlari bu viloyatdan deyarli bexabar qolganlar. Makadoniyalik Iskandarning Xo'jandgacha kelgani aniq. Ammo undan sharqqa, Farg'onaning ichiga o'ta olmagan. SHuning uchun bo'lsa kerak, yunoncha kitoblarda qadimiy Farg'onaning tavsifi yo'q. U tomonda «YAksart orqasida» allaqanday o'troq aholi borligigina qayd etilgan, xolos. Faqat ilk o'rta asr adabiyotidagina Farg'ona nomi qayd etilgan.

Farg'ona nomining ma'nosi shu choqqacha aniqlangan emas. Lekin bu haqda bir qancha izoh, taxmin va mulohdzalar bor: Gerodotning yozishicha, qadim zamonlarda O'rta Osiyoda Parikan nomli qabila bo'lgan; sanskrit tilida parkana deb kichik viloyatga aytiladi; pari xona, ya'ni «go'zallar yurti» degan ma'nosi xam bor; forsha parand (arabcha farand) — «shoyi», «ipak» so'zlaridan kelib chiqqan (farandxona — ipakxona degani); qadimiy fors-tojikchada pargona — «tog' oralig'idagi vodiya» demakdir. Bu so'zni mahalliy qabilalar o'rganib olib, o'z yurtlarini Farg'ona deb atay boshlaganlar; Farg'ona «har xona» so'zlaridan olingan ham deyiladi. Bu erning yaxshiligini bilib, har joydan turli qavmlar ko'chib kelgan, ekinzor barpo qilib, turg'un bo'lib qolgan. Xonadonlari har joy-har joyda, tillari ham har xil bo'lgan. Ularni «xar xona» deganlar. Bu so'zlar iste'molda Farg'ona bo'lib ketgan, deydi Najib Bakron (XIII asr

boshlari) o'zining «Jahonno-ma» kitobida. Buni YOqut Hamaviy boshqacharoq izohlaydi: xar xonadan bittadan kishi ko'chirilib keltirilgan, shundan «az har xona» (har xonadan) deyilgan, keyinchalik bu so'z Farg'ona bo'lib qolgan, deydi u; Tojikiston tog'lari (Turkiston, Zarafshon tizmalari) Falg'ar deb atalgan. Bu so'zning «tog' etagi» degan ma'nosi ham bor. SHundan Farg'ona nomi yasalgan deydi N. G. Mallitskiy; parkana — qadimgi tojik tilida «berk vodiy» degan so'z. Pomirdagi rushon shevasida parkana deb «har tarafi tog', bir yonigina ochiq bo'lgan vodiyga aytiladi» deydi prof. M. S. Andreev.

Zahiriddin Muhammad Bobur Farg'ona viloyatini tasvirlar ekan, M. S. Andreev aytgan rushoncha iborani o'zbekcha bayon etgan: «Girdogirdi tog' voqe' bo'libtur. G'arbiy tarafidan. . . tog' yo'qtur. Ushbu jonibtin o'zga hech jonibtin qish yog'i kelaolmas» (Boburnoma). Bir mulohaza. Antik dunyo tarixchilarining ma'lumotiga ko'ra, «parfiyaliklar» (Janubiy Turkmaniston) bir zamonlar skiflar orasidan quvilgan qabila edilar, parf so'zi skifcha «quvilgan kishilar» demakdir ... ularning kiyimi tiniq (ipak) va burmalidir. .. Ko'pincha ot minib yuradilar ... Parfiyaliklarning biridan-biri ko'chili — otliq askarlardir. . . Davan' (Farg'ona) bilan An'si (Parfiya) shevalari o'rtasida ancha farq bo'lmasa-da, ularning tili xiyla o'xshash va ular gaplashganda bir-birini tushunadilar». Parf qabilasining ko'p xususiyatlari Farg'onada ham bor: yaxshi otlar, ipak kiyim, til o'xshashligi. «Farg'ona» nomi Parfiyona — Parfona — Farg'ona transformatsiyasi bo'lmaganmikan, degan fikr ham xayolga keladi.

Ammo yuqoridagi 10 ta izohning birortasini ham qat'iy deb aytolmaymiz. Faqat shunisi aniqki, bu viloyatning eng dastlabki nomi Farg'ona yoki Parfona bo'lganligini yirik sharqshunos V. A. Livshits isbotlab bergan.

Damariq — Andijon viloyati Xo'jaobod rayonidagi Xo'jaobod qishlog'iga qarashli «O'zbekiston» nomli jamoa xo'jaligi hududida joylashgan. Avvallari bu ariqni «YOMonyor» deb atashardi. Bu ariq asli o'sh soyidan bosh olardi, deb hikoya qiladi shu qishloqlik Turdiboy ota Usmonov. Biz bolalik davrimizda Xo'jaobod qishlog'ini va uning erlarini shu ariq sug'orardi. Bahor oyi yoki olma gullagan paytda bu qishloq ahlini vahima bosardi, chunki o'sh soyi toshib ariq boshini oqizib ketardi yoki SHahrixon soyiga qo'shib yuborardi. Natijada Xo'jaobod, Buloqboshi, Qoratayit qishloqlari suvsiz qolardi, hatto ichishga suv topilmas edi.

Suvsizlik azobidan qutulish maqsadida shu qishloq oqsoqollari Abdusamad ota Boymatov, mulla Sobirjon YUsupov, Mavlon ota, Mamaroziq otalar boshchiligida to'g'onni qayta qurish uchun hashar uyushtirilar edi. Hashar boshlashdan avval bu ishga kimlarni jalb qilish, qaysi xonandondan nechta odam ishtirok etishi mumkinligi belgilab olinardi. SO'ng Xo'jaobod volost' boshlig'iga xabar qilinardi. Hasharda deyarli kambag'al dehqonlar ishtirok etardilar, ammo suvning ko'pidan boylar foydalanardilar. To'g'onni bir yil ichida bir necha marta suv buzib ketardi. Har safar to'g'onni qayta tiklash uchun kambag'al dehqonlar o'z-O'zlaridan to'g'on qurish uchun asosiy material hisoblangan shox-shabba, yog'och, xashak pichan, poxol kabi qurilish materiallari olib borishar edi. Volost' rahbarlari quruvchilarga hech qanday yordam bermas edilar. To'g'on qurilishiga yordam bera olmagan, ilojsiz kambag'al dehqonlarni urishar edilar. Asrimizning 20- yillariga qadar bu «YOMon yor» deb nom olgan joydan suv olish juda ham yomon, og'ir edi. SHuning uchun odamlar bu joyni YOMon yor, suv soydan juda damlanib chiqqanligi sababli ariqqa Dam arig'i deb nom bergan, deb hikoya qilishadi kekxa otaxonlarimiz.

Xo'jaobod — Andijon viloyatiga qarashli shu nomdagi rayon markazi. 1981 yildan boshlab shahar nomini oldi. «Boburnoma» muallifi o'sh bilan Andijon o'rtasida bir obod joy bo'lganligini eslatadi. SHu erlik 7 marta haj qilgan Abdunabi Sayfuddin hoji o'g'lining hikoyasiga qaraganda, qadimgi O'rta Osiyo shaharlarini Xitoy bilan bog'laydigan savdo yo'li shu Xo'jaobod orqali o'tgan. Buning guvohi sifatida to hozirgi kungacha saqlanib qolgan Andijon shahridagi, shu Xo'jaoboddan boradigan yo'l boshiga qurilgan Xitoy konsulining binosini ko'rsatadilar.

Xo'jaobod so'zining kelib chiqish tarixi haqida aniq fikr va dalil bo'lmasa-da, ayrim taxminlar bor. YUqorida ta'kidlanganicha, Xitoyga boradigan savdo yo'lida joylashganligi tufayli bu joyga bir guruh xo'jalar kelib joylashib qolishgan. SHundan so'ng qishloq kengayib xo'jalar obod qilgan deyishyb, nomini Xo'jaobod qo'yishgan desalar, ayrim kishilar, bu erdan

xajga borganlar ko'p bo'lganligi tufayli hojilar obod qilgan, deydilar. Xullas, Xo'jaobod shahri tarixi hali ilmiy asosda tadqiq qilinmagan. Xojobod deyish haqiqatga ancha yaqindir. 1993 yili «Mehnat» nashriyotida chop etilgan A. Nabievning «Bobur tavof aylagan diyor» nomli risolasida (10 bosmataboq) Xo'jaobod tarixi, eng qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha bo'lgan tarixi mukammal yoritilgan. Xo'jaobod nomining kelib chiqish tarixi haqida jumladan shunday deyilgan: «Boburnoma» ning 50—51-betlarida Bobur Mirzoning ustози va piri Xo'ja Abdullo Mavlonai qozi nomi bir necha bor tilga olingan. endilikda shunday tarixiy ma'lumotlar aniqlanmoqdaki, xatto Xo'jaobod vohasining nomi ham ayni shu tarixiy shaxs — Xoja Abdullo Mavlonai qozi nomi bilan bog'liq bo'lib chiqdi. Binobarin, Bobur ta'riflaganidek, voha nomi uni bog'-rog'larga aylantirgan tarixiy bir shaxsning nomi bilan bog'liq ekan. Bu fikrni yozuvchi Qo'ldosh Mirzoning 1990 yili «SHarq YUlduzi» da bosilgan «Bobur Mirzoning toylog'i» nomli qissasi voqealari yana bir karra tasdiqladi. Qissa muallifi o'z asarida Xo'jaobod Oqbo'ra daryosidan suv ichganligini, undan yangi-yangi ariqlar chiqarilganligini aytadi. Yana ta'riflaydiki, shu ariqlar suvidan bahra olgan bog'-rog'larni ko'rgan, shirin-shaqar mevalaru qovun-tarvuzlaridan totib ko'rgan Zahiriddin Muhammad Bobur nihoyatda ilhomlanib ketadi va bu jannatmakon yurt boshlig'ini chaqirib: «Siz yurt aylagan ushbu navohi Xoja Abdullo Mavlonai qozi ruhi pokining hurmati vajidin Xojaobod bo'lsun. Bu tilagi ixlosmandlaru hukmi podshohdur. Ongladingizmu, sardor», — deydi. SHundan so'ng sardor axli yurtni to'plab, podsho hukmini e'lon qiladi: «SHu bugundan boshlab, bu yurt Xojaobod deb nomlansin», — deydi. SHu tariqa qadimdan obod maskanlardan biri bo'lgan bu yurt Xojaobod deb yuritiladi.

CHortoq — Namangan yonidagi qishloq. Buni «to'rt tog'» deb izohlaydilar, ammo shunday emas. To'rt gumbazli (to'rt toqisi bo'lgan) inshoot, ark, qo'rg'on, qorovulxona chortoq deyilgan. Ba'zan to'rt tomonidan ko'rinib turadigan qorovulxonalar, baland minoralar ham chortoq deb atalgan. Demak, chortoq deb shu qishloq o'rtasida joylashgan baland ark, qorovulxona tufayli atalgan.

Uchqo'rg'on — Namangan viloyati Norin daryosi bo'yida joylashgan. Uchqo'rg'on deb nom olishiga asosiy sabab ilgari Uchqo'rg'on uchta katta qo'rg'on bo'lib, uni qurgan egalari bo'lgan ekan. Bu qo'rg'on egalari XIX asrlarda hozirgi Uchqo'rg'on hududiga hukmronlik qilishgan. Asrimizning 20- yillaridan so'ng bu qo'rg'onlar yo'q bo'lib ketgan. Ammo qo'rg'on bo'lganligi sababli uning nomi Uchqo'rg'on nomi bilan saqlanib qolgan.

Sulduz — Andijon rayonidagi qishloq; sulduz qabilalaridan birining nomi. Sulduzlar CHingizxon davrida o'rmonda yashagan ko'chmanchilar bo'lishgan; sulduz aslida suldez bo'lgan. «Sulde» mongolcha «bayroq», «s» esa ko'plik qo'shimchasi, demak «suldes» — bayroqlar demakdir.

Qaqir — Andijon viloyati Xo'jaobod rayonida hamda Farg'ona viloyati Quva rayonidagi qishloqlar nomi. Qaqir suv etib bormaydigan, qaqrab yotgan er degan ma'noni bildiradi.

CHuvalachi — Farg'ona viloyati Bag'dod rayonidagi qishloq. Toshkent shahridagi ko'cha nomi. Tojikcha «katta qop» ma'nosidagi juvol so'zidan kelib chiqqan, degan fikr bor.

Dilkushod — Andijon viloyati Xo'jaobod rayonidagi qishloq. Hozirgi Dilkushod davlat xo'jaligi hududida joylashgan Dilkushod qishlog'ining o'rni avval, ya'ni XVI — XVII asrlarda katta karvonsaroy bo'lgan ekan. Xitoyga Arabistondan ketayotgan savdogarlar shu karvonsaroyda tunab o'tar ekanlar. Xullas, Dilkushod katta savdo yo'lida joylashgan ekan. Dilkushod nomi qaerdan kelib chiqqanligi haqida rivoyatlardan birida shunday deyiladi: Andijon hokimi Zahiriddin Muhammad Bobur tez-tez Ush shahriga borib turar ekan. Doim yo'lda shu Dilkushod qishlog'ida to'xtab dam olar ekan. Bobur Dilkushodda qo'nganda qishloqni tomosha qilar, undagi go'zal tabiat manzarasidan ilhomlanib she'r yozar ekan. Dillarni shod etuvchi so'lim dam olish joyi ekanligidan mamnun bo'lib, qishloq nomini «Dilkushod» bo'lsin degan ekan. Dilkushod qishlog'ining qadimiyligi yana shundaki, u erda er haydayotgan paytda bir xumcha chiqqan. Xumchani ichidan XVI — XVII asrga oid taygalar, oltin buyumlar topilgan. SHu narsalar bu qishloqning qadimiy ekanligini isbot qiladi. Qishloq tog' bag'rida bo'lganligi, manzarasi, iqlimi va bahavoligi bilan darhaqiqat dilni shod etadi.

**Bag`dod** — Farg`ona viloyatidagi rayonlardan biri. Viloyat markazidan 10 kilometr narida joylashgan. Bag`dod nomining etimologiyasi qadimiy tarixga ega. Ma`lumki, Iroq davlatining markazi hisoblangan Bag`dod XII asrdayoq madaniyati gullagan shahar bo`lgan. Bag`dod — xudo bergan joy ma`nosidadir deb ta`kidlaydi filologiya fanlari nomzodi Haydarali Uzoqov.

Mavzuga oid tayanch so`z va iboralar:

Toponomika	Mikro toponomika
Mikrobika	Ob`ekt
Nom	Eksplikatsiya
Etnografiya	Etimologik
Semantik	

Mavzu yuzasidan nazorat savollari.

1. Toponomik tushunchasi va uni mohiyati nimadan iborat?
2. O`lkashunoslikda toponomikaning roli qanday?
3. Xozirgi vaqtda toponomikaning yutuqlari nimalardan iborat?
4. Nomsiz ob`ekt toponim bo`la oladimi?
5. Toponomikani o`rganish qanday ahamiyatga ega.
6. YAshash joylarini toponim joylarning nomini ma`nosini bilasizmi?
7. Toponimik materiallar yigishda qaysi fanlar muhim rol o`ynaydi?
8. O`rta Osiyo toponimlarini o`rganilishi tarixi xaqida ma`lumot bering.
9. Toponimikani o`rganish qanday jarayonlarni o`z ichiga oladi?
10. Tarix va geografiya o`qituvchilari toponimikani o`rganishda nimalarga e`tibor berishlari kerak?
11. Marg`ilon shaxri toponimikasi xaqida nimalarni bilasiz?
12. Farg`ona shaxri toponimikasi xaqida nimalarni bilasiz?
13. Qo`qon shaxri toponimikasi xaqida nimalarni bilasiz?
14. O`zbek urug`lari nomlari bilan ataladigan joylarni aniqlang.
15. Oqtapa termini qaysi so`z bilan bevosita aloqador?
16. O`ingiz yashayotgan qishloq yoki rayon xududidagi toponimik nomlar xaqida ma`lumot bering.
17. Farg`ona vodiysidagi joy nomlari bilan bog`liq bo`lgan axoli punktlariga misollar keltirin.
18. Mikrotoponimika deganda nimani tushunasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. «Vatan sajdagox kabi muqaddasdir». Toshkent. «O`zbekiston» 1996 yil.
2. A.Nabiev. «Tarixiy o`lkashunoslik » T. 1979 yil.
3. S.Koriev «geografik nomlar ma`nosini bilasizmi?» Toshkent. 1970 yil.
4. Z.CHoriev. «Tarix atamalarining tushunchasi» izoli lug`at. Toshkent. 1999 yil.

7-MAVZU: TARIXIY O`LKASHUNOSLIKNI RIVOJLANTIRISHDA ARXIVSHUNOSLIKNING O`RNI.

REJA:

1. O`lkashunoslikni rivojlantirishda arxivshunoslikning urni
2. Muassasa va davlat arxivlari.

Ulka tarixini o`rganishda arxeologiya, etnografiya, yozma va moddiy madaniyat yodgorliklari bilan bir katorida arxivshunoslik, ya`ni arxiv xujjatlaridan foydalanishning ahamiyati benixoya kattadir. Arxiv xujjatlarini kidirib topish, ular ustida ishlash va olingan ma`lumotlarni xayotga tadbik kilish bu juda murakkab ishdir. Arxivda tashkilotlar, muassasalar, korxonalar, kolxoz, sov-xozlar, ayrim shaxslarning kup yillik faoliyatlari xaqida ma`lumot va xujjatlar saklanadi.

Ulka materiallaridan va uning asosiy manbalardan biri bo`lgan arxiv xujjatlaridan foydalanish metodikasi bilan shugullanish juda muhim ahamiyatga ega.

Arxiv ishlarini o`rganish maktab va Oliy ukuv yurtlarida jonajon vatanimiz tarixidan ukilayotgan lektsiya va seminar mash-gulotlarida faktik material bo`lib xizmat kiladi va maktab o`lkashunoslik muzeyini tashkil kilishda yordam beradi.

Xozirgi kunda O`zbekiston respublikasida juda kup arxivlar mavjud bulib, ularni shartli ravishda 2 guruxga bulish mumkin: muassa arxivlari va davlat arxivlari. Respublikamiz xududida faoliyat kursatayotgan markaziy va maxalliy boshkaruv organlari (vazirliklar, xokimiyatlar va boshkalar) turli tashkilotlar, korxona va jamoat tashkilotlari xaqida joriy arxivlar mavjud.bunday arxivlar muassasa arxivlari deb ataladi. Muassasa arxivlarida xujjatlar ma`lum muddat saklanadi. SHu boisdan bu arxivlarda saklanayotgan xujjatlarning tarkibi uzgarib turadi. Belgilangan muddatdan sung muassasa arxivlaridagi xujjatlar davlat arxivlari fondlariga topshiriladi. Muassasa arxivlari-ning faoliyati, bu arxivlarda saklanayotgan xujjatlarning davlat arxivlariga topshirish tartibi tegishli nizomlar asosida amalga oshiriladi. Muassasa arxivlarida xujjatlar turli muddatlar davomida saklanadi. Xujjatlarning saklanishi mazkur muassasalar faoliyati bilan boglikdir.

Davlat arxivlari shaxobchalari respublikaning ma`muriy tu-zilishi nizomida tashkil kilingan.

Respublika davlat arxivlari tizismiga kuyidagi arxivlar kiradi.

1. Korakalpogiston respublikasi va viloyatlar davlat arxivlari xamda ularning joylardagi organlari.

2. Respublika markaziy davlat arxivlari.

Xozirgi kunda korakalpagiston respublikasi Markaziy Davlat arxivi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Kashkadaryo, Navoiy, Namangan, Samarkand, Surxandaryo, Sirdaryo, Toshkent, Farg`ona, Xorazm viloyatlari Davlat arxivlari xamda toshkent shaxar davlat arxivi mavjud. Joylarda ularning filiallari faoliyat kursatib kelmokda. Farg`ona viloyat davlat arxivi fondlari, Farg`ona viloyati va Farg`ona shaxar tarixini kisman bir vaktlar Farg`ona viloyat tarkibiga kirgan Adijon va Namangan viloyatlari tarixini aks ettiradi. Margilon va Kukon shaxarlarida Farg`ona viloyat davlat arxivning organlari faoliyat kursatmokda. Respublika markaziy davlat arxivlari tizimiga kuyidagi uchta arxiv kiradi.

1. O`zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi.

2. O`zbekiston Respublikasi ilmiy texnikaviy va meditsina xujjatlari markaziy davlat arxivi (1962 ymilda tashkil etilgan).

3. O`zbekiston Respublikasi kinofotofono xujjatlar markaziy davlat arxivi (1943 yilda tashkil etilgan)

Toshkentdagi O`zbekiston Respublikasi MDA saklanayotgan kimmat baxo xujjatlarning soni va moxiyati jixatidan Urta Osiy respublikalari MDA ichida eng yirigidir. Unda 19 asrning ikkinchi yarimidan boshlab to xozirgi kunimizgacha bo`lgan juda kup sonli xujjatlar saklanmokda. Arxivda Turkiston general gubernatorligiga qarashli xozirgi O`zbekiston, Turkmaniston, Kirgiziston, Tojikiston va Kozogiston teretoriyasidagi viloyat-lar uezdlar, volostlar muassasa va korxona xamda xamda tashki-lotlarning tarixiy faoliyatlariga doir barcha xujjatlar manashu markaziy arxivda mujassamlashtiladi. Bu xujjatlarda Turkiston-da chor xukmmatining olib borgan mustamlakachilik siyosati, O`rta Osiyo xalqlarning sotsial iktisodiy axvoli tarixi xaqida ma`lu-motlar uchraydi. Arxivda turkiston ulkasidagi chor xukmatining ma`muriy tashkilotlari faoliyatiga doir xujjatlar tulaligicha saklanib turibdi. Akademik V. V.

Bartolovning aytishicha bosib olingan joylardagi xonliklarning kutubxonalari va arxiv xujjatlarni saklab kolish uchun xech qanday tadbirlar kurilmagan. Ular O`rta Osiyo xalqlarining madaniyat va tarixiy yodgorliklarini saklab kolishga etarli axamiyat bnmaganlar. XIX asrning boshlaridan oldingi arxiv fondlari saklanayotgan xujjatlar uchun tuzilayotgan kursatkich 8 bulimdan iborat.

I b o`l i m «Davlat ma`muriy boshqaruv organlari» deb ataladi. U etti bobdan iborat.

Birinchi bob — «Turkiston viloyati Boshqaruv organlari» haqidagi hujjatlar (336-fonddda).

Ikkinchi bob — «O`lka tashkilotlari, ya`ni Turkiston general-gubernatori kantselyariyasi, uning Soveti. Ulug` knyaz` Nikolay Konstantinovich Romanovning Boshqaruv ishlari, general-gubernatorlikdagi diplomatik — chinovliklar bo`limi, Buxorodagi imperatorning «siyosiy agentligi»ga oid hujjatlar (arxivning 1- fondida).

Uchinchi bob — «Xon hokimiyati organlari: Xiva xonligi kantselyariyasi, Buxoro qushbegisining boshqarmasi » hujjatlar i (126-fonddda).

To`rtinchi bob — Sirdaryo viloyati boshqarmasi. Zarafshon okrugi boshlig`i, Samarqand viloyati boshqarmasi, Farg`ona viloyat harbiy gubernasi kantselyariyasi Boshqarmasi, davlat dumasiga saylov o`tkazish komissiyasi Sirdaryo viloyati bo`limi, qochoqlarni ishga joylash Farg`ona viloyati qo`mitasi kabi hujjatlar (17, 5, 18, 276, 19, 284, 274, 525-fondlar).

Beshinchi bob— shahar uezd, rayon va uchastka tashkilotlari deb nomlangan, unda Toshkent shahar boshqarma boshliqlari, Sirdaryo viloyati Qurama uezdi boshqarmasi, Jizzah Samarqand, Andijon, Qo`qon, Namangan, Skobelev, CHimyon va Uchqo`rg`on uezdlarining har xil hujjatlari (36, 360, 24, 21, 22, 20, 25, 300, 329, 23, 15, 349, 296, 172, 299, 320-fondlar).

Oltinchi bob — Jandarm-politsiya nazorati organlari» deb nomlangan va unda Turkiston rayonlarini himoya qilish bo`limlari, Ettisuv viloyati posyolkasidagi Vernan qidiruv punkti, Temir yo`l jandarm-politsiya bo`limi, Toshkent eski va yangi shahar politsiya bo`limlari, Andijon va Jizzax politsiya pristavlari haqidagi xujjatlar (461, 467, 677, 468, 462, 463, 464, 465, 620 va 531-fondlar).

Ettinchi bob — «Qamoqlar va qamoq qo`mitalari haqida» bo`lib, u materiallar 80, 270, 325, 75- fondlarda saqlanmoqda.

II bo`lim «O`z-O`zini boshqarish tashkilotlari va oliy martabali muassasalar» deb nomlangan. Unda Toshkent shahar dumas, shahar boshqarmasi, shahar umumiy xo`jalik boshqarmasi, Samarqand va YAngi Marg`ilon xo`jalik boshqarmasi va Toshkent meshchanlar oqsoqoli tashkilotlariga doir hujjatlar (Markaziy arxivning 718, 37, 472, 473, 277, 286 va 79-fondlarida) joylashgan.

III bo`lim «Sud va prokuror fondlari» deb ataladi. Bu bo`lim o`z navbatida 3 bobdan, ya`ni birinchi bob — oblast` sudlari, ikkinchi bob — okrug sudlari va uchinchi bob—uezd sudlari, sud ijrochisi, janjallik ishlari komissiyasi, xalq sudlari, qozilar, notariuslar haqidagi xujjatlar (127, 134, 353, 178, .122, 504, 592, 593, 129, 133, 128, 132, 318, 130, 131, 278, 350, 150 va 505 fondlar)dan iborat.

IV bo`lim «Xo`jalik-iqtisodiy tashkilotlar, muassasalar va korxonalar» deb nomlanadi va etti bobdan iborat: birinchi bob — moliyaviy bo`lim (87, 88, 89, 108, 13, 497, 475, 281-fondlar); ikkinchi bob — sanoat bo`limi (41, 241, 113 va 100- fondlar), uchinchi bob — qishloq xo`jaligi (7, 356, 104, 29, 16, 163, 614, 14, 42, 9, 78 va 12- fondlar); to`rtinchi bob — savdo-sotiq bo`limi (469, 264, 90,99, 97, 93, 98" va 214-fondlar); beshinchi bob — boj olish bo`limi (471, 121, 46, 187, 306, 185-fondlar); oltinchi bob — transport bo`limi (33, 39, 538, 102, 101 va 560- fondlar) va, nihoyat, ettinchi bob — aloqa va statistika ishlari haqidagi hujjatlar (557, 43, 44, 266, 249, 269-fondlar).

V bo`lim «Ilmiy va madaniy muassasa va tashkilotlar» deb nomlangan. O`rta Osiyo ilmiy jamiyati haqida 591-fonddda; Toshkent ximiya laboratoriyasi 73-fonddda; 1878 yili Toshkentda tashkil qilingan qishloq xo`jaligi va sanoati ko`rgazmasi materiallari (575-fonddda); Turkiston qishloq xo`jaligi jamiyati (103-fonddda); Turkiston Harbiy okrugi qoshidagi astronomiya va fizika rasadxonasi xaqidagi ma`lumotlar (70- fonddda); Turkiston arxeologiya havaskorlari to`garggi (71-fonddda); rus imperator geografik jamiyati

Turkiston bo`limi (69-fondda); imperator SHarqshunoslik jamiyati Toshkent bo`limi (361-fondda); Turkiston entomolog stantsiyasi haqida (231- fondda); polkovnik Serebrennikovning Turkiston o`lkasi haqida to`plagan hujjatlari (715-fondda); Turkiston o`lkasidagi oliy va o`rta maktablarni boshqaruv haqidagi hujjatlar (47- fondda); Sirdaryo viloyati xalq o`quv yurti direktori haqida (48- fondda); Toshkentdagi 8 yillik erkaklar gimnaziyasi (50- fondda); Toshkentdagi real bilim yurti (64-fondda); Toshkent harbiy gimnaziyasi (51-fondda); Toshkent savdo bilim yurti (56-fondda); Toshkentdagi birinchi xotin-qizlar gimnaziyasi (52-fondda); Toshkentdagi rus-tuzem maktabi (61-fondda); Toshkentdagi birinchi razryadli quyi qishloq gidrotexnika maktabi (65- fondda); O`rta Osiyo temir yo`l Bosh boshqarmasiga qarashli Toshkent temir yo`l bilim yurti (254- fondda); Samarqand xotin-qizlar gimnaziyasi (55-fondda); Skobelev xotin-qizlar xalq kutubxonasi (267- fondda) va Turkiston xalq muzeyi haqidagi hujjatlar Markaziy arxivning 72- fondida saqlanmoqda.

VI bo`lim «Jamoat tashkilotlari» deb nomlangan va bu hujjatlar 596, 27, 81, 268, 611, 34, 8, 595, 76, 490 va 279- fondlarda saqlanmoqda.

VII bo`lim «Diniy nazorat fondi» deb nomlangan. Bu haqdagi ma`lumotlar arxivning 182, 85-fondlarida saqlanmoqda.

Ko`rsatkichga ilova sifatida VIII bo`limda geografik va shaxsiy ko`rsatkichlar, sharq tillaridagi ayrim so`z va terminlarga izohlar ham berilgan.

O`zbekiston Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan bu bebaho hujjatlar XIX asrning ikkinchi yarmidan to XX asrning boshlarigacha bo`lgan O`rta Osiyo, shu jumladan, o`zbek xalqlari tarixini, ayniqsa jonajon o`lka tarixini o`rganishda katta manba bo`lib xizmat qiladi.

Arxiv ishlari, uni tartibga solish va rivojlantirish faqat 20- yillardan keyingina to`liq amalga oshirila boshlandi. Dastlabki kunlardan boshlab arxiv ishlarini tartibga solish va qayta qurish tadbirlari amalga oshirildi. 1918 yil 1 iyunda sobiq Sovet hukumatining «RSFSRda arxiv ishlarini qayta qurish va markazlashtirish to`g`risida» deb chiqargan dekreti asosida Turkiston ASSRda, so`ng O`zbekiston SSRda ham arxiv ishlari qayta ko`rib chiqildi va markazlashtirildi.

1931 yil 20 mayda O`zbekiston Markaziy Ijroiya Qo`mitasining qaroriga asosan O`zbekiston SSR Markaziy davlat arxivi tashkil etildi. O`sha paytgacha 20 — 30- yillarga doir hujjatlar O`zbekiston SSR Markaziy arxiv ishlari boshqarmasining xar xil seksiyalarida saqlanib kelinar edi.

Tarix va madaniyat, yuridik va iqtisodiy bo`limlardagi 122 ta fondagi 188 710 ta (ed. xr.) ish yoki hujjat 1926 yilga qadar arxiv ishlari boshqarmasining 3 seksiyasida saqlanib keldi.

1924 yili O`rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi o`tkazilishi munosabati bilan Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm Sovet Xalq Respublikalari tugatilib, ularning o`rnida O`zbekiston SSR tashkil topgach, soha arxivlaridagi barcha hujjatlar O`zbekiston Markaziy davlat arxiviga topshirildi va arxiv fondlari shu hujjatlar hisobiga boyidi. SHundan so`ng, O`zbekiston SSRning barcha tashkilotlaridagi hujjatlar muntazam ravishda Markaziy arxivga kela boshladi.

Ministrlar Sovetining 1958 yil 20 noyabrdagi 750- sonli qaroriga asosan Markaziy Davlat arxivi qayta tuzilib, uning fondlari asosida o`lkani industrlash bo`limi tashkil qilindi. 1959 yilning 1 yanvariga kelib bu bo`limdagi fondlar soni 1527 taga va undagi hujjatlar soni 503 604 taga etdi. Bu esa O`zbekistonda arxiv ishlarining nihoyatda rivojlanib ketayotganligidan darak beradi. Hozirgi kunda juda ko`p sonli hujjatlar tartibga solingan, chiroyli qilib tematika asosida batartib taxlab qo`yilgan har bir fondan xech qiynalmay foydalanish mumkin bo`lgan ko`rsatkichlar, har bir mutaxassislik bo`yicha maxsus sistematik kataloglar tuzib chiqilgan. Har bir fondga obzorlar berilgan. Xullas, arxivda saqlanayotgan juda ko`p va turli-tuman sohalarga, tarmoqlarga bo`lingan bu xujjatlardan kerakligini osongina topib foydalanish imkoniyati yaratilgan. Bu bo`limda Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm Xalq respublikalari va O`zbekiston SSRning tashkil topgan davrdan boshlab to hozirgi kungacha bo`lgan, davlat, jamoat va kooperativ muassasalari, respublika ahamiyatiga molik bo`lgan tashkilotlar: sud va prokuratura organlari, ilmiy-tadqiqot, o`quv-tarbiya, madaniy-maishiy, ma`rifat va maorif, kasaba soyuz va jamoat tashkilotlari hamda ayrim shaxsiy fondlar ham mavjud.

Bu hujjatlar 1917 yil fevral' oyidan to hozirgi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Markaziy arxiv fondlaridan joy olgan bu hujjatlar faqat o'zbek xalqining tarixinigina emas, balki turkman, tojik, qirg'iz, qozoq va boshqa qardosh xalqlar tarixini ham chuqur va har tomonlama o'rganishda katta ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Markaziy davlat arxivi fondlarida ham tadqiqotchilarning qo'li tegmagan Turkiston xalqlarining 1918—1920 yillarda olib borgan milliy ozodlik va erk uchun kurashlari. Turkiston Sho'rolar hukumatining Turkiston muxtoriyatini tan olmaganligi, uni ag'darib tashlagani va yo'q qilganligi, milliy mustaqillik uchun kurash olib borgan Qo'qon, Andijon, Marg'ilon, Namangan kabi shaharlar aholisining sho'rolar tomonidan shafqatsizlik bilan qirib yuborilganligi, milliy siyosatni amalga oshirishda sho'rolar hukumatining yo'l qo'ygan xatolari natijasida birgina Farg'ona vodiysida 180 dan ortiq shaharlarning shafqatsizlik bilan yo'q qilib yuborilganligi haqida juda qimmatbaho hujjatlar mavjud.

O'zbekiston Markaziy arxivi CHilonzor ko'chasidagi to'rt qavatli hashamatli binoda joylashgan. Bu bino arxiv saqlashga moslab qurilgan o'ning arxiv hujjatlari saqlanayotgan xonalaridan tortib, to o'quv zaligacha hozirgi zamon talabiga javob beradigan qilib jihozlangan. U erda arxiv ishini yaxshi biladigan malakali kadrlar ishlashadi, qanday material so'rasangiz aytgan vaqtingizda muhayyo qilishadi. Uning o'quv zali bilimga tashna bo'lgan odamlar bilan har doim to'la.

Arxiv hujjatlari asosida juda ko'p ilmiy ishlar qilindi. Hozirgi kunga qadar shu materiallar asosida 200 dan ortiq dissertatsiya yoqlandi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi tarmx va arxeologiya instituti ilmiy xodimlari to'rt jildli «O'zbekiston SSR xalqlari tarixi»ni arxiv hujjatlari asosida yaratdilar. «O'zbekiston xalqlari tarixi» ning uch jildligini yaratishda ham arxiv hujjatlaridan keng foydalanadilar. Nashrdan chiqqan ko'pgina yirik ilmiy ishlar shu arxiv hujjatlaridan foydalangan holda maydonga keldi. O'tgan davrda o'zbek xalqi erishgan yutuq va kamchiliklar haqida ma'lumotlar olishda arxiv materiallaridan juda ko'p foydalanildi va yirik ilmiy ishlar qilindi.

Arxiv hujjatlaridan foydalanish va o'rganishga bo'lgan qiziqish kundan kunga ortib bormoqda. Hozirgi kunlarda pedagogika institutlarining tarix fakul'tetlariga «O'lkashunoslik» kursining kiritilishi talabalarining arxiv hujjatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirdi. Ko'pgina talabalar o'zlarining kurs ishlari va diplom ishlari mana shu arxiv materiallari asosida yozmoqdalar.

Arxiv hujjatlaridan foydalanishni osonlashtirish maqsadida «Ko'rsatkich» (Putevoditel')lar nashr qilingan. Bular esa arxivda saqlanayotgan fondlarning ma'no va mazmunini ochib beradi, hujjatlarni o'rganuvchilarga qulaylik tug'diradi. Ko'rsatkich 8 bo'limdan iborat bo'lib, ular tarmoqlar va sohalarga moslashtirilgan. Har bir bo'lim va boblarda voqealar tartib bilan tavsiflangan va xronologiyaga asoslangan. Ko'rsatkichda ayrim fondlarning ilmiy jihatdan muhimligini aks ettiruvchi individual xarakteristikalar ham berilgan. Har bir individual xarakteristika to'rt qismdan, ya'ni fondning nomi, fond haqidagi spravka-ma'lumotlar, fondning tashkil qilingan vaqti va materiallarning sahifalari, fond materiali haqida annotatsiya qismlardan iborat. Ma'lumotnomadan fondning raqami, fondi saqlanayotgan ishning hdjmi, hujjat yozilgan yil, ilmiy-axborot apparatlarining hammasi ko'rsatkichga kiritilgan. Annotatsiyalar fond materiallarining asl mohiyatini, qisqacha mazmunini, faolligini ochib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivining «Turkiston ASSRning tashkil topishi» degan bo'limidagi fondlarni, shu davr uchun nashr qilingan Ko'rsatkich bo'yicha ko'rib va tanishib chiqamiz.

Ko'rsatkichning birinchi bo'limi «Turkiston hududida Muvaqqat hukumatning tuzilishi va ishchi-soldat deputatlari Soveti (oktyabrgacha)» deb nomlangan. Bunda Vaqtli hukumatning Turkiston Qo'mitasi xdqidagi hujjat (1760-fond) va Turkiston o'lkasidagi ishchi deputatlari Soveti (1-chaqirig'i) haqidagi hujjatlar (1613-fond) saqlanmoqda.

«Davlatning oliy organlari va davlat boshqarmalari» deb nomlangan ikkinchi bo'lim ham o'z navbatida 5 bobdan iboratdir. Birinchi bob — Turkiston ASSRning davlat organlari va davlat boshqarmalari deb atalgan hujjatlar (17, 13, 16, 25, 20, 18, 111, 39, 621, 38, 35, 606, 34, 208, 33,

37, 337, 29, 182, 184, 215, 41 va 21- fondlarda); II bob — «Buxoro Xalq Respublikasi davlat organlari» (46, 47, 48, 49, 50, 1616, 56, 57, 61, 63, 58, 62, 51, 52, 68- fondlarda saqlanmoqda); **III** bob — «Xorazm Xalq Respublikasi davlat hokimiyati organlari va boshqarmalari»ga doir hujjatlar (71, 72, 73, 74, va 75- fondlarda); IV va V boblar — «O'zbekiston Davlat organlari va davlat boshqarmalari faoliyati»ga doir hujjatlar (87, 86, 225, 837, 1807, 85, 95, 81, 2027, 1, 9, 11-fondlarda); Adliya va sud organlari» deb nomlangan uchinchi bo'lim hujjatlari 904, 344, 343, 354, 345, 1713 va 1714- fondlarda asralmoqda.

«Xalq xo'jaligi tashkilotlari, muassasalari va korxonalarining faoliyati»ga doir to'rtinchi bo'limning o'zi xam 7 bobga bo'linadi. Birinchi bob — «Planlashtirish va statistika» deb ataladi (88, 10 va boshqa fondlarda); «Moliya» deb nomlangan ikkinchi bobdagi hujjatlar 93, 1680, 335, 634, 2086, 430, 333, 332, 436- fondlarda; «Sanoat» degan uchinchi bobdagi hujjatlar 89, 283, 103, 1977, 2117, 109, 2113, 87, 132, 1867, 1023, 2097, 2105, 2106 va 2038- fondlarda; «qishloq xo'jaligi» deb nomlangan to'rtinchi bobdagi ma'lumotlar 90, 611, 233, 226, 674, 218, 756, 473, 301-fondlarda saqlanmoqda; «Savdo, ta'minot va tayyorlov tashkilotlari» deb atalgan beshinchi bobdagi materiallar 91, 274, 320, 701, 141, 272, 1753, 293 va 1943- fondlarda; «Transport va aloqa» bobi 233, 608, 2, 235, 244, 2085 va 5 fondlarda va nihoyat ettinchi — «Loyihalash va qurilish» bobidagi xujjatlar 169, 170, 610, 114, 2061, 2048, 2092 va 1956- fondlardan joy olgan.

Beshinchi bo'lim «Madaniy va maishiy tashkilotlar» deb ataladi va bunga oid hujjatlar ham 4 bobdan iborat. Birinchi bob — «Xalq maorifi va fan», bundagi materiallar 94, 368, 375, 374, 633, 414, 364, 632, 631, 630, 361, 2091, 2082, 743, 394, 412, 1876- fondlarda va «Matbuot» deb nomlangan boblar esa 402, 431, 155, 405, 404, 403, 408, 409- fondlarda saqlanadi. «San'at» bobidagi hujjatlar 2087, 2062, 2088, 2089 va 417- fondlarda; «Sog'liqni saqlash» sohasidagi to'rtinchi bobga doir hujjatlar 131, 350 va 2096-fondlardan joy olgan.

«Mehnat va **sotsial** ta'minot tashkilotlari» deb nomlangan oltinchi bo'limdagi hujjatlar arxivning 97, 328, 96, 419 va 421- fondlarida saqlanadi. «Kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlari» deb nomlangan bo'lim ham uch bobdan iborat bo'lib, birinchi bobga «Kasaba soyuzlar» haqidagi hujjatlar arxivning 735, 805, 20, 747, 792- fondlarida saqlanadi. «Jamoat tashkilotlari» nomli bobdagi hujjatlar 44, 245, 126, 406, 840, 423, 239, 348 va 424- fondlarga kiradi. «Sport tashkilotlarining hujjatlari» 2043, 2053, 2047- fondlarda va nihoyat «SHaxsiy fond» deb nomlangan oxirgi bo'lim 7226, 1591-fondlarda saqlanadi.

O'lkashunoslikning asosiy manbalaridan biri hisoblangan arxivshunoslik Vatan tarixini, shu jumladan, o'z o'lka tarixini har tomonlama va chuqur o'rganishda talabalarga katta yordam beradi.

SHuni ta'kidlab o'tish kerakki, respublikamizning hamma rayonlarida va oblastlarida rayon va oblast' davlat arxivlari mavjud. Rayon arxivlari o'z qo'l ostidagi barcha muassasa va tashkilotlardagi davlat ahamiyatiga ega bo'lgan hujjatlarni yig'ib oladi va ma'lum muddatdan so'ng ularni oblast' davlat arxivlariga, ular esa o'z soha va tarmoqlari bo'yicha respublika arxivlariga yoki boshqarma yoki vazirliklarga, ular xam o'z navbatida bir qancha muddat saqlaganlaridan so'ng Markaziy davlat arxivining qonun-qoidalariga rioya qilgan holda hujjatlarni tayyorlab, so'ng Markaziy davlat arxiviga topshiradi. O'zbekiston Markaziy davlat arxividagi hujjatlar o'z ahamiyatiga qarab bir umr yoki bir necha yil saqlanadi yoki akt qilib yoqib tashlanadi.

Bundan tashqari, Toshkentda respublika partiya tashkilotlari, ya'ni rayon, oblast', respublika partiya tashkilotlarining ham maxsus arxivlari mavjud. Bu arxivlarda boshlang'ich partiya tashkiloti hujjatlari saqlanadi. Bu arxivlardan tashqari yana bir necha tarmoqlarni o'z ichiga olgan arxivlar ham bor.

O'qituvchi arxiv hujjatlaridan muntazam ravishda, har bir mavzuni bayon etish jarayonida o'rinli va unumli foydalanishi uchun oldindan qaysi arxivning qanday fondidan qaysi mavzuni o'tishda qo'llash mumkin bo'lgan materiallarni aniqlab olishi zarur.

Agar o'qituvchi partiyaning agrar siyosatini o'quvchilarga tushuntirayotgan vaqtida O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivining 1, 9, 25, 29, 167, 218, 301, 473, 674, 754- kabi fondlarida saqlanayotgan 1917—1920 yillarda xalq xo'jaligini qayta qurish va tiklash,

kooperativ rejani amalga oshirish uchun olib borilgan kurash, meliorativ shirkatlar va «Qo`shchilar soyuzi»ning ish faoliyati xalq xo`jaligini rayonlashtirish, irrigatsiya va suv xo`jaligini qayta qurish va takomillashtirish, erlarning meliorativ holatini yaxshilash, paxta mustaqilligi va yakka hokimligining kelib chiqish sabablari o`sha hujjatlardan foydalangan holda bayon qilinsa juda maqsadga muvofiq bo`lar edi.

Buning uchun o`qutuvchining o`zi arxivdan foydalanish yo`llarini yaxshi bilishi shart.

Arxiv hujjatlari har bir darsning g`oyaviy, siyosiy tomonlarini faktik materiallar bilan boyitishdan tashqari, uning ta`limiy va tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi, yosh yvlodni esa vatanparvarlik, ajdodlarimiz merosini o`rganishga bo`lgan qiziqishini ta`minlaydi.

Mavzuga oid tayanch so`z va iboralar:

- | | |
|---------------------|-----------------------|
| 1. Arxivshunoslik | 5. Muassasa arxivlari |
| 2. Davlat Arxivlari | 6. Uezd |
| 3. Volost | 7. Fond |
| 4. Bulim | 8. Akt. |

Mavzu yuzasidan nazorat savollari.

1. O`lkashunoslikni rivojlantirishda arxivshunoslikning o`rni qanday?
2. Muassasa arxivlari deganda qanday arxivlari tushunasiz?
3. Davlat arxivlarida qanday xujjatlar saqlanadi?
4. UzRMDA qachon tashkil topgan?
5. Xujjatlarni saqlash qanday tartibda amalga oshiriladi?
6. Arxivda qanday xujjatlar saqlanadi?
7. Arxiv ishlarini o`rganish qanday ahamiyatga ega?
8. O`zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan arxivlar xaqida ma`lumot bering.
9. Arxivlarni shartli ravishda nechta guruxga bulish mumkin?
10. Namangan viloyati Davlat arxivi faoliyati xaqida gapiring.
11. O`zbekiston Respublikasi ilmiy-texnikaviy va meditsina xujjatlari Markaziy Davlat Arxiv qachon tashkil etilgan?
12. O`zbekiston Respublikasi Kinofotofono xujjatlari Markaziy Davlat Arxivi qachon tashkil etilgan?
13. O`zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat O`zbekiston Respublikasi fondlarida saqlanayotgan xujjatlar turisida ma`lumot bering.
14. Rayon arxivlarida qanday xujjalar saklanadi?
15. Viloyat Davlat arxivlarida qanday xujjatlar saqlanadi?
16. Xujjatlarni saqlashda nimalarga e`tibor beriladi?
17. SHaxar yoki rayoningizdagi arxivlar xaqida ma`lumot bering.
18. Arxiv fondi deganda nimani tushunasiz?
19. Arxiv bulimlari xaqida ma`lumot bering.
20. Akt nima?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Vatan sajdagox kabi muqaddasdir. Toshkent «O`zbekiston» 1996 yil.
2. Karimov I. A. Uzyuekiston istiklol va tarakkiyot yuli. Toshkent «O`zbekiston» 1992 yil.
3. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan kolsin. Toshkent. «O`zbekiston» 1996 yil.
4. Nabiev A. «tarixiy o`lkashunoslik » T. 1979y

5. “Fargʻona viloyat oʻlkashunosligi” F. 97y.

8-MAVZU. TARIXIY OʻLKASHUNOSLIKDA MUZEY EKSPONAT (MATERIAL)LARI VA OʻLKASHUNOSLIK TOʻGARAKLARI.

REJA:

- 1. Oʻzbekiston tarixi muzeyi**
- 2. Muzey turlari**
- 3. Muzey zallarida**
- 4. Oʻlkashunoslik toʻgaragini tashkil etish**

Oʻlkashunoslik manbalari orasida haqiqiy ilmiy va madaniy-maʼrifiy muassasaga aylanib qolgan muzeyning oʻrni va ahamiyati kattadir. U moddiy va maʼnaviy madaniyat yodgorliklarining asl nusxalarini, arxeologiya, etnografiya, tomonimikaga oid materiallarni toʻplaydi, saqlaydi va ilmiy asosda oʻrganib taxlil qiladi, natijalarini esa ekspozitsiya sifatida ommalashtiradi.

Yigʻilgan va muzeyda saqlanayotgan barcha materiallar muzeyning ilmiy bazasini tashkil etadi va uning ijodiy faoliyatida asos boʻlib xizmat qiladi. Mana shu manbalar asosida muzeylar ilmiy tadqiqot va ilmiy hamda madaniy-maʼrifiy taʼlim-tarbiya ishlarini olib boradi.

1. Oʻzbekiston tarixi muzeyi oʻtmishi haqida bir necha soʻz

M. T. Oybek nomidagi Oʻzbekiston tarixi muzeyi Turkistonning mashhur olimlari va jamoat arboblarning harakati bilan va bevosita rahbarligi hamda yordamida 1976 yilda tashkil etilgan. Oʻzbekiston va umuman butun Turkistonning yodgorliklari koʻpdan buyon olimlarning diqqatini oʻziga jalb qilib kelardi. XIX asr davomida osori atiqalar ustida arxeologik kuzatishlar, qidiruv ishlari olib borildi. Bu sohada P. I. Lerh N. I. Veselovskiy, V. A. Jukovskiy, V. V. Bartol'd, M. S. Andreev, V. L., Vyatkin, A. A. Divaev, L. A. Zimin, V. A. Kallaur, E. F. Kal', B. N. Kastal'skiy, A. L. Kun, N. P. Ostroumov, N. N. Pantusov, A. A. Semyonov, E. T. Smirnovlar toʻplagan materiallar Oʻzbekiston (Turkiston)ning qadimiy yodgorliklarini hisobga olish, taʼriflash va tekshirish ilmiy muassasalari: Imperator arxeologiya komissiyasi, Rus arxeologiya jamiyatining SHarq boʻlimi, shuningdek, 1903 yil aprelda tashkil qilingan oʻrta va SHarqiy Osiyo tarixiy, arxeologiya, lingvistika va etnografiya jamiyatlarining qimmatbaho materiallari hamda rus havaskor kolleksiyachilari: Barshchevskiy, Vyatkin, Dobrosmislov, Kastal'skiy, Komarov, Petrov-Borzna, Poslovskiy, Stolyarov, Terent'ev, Trofimov va boshqalar toʻplagan koʻpdan-Koʻp ajoyib materiallar bu muzeyning asosiy fondlarini tashkil etadi.

Muzeyini tashkil qilishda A. P. Fedchenko faol ishtirok etgan. U tabiiyot antropologiya va etnografiyaga oid materiallar toʻplagan. Bu materiallar dastlabki eksponat sifatida muzeyga qoʻyilgan. Fedchenko vafotidan soʻng bu ishga N. A. Severtsev, I. V. Mushketov, V. F. Oshanin kabi mashhur rus olimlari katta hissa qoʻshdilar. Birinchi mahalliy arxeolog Akrom polvon Asqarovning xizmatlari ham kattadir. Akrom polvon Asqarov oʻzi toʻplagan juda koʻp ajoyib yodgorliklar (faqat tanga-chaqalardan 15 mingdan koʻprogʻini mana shu muzeyga topshirgan) muzey fondini ancha boyitgan.

Umuman, bu muzeyning ochilishi va uning faoliyati oʻlkaning madaniy hayotida muhim voqea boʻldi. Muzey eksponatlari xalqaro koʻrgazmalarda namoyish qilindi, unda tuzilgan kataloglar esa hozircha oʻz ahamiyatini yoʻqotgan emas.

Asrimizning boshlarida, yaʼni 20- yillardan keyin bu muzey haqiqiy ilmiy va madaniy-maʼrifiy muassasaga boʻlib qoldi. Muzey jamoasi Oʻzbekiston xalqlarining qadim zamonlardan buyongi tarixini oʻrganish yuzasidan ilmiy tekshirish ishlari olib bormoqda. Muzey fondi

respublikaning hamma viloyatlariga yuborib turiladigan arxeologiya, etnografiya ilmiy safarlarining materiallari bilan doimiy ravishda boyitilmoqda.

Hozirgi vaqtda muzeyda 40 mingdan ortiq arxeologiyaga oid eksponatlar, 44 ming qadimgi pul nusxalari, 10 mingdan ortiq turli-tuman etnografiyaga oid buyumlar, 2 mingdan ortiq noyob yodgorlik buyumlar mavjud. Muzey fondidagi materiallar orasida qo'shni respublikalar — Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'izistonga taalluqli ma'lumotlar ham ko'p.

Muzeyda asosan materiallarning asl nusxalari, shuningdek, maketlar, badiiy va grafik tasvirlar, chizmalar, diagrammalar, rasmlar qo'yilgan. eksponatlar orasida noyob narsalar ko'p. 1917 yildan keyingi davr xronologik ravishda 1965 yilgacha ko'rsatilgan.

Muzey 1967 yilda XIX asrning me'morchilik yodgorliklaridan biri hisoblangan binoga ko'chdi. Bu binoda 1919 yilda Butun Rossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va RSFSR Xalq Komissarlari Sovetining Turkiston ishlari bo'yicha komissiyasi (Turkkomissiya) ishlagan edi. Bu binoda 45 ta zal bo'lib, ularda 7 mingdan ortiq eksponat joylashtirilgan.

2. Muzey turlari

Respublikamiz hududida uch turdagi muzeylar mavjud bo'lib, birinchi turdagi muzeylarga ilmiy-tadqiqot va madaniy-ma'rifiy ishlarini olib boradigan muzeylar kiradi. Ular bir vaqtning o'zida ilmiy-tadqiqot va madaniy-ma'rifiy hamda ta'lim-tarbiyaviy ishlarni olib boradi. Ikkinchi turdagi muzeylarga faqat bir soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib boradigan muzey laboratoriyalariga ega bo'lgan maxsus muzeylar (masalan, O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi bakteriologiya va mineralogiya muzeyi) kiradi va nihoyat, uchinchi turdagi muzeylarga faqat o'quv turidagi" muzeylar kiradi. Bu muzeyning asosiy maqsadi o'quv jarayonini yaxshilashdan iborat.

Muzey turlari ko'p jihatdan unda saqlanayotgan kolleksiya fondlarining xarakteriga va ular faoliyatining yo'nalishiga bog'liqdir.

Shuningdek, turli fan sohalariga bo'lingan muzeylar ham bor. Bu muzeylar orasida ko'proq ma'lum bo'lganlari yoki faqat o'sha sohd mutaxassislarigagina ravshan bo'lgan ma'lum tarmoqni aks ettiruvchi muzeylar ham mavjud. Masalan, Toshkentdagi M. T. Oybek nomli O'zbekiston tarixi muzeyini, Tasviriy san'at muzeyini Alisher Navoiy nomli adabiyot muzeyini, Turkiston Harbiy Okrug muzeyini, Tabiatshunoslik muzeyini ko'pchilik omma yaxshi biladi, ammo arxeologiya, etnografiya, harbiy-tarixiy, memorial, regional, san'atshunoslik, texnik muzeylarni ko'proq o'sha soha mutaxassislari biladilar. Bularidan tashqari yana Toshkentda murakkab va kompleks sohali muzeylar xam mavjud. Toshkentdagi mavjud muzeylar o'zbek va boshqa qardosh xalqlar tomonidan tashkil etilgan turli-tuman sohalarning uzoq o'tmishdan to hozirgi kunga qadar bo'lgan rivojlanishini ko'rsatish bilan bir qatorda, O'rta Osiyo xalqlarining, shu jumladan, o'zbek xalqining ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalizm davridagi hamda 1917 yilgacha bo'lgan davrdagi hayot yo'lini aks ettiruvchi eksponatlar bilan birga to'ntarishdan keyingi Turkistonda Sho'rolar hokimiyatining o'rnatilishiga doir, fukarolar urushi xalq xo'jaligini qayta tiklash, mamlakatda elektrlashtirish rejasining amalga oshirilishiga doir materiallar ham muzey eksponatlari ichida joy olgan.

3. Muzey zallarida

Muzey zallari tomoshabinlarni O'zbekiston tarixi muzeyi ekspozitsiyasida bo'lgan moddiy madaniyat yodgorliklari bilan tanishtirishni nazarda tutadi.

Muzey fondlari asosan to'rt katta davrga bo'lingan bo'lib, ular quyidagicha nomlangan: «Ibtidoiy jamoa va quldorlik tuzumi davri», «Feodalizm davri», «Turkiston chor Rossiyasi tarkibida» va nihoyat to'rtinchi bo'lim «O'zbekiston tarixining 1917 — 1990 yillardagi davri» deb nomlanadi.

Ibtidoiy jamoa va tsuldorlik tuzumi davri deb nomlangan birinchi bo'lim ibtidoiy jamoa odamlarining yashagan makonlariga ta'rif berish bilan boshlanadi.

Ibtidoiy odamlar chaylalarda, g'orlarda yashaganlar. 1938 yilda Boysuntovning Teshiktosh g'orida (Surxondaryo viloyati) qadimiy tosh davri (must'e davri)da odam yashaganligi aniqlandi.

G'orning ichi keng, balandligi 21 metrcha keladi. G'or ichida gulxan qoldiqlari, toshdan yasalgan mehnat qurollari, yovvoyi qush va hayvonlar — ayiq, kiyik, tog' echkisining suyaklari topildiki, bu hol Teshiktoshda yashagan odamlar ovchilik bilan kun kechirganliklaridan dalolat beradi. YUqoridagi ta'rifga binoan Teshiktosh g'ori (maketi) qo'yilgan.

Teshiktosh g'oridagi chuqurda 8 — 9 yashar bolaning skeleti topilgan. Qabr atrofida tog' echkisining shoxlari yotgan ekan. Mashhur antropolog-haykaltarosh M. M. Gerasimov suyak tuzilishlariga qarab bolaning haykalini yaratdi. Bolaning bosh suyagi juda siqiq, peshanasi yaydoq, past, qosh-qovog'i osilib turadi. CHaynash muskullari baquvvat, iyagi tekis. Bosh suyagining holati va bukchaygan qomati o'sha vaqt odamining xali qaddini rostlab yurishga odatlanmaganidan dalolat beradi. U o'z qiyofasi bilan Evropada yashagan neandertal' turidagi odamlarga juda o'xshaydi.

Qadimgi odamlarning tirikchiligi asosan ovchilik va yig'uvchilik bilan kechgan. O'lar tog' echkisi, yovvoyi ot, ayiq, qoplonlarni ov qilishgan. Ov ko'p odam ishtirokini talab qilganidan ibtidoiy odamlarni jipslashtirgan. YAralangan yirtqich hayvon bilan olishuvda ko'pincha odamlar halok bo'lganlar. O'ljani birga baham ko'rganlar, ortig'ini ehtiyot qilib qo'yganlar. Ayollar yig'uvchilik — meva-cheva terish, ildiz kovlash bilan shug'ullanganlar, mehnat qurollari tayyorlaganlar. «Ibtidoiy odam sinantrop ovda. eramizdan 600 — 400 ming yil ilgari» deb nomlangan maket xuddi jonliday qilib ishlangan.

T. Sodiqov tomonidan chizilgan «Malika TO'maris qasos olmoqda» nomli suratga quyidagicha ta'rif berilgan: miloddan oldingi VI asrda O'rta Osiyoga forslar hujum qilganlar. Miloddan oldingi, 529 yilda bosqinchilar massagetlar tomonidan tor-mor qilinadi, podshoh, Kir esa o'ldiriladi. Afsonada talqin qilinishicha, massagetlar malikasi TO'maris Kirning boshini qon to'ldirilgan meshga tashlatar ekan: «YUrtimizga qon ichgani kelding. Mana endi to'yib-to'yib qon ichgin» degan.

Miloddan oldingi 521 yilda podsho Doro boshchiligida fors galalari bostirib keladi. SHiroq degan cho'pon yo'l ko'rsataman deb, ularni jazirama cho'lu biyobonda adashtiradi. Tilka-pora qilinayotgan SHiroq: «Men g'alaba qildim, xalqimni haloqatdan qutqardim» deb mardona xitob qiladi.

O'sha vaqtlarda O'rta Osiyoda xukmron bo'lgan otashparastlar urf-odatiga ko'ra o'lgan odamning jasadi toqqa olib chiqilib, «Sukunat minorasi» degan joyga qo'yilar ekan. Qushlar jasadning etini cho'qib eb, suyagini tozalab qo'yishar ekan. SHu suyaklar dafn yashigi — ossuariyga solib ko'milar ekan. Ossuariylar qushlar, hayvonlar, odamlar rasmi chizilib bezatilgan bo'lar ekan. Muzeyda Qo'yqirilgan qal'adan topilgan «Utirgan ayol tasvir etilgan ossuariy»ning asl nusxasi qo'yilgan.

Miloddan oldingi 329 yilda Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn) qo'shinlari O'rta Osiyoga bostirib kirgan. Xalq bosqinchilarga qarshi bosh ko'tarib chiqqan. Rassom M. Nabiev chizgan rasmda Spitamen chavandozlarining Marokanda (Samarqand) atrofida makedoniyaliklar qo'shiniga hujumi tasvirlangan.

Quldorlik davrida savdo-sotiq ishlari rivoj topadi. Aleksandr Makedonskiy hukmronligi zamoniga, YUnon-Baqtriya va Kushon podsholigi davriga oid tanga pullarga shohlar, tangrilar tasviri, hukmdorlarni madh etuvchi yozuvlar zarb etilgan ekan. Bu topilgan tanga pullar quldorlik davlatlari o'rtasida savdosotiq rivojlanganligidan darak beradi. Bu erda «Fil surati solingan kumush quyushqon qubbasi»ning arxeologlar tomonidan topilgan asl nusxasi ham qo'yilgan.

Zargarlik buyumlari, kumush zeb-ziynatlar zodagon jangchilarning otlariga bezak bo'lardi. O'larda YUnon-Baqtriya zodagonlarining jangovar hayotidan manzaralar chizilgan. Termizda topilgan va asl nusxasi qo'yilgan «Bazm ko'rinishi tasvirlangan idish» juda xarakterlidir.

1932 yilda Amudaryoda «Oktyabryonok» katerida ketayotgan chegarachilar Ayritomga yaqin joyda oq tosh ko'rganlar. Bu nog'orachi tasviri o'yib solingan tosh foiz ekan. 1934 yilda o'sha erga professor M. E. Masson boshchiligida ekspeditsiya yuborildi. SHunday qilib, Amudaryoning qirg'og'idagi Ayritomda milodimizning I — II asrlariga oid budda ibodatxonasi topildi. U ohak toshdan ishlangan ajoyib friz bilan bezatilgan edi. Frizda akant barglari orasiga

ishlangan sozandalar va gulchambarlar tasviri koʻzga tashlanadi. Bu Kushanlar zamonidan qolgan noyob sanʼat yodgorligidir. Bu joyga «Ayritom frizi»ning asl nusxasi qoʻyilgan.

Tuproqqalʼa milodimizning III—IV asrlarida Xorazm hukmronlarining poytaxti boʻlgan. SHahar toʻgʻri toʻrtburchak shaklida boʻlib, gir atrofi qalin qoʻrgʻon devor, burchaklarida kvadrat mezanalar qad koʻtargan ekan. Qoʻrgʻon ichida ikkala betiga imorat tushgan keng koʻcha boʻlgan. SHaharning shimol qismidagi uch qavatli imorat shoh. saroyi boʻlib, uning zallari goʻzal haykallar va naqshlar bilan bezatilgan. Haykallarda Xorazmning ilohiylashtirilgan hukmronlari va ularning lashkarlari tasvirlangan. Muzeyda Tuproqqalʼa saroyidan topilgan «qizil bosh» haykalini va oʻsha saroy devoridagi «Arfa chaluvchi ayol» rasmini koʻramiz.

Kushan davri sopol buyumlar ishlab chiqarish rivoj topganligi bilan xarakterlidir. Arxeologiyaga oid 284 qazilmalarning koʻrsatishicha, oʻsha vaqtlarda nafis sopol buyumlar — qizil lak va qizil boʻyoq berilgan sip-silliqliq qadahlar, kosalar, xumchalar, koʻzachalar va boshqa idishlar ishlangan.

Diniy eʼtiqodlar bilan bogʻliq boʻlgan terrakotik haykalchalar — hosildorlik maʼbudasi Anaxita, erkaklar va chavandozlar tasvirlangan haykalchalar juda ajoyibligi bilan diqqatni oʻziga jalb etadi. Bu muzeyga Surxondaryo viloyatidan topilgan, miloddan ilgarigi I asrga doir «Maʼbuda Anaxita haykalchasi» ning asl nusxasi qoʻyilgan.

Qadimgi askarning ust-boshi: beli siqilgan chakmon, keng cholvor, yumshoq etik, charm boshliqdan iborat boʻlgan. Askarlar chap tomonga qilich va pichoq, oʻng tomonga yoy va oʻqdon taqqanlar. Qoʻllarida esa uzun nayza boʻlgan.

Bu voqeaga dalil sifatida Amudaryo xazinasiga tegishli Tilla plastinkadagi «Xorazm jangchisining ust-boshi» va taʼrifda aytilgan asbob-uskunalar qoʻyilgan.

Endi Oʻzbekiston tarixi muzeyidagi «Feodalizm davri» deb nomlangan ikkinchi boʻlimga qisqacha toʻxtalib oʻtamiz.

Bu boʻlim Samarqanddagi «Ishratxona» maketini tanishtirish bilan boshlanadi. Bu erga V—VI asrlarga oid Bolaliktepadan topilgan rasm xam qoʻyilgan. Oʻzbekistonning janubidagi Bolaliktepa feodallar qoʻrgʻoni boʻlib, tevarak-atrofiga zovur qazilgan. Qoʻrgʻonning ichkari hovlisi yonma-yon qurilgan imoratlarni birlashtirgan. Zallardan birining devoriga chiroyli rasmlar ishlangan. Rasmlardan birida feodallarning ziyofati tasvirlanadi. Ular zarbof kiyimlarga burkanib, supada oʻtirishibdi. Ularning orqasida xizmatkorlar ularni elpigʻich bilan elpimoqdalar.

Bu boʻlimda turk askarlari qabriga qoʻyiladigan tosh haykalchalar ham bor. Bu haykalchalar kosa yoki oyna ushlab turgan askarni tasvir etadi. Haykalchalar atrofiga mazkur askar oʻldirgan dushmanni soniga teng boʻlgan tosh terilgan. Bu erga VII — VIII asrlarga oid boʻlgan bu voqeani aks ettiruvchi ana shunday «Turk tosh haykalchasi» ning asl nusxasi qoʻyilgan.

Panjakent soʻgʻdlarning ilk feodal shahri boʻlib, uni arablar xarob qilganlar. Rossiya Fanlar akademiyasining arxeologiyaga oid ilmiy safari koʻp yillar mobaynida bu erda qazish ishlari olib bordi. Natijada muhtasham qoʻrgʻon va saroylar, turar joylar, hunarmandchilik ustaxonalari, katta-kichik doʻkonlar, qatorlashgan koʻchalar ochildi. Zodagonlarning uylari va ibodatxonalarning devorlariga rang-barang boʻyoqlarda rasmlar solingan, oʻymakor yogʻoch haykalchalar ishlangan. Bular zodagonlarning turmushi, kurashi, ziyofat-bazmlarini tasvirlaydi. Bular ajoyib sanʼat yodgorliklari boʻlishi bilan birga soʻgʻdlarning qiyofasi, kiyim-kechagi, qurol-yarogʻlari haqida tasavvur beradi. BOʻlimda Panjakentdan topilgan devorga ishlangan «CHavandozlar» rasmidan bir koʻrinish berilgan.

Buxorodan 40 kilometr gʻarb tomonda qadimiy Varaxsha shahrining xarobalari bor. Bu shaharda VI — VII asrlarda Buxoro vohasining hukmdorlari yashaganlar. 1938 — 1953 yillarda Oʻzbekiston Fanlar akademiyasining (u 1943 yilda tashkil etilgan) V. A. SHishkin boshchiligidagi ilmiy safari shaharda arxeologiyaga oid qazish ishlari olib bordi. Qoʻrgʻon ichida xukmdorlarning muhtasham qasri topildi. Bu ikki qavatli inshootning chor atrofni ayvonlar va dabdabali zallar qurshagan hovlilari boʻlgan. Zallar rang-barang boʻyoqli rasmlar va oʻymakor

ganch naqshlar bilan bezatilgan Varaxsha shahar-qo'rg'onining ikki qavatli hashamatli inshootini V. A. Nil'sen ta'miri asosidagi rasmda ko'rish mumkin.

Har xil manzaralar — qo'chqor ovi, sakrab chopayotgan arxarlar, o'yinga tushayotgan raqqosa, suvda suzib yurgan baliqlar, yopirilib uchib ketayotgan kushlar tasvirlangan. Tok bargi va uzum boshlari tasvirlangan girixning chiziqlari bir-biriga chirmashib ketgan. Bu saroyning muhtashamligi tillarda doston bo'lib ketdi, deb bejiz aytilmagan. Varaxshadan topilgan «YArador qo'y» tasviri ham berilgan.

VI asrning 80- yillarida hozirgi Buxoro viloyati hududida istiqomat qilgan turk kambag'allari turk xoqoniga va mahalliy feodallarga qarshi qo'zg'olon ko'targanlar. Qo'zg'olonga turk shahzodasi Abro'y boshchilik qilgan. Boylar, jumladan, katta mulkdor dehqon «Buxorxudot» shimolga qochib, ulug' xoqon Qorachurindan madad so'ragan. 585 yilda qo'zg'olon shafqatsizlik bilan bostirilgan. Abro'y qatl qilingan, qo'zg'olonchi kambag'allar qaytib kelgan boylarga qul qilib berilgan. Bu erda V. I. Kaydalov chizgan «Abro'y qo'zg'oloni» deb nomlangan rasm qo'yilgan.

1200 yillik kitob (arab xalifasi Usmonga tegishli Qur'on)dan ko'chirma nusxa berilgan. 1200 yil ilgari kufiy xatida yozilgan bu kitob VIII asrga oid noyob yodgorlikdir. Qur'on 353 varaq bo'lib, eni 68 sm, bo'yi 53 sm, yozuv 50X40 sm o'rin egallaydi. Har beti 12 satrdan iborat. Qur'on Samarqanddagi hoji Ahror masjidida saqlangan. O'rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin general Abramov bu qadimiy qo'lyozmani katta pulga sotib olib, Turkiston general-gubernatori K. P. Kaufmanga sovg'a qilgan. 1869 yil 24 oktyabrda bu Kur'on Peterburg Imperator xalq kutubxonasiga yuborildi. 1917 yildan keyin noyob qo'lyozma O'rta Osiyo xalqiga qaytarilgan.

O'rta Osiyoning hunarmand ustalari X — XIII asr boshlarida ajoyib sopol va shisha idishlar yasaganlar. Qazib olingan rudadan metall idishlar va bezaklar quyganlar. Bu davrda hunarmandchilik juda taraqqiy etgan. X — XII asrlarda ajoyib gullar solib ishlangan sopol idish-tovoqlarning eng nafislari muzeydan joy olgan.

Feodalizm davrida O'rta Osiyoda me'morchilik va binokorlik yanada rivoj topadi. Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi (X asrda qurilgan), Minorai Kalon (XII asrda qurilgan), Termiz shohlar saroyi, Xorazm shohlar saroyi (XII asr boshlarida qurilgan) me'morchilikning ajoyib namunalaridandir.

O'ymakor, murakkab nafis geometrik va o'simlik nusxa ornamentlar qilish keng tus olgan. Bu ta'riflardan so'ng Ismoil Somoniy maqbarasi, Jarqo'rg'on minorasi, Minorai Kalon kabi bir qator ajoyib maqbara va minoralar rasmlari berilgan.

Abu Ali ibn Sino (980—1037) — SHarqda nom chiqargan ulug' qomusiy olimdir. U falsafa, falakiyot ilmi, she'riyat bilan shug'ullangan, xususan, tibbiyot bobida juda shuhrat qozongan edi. Ibn Sino har xil kasalliklarni o'rganib, ularning paydo bo'lish sabablarini aniqladi, juda ko'p dori-darmonlar kashf qildi. Ibn Sinoning jarrohlik sohasidagi xizmatlari ham katta. Uning «Tib qonunlari» hozir ham Evropa va SHarq shifokorlari uchun dasturulamal bo'lib kelmoqda. Muzeyda musavvir M. Nabiev yaratgan ana shu buyuk siymo — Abu Ali ibn Sinoning rasmi turibdi.

Abu Rayhon al-Beruniy (973 — 1048) xorazmlik mashhur qomusiy olim. Uning ilmiy faoliyati xilma-xil fanlarni qamrab olgan. Beruniy tarixchi va faylasuf, geograf, mineralog, falakiyot ilmi bilimdoni edi. U 150 dan ortiq asar yozgan. «Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar», Hindistonga oid «Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi», shuningdek, katta axamiyatga ega bo'lgan «Mineralogiya» va boshqa juda ko'p asarlar yaratdi. Olimning M. Nabiev tomonidan chizilgan rasmi ham muzey ekspozitsiyalari ichidan o'rin olgan.

CHingizxon 1220 yilda Buxoroni bosib olgach, Samarqandga yurish qildi. Unga CHig'atoy va o'qtoyxon ham qo'shinlari bilan kelib qo'shildi. Samarqand garnizoni 50 ming kishidan ortiq edi. Ular to'rt kecha-kunduz shaharni himoya qilib, beshinchi kuni taslim bo'ldilar. Faqat 400 bahodir qal'ani mudofaa qilib qattiq olishdi, biroq hammalari halok bo'lishdi.

Mo'g'ullarga qarshi kurashda Temur Malik boshchiligidagi Xo'jand jangchilari qahramonlik namunalarini ko'rsatdilar. Ular oldin shaharni mudofaa qildilar, so'ngra Temur Malik mingta jangchisi bilan Sirdaryodagi orollardan biriga chekindi. Mo'g'ullarning kamon o'qi ularga etmasdi, ular damba qurmoqchi bo'ldilar. Lekin Temur Malik jangchilari dambani buzaverdilar. Temur Malik o'z odamlarini qayiq'larga o'tqazib, kechasi Sirdaryoning quyi oqimi tomon jo'nab ketdi. Rivoyatlarga qaraganda, Mo'g'ullar daryoga to'g'on-zanjir tortganlar, ammo jasur Temur Malik to'siqni buzib, Xorazmga yo'l olgan. Bu erda Temur Malik boshchiligidagi Xo'jand mudofaasi va Mo'g'ullarning zanjir-to'g'onini buzib o'tib ketayotgan Temur Malik kemalari tasvirlangan rasm bor.

Mo'g'ullar va ular bilan til topishgan mahalliy feodallar dehqon va hunarmandlarni talon-toroj qilib, zulm o'tkazganlar. Sayyoh Plano Karpini bunday deb yozadi: «Mo'g'ullar xar bir hunarmandga g'allani juda kam tortib berishadi, haftada uch marta juda oz miqdorda go'sht berishadi. Mehnatkashlar oldida yo huquqsizlik va ochlikdan o'lish yoki qo'zg'olon ko'tarish masalasi turardi».

1238 yilda Buxoroda Mo'g'ullarga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Unga Torob degan qishloqlik Mahmud boshchilik qildi. Feodallar Mo'g'ul otryadlarini yordamga chaqirdilar, ammo qo'zg'olonchilar ularni tor-mor qilishdi. Mahmud Torobiy halok bo'ldi, qo'zg'olon esa bostirildi.

1365 yilda Mo'g'uliston xoni Ilyosxo'ja boshchiligida Mo'g'ul otryadlari Samarqandga yurish boshladilar. Samarqandda qo'rg'on devor yo'q edi. O'lka hokimi Amir Husayn va uning ixtiyorida xizmat qilayotgan Temur shaharni dushmanga tashlab ketdilar. SHundan so'ng kosib Abubakir Kalaviy, sipohiy yigit Xurdak Buxoriy va mudarris hamda Mavlonozoda boshliq xalq Samarqandni mudofaa qilishga otlandilar. Bu harakat tarixda sarbadorlar qo'zg'oloni deb ataladi. Qo'zg'olonchilar faqat bir joydan kirishga yo'l qo'yib, boshqa yo'llarni taqa-taq bekitdilar. SHu ochiq yo'ldan shaharga kirgan Mo'g'ullar pistirmalarga duch keldilar va tor-mor qilindilar. Musavvir V. Nechaev tomonidan chizilgan «1365 yil, Samarqandda bo'lib o'tgan sarbadorlar qo'zg'oloni» deb nomlangan rasm diqqatga sazovordir.

O'rta Osiyo jangchisining asosiy quroli maxsus lak bilan bo'yalgan kamon va o'qlar solingan o'qdon edi. SHu bilan birga, jangchida nayza, qilich, dubulg'a, uzun engil nayza va arqon, shaxsiy chodir, 10 kunlik oziq-ovqat, suv va qo'shimcha otlar bo'lardi. SHu joyda yuqoridagi aytilganlarning xdmmasini o'zida mujassamlashtirgan «O'rta Osiyo jangchisi» ning surati qo'yilgan.

Temur davrida va uning avlodlari — temuriylar davrida saroylar, masjid, madrasalar qurilishi misli ko'rilmagan darajada avj olib ketdi.

XIV — XV asrlarda qurilgan SHohizinda maqbarasi, Go'ri Amir, Ishratxona, Bibixonim masjidi, Ulug'bek madrasasi, osmon o'par minoralar va boshqa ajoyib yodgorliklar bizning zamonamizgacha etib kelgan. BO' muhtasham imoratlarining fasadlari rang-barang sirli naqshlar bilan bezatilgan. eshik, darvozalar o'ymakorlik san'atining yuksak namunasi bo'lib, devorlariga zarhal naqshlar berilgan. Har biri san'atning noyob namunasi bo'lmish bu yodgorliklarda XIV — XV asrlardagi xalq ustalarining dahosi, benihoya go'zal yodgorlik-lar bunyod etgan me'morlarning tengi yo'q mahorati o'z aksini topgan. Bu erda Samarqanddagi «Bibixonim masjidining, «Go'ri Amir» maqbarasining rasmlari qo'yilgan.

1428 yilda Samarqandga yaqin KO'xak tepaligida Ulug'bekning ko'rsatmasiga binoan SHarqda eng katta observa — rasadxona qurilgan edi. Bu katta binoning ichkarisiga osmon gumbazi chizilgan edi. Undagi asosiy asbob er ostida qurilgan astronomiya asbobi — sekstant edi.

Samarqand olimlari osmon yoritkichlari harakatini kuzatib Ulug'bek rahbarligida «Ziji jadidi ko'ragoniy» jadvalini tuzganlarki, bu jadval o'sha vaqtlarda ma'lum bo'lgan jadvallardan yuksak darajada aniqligi bilan farq qilgan. SHuning uchun XVII asrda Evropada chizilgan ramziy graviyurada Ulug'bek astronomiya homiyasi — Uraniya yonidan faxrli o'rin olgan.

Ulug'bek ilm-fan homiysi edi. Buxoro madrasasida o'yib yozilgan uning «Bilim olishga intilish — har bir musulmon va muslimaning burchidir» shiori ruhoniylar va feodallarning

g'azabini keltirgan edi. SHuning uchun ular Ulug'bekning o'g'li Abdullatifga otasiga qarshi isyon qo'zg'atishga yordam berdilar. 1449 yilda feodallar va ruhoniylarning ig'vosi bilan Ulug'bek o'ldirildi. Muzeyda Samarqanddagi «Ulug'bek rasadxonasi»ning V. A. Nil'sen tomonidan ta'mirlangan umumiy ko'rinishining rasmi qo'yilgan.

1941 yilda Davlat komissiyasi Temur, uning o'g'illari va nevaralarining mozorlarini ochib ko'rdi. SHu komissiya a'zolaridan antropolog olim M. M. Gerasimov ularning bosh suyaklari asosida qiyofalarini tikladi. Temur va uning nevarasi — falakiyotshunos Ulug'bekning haykal surati diqqatga sazovordir. M. Gerasimov tomonidan tiklangan Temur va Ulug'beklarning hdykal suratlari tartib bilan muzey ekspozitsiyalari qatoridan joy olgan. Bulardan tashqari, «Ulug'bek jahonning mashhur astronomlari orasida» degan (XVII asr) gravyura ham qo'yilgan.

Muzeyda A. Abdullaev chizgan ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy (1441 — 1501) ning rasmi ham bor. Uning faoliyati Xurosonning XV asr ikkinchi yarmi madaniy hayoti bilan uzviy bog'liqdir. Uning ajoyib lirik she'rlar to'plami «CHor devon» ayniqsa, mashhur «Xamsa»si va boshqa juda ko'p asarlari jahon madaniyatiga qo'shilgan bebaho hissadir. Navoiy asarlari o'sha vaqtning eng yaxshi rassomlari, jumladan, «SHarq miniatyurasining piri» Behzod miniatyuralari bilan bezalgan.

Mashhur o'zbek olimi, shoiri va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur (1483 — 1530) miniatyurasi o'ziga diqqatni jalb etadi. Uning kalamidan kamol topgan «Boburnoma» qadimiy o'zbek nasriy janrida shoh asar, deb e'tirof etilgan.

Turkistonda dehqonchilik madaniyati boshqa sohalaridan ancha orqada qolib, asosiy ish qurollari omoch, mola, ketmon va shu kabilar edi. Dehqonlarning ko'pchiligi kam erli va mutlaqo ersiz bo'lib, ular boylardan ijaraga er olishga majbur edilar. Ular chorikor deyilar edi. O'lkada ko'p shug'ullaniladigan hunarlardan biri to'quvchilik edi. Lekin to'qish usuli juda sodda bo'lsa ham maxsus malaka talab qilardi. Kosiblar 16—18 soat zax do'konda o'tirib, atigi 4 — 6 gaz bo'z to'qib, mehnatiga nihoyatda kam haq olardilar.

Kulolchilik, chilangarlik, ko'ncilik ham ancha taraqqiy etgan edi. Ayrim rayonlar o'z mahsulotlari bilan: Buxoro — turli-tuman matolari bilan, CHust — pichoq-xanjarlari bilan, G'ijduvon — idish-tovoqlari, bilan mashhur edi. Muzeyga rassom V. I. Evenko juda jonli qilib chizgan «Jafokash dehqon» degan rasm va to'quvchining dastgohi bilan olingan mulyaj qo'yilgan.

«Turkiston chor Rossiyasi tarkibida» deb nomlangan uchinchi, bo'lim «Uyg'ongan SHarq» fotolavhasi bilan boshlanadi.

Turkiston xalqlari hayotining ba'zi bir xususiyatlari o'rta hol dehqon uyining muzeyda tasvirlangan ichki ko'rinishida to'liq ko'rsatilgan. Uy odatda poydevorsiz va xom g'ishtdan qurilar va devorlari somon suvoq qilinardi. Uyning ichki devorlarida ro'zg'or buyumlari — idish-tovoq uchun tokchalar bo'lardi. Uy o'rtasida sandal, chor atrofiga ko'rpachalar yozilardi. Dahlizda o'choq, hovlida tandir bo'lardi. Muzeydagi bu manzara hayotda qanday bo'lsa, xuddi o'shanday qilib tasvirlangan.

O'rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan so'ng bu chekka o'lkaning tabiiy boyliklari, tarixi, madaniyatini o'rganish uchun o'zgacha sharoit tug'ildi. Bu erga Rossiyaning jasur va iste'dodli olimlari boshchiligidagi ilmiy ekspeditsiyalar yuborildi. Ularning birinchi qatorida O'rta Osiyoning mashhur tadqiqotchilari N. A. Severtsev, A. P. Fedchenko, I. V. Mushketov, V. V. Bartol'd bo'lganlar.

Muzeyda V. V. Bartol'd, A. P. Fedchenko, N. A. Severtsov, Zokirjon Furqat, Muhammad Aminxo'ja Muqimiylarning rasmlarini ko'rasiz.

«XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston xalqlari madaniyati» mavzusini o'tayotganda o'qituvchi Turkiston xalqlari madaniyati juda yuksak darajada rivojlangan bo'lib, ko'p ming yillik taraqqiyot jarayonini boshdan kechirganini, biroq bir necha yuz yillar mobaynida yuzaga kelgan tarixiy shart-sharoitlar, ishlab chiqaruvchi kuchlar va madaniyat rivojlanish sur'atining susayishi ularning er egaligi munosabatlari doirasidan voz kechishiga imkon bermaganligini uqtirib o'tishi kerak. Rus hukumati ham aholi turmushining an'anaviy shaklini o'zgartirishdan

manfaatdor emasdi. Chunki qiyinchiliklardan boshi chiqmagan, xalqni boshqarish oson bo'lar edi. Chorizm xalqning o'qib, ko'zi ochilishidan qo'rqr, shuning uchun musulmon ruhoniylari yordamida o'lkada jaholat va mutaassiblikni saqlab qolishga harakat qilardi. O'qituvchi millionlab mehnatkashlarni madaniyatdan, ziyodan, bilimlardan mahrum etgan chorizmning teskarichilik siyosatini fosh etish bilan birga xalq ommasini ma'rifat, ziyo va bilimdan bu qadar mahrum qilingan bunday hech bir mamlakat qolmaganini ta'kidlashi zarur. SHu bilan birga, mahalliy aholi Rossiyadan ko'chib kelgan hunarmand va dehqonlardan sanoat ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligining yangi texnikasini o'zlashtirar edi.

Bosmaxona va litografiyaning paydo bo'lishi O'rta Osiyo aholisining madaniy hayotida muhim voqea bo'ldi. Yirik shaharlarda mahalliy tillarda gazetalar, jurnallar, kitoblar chop etila boshladi. O'tgan asrning 80- yillarida A. S. Pushkin va M. A. Krilov asarlaridan ayrimlari o'zbek tiliga tarjima qilindi. 1870 yilda falakshunoslik rasadxonasi va kimyogarlik laboratoriyasiga asos solindi. 1880 yilda Toshkentda birinchi marta jamoat kutubxonasi ochildi. SHarqshunos olimlar qator ilmiy jamiyatlar tuzdilar, tarixiy, arxeologik muzeylar, nabotot bog'i ochildi, shifoxonalar qurildi, chechak va boshqa kasalliklarga qarshi emlash yo'lga qo'yildi.

Musulmonlar orasida qadimiychilik va jadidchilik tus ola boshladi. Turkiston burjuaziyasi orasida jadidlik harakati keng tarqaldi (jadid arabcha so'z bo'lib, yangi usul. degan ma'noni bildiradi). Jadidlar yangi usuldagi maktablar tuzish dasturini olg'a surdilar, bu maktablarda asosan turkiy til va teologiya (din asoslari) asosiy dars hisoblanardi.

Samarqand, Toshkent, Buxoro, CHorjo'y, Termizda jadidlar birlashmasi tashkil qilindi. Toshkent, Buxoro va Samarqandda ular gazetalar ham chiqara boshladilar. Jadidlar xalqni ma'rifatga chaqirdilar, M. Behbudiy, A. Fitrat, CHO'lpon, Hamza, A. Qodiriylar bu borada faollik ko'rsatdilar.

Turkiston harbiy-ershunoslik bo'limiga 1867 yilda asos solinib o'lkaning er usti tuzilishini suratga olish bo'yicha katta ishlar qilindi. Bu bo'lim olimlari tomonidan O'rta Osiyoning birinchi bosh xaritasi tuzilgan edi.

Turkiston tabiiy boyliklarini ilmiy jihatdan o'rganishga sharqshunos olimlar ancha hissa qo'shdilar. 1870 yilda tabiat, antropologiya va etnografiya havaskorlari rus jamiyatining Turkiston bo'limi ochildi. N. A. Severtsov, I. V. Mushketov, V. F. Oshaninsingari mashhur olimlar bu jamiyat a'zolari edilar.

1864—1882 yillarda O'rta Osiyo hududlari va tabiiy boyliklarini o'rganishga Sankt-Peterburg Fanlar akademiyasini boshqargan geograf F. P. Litko katta hissa qo'shdi. U 1873 yilda O'zbekistonda birinchi ilmiy muassasa — Toshkent falakshunoslik va tabiatshunoslik rasadxonasi tashkil etishda jonbozlik ko'rsatdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida P. P. Semyonov Tyan'shanskiy Tyan'-SHan' tog' tizmalari katta qismining tarkibi va tuzilishi haqida dastlabki qimmatli ma'lumotlarni chop ettirdi. Uning xizmatlari sharafiga Issiqko'l sohilida birinchi haykal o'rnatilgan. A. P. Fedchenko Farg'ona vodiysining o'simliklar dunyosini tadqiq etishda ko'p ishlar qildi va o'lka o'simlik boyligining yangi manbalarini ochdi.

I. V. Mushketov G. D. Romanovskiy bilan birgalikda Turkiston o'lkasining birinchi er usti xaritasini tuzdi. I. V. Mushketovning oltin, temir ma'dani, qoramoy, ko'mir singari ko'plab qazilma boyliklarni kashf etishi, keyinchalik O'rta Osiyo jumhuriyatlari tabiiy boyliklarining o'zlashtirilishi 74 yil mobaynida Rossiya imperiyasining shu boyliklarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlab keldi.

SHarqshunos, yirik muarrix akademik V. V. Bartol'dning Turkiston o'lkasi tarixi va urf-odatlarini, elini o'rganish asosida yozgan «Ettisuv tarixidan lavhalar», «Turkistonning sug'orilish tarixi» kabi o'nlab kitoblari O'rta Osiyo xalqlariga bag'ishlangan.

O'rta Osiyoda ilkiy tadqiqotlar olib borgan sharqshunos olimlarning fanga qo'shgan hissalaridan ayrimlarinigina keltirdik, xolos deb o'qituvchi o'z nutqini yakunlaydi.

O'qituvchi 1917 yilgi fevral' burjua-demokratik inqilobi natijasida ikki hokimiyatchilikning vujudga kelishi, o'sha kunlarda turkistonlik mardikorlar, ishchi va askar deputatlar namoyishlar, so'ngra majlislar uyushtirganliklarini aytib, bu namoyishlar boshida

o'zbek mardikori eshonqul Mirjamolov turganligini aytishi kerak. U Samarqandga kelgach, bu erda «Zahmatkashlar ittifoqi» rahbarlaridan biriga aylanadi. 2 iyunda SHayxontohurda 800 kishi qatnashgan mardikor ishchilar majlisi bo'lib, u kelajakka umid shiori ostida o'tadi.

Toshkent mahalliy ishchilarining 1917 yil 14 mayda bo'lgan majlisida Musulmon mehnatkashlari, ishchilar deputatlari Sovetining Nizomi tasdiqlandi. Nizomga muvofiq tashkiliy byuro 15 iyulda bo'lgan yig'ilishda Toshkent, shahar Musulmon ishchi vakillari Sho'rosini saylash taklif qilindi. Unga 32 kishi saylandi. Ijroiya komitet 8 kishidan iborat bo'ldi. Uning boshlig'i qilib Salohiddin Muftizoda saylandi. 1917 yilning yozida Toshkentning eski SHaxarida 12 kasaba komiteti tuzildi. Unga Sultonxo'ja Qosimxo'jaev rais bo'ldi.

O'sha yilning avgust oyi boshlarida Andijon shahrida musulmon hunar ahlining «Sanoyi «ul-islom» kengashi tuzildi. Unga 1500 kishi a'zo bo'lib kirdi.

Toshkentda «Xurshid», «Sadoyi Turkiston», «Turon», «Turk eli», «Najot», «Kengash», «Sho'royi islom», Samarqandda «Oyna», «Hurriyat», Buxoroda «Turon», «Buxoroyi SHarif», Qo'qonda «Sadoyi Farg'ona», «Tirik so'z» gazetalari, «Hurriyat» jurnali, Farg'onada «Farg'ona nidosi» gazetasi chiqa boshladi. Ularda xalqning siyosiy faol bo'lishi ta'kidlandi.

1917 yil 23 iyulda Qo'qonda Farg'ona viloyati musulmon mehnatkashlari qurultoyi bo'ldi. 25 iyulda Marg'ilon mehnatkashlari Sho'rosi majlisi bo'lib, u «Farg'ona ishchi va askar deputatlari Sho'rosidan Marg'ilon shahri militsiyasining butun tarkibini front orqasidan qaytib kelgan mahalliy kishilar bilan almashtirishni» iltimos qildi.

Ammo bolsheviklar 1917 yil iyul' voqealaridan so'ng partiya VI s'ezdi dasturlari asosida ommani zo'r berib qurolli qo'zg'olonga tayyorlab bordilar.

O'qituvchi 28 oktyabrda Toshkentda qurolli qo'zg'olon boshlangani va 1 noyabrda Turkistondagi Muvaqqat huqumat ag'darib tashlanib, Toshkentda hokimiyat Sho'rolar qo'liga o'tgani va Turkiston o'lkasining boshqa shaharlarida ham hokimiyat birin-ketin bol'sheviklar qo'liga o'tganini uqtiradi.

Ayniqsa, xalq kutgan maqsadlar ro'yobga chiqmagan Turkiston xalqlarining 1918—1920 yillarda milliy-ozodlik va erk uchun olib borgan kurashlari, Sho'rolarning milliy siyosatdagi xatoliklari va ularning oqibatlarini muzey materiallarida deyarli yoritilmagan.

1924 yilda drama teatrining bir guruh ijrochilari: M. Uyg'ur, A. Hidoyatov, S. eshonto'raeva va boshqalar Moskvaga o'qishga yuborildi. Ular E. Vaxtangov rahbarligida o'qidilar. O'zbek drama teatri sahnasida N. V. Gogolning «Revizor», D. Furmanovning «Isyon», V. Ivanovning «14 — 69 bronepoezd», SHekspirning «Gamlet» va «Otello» asarlari qo'yilganligi o'zbek xalqining san'ati naqadar o'sganligidan dalolat beradi.

Moskvada 1937 yil 21 maydan 30 maygacha o'tkazilgan o'zbek adabiyoti va san'ati dekadasi respublikada qisqa muddat ichida madaniyat sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishilganligini ko'rsatdi. Hamza nomidagi o'zbek Davlat akademik drama teatri, O'zbekiston Davlat filarmoniyasi hamda Muqimiy nomidagi o'zbek muzikali drama va komediya teatri Mehnat Qizil Bayroq ordenlari bilan mukofotlandilar. O'zbekiston misolida mustamlaka zulmidan ozod bo'lgan mamlakatda madaniyat naqadar tez o'sganligi katta namoyish qilindi.

Dastlabki besh yilliklar mobaynida o'zbek xalqi sanoatni rivojlantirishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. O'zbekiston sanoatining strukturasi tubdan o'zgardi: sanoatning qishloq xo'jalik mashinasozligi, mineral o'g'it ishlab chiqarish, kon sanoati, to'qimachilik sanoati kabi yangi tarmoqlari vujudga keldi. Quvasoy tsement-ohak kombinati, Toshkent to'qimachilik kombinati, CHirchiq ximiya kombinati, «Tashsel'mash» zavodlari qurildi. «Tashsel'mash»ning ishga tushirilishi bilan ko'plab qishloq xo'jalik mashinalari ishlab chiqarila boshladi. O'rushdan oldingi ikki besh yillikda O'zbekistonda 400 ta yangi korxona qurilib ishga tushirilgandi. Muzeyda o'sha birinchi besh yillikda Toshkentda qurilgan birinchi elektr elevatorining rasmini ham ko'rish mumkin.

Ulug' Vatan urushi qahramoni general-mayor Sobir Rahimon (1902—1945) g'oyat iste'dodli va jasur harbiy sarkarda, birinchi o'zbek generali edi. 1945 yil mart oyida general S. Rahimov diviziyasi Boltiq bo'yidagi katta port shahri Gdan'skka yaqinlashadi. SHiddatli janglar vaqtida u og'ir yaralanadi. S. Rahimov jangovar postda, Vatan ozodligi va mustaqilligi yo'lida

o`zini qurbon qildi. U jangovar xizmatlari uchun ikkinchi darajali Suvorov ordeni, to`rtta jangovar Qizil Bayroq ordeni, Qizil Yulduz ordeni va «Kavkaz mudofaasi uchun» medali bilan mukofotlangan edi. O`zbekiston tarixi muzeyida general-mayor Sobir Rahimovga bag`ishlangan maxsus burchak tashkil qilinib, bu erda uning harbiy kiyim-kechaklari, qurol-aslahalari va pixsiy hujjatlari, fotosuratlari qo`yilganki, ularning hammasi yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta daliliy hujjat bo`lib xizmat qiladi.

1941 yil dekabrda O`zbekistonning birinchi prezidenti YO`ldosh Oxunboboev boshchiligidagi birinchi O`zbekiston delegatsiyasi frontga jo`nab ketdi. Delegatsiya a`zolari bilan suhbatda general L. A. Govorov bunday deydi: «Qabih dushman Moskvaga yaqinlashib, Moskva xavf ostida qolganda... bizlar o`z pozitsiyamizda mustahkam turdik. Biz butun sovet xalqining, shu jumladan, o`zbek xalqining doimiy yordami va qo`llab-quvvatlashini sezib turdik. Qorli Moskvadan quyoshli O`zbekistongacha — minglarcha kilometr. Ammo bu masofa bizni ajrata olmaydi. Biz bilamizki, siz bizlargayaqin va azizdirlarsizlar, biz ham sizga yaqin va azizdirmiz». Mana shu so`zlar «O`zbekiston delegatsiyasi G`arbiy frontda», «General-leytenant L. A. Govorov O`zbekistonning birinchi prezidenti YO`ldosh Oxunboboev bilan» degan panno ostiga yozib qo`yilgan.

1943 yil 24 sentyabrda urush qiyinchiliklariga qaramay, O`zbekistonda Fanlar akademiyasi tashkil etildi. O`nga 23 ta ilmiy-tadqiqot institutlari kirdi, urush vaqtida O`zbekistonga ko`chirib keltirilgan Moskva, Leningrad, Kiev, Xar`kov olimlari respublika olimlariga katta yordam berdilar. O`sha yillarda O`zbekistonda 43 ta oliy o`quv yurti bo`lib, undagi studentlar soni 21 027 kishini tashkil qilgan edi. 52 ta texnikumda esa 10 068 o`quvchilar o`qirdi. Muzeyga Xalq Komissarlari Sovetining O`zbekiston Fanlar akademiyasini tashkil etish haqidagi qarorining fotosurati qo`yilgan.

O`zbekistonda gaz konlari asosan Buxoro-Xiva, Farg`ona va Surxondaryo rayonlarida joylashgan. Gazli koni jumhuriyatimizdagi eng yirik konlardandir. Muzeyda gazoprovod o`tkazish tasvirlangan rasm bor.

O`zbekistonda qishloq xo`jaligini rivojlantirishning negizlaridan biri kompleks mexanizatsiyalashtirishdir. Respublika jamoa xo`jaliklari tobora ko`proq yangi texnika bilan qurollantirilmoqda. Masalan, Sirdaryo viloyatida yangi tuzilgan «Sayxun» jamoa xo`jaligining bir o`zidagina 60 ta paxta terish kombaynlari ishlaydi, qo`riq erlarda tuzilgan kolxozlarda esa 600 dan ortiq paxta teruvchi zangori kemalar ishlamoqda.

Urushdan keyingi yillarda qishloq xo`jaligini rivojlantirishda asosan paxtachilikni yanada yuksaltirish ko`zda tutilgan edi. Mirzacho`lni o`zlashtirish ishlari boshlanib, yangi paxtakor rayonlar vujudga keldi. 1963 yilda Sirdaryo viloyati tuzildi. 1960—1965 yillar mobaynida bu erda 37,4 ming gektar qo`riq va bo`z erlar o`zlashtirilib, ekin maydoniga aylantirildi.

Toshkent chinni zavodi o`zining xilma-xil maxsulotlari bilan shuhrat qozondi. Milliy naqshlar solingan idish-tovoqlarga, shuningdek, yubileylarga hamda muhim voqealarga atab ishlangan boshqa har xil sovg`alarga qiziqish katta. Juda ajoyib va nozik did bilan ishlangan Toshkent chinni zavodi mahsulotlaridan namunalar muzeyda o`z aksini topgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, muzey materiallari o`lkamizdagi qadim zamonlarda yaratilgan eng noyob yodgorliklar va keyingi davrda qo`lga kiritilgan muvaffaqiyatlarni namoyish qilish bilan keng mehnatkash ommani, shu jumladan, o`quvchi va studentlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishiga xizmat qiladi.

Rivoj topgan muzeylar tarix va madaniyat yodgorliklarini targ`ib qiladigan muhim maskanlarga, oqil va fozil kishilar asarlarining, eng nodir qo`lyozmalarining xalq ustalari yasagan buyumlarning xazinalariga aylandi. Hozir respublikada 31 ta davlat va 150 ta xalq muzeyi bor. Ularning fondida O`zbekiston xalq ustalarining nodir asarlari alohida o`rin olib turibdi.

Samarqand, Buxoro, Xivadagi ulug`vor me`morchilik asarlari, O`zbekistonning hozirgi zamon arxitekturasini, muzeylarning boy fondi, voqeligimizning o`zi kishilarimiz uchunгина emas, ko`pgina chet ellardagi kishilar uchun ham katta jozibador kuch bo`lib qoldi. Keyingi yillarning o`zidagina O`zbekistonni 520 mingdan ziyod ajnabiy va 840 ming turistlar kelib

ko`rdilar. SHu vaqt ichida davlat muzeylarining o`zini 19 millionga yaqin kishi kelib tomosha kildi.

Yodgorliklar mafkura ishining ta`sirchan vositasidir. Bu yodgorliklar hamisha safda, ko`z o`ngimizda, ularni istagan vaqtda borib ko`rish mumkin. Binobarin, har bir yodgorlik to`g`risida g`amxo`rlik qilinishi, unga e`tibor berilishi, u yaxshi holatda saqlanishi va o`rganilishi lozim. Bu ishga ko`proq maktablarda o`lkashunoslik ishini olib boruvchi rahbar — tarix geografiya va inson va jamiyat fanlari o`qituvchilari tortilmog`i darkor.

O`lkashunoslik to`garagini tashkil etish

O`quv-tarbiya ishlarining saviyasini bugungi kun yuksak talablari darajasiga ko`tarishda o`lkashunoslik to`garagi katta ahamiyatga ega. Tarixiy o`lkashunoslik to`garaklari va muzeylarining o`rta va oliy o`quv yurtlari tarix fakul'tetlari qoshida tashkil etilishi va bu ishga maktab o`qituvchilar jamoasi, yoshlar va ota-onalar qo`mitasi xamda talabalar keng jamoatchiligining jalb qilinishi uning ishlarini yaxshi yo`lga qo`yishga yordam beradi.

Maktabda o`lkashunoslik to`garagini tashkil etish o`quvchilarning o`z o`lkalarini chuqur o`rganishlariga katta yordam beradi.

1. O`lkashunoslik to`garagini tashkil etish

O`lkashunoslik to`garagini tashkil etishdan oldin ana shu muhim va murakkab ishga rahbarlik qila oladigan, o`lkashunoslik ishini chin ko`ngildan sevadigan va bu sohada etarli bilim va malakaga ega bo`lgan mutaxassisdan rahbar tanlash va uni maktab o`qituvchilar Kengashida tasdiqlab olish zarur. Bu ancha qiyin masala. O`lkashunoslik to`garagining bo`lg`usi rahbari nimalarni yaxshi bilishi kerak? eng avvalo, u o`lkashunoslik nima va u nimalarni o`rganadi va nimadan bahs etadi, o`lkashunoslikning manbalari, ob`ektlari qaysilar, 1917 yilgacha undan keyin o`lkashunoslikning rivojlanish bosqichlari, turlari, tarixiy o`lkashunoslikning ilmiy-nazariy va uslubiy asoslari va boshqalarni juda yaxshi bilgan va tushunib olgan bo`lishi kerak.

Binobarin, ana shularni o`rganib olmasdan turib o`lkashunoslik soxdsida ma`lum bir natijaga erishib bo`lmaydi.

O`lkashunoslik to`garagi ishi uning quyidagi asosiy manbalarini o`rganishdan boshlanadi. Darslikda bayon qilinganidek, dastavval o`lkashunoslik haqida qisqacha ma`lumot beriladi; o`lkashunoslikda arxeologiya, etnografiya, toponimikaning roli va ahamiyati ochib beriladi; o`lkashunoslikning asosiy manbalaridan biri arxivshunoslik, muzey eksponatlari xaqida batafsil tushuncha hosil qilinadi. XO`sh, bu manbalarining har biri qanday masalalar bilan shug`ullanadi? Demak, ish o`lkashunoslikning birinchi manbai arxeologiya nima degan savoldan boshlanadi.

«Arxeologiya» so`zi lotin tilidan olingan bo`lib «arxayos» — qadimgi, «logsk» — fan degani, ya`ni qadimiylilikni o`rganadigan fan ma`nosini anglatadi. Dastlab bu atamani milodimizdan avvalgi IV asrda Platon (Aflotun) o`zining «Gippiy» dialogida qadimgi zamon haqidagi fan sifatida tilga olgan. Bu fan Evropada ancha qadimdan rivojlanib kelayotganligi, rus arxeologiyasi haqida qisqacha so`z aytish bilan birga, O`rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingach, O`rta Osiyo, shu jumladan, O`zbekiston hududida ham sharqshunos olimlar, havaskor arxeologlarning olib borgan bu sohadagi ishlari bilan tanishtiriladi. SO`ng boshqa fanlar qatori arxeologiya fani ham keyingi davrda rivoj topgani, O`zbekistonda arxeologiyaning vujudga kelishida, rivojlanishida rus sharqshunoslarining ko`rsatgan beqiyos xizmatlari, mahalliy arxeologlarning olib borgan ishlari, hozirgi kunda o`zbek arxeologlarining ulkan yutuqlari to`g`risida to`garak rahbari batafsil gapirib berishi kerak.

To`garak rahbari arxeologiya — qazish yo`li bilan topilgan tarixiy manbalar asosida insoniyatning uzoq o`tmishi o`rganilishini aytib berish bilan birga, u qanday olib boriladi? Arxeologiya qidiruv ishlarining qanday turlari bor? Qazish ishlarini tashkil etish tartiblari qanday? degan savollarga javob beradi. Arxeologlar o`rganadigan predmet, ob`ektlar haqida tushuncha beradi. SO`ng arxeologiyaga yaqin va uni aniqlashda bevosita ishtirok etadigan fanlar ustida to`xtaladi. Masalan, tosh, metall, sopol va yog`ochdagi yozuvlarni o`rganuvchi soha

epigrafika, tanga pullarni o'rganadigan soha numizmatika, muhrlarni o'rganadigan soha sfragistika, gerblarni o'rganadigan geraldika kabi arxeologiyaning bir qancha soxdlarini dalillar bilan tushuntirib berishi lozim.

Arxeologiya tarixga oid fan bo'lishi bilan birga to'garak rahbari izohlab bermoq uchun geologiya, botanika, zoologiya va antropologiya ma'lumotlaridan foydalanadi va shu bilan birga o'zi ham o'sha tabiiyot fanlariga qimmatli materiallar beradi, topilgan materiallarning ayniqsa «yoshini» aniqlashga yordam beradi.

O'lkashunoslikning ikkinchi manbai entografiyaga kelsak u o'tmishda va hozirda xalqlarimizning milliy xususiyatlari, urf-odatlar, madaniyatiga doir ma'lumotlarni xmda millatlarning kelib chiqishlariga, ularning moddiy va ma'naviy madaniyatining o'sib borishiga doir materiallarni o'rganadi.

Etnografiya so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, «etnos» — xalq, «grafeyn» — yozmoq yoki yozaman degan ma'noni anglatadi. Bu fan xalqshunoslik fani deb ham yuritiladi. Demak, etnografiya fani xalqimizning o'tmishidan boshlab to hozirgi kungacha saqlanib kelayotgan urf-odatlar, moddiy va ma'naviy madaniyat, turmush tarzi va millatlarning kelib chiqishi muammosi (etnogenez), ularning o'zro aloqalari va boshqalarni o'rganadi.

O'lka tirixini o'rganishning asosiy manbai bo'lgan toponimikachi? U nima degani? Qanday masalani o'rganadi? Bu so'z xam lotin tilidan olingan bo'lib, ikki so'zning birikmasidan tashkil topgan, ya'ni «topos» — joy, «onoma» yoki «onima» — nom, demak joyning nomi o'rganiladigan fan degan ma'noni bildiradi. Greklar. bu, fanni «er tili» deb ham ataydilar. Masalan: Sariosiyo — bosh tegirmon, Taxta-pul — taxta ko'pri, Jizzax — diz (jiz) — qal'a, ak kichraytirish affiksicha, ya'ni qal'acha demakdir. Har qanday til leksikasi qator manbalar hisobiga boyib boradi. Ana shunday manbalardan biri yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek toponimikadir.

Toponimlardan nom olgan buyumlar, o'simlik, xayvonlar shu qadar ko'pki, ba'zan xatto ularning etimologiyasi to'g'risida o'ylab ham o'tirmaymiz. Qo'qon arava, buxori qovun, chust do'ppisi yoki pichog'i kabi so'zlarda o'sha joyning nomlari esga kelishi mumkin.

Demak, toponimika qishloq, tuman, shaharlarning nomlarini iqtisodiy, sotsial, siyosiy hayotdagi o'zgarishlar zaminida o'rganadi. O'qituvchi-rahbar toponimlar xaqida gapirayotganida uning bevosita tilshunoslikka oid bo'lgan va toponimlar deb hisoblangan quyidagi terminlari haqida ham to'xtalib o'tishi zarur, chunki o'quvchilar material yig'ish jarayonida mana shunday terminlarga ham e'tibor beradigan bo'ladilar. Masalan, antroponim so'zi — lotin tilidan olingan bo'lib, «antropo» — odam, «onoma» — nom, kishi ismi, laqabi, familiyasi demakdir; antroponimika — kishi ismlarini o'rganadigan fan. Gidronim — grekcha — «gidro» — suv, «onoma» — nom, suv ob'ektlarining, masalan, kanal, ariq, anhor, daryo, soy, jilg'a, irmoq, buloq, quduq, dengiz, ko'l va qo'ltiq, bo'g'oz, sharsharalarning nomlarini o'rganadi.

Diminutiv — lotin tilidan olingan so'z bo'lib, kichraytirilgan shakldan toponim yasalishi demakdir. O'zbekistonda -cha va -ak ba'zan -ik affikslari diminutiv shakldagi toponimlar yasaydi; bunday toponimlar otlardan (-Hisorak, Xumdonak, Rudak), sifatlardan (Ko'kcha, Oqcha, Qoracha, Saricha), etnonimlardan (DO'rmoncha, Naymancha) yasalishi mumkin. Ba'zi hollarda esa biron toponimga taqlid qilib nom qo'yilganda ham diminutiv shakldagi toponimlar yasaladi, chunonchi Buxorocho, Samarqandak, Bag'dodik, Registonak va boshqalar.

Metateza — lotin tilyda metatesis — joy almashtirish — so'zdagi tovushlarning o'rin almashishi (Beshog'och — Bechog'osh, Sayram — Saryom).

M e tafara (grekcha — «ko'chirish») — so'zning ko'chma ma'noda ishlatilishi (Tuyatosh — katta qoya, Mingbuloq — ko'p buloq), etak — daryoning, tog'ning, soyning yoki odamning etagi, burun — odamniki, qayiqniki va boshqalar.


Metonimiya (grekcha — «qayta nom qo'yish») — toponimikada joy nomining qo'shni ob'ekt nomyga o'tishi, masalan, daryo nomining shahar nomiga aylanishi (Zarafshon daryosi — Zarafshon shahri, CHirchiq daryosi — CHirchiq shahri), daryo nomining tag' nomiga ko'chishi (Ko'ksuv daryosi, Ko'ksuv tizmasi, Vaxsh daryosi — Vaxsh tizmasi). O'zbekistonda metonimiya hodisasi juda keng tarqalgan.

Mikrotoponimiya (grekcha «mikro» — kichkina, «onoma» — nom) — kichik ob`ektlar: buloqlar quduqlar, dalalar, o`tloqlar, jarlar, yo`llar, kichik tepalar, ko`chalar va hatto atoqli otga ega bo`lgan ayrim daraxtlarning nomlari; mikrotoponimiya bilan makrotoponimiya orasida muayyan chegara yo`q, masalan, ba`zi bir tadqiqotchilar ko`chalarni makrotoponimlar desalar, boshqa birovlar makrotoponim deb hisoblaydilar. (Masalan, Siob arig`ini ayrim tadqiqotchilar siyoh ob, ya`ni qorasun desalar, ba`zilari o`ttiz, ob — suv so`zidan olingan deydilar.)

Oronimiya (grekcha «oros» — shahar, «onoma» — nom) — er yuzining rel`ef shakllari — tog`lar, cho`qqilar, qirlar, daralar, tekisliklar, jarlar nomlarini o`rganadi.

P olinimiya (grekcha — «polis» — shahar, «onoma» — nom). Urbonimiya so`zi ham lotin tilidan olingan bo`lib, «urbs» — shahar, aholi punktlari; xutor, ovul, qishloq, shaharcha, stantsiya, shaharlarning nomlarini o`rgatadigan maxsus fandır.

O`lkashunoslik to`garagining asosiy manbalaridan biri — arxiv hujjatlaridan foydalanish ekanligini o`qituvchi yana bir anyq dalillar bilan tushuntiradi.



YUqorida keltirilgan chizma masalaga ma`lum darajada aniqlik kiritadi. Demak, o`lkashunoslik o`z navbatida ikkiga, ya`ni maktab o`lkashunosligi va bolalar turistik ekskursiya stantsiyasiga bo`linadi. Maktab o`lkashunosligi darsda va darsdan tashqarida amalga oshiriladi. Bolalar turistik ekskursiya stantsiyasi ekspeditsiyalar hamda turistik poxodlar uyushtiradi. Natijada darsdan tashqari olib borilgan hamda bolalar turistik ekskursiya stantsiyalari tomonidan uyushtirilgan ekspeditsiyalar va turistik poxodlarda to`plangan materiallar maktab o`lkashunoslik to`garagida muhokama qilinadi.

Demak, rahbar-O`qituvchi o`lkashunoslikning barcha manbalari bilan o`z a`zolarini batafsil tanishtirib chiqishi shart.

O`lkashunoslik to`garagida qatnashadigan o`quvchilarni tanlashga alohida e`tibor berish zarur.

To`garakka shu ishga astoydil qiziqadigan, tarix inson va jamiyat, geografiya, adabiyot va boshqa fanlardan puxta bilimga ega bo`lgan, sinchkov, qidiruvchan, a`lochi o`quvchilar tanlab olinishi kerak.

To`garak a`zolari bilan birgalikda maqsad-rejalar haqida obdon maslahatlashib, maktabning o`lkashunoslik ishlariga bevosita yoki bilvosita aloqasi bo`lgan o`qituvchilar bilan fikrlashib chiqqandan so`ng to`garakning ish rejasi tuzilib u o`quvchilarning umumiy yig`ilishida muhokama qilinadi va bildirilgan fikr-mulohazalar hisobga olinadi.

O`lkashunoslik to`garagining ish rejasi o`quvchilar umumiy yig`ilishida muhokama qilyngach, bolalar sayohat stantsiyasi xodimlari bilan ham fikr almashiniladi.

YUqoridagi to'garak rejasi maktab o'quvchilar yig'ilishida va o'qituvchilar kengashida uzil-kesil tasdiqlangandan keyin to'garak rahbari o'z a'zolarini har bir soha bo'yicha qilinadigan ishlar xarakteri bilan tanishtirib chiqishi, yo'l-yo'riqlar va maslahatlar berishi lozim. O'lkashunoslik masalalarini aniq misollar keltirish, sayohat, suhbatlar uyushtirish yo'li bilan o'rganish kerak. O'lkashunoslik to'garagi ishi ham g'oyaviy ishning ta'sirchan vositalaridan biridir. To'garak tomonidan o'rganilayotgan yoki uning a'zolari tomonidan topilgan har bir tarixiy yodgorlik hududdagi aholining ko'z o'ngida bo'lishi, istalgan vaqtda uni borib ko'rishi, bu yodgorliklar ustida doimo g'amxo'rlik qilinishi, u yaxshi saqlanishi va shu bilan birga ta'lim-tarbiya ishida o'z aksini topa olishi lozim.

«Tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi Qonunning I moddasiga muvofiq quyidagilar tarix va madaniyat yodgorliklari jumlasiga kiradi.

Tarixiy yodgorliklarga — xalq turmushidagi eng muhim tarixiy voqealar bilan, jamiyat va davlatning rivoji, inqilobiy harakat bilan, fuqarolar urushi, Ulug' Vatan urushi bilan, ijtimoiy va texnikaviy qurilish bilan, xalqlar madaniyati va turmushining rivoji bilan, atoqli siyosiy, davlat, harbiy arboblarning, xalq qahramonlarining, fan va san'at arboblarning hayoti bilan aloqador bo'lgan imoratlar, inshootlar, esdalik joylar va boshqalar kiradi,

Arxeologiyaga oid yodgorliklarga — ko'hna shaharlar, qal'alar, qo'rg'onlar, qadimiy manzilgo'harlar, istehkomlar, korxonalar, kanallar, yo'llarning qoldiqlari, qadimiy dafn joylari, tosh xdykallar, qoyalardagi tasvirlar, qadimiy narsalar, qadimiy aholi punktlaridagi tarixiy madaniyat qatlamlari uchastkalari kiradi.

SHahar qurilishi va me'morchilik yodgorliklariga me'morchilik ansamblari va komplekslari, tarixiy markazlar, kvartallar, maydonlar, ko'chalar, shaharlar va boshqa aholi punktlarining qadimiy tuzilishi va qurilishi qoldiqlari, grajdan, sanoat, xarbiy, diniy arxitektura, xalq me'morchiligi inshootlari tabiat landshaftlari kiradi.

San'at yodgorliklariga — monumental, tasviriy, amaliy-dekorativ va boshqa turdagi san'at asarlari kiradi.

Yodgorlik hujjatlariga — davlat va davlat boshqaruv organlarining aktlari, boshqa yozma jadval hujjatlar, kino — fotohujjatlar va tovush yozuvlari, shuningdek, qadimiy va boshqa qo'lyozmalar hamda arxivlar, fol'klor va muzika yozuvlari, nodir bosma nashrlar kiradi.

Bu yodgorliklar jumlasiga tarixiy, ilmiy, badiiy qimmatga ega bo'lgan yoki boshqa xil madaniy qimmatga ega bo'lgan ob'ektlar xam kiritilishi mumkin. Mana shu materiallar tartibi bilan o'lkashunoslik to'garagi yig'ilishlarida muhokama qilinadi.

Sohalar bo'yicha ishlar qanday bajarilayotganligi to'garak mashg'ulotlarida muntazam ravishda muhokama qilib boriladi. YUqorida ta'kidlab o'tilganidek, avvalo arxeologiyaga oid materiallar juda uzoq davrlarni o'z ichiga olganligi, topilmalarni hali to'garak a'zolari yaxshi o'zlashtirib olmaganligi sababli ish mana shularni o'rnatishdan boshlanadi. Ibtidoiy jamoa tuzumining eng uzoq davrini kechirgan quyi paleolit, o'rta paleolit, yuqori paleolit (bu so'z lotin tilidan olingan bo'lib, «paloyos» qadimgi «litos» — tosh, ya'ni qadimiy tosh demakdir) davri tosh qurollarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning hali qo'pol ishlanganligi, bunday tosh qurollar oddiy toshdan emas, balki eng qattiq chaqmoq toshlardan yasalganligi tushuntiriladi. Mezolit — o'rta tosh davridagi qurollarning paleolit davridagi tosh qurollaridan anchagina farq qilishi, neolit — yangi tosh davriga kelib esa tosh qurollarning murakkablasha boshlaganligi muzeylardagi mavjud materiallar asosida tushuntirilsa, bolalar ekspeditsiya va sayohatlarga chiqqanlarida bunday tosh qurollarni oddiy yoki tabiiy toshlardan tez ajratadigan bo'ladilar.

SO'ngra o'qituvchi — rahbar eneolit — mis-tosh davri va uning qurollari haqida tushuncha beradi va ulardan namunalar ko'rsatadi. Keyin milodimizdan avvalgi III minginchi yillarga xos bo'lgan va O'rta Osiyoda keng tarqalgan bronza davriga doir materiallar bilan, asta-sekin sun'iy sug'orishga, dehqonchilikka o'tilishi munosabati tufayli shu davrga doir materiallar bilan tanishtiradi. Hunarmandchilikning kelib chiqishi, sopol idishlar davrma-davr o'rgatiladi. Natijada o'lkashunoslik to'garagi a'zolari arxeologiyaga oid materiallarni juda yaxshi ajrata oladigan yosh arxeologlar bo'lib etishadilar.

O'tmishdan to hozirgi kunga qadar hayot kechirib, mehnat qilib, o'z madaniyatini yaratgan xalqimizning moddiy va ma'naviy madaniyatini, xalqlarning kelib chiqishini, ularning tillari, urf-odatlarini o'rganadigan etnografiya haqida materiallar yig'ish va unts o'rganish juda qiziq ekanligi daliliy ashyolar asosida tushuntirilsa, student va o'quvchilar etnografiyaga oid materiallar to'plashda ham qiynalmaydilar.

O'lkashunoslik to'garagi ivdiga iloji boricha qishloq yoki maktab hududidagi ko'pchilik ommani jalb etish maqsadga muvofiqdir.

Ayniqsa, etnografiya, toponimikaga oid va qadimiy qo'lyozma kitoblar va hujjatlar to'plashda o'sha hududda istiqomat qiluvchi qariyalardan ko'proq foydalait lozim. To'garakda muhokama etilgan har bir masala maktabda o'qitilayotgan tarix inson va jamiyat fanlari oldiga qo'yilgan yuksak talablarni amalga oshirishda katta hissa qo'shadi. Ularning shu fanlardan oladigan bilimlarini mustaxkamlashga va kengaytirishga yordam beradi.

Mavzuga oid tayanch so'z va iboralar:

- | | |
|------------------------|---------------------------|
| 1. Ekspozitsiya | 5. Muzeyning ilmiy bazasi |
| 2. Statistika komiteti | 6. Muzey tiplari |
| 3. Kolleksiya | 7. eksponat |
| 4. San'at ko'rgazmasi | |

Mavzu yuzasidan nazorat savollari.

1. Muzeylarning vazifasi nimadan iborat?
2. O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi qachon tashkil topdi?
3. Muzey tiplari qanday soxalarga bo'linadi?
4. Muzey eksponatlarining o'lka tarixini o'rganishdagi o'rni va rolini ko'rsatib bering.
5. O'zbekiston Davlat san'at muzeyida qanday san'at asarlari saqlanadi?
6. Muzey materiallarini o'rganish qanday ahamiyatga ega?
7. Namangan o'lkashunos muzeyining qanday filiallari mavjud?
8. Kolleksiya deganda nimani tushunasiz?
9. Namangan viloyatidagi qanday muzeylarni bilasiz?
10. O'zbekiston Davlat san'at muzeyi qanday vujudga kelgan?
11. O'zbekiston tabiat muzeyi turli yillarda qanday nomlar bilan atalgan?
12. Respublikamiz xududida qanday tipdagi muzeylar mavjud?
13. O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyiga qachon M. T. Oybek nomi berildi?
14. Muзей bo'limlaridagi eksponatlar qanday xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda namoyish etilgan?
15. Namangan o'lkashunoslik muzeyini tashkil topishi qaysi voqea muxim rol' uynaydi?
16. Yodgorliklarni saqlash ishlariga kimlarni jalb qilish mumkin?
17. Muzeyning ilmiy bazasini nimalar tashkil etadi?
18. O'zbekiston xalqlar tarixi muzeyi kachon ochildi?
19. San'at ko'rgazmasi deganda nimani tushunasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Toshkent. «O'zbekiston» 1996 yil.

2. Karimov I. A. «O`zbekistonning o`z istiqlool va taraqqiyot yo`li». Toshkent «Uzbekiston» 1992 yil.
3. Gless YU. I, Landa L. M. «Muzey O`zbekistana» Toshkent. 1961 g.
4. Juraev N. «Agar ogoxsen» Toshkent «YOzuvchi» 1908 yil.
5. Nabiev A. «Tarixiy o`lkashunoslik» Toshkent «O`kituvchi» 1979 yil.
6. «Mustaqil izoxli ilmiy ommabop lugat». Toshkent. «SHark» 1998 yil.

9-Mavzu: Tarixiy o`lkashunoslikda arxivlarning o`rni.

Reja:

1. Markaziy davlat arxivi.

2. Viloyat, shahar, tuman arxivlari.

1. Respublika davlat arxivlari tizimiga kuyidagi arxivlar kiradi.

1. Korakalpogiston respublikasi va viloyatlar davlat arxivlari xamda ularning joylardagi organlari.

2. Respublika markaziy davlat arxivlari.

Xozirgi kunda korakalpogiston respublikasi Markaziy Davlat arxivi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Kashkadaryo, Navoiy, Namangan, Samarkand, Surxandaryo, Sirdaryo, Toshkent, Farg`ona, Xorazm viloyatlari Davlat arxivlari xamda toshkent shahar davlat arxivi mavjud. Joylarda ularning filiallari faoliyat kursatib kelmokda. Farg`ona viloyat davlat arxivi fondlari, Farg`ona viloyati va Farg`ona shahar tarixini kisman bir vaktlar Farg`ona viloyat tarkibiga kirgan Andijon va Namangan viloyatlari tarixini aks ettiradi. Margilon va Kukon shaharlarida Farg`ona viloyat davlat arxivning organlari faoliyat kursatmokda. Respublika markaziy davlat arxivlari tizimiga kuyidagi uchta arxiv kiradi.

1. O`zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi.

2. O`zbekiston Respublikasi ilmiy texnikaviy va meditsina xujjatlari markaziy davlat arxivi (1962 yilda tashkil etilgan).

3. O`zbekiston Respublikasi kinofotofono xujjatlar markaziy davlat arxivi (1943 yilda tashkil etilgan)

Toshkentdagi O`zbekiston Respublikasi MDA saklanayotgan kimmat baxo xujjatlarning soni va mohiyati jixatidan Urta Osiy respublikalari MDA ichida eng yirigidir. Unda 19 asrning ikkinchi yarimidan boshlab to xozirgi kunimizgacha bo`lgan juda kup sonli xujjatlar saklanmokda. Arxivda Turkiston general gubernatorligiga qarashli xozirgi O`zbekiston, Turkmaniston, Kirgiziston, Tojikiston va Kozogiston teretoriyasidagi viloyat-lar uездlar, volostlar muassasa va korxona xamda xamda tashki-lotlarning tarixiy faoliyatlariga doir barcha xujjatlar manashu markaziy arxivda mujassamlashtiladi. Bu xujjatlarda Turkiston-da chor xukmatining olib borgan mustamlakachilik siyosati, O`rta Osiyo xalqlarning sotsial iktisodiy axvoli tarixi xaqida ma`lu-motlar uchraydi. Arxivda turkiston ulkasidagi chor xukmatining ma`muriy tashkilotlari faoliyatiga doir xujjatlar tulaligicha saklanib turibdi. Akademik V. V. Bartolyning aytishicha bosib olingan joylardagi xonliklarning kutubxonalari va arxiv xujjatlarni saklab kolish uchun xech qanday tadbirlar kurilmagan. Ular O`rta Osiyo xalqlarining madaniyat va tarixiy yodgorliklarini saklab kolishga etarli axamiyat bnmaganlar. XIX asrning boshlaridan oldingi arxiv fondlari saklanayotgan xujjatlar uchun tuzilayotgan kursatkich 8 bulimdan iborat.

I b o` l i m «Davlat ma`muriy boshqaruv organlari» deb ataladi. U etti bobdan iborat.

Birinchi bob — «Turkiston viloyati Boshqaruv organlari» haqidagi hujjatlar (336-fondda).

Ikkinchi bob — «O`lka tashkilotlari, ya`ni Turkiston general-gubernatori kantselyariyasi, uning Soveti. Ulug` knyaz` Nikolay Konstantinovich Romanovning Boshqaruv ishlari, general-gubernatorlikdagi diplomatik — chinovliklar bo`limi, Buxorodagi imperatorning «siyosiy agentligi»ga oid hujjatlar (arxivning 1- fondida).

Uchinchi bob — «Xon hokimiyati organlari: Xiva xonligi kantselyariyasi, Buxoro qushbegisining boshqarmasi » hujjatlar i (126-fondda).

To'rtinchi bob — Sirdaryo viloyati boshqarmasi. Zarafshon okrugi boshlig'i, Samarqand viloyati boshqarmasi, Farg'ona viloyat harbiy gubernasi kantselyariyasi Boshqarmasi, davlat dumasiga saylov o'tkazish komissiyasi Sirdaryo viloyati bo'limi, qochoqlarni ishga joylash Farg'ona viloyati qo'mitasi kabi hujjatlar (17, 5, 18, 276, 19, 284, 274, 525-fondlar).

Beshinchi bob — shahar uezd, rayon va uchastka tashkilotlari deb nomlangan, unda Toshkent shahar boshqarma boshliqlari, Sirdaryo viloyati Qurama uezdi boshqarmasi, Jizzah Samarqand, Andijon, Qo'qon, Namangan, Skobelev, CHimyon va Uchqo'rg'on uezdlarining har xil hujjatlari (36, 360, 24, 21, 22, 20, 25, 300, 329, 23, 15, 349, 296, 172, 299, 320-fondlar).

Oltinchi bob — Jandarm-politsiya nazorati organlari» deb nomlangan va unda Turkiston rayonlarini himoya qilish bo'limlari, Ettisuv viloyati posyolkasidagi Vernan qidiruv punkti, Temir yo'l jandarm-politsiya bo'limi, Toshkent eski va yangi shahar politsiya bo'limlari, Andijon va Jizzax politsiya pristavlari haqidagi xujjatlar (461, 467, 677, 468, 462, 463, 464, 465, 620 va 531-fondlar).

Ettinchi bob — «Qamoqlar va qamoq qo'mitalari haqida» bo'lib, u materiallar 80, 270, 325, 75- fondlarda saqlanmoqda.

II bo'lim «O'z-O'zini boshqarish tashkilotlari va oliy martabali muassasalar» deb nomlangan. Unda Toshkent shahar dumas, shahar boshqarmasi, shahar umumiy xo'jalik boshqarmasi, Samarqand va YAngi Marg'ilon xo'jalik boshqarmasi va Toshkent meshchanlar oqsoqoli tashkilotlariga doir hujjatlar (Markaziy arxivning 718, 37, 472, 473, 277, 286 va 79-fondlarida) joylashgan.

III bo'lim «Sud va prokuror fondlari» deb ataladi. Bu bo'lim o'z navbatida 3 bobdan, ya'ni birinchi bob — oblast' sudlari, ikkinchi bob — okrug sudlari va uchinchi bob — uezd sudlari, sud ijrochisi, janjallik ishlari komissiyasi, xalq sudlari, qozilar, notariuslar haqidagi xujjatlar (127, 134, 353, 178, 122, 504, 592, 593, 129, 133, 128, 132, 318, 130, 131, 278, 350, 150 va 505 fondlar)dan iborat.

IV bo'lim «Xo'jalik-iqtisodiy tashkilotlar, muassasalar va korxonalar» deb nomlanadi va etti bobdan iborat: birinchi bob — moliyaviy bo'lim (87, 88, 89, 108, 13, 497, 475, 281-fondlar); ikkinchi bob — sanoat bo'limi (41, 241, 113 va 100- fondlar), uchinchi bob — qishloq xo'jaligi (7, 356, 104, 29, 16, 163, 614, 14, 42, 9, 78 va 12- fondlar); to'rtinchi bob — savdo-sotiq bo'limi (469, 264, 90,99, 97, 93, 98" va 214-fondlar); beshinchi bob — boj olish bo'limi (471, 121, 46, 187, 306, 185-fondlar); oltinchi bob — transport bo'limi (33, 39, 538, 102, 101 va 560- fondlar) va, nihoyat, ettinchi bob — aloqa va statistika ishlari haqidagi hujjatlar (557, 43, 44, 266, 249, 269-fondlar).

V bo'lim «Ilmiy va madaniy muassasa va tashkilotlar» deb nomlangan. O'rta Osiyo ilmiy jamiyati haqida 591-fond; Toshkent ximiya laboratoriyasi 73-fond; 1878 yili Toshkentda tashkil qilingan qishloq xo'jaligi va sanoati ko'rgazmasi materiallari (575-fond); Turkiston qishloq xo'jaligi jamiyati (103-fond); Turkiston Harbiy okrugi qoshidagi astronomiya va fizika rasadxonasi xaqidagi ma'lumotlar (70- fond); Turkiston arxeologiya havaskorlari to'g'arggi (71-fond); rus imperator geografik jamiyati Turkiston bo'limi (69-fond); imperator SHarqshunoslik jamiyati Toshkent bo'limi (361-fond); Turkiston entomolog stantsiyasi haqida (231- fond); polkovnik Serebrennikovning Turkiston o'lkasi haqida to'plagan hujjatlari (715-fond); Turkiston o'lkasidagi oliy va o'rta maktablarni boshqaruv haqidagi hujjatlar (47- fond); Sirdaryo viloyati xalq o'quv yurti direktori haqida (48- fond); Toshkentdagi 8 yillik erkaklar gimnaziyasi (50- fond); Toshkentdagi real bilim yurti (64-fond); Toshkent harbiy gimnaziyasi (51-fond); Toshkent savdo bilim yurti (56-fond); Toshkentdagi birinchi xotin-qizlar gimnaziyasi (52-fond); Toshkentdagi rus-tuzem maktabi (61-fond); Toshkentdagi birinchi razryadli quyi qishloq gidrotexnika maktabi (65- fond); O'rta Osiyo temir yo'l Bosh boshqarmasiga qarashli Toshkent temir yo'l bilim yurti (254- fond); Samarqand xotin-qizlar gimnaziyasi (55-fond); Skobelev xotin-qizlar xalq kutubxonasi (267- fond) va Turkiston xalq muzeyi haqidagi hujjatlar Markaziy arxivning 72- fondida saqlanmoqda.

VI bo`lim «Jamoat tashkilotlari» deb nomlangan va bu hujjatlar 596, 27, 81, 268, 611, 34, 8, 595, 76, 490 va 279- fondlarda saqlanmoqda.

VII bo`lim «Diniy nazorat fondi» deb nomlangan. Bu haqdagi ma`lumotlar arxivning 182, 85-fondlarida saqlanmoqda.

Ko`rsatkichga ilova sifatida VIII bo`limda geografik va shaxsiy ko`rsatkichlar, sharq tillaridagi ayrim so`z va terminlarga izohlar ham berilgan.

O`zbekiston Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan bu bebaho hujjatlar XIX asrning ikkinchi yarmidan to XX asrning boshlarigacha bo`lgan O`rta Osiyo, shu jumladan, o`zbek xalqlari tarixini, ayniqsa jonajon o`lka tarixini o`rganishda katta manba bo`lib xizmat qiladi.

Arxiv ishlari, uni tartibga solish va rivojlantirish faqat 20- yillardan keyingina to`liq amalga oshirila boshlandi. Dastlabki kunlardan boshlab arxiv ishlarini tartibga solish va qayta qurish tadbirlari amalga oshirildi. 1918 yil 1 iyunda sobiq Sovet hukumatining «RSFSRda arxiv ishlarini qayta qurish va markazlashtirish to`g`risida» deb chiqargan dekreti asosida Turkiston ASSRda, so`ng O`zbekiston SSRda ham arxiv ishlari qayta ko`rib chiqildi va markazlashtirildi.

1931 yil 20 mayda O`zbekiston Markaziy Ijroiya Qo`mitasining qaroriga asosan O`zbekiston SSR Markaziy davlat arxivi tashkil etildi. O`sha paytgacha 20 — 30- yillarga doir hujjatlar O`zbekiston SSR Markaziy arxiv ishlari boshqarmasining xar xil seksiyalarida saqlanib kelinar edi.

Tarix va madaniyat, yuridik va iqtisodiy bo`limlardagi 122 ta fondagi 188 710 ta (ed. xr.) ish yoki hujjat 1926 yilga qadar arxiv ishlari boshqarmasining 3 seksiyasida saqlanib keldi.

1924 yili O`rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi o`tkazilishi munosabati bilan Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm Sovet Xalq Respublikalari tugatilib, ularning o`rnida O`zbekiston SSR tashkil topgach, soha arxivlaridagi barcha hujjatlar O`zbekiston Markaziy davlat arxiviga topshirildi va arxiv fondlari shu hujjatlar hisobiga boyidi. SHundan so`ng, O`zbekiston SSRning barcha tashkilotlaridagi hujjatlar muntazam ravishda Markaziy arxivga kela boshladi.

Ministrlar Sovetining 1958 yil 20 noyabrdagi 750- sonli qaroriga asosan Markaziy Davlat arxivi qayta tuzilib, uning fondlari asosida o`lkani industrlash bo`limi tashkil qilindi. 1959 yilning 1 yanvariga kelib bu bo`limdagi fondlar soni 1527 taga va undagi hujjatlar soni 503 604 taga etdi. Bu esa O`zbekistonda arxiv ishlarining nihoyatda rivojlanib ketayotganligidan darak beradi. Hozirgi kunda juda ko`p sonli hujjatlar tartibga solingan, chiroyli qilib tematika asosida batartib taxlab qo`yilgan har bir fondan xech qiynalmay foydalanish mumkin bo`lgan ko`rsatkichlar, har bir mutaxassislik bo`yicha maxsus sistematik kataloglar tuzib chiqilgan. Har bir fondga obzorlar berilgan. Xullas, arxivda saqlanayotgan juda ko`p va turli-tuman sohalarga, tarmoqlarga bo`lingan bu xujjatlardan kerakligini osongina topib foydalanish imkoniyati yaratilgan. Bu bo`limda Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm Xalq respublikalari va O`zbekiston SSRning tashkil topgan davrdan boshlab to hozirgi kungacha bo`lgan, davlat, jamoat va kooperativ muassasalari, respublika ahamiyatiga molik bo`lgan tashkilotlar: sud va prokuratura organlari, ilmiy-tadqiqot, o`quv-tarbiya, madaniy-maishiy, ma`rifat va maorif, kasaba soyuz va jamoat tashkilotlari hamda ayrim shaxsiy fondlar ham mavjud.

Bu hujjatlar 1917 yil fevral' oyidan to hozirgi kungacha bo`lgan davrni o`z ichiga oladi.

Markaziy arxiv fondlaridan joy olgan bu hujjatlar faqat o`zbek xalqining tarixinigina emas, balki turkman, tojik, qirg`iz, qozoq va boshqa qardosh xalqlar tarixini ham chuqur va har tomonlama o`rganishda katta ahamiyatga egadir.

O`zbekiston Markaziy davlat arxivi fondlarida ham tadqiqotchilarning qo`li tegmagan Turkiston xalqlarining 1918—1920 yillarda olib borgan milliy ozodlik va erk uchun kurashlari. Turkiston Sho`rolar hukumatining Turkiston muxtoriyatini tan olmaganligi, uni ag`darib tashlagani va yo`q qilganligi, milliy mustaqillik uchun kurash olib borgan Qo`qon, Andijon, Marg`ilon, Namangan kabi shaharlar aholisining sho`rolar tomonidan shafqatsizlik bilan qirib yuborilganligi, milliy siyosatni amalga oshirishda sho`rolar hukumatining yo`l qo`ygan xatolari natijasida birgina Farg`ona vodiysida 180 dan ortiq shaharlarning shafqatsizlik bilan yo`q qilib yuborilganligi haqida juda qimmatbaho hujjatlar mavjud.

O'zbekiston Markaziy arxivi CHilonzor ko'chasidagi to'rt qavatli hashamatli binoda joylashgan. Bu bino arxiv saqlashga moslab qurilgan o'ning arxiv hujjatlari saqlanayotgan xonalaridan tortib, to o'quv zaligacha hozirgi zamon talabiga javob beradigan qilib jihozlangan. U erda arxiv ishini yaxshi biladigan malakali kadrlar ishlashadi, qanday material so'rasangiz aytgan vaqtigizda muhayyo qilishadi. Uning o'quv zali bilimga tashna bo'lgan odamlar bilan har doim to'la.

Arxiv hujjatlari asosida juda ko'p ilmiy ishlar qilindi. Hozirgi kunga qadar shu materiallar asosida 200 dan ortiq dissertatsiya yoqlandi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi tarmx va arxeologiya instituti ilmiy xodimlari to'rt jildli «O'zbekiston SSR xalqlari tarixi»ni arxiv hujjatlari asosida yaratdilar. «O'zbekiston xalqlari tarixi» ning uch jildligini yaratishda ham arxiv hujjatlaridan keng foydalanadilar. Nashrdan chiqqan ko'pgina yirik ilmiy ishlar shu arxiv hujjatlaridan foydalangan holda maydonga keldi. O'tgan davrda o'zbek xalqi erishgan yutuq va kamchiliklar haqida ma'lumotlar olishda arxiv materiallaridan juda ko'p foydalanildi va yirik ilmiy ishlar qilindi.

Arxiv hujjatlaridan foydalanish va o'rganishga bo'lgan qiziqish kundan kunga ortib bormoqda. Hozirgi kunlarda pedagogika institutlarining tarix fakul'tetlariga «O'lkashunoslik» kursining kiritilishi talabalarning arxiv hujjatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirdi. Ko'pgina talabalar o'zlarining kurs ishlari va diplom ishlari mana shu arxiv materiallari asosida yozmoqdalar.

Arxiv hujjatlaridan foydalanishni osonlashtirish maqsadida «Ko'rsatkich» (Putevoditel')lar nashr qilingan. Bular esa arxivda saqlanayotgan fondlarning ma'no va mazmunini ochib beradi, hujjatlarni o'rganuvchilarga qulaylik tug'diradi. Ko'rsatkich 8 bo'limdan iborat bo'lib, ular tarmoqlar va sohalarga moslashtirilgan. Har bir bo'lim va boblarda voqealar tartib bilan tavsiflangan va xronologiyaga asoslangan. Ko'rsatkichda ayrim fondlarning ilmiy jihatdan muhimligini aks ettiruvchi individual xarakteristikalar ham berilgan. Har bir individual xarakteristika to'rt qismdan, ya'ni fondning nomi, fond haqidagi spravka-ma'lumotlar, fondning tashkil qilingan vaqti va materiallarning sahifalari, fond materiali haqida annotatsiya qismlardan iborat. Ma'lumotnomadan fondning raqami, fondi saqlanayotgan ishning hdjmi, hujjat yozilgan yil, ilmiy-axborot apparatlarining hammasi ko'rsatkichga kiritilgan. Annotatsiyalar fond materiallarining asl mohiyatini, qisqacha mazmunini, faolligini ochib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivining «Turkiston ASSRning tashkil topishi» degan bo'limidagi fondlarni, shu davr uchun nashr qilingan Ko'rsatkich bo'yicha ko'rib va tanishib chiqamiz.

Ko'rsatkichning birinchi bo'limi «Turkiston hududida Muvaqqat hukumatning tuzilishi va ishchi-soldat deputatlari Soveti (oktyabrgacha)» deb nomlangan. Bunda Vaqtli hukumatning Turkiston Qo'mitasi xdqidagi hujjat (1760-fond) va Turkiston o'lkasoldat va ishchi depuutatlari Soveti (1-chaqirig'i) haqidagi hujjatlar (1613-fond) saqlanmoqda.

«Davlatning oliy organlari va davlat boshqarmalari» deb nomlangan ikkinchi bo'lim ham o'z navbatida 5 bobdan iboratdir. Birinchi bob — Turkiston ASSRning davlat organlari va davlat boshqarmalari deb atalgan hujjatlar (17, 13, 16, 25, 20, 18, 111, 39, 621, 38, 35, 606, 34, 208, 33, 37, 337, 29, 182, 184, 215, 41 va 21- fondlarda); II bob — «Buxoro Xalq Respublikasi davlat organlari» (46, 47, 48, 49, 50, 1616, 56, 57, 61, 63, 58, 62, 51, 52, 68- fondlarda saqlanmoqda); **III** bob — «Xorazm Xalq Resiublikasi davlat hokimiyati organlari va boshqarmalari»ga doir hujjatlar (71, 72, 73, 74, va 75- fondlarda); IV va V boblar — «O'zbekiston Davlat organlari va davlat boshqarmalari faoliyati»ga doir hujjatlar (87, 86, 225, 837, 1807, 85, 95, 81, 2027, 1, 9, 11-fondlarda); Adliya va sud organlari» deb nomlangan uchinchi bo'lim hujjatlari 904, 344, 343, 354, 345, 1713 va 1714- fondlarda asralmoqda.

«Xalq xo'jaligi tashkilotlari, muassasalari va korxonalarining faoliyati»ga doir to'rtinchi bo'limning o'zi xam 7 bobga bo'linadi. Birinchi bob — «Planlashtirish va statistika» deb ataladi (88, 10 va boshqa fondlarda); «Moliya» deb nomlangan ikkinchi bobdagi hujjatlar 93, 1680, 335, 634, 2086, 430, 333, 332, 436- fondlarda; «Sanoat» degan uchinchi bobdagi hujjatlar 89, 283, 103, 1977, 2117, 109, 2113, 87, 132, 1867, 1023, 2097, 2105, 2106 va 2038- fondlarda; «qishloq

xo'jaligi» deb nomlangan to'rtinchi bobdagi ma'lumotlar 90, 611, 233, 226, 674, 218, 756, 473, 301-fondlarda saqlanmoqda; «Savdo, ta'minot va tayyorlov tashkilotlari» deb atalgan beshinchi bobdagi materiallar 91, 274, 320, 701, 141, 272, 1753, 293 va 1943- fondlarda; «Transport va aloqa» bobi 233, 608, 2, 235, 244, 2085 va 5 fondlarda va nihoyat ettinchi — «Loyihalash va qurilish» bobidagi hujjatlar 169, 170, 610, 114, 2061, 2048, 2092 va 1956- fondlardan joy olgan.

Beshinchi bo'lim «Madaniy va maishiy tashkilotlar» deb ataladi va bunga oid hujjatlar ham 4 bobdan iborat. Birinchi bob — «Xalq maorifi va fan», bundagi materiallar 94, 368, 375, 374, 633, 414, 364, 632, 631, 630, 361, 2091, 2082, 743, 394, 412, 1876- fondlarda va «Matbuot» deb nomlangan boblar esa 402, 431, 155, 405, 404, 403, 408, 409- fondlarda saqlanadi. «San'at» bobidagi hujjatlar 2087, 2062, 2088, 2089 va 417- fondlarda; «Sog'liqni saqlash» sohasidagi to'rtinchi bobga doir hujjatlar 131, 350 va 2096-fondlardan joy olgan.

«Mehnat va **sotsial** ta'minot tashkilotlari» deb nomlangan oltinchi bo'limdagi hujjatlar arxivning 97, 328, 96, 419 va 421- fondlarida saqlanadi. «Kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlari» deb nomlangan bo'lim ham uch bobdan iborat bo'lib, birinchi bobga «Kasaba soyuzlar» haqidagi hujjatlar arxivning 735, 805, 20, 747, 792- fondlarida saqlanadi. «Jamoat tashkilotlari» nomli bobdagi hujjatlar 44, 245, 126, 406, 840, 423, 239, 348 va 424- fondlarga kiradi. «Sport tashkilotlarining hujjatlari» 2043, 2053, 2047- fondlarda va nihoyat «SHaxsiy fond» deb nomlangan oxirgi bo'lim 7226, 1591-fondlarda saqlanadi.

O'lkashunoslikning asosiy manbalaridan biri hisoblangan arxivshunoslik Vatan tarixini, shu jumladan, o'z o'lka tarixini har tomonlama va chuqur o'rganishda talabalarga katta yordam beradi.

SHuni ta'kidlab o'tish kerakki, respublikamizning hamma rayonlarida va oblastlarida rayon va oblast' davlat arxivlari mavjud. Rayon arxivlari o'z qo'l ostidagi barcha muassasa va tashkilotlardagi davlat ahamiyatiga ega bo'lgan hujjatlarni yig'ib oladi va ma'lum muddatdan so'ng ularni oblast' davlat arxivlariga, ular esa o'z soha va tarmoqlari bo'yicha respublika arxivlariga yoki boshqarma yoki vazirliklarga, ular xam o'z navbatida bir qancha muddat saqlaganlaridan so'ng Markaziy davlat arxivining qonun-qoidalariga rioya qilgan holda hujjatlarni tayyorlab, so'ng Markaziy davlat arxiviga topshiradi. O'zbekiston Markaziy davlat arxividagi hujjatlar o'z ahamiyatiga qarab bir umr yoki bir necha yil saqlanadi yoki akt qilib yoqib tashlanadi.

Bundan tashqari, Toshkentda respublika partiya tashkilotlari, ya'ni rayon, oblast', respublika partiya tashkilotlarining ham maxsus arxivlari mavjud. Bu arxivlarda boshlang'ich partiya tashkiloti hujjatlari saqlanadi. Bu arxivlardan tashqari yana bir necha tarmoqlarni o'z ichiga olgan arxivlar ham bor.

O'qituvchi arxiv hujjatlaridan muntazam ravishda, har bir mavzuni bayon etish jarayonida o'rinli va unumli foydalanishi uchun oldindan qaysi arxivning qanday fondidan qaysi mavzuni o'tishda qo'llash mumkin bo'lgan materiallarni aniqlab olishi zarur.

Agar o'qituvchi partiyaning agrar siyosatini o'quvchilarga tushuntirayotgan vaqtida O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivining 1, 9, 25, 29, 167, 218, 301, 473, 674, 754- kabi fondlarida saqlanayotgan 1917—1920 yillarda xalq xo'jaligini qayta qurish va tiklash, kooperativ rejani amalga oshirish uchun olib borilgan kurash, meliorativ shirkatlar va «Qo'shchilar soyuzi»ning ish faoliyati xalq xo'jaligini rayonlashtirish, irrigatsiya va suv xo'jaligini qayta qurish va takomillashtirish, erlarning meliorativ holatini yaxshilash, paxta mustaqilligi va yakka hokimligining kelib chiqish sabablari o'sha hujjatlardan foydalangan holda bayon qilinsa juda maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Buning uchun o'qituvchining o'zi arxivdan foydalanish yo'llarini yaxshi bilishi shart.

Arxiv hujjatlari har bir darsning g'oyaviy, siyosiy tomonlarini faktik materiallar bilan boyitishdan tashqari, uning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi, yosh yvloedni esa vatanparvarlik, ajdodlarimiz merosini o'rganishga bo'lgan qiziqishini ta'minlaydi.

Mavzuga oid tayanch so'z va iboralar:

- | | |
|---------------------|-----------------------|
| 5. Arxivshunoslik | 5. Muassasa arxivlari |
| 6. Davlat Arxivlari | 6. Uezd |
| 7. Volost | 7. Fond |
| 8. Bulim | 8. Akt. |

Mavzu yuzasidan nazorat savollari.

21. O`lkashunoslikni rivojlantirishda arxivshunoslikning o`rni qanday?
22. Muassasa arxivlari deganda qanday arxivlari tushunasiz?
23. Davlat arxivlarida qanday xujjatlar saqlanadi?
24. UzRMDA qachon tashkil topgan?
25. Xujjatlarni saqlash qanday tartibda amalga oshiriladi?
26. Arxivda qanday xujjatlar saqlanadi?
27. Arxiv ishlarini o`rganish qanday ahamiyatga ega?
28. O`zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan arxivlar xaqida ma`lumot bering.
29. Arxivlarni shartli ravishda nechta guruxga bulish mumkin?
30. Namangan viloyati Davlat arxivi faoliyati xaqida gapiring.
31. O`zbekiston Respublikasi ilmiy-texnikaviy va meditsina xujjatlari Markaziy Davlat Arxiv qachon tashkil etilgan?
32. O`zbekiston Respublikasi Kinofotofono xujjatlari Markaziy Davlat Arxivi qachon tashkil etilgan?
33. O`zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat O`zbekiston Respublikasi fondlarida saqlanayotgan xujjatlar turisida ma`lumot bering.
34. Rayon arxivlarida qanday xujjalar saklanadi?
35. Viloyat Davlat arxivlarida qanday xujjatlar saqlanadi?
36. Xujjatlarni saqlashda nimalarga e`tibor beriladi?
37. Shaxar yoki rayoningizdagi arxivlar xaqida ma`lumot bering.
38. Arxiv fondi deganda nimani tushunasiz?
39. Arxiv bulimlari xaqida ma`lumot bering.
40. Akt nima?

Foydalanilgan adabiyotlar:

6. Karimov I. A. Vatan sajdagox kabi muqaddasdir. Toshkent «O`zbekiston» 1996 yil.
7. Karimov I. A. Uzyuekiston istiklol va tarakkiyot yuli. Toshkent «O`zbekiston» 1992 yil.
8. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan kolsin. Toshkent. «O`zbekiston» 1996 yil.
9. Nabiev A. “tarixiy o`lkashunoslik ” T. 1979 y. “Farg`ona viloyat o`lkashunosligi” F.

